



Institute for Macroeconomic
and Regional Studies

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti

2024 yil | Faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari



**Institute for Macroeconomic
and Regional Studies**

Mundarija

Makroiqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalar	2
Hududlarni rivojlantirish	62-99
Uy-joy bozori tahlili	100-120
Ijtimoiy soha	121-176
Iqtisodiyotning real sektori	177-189
Agrosanoat	190-202
Infratuzilma	203-210



2023-yilning 9 oyi (yanvar-sentyabr) yakunlariga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlarining soni 418,7 mingga yetgan. Buning 67,7 mingtasi yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlaridir. Ularning ulushi savdoda 38,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishda 1,7 foizni tashkil qilgan.

Tahlil davrida kichik biznes subyektlarining mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti 5,3 mlrd. AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 30,1 foizini tashkil etdi. Hududlar bo'yicha eksportning eng yuqori ulushi Surxondaryo (74,7 foiz) viloyatida, eng past ulushi esa Navoiy viloyati (8,3 foiz) da qayd etildi.

Mamlakat bo'yicha kichik tadbirkorlikning eksportdagi ulushi 2,7 foiz punktiga ortgan. Hududlar bo'yicha Surxondaryo (15,7 foiz punkti), Farg'ona (19,4 foiz punkti) viloyatlari va Toshkent (7,1 foiz punkti) shahrida eng yuqori o'sish kuzatildi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 2022-yilning 9 oyidagiga nisbatan 1,7 foiz punktiga yuqori bo'ldi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 47,2 foizni tashkil qildi.


2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 118,1 trln. so'mni tashkil qilgan. Bu 2022-yilning mos davridagiga nisbatan 113,8 foiz ko'p demakdir. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi esa 119,1 trln. so'mga yetgan va 115,5 foiz o'sish ta'minlangan. Bajarilgan qurilish ishlari hajmi 80,0 trln. so'mga yetgan va o'sish sur'ati 105,9 foizni tashkil qilgan. Xizmatlar sohasi hajmi 155,2 trln. so'mni tashkil qilgan va 105,3 foizga oshgan.

Iqtisodiyotda ayollar rahbarlik qilayotgan kichik biznes subyektlarining hissasi tobora oshib borayotganini alohida qayd etish joiz. Hududlar bo'yicha Toshkent shahrida ayol rahbarlar boshqaruvi ostidagi kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi 27,9 foizni tashkil etishi anqilandi. Undan keyingi o'rinlarni Toshkent (12,8 foiz), Samarqand (8,4 foiz) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi (6,6 foiz) egallaydi.

KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI

(2023-yilning 9 oyi yakunlari bo'yicha)

Ko'rsatilgan xizmat turlarining ulushi (%)



Mahsulot eksportidagi va sanoatdagi ulushi (%)



Jami tadbirkorlik subyektlari tarkibidagi ulushi (%)

Hudud nomi	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5,1	7,3
Andijon	5,9	4,8
Buxoro	6,6	6,7
Jizzax	4,1	5,2
Qashqadaryo	7,0	7,3
Navoiy	4,8	4,5
Namangan	5,6	5,3
Samarqand	9,0	9,2
Surxondaryo	5,1	3,9
Sirdaryo	2,7	2,6
Toshkent	9,3	7,9
Farg'ona	8,7	9,3
Xorazm	5,8	7,5
Toshkent sh.	20,4	18,3

Ayol rahbarlar boshqaruvidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi (%)

Hudud nomi	Ulushi (%)
Toshkent sh.	27,9
Toshkent	12,8
Samarqand	8,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6,6
Xorazm	6,0
Surxondaryo	5,9
Buxoro	5,7
Navoiy	5,6
Farg'ona	4,6
Qashqadaryo	4,6
Jizzax	3,2
Sirdaryo	3,0
Andijon	2,8
Namangan	2,8

Sohalardagi faoliyat hajmi (trln so'm)





O'zbekistonda nobank moliya tashkilotlari sektorining iqtisodiyotga investitsiya kirituvchi manba sifatidagi rivoji

o'qish vaqti
115 soniya

Jahon moliya bozorida nobank moliya tashkilotlari kapital resurslar va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi mexanizmlarga bo'lgan yalpi talabni qondiruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Xalqaro valyuta jamg'armasining (XVJ) 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, jahonda nobank moliya sektorining umumiy aktivlari qiymati 160 trln. AQSh dollarini tashkil etadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda nobank moliya sektorining jami investitsiyalari hajmi muttasil ortib bormoqda. Agar 2020-yilda nobank moliya tashkilotlari sektorining jami investitsiyalari hajmi 5,8 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning dastlabki 6 oyida bu ko'rsatkich 9,1 trln. so'mga yetdi. O'z navbatida bu davrda nobank moliya tashkilotlari investitsiyalarining YalMga nisbati mos ravishda 1,6 foizdan 2,9 foizgacha oshdi.

Shunga qaramay, sohaning bugungi rivojlanish darajasi dunyoning rivojlanayotgan yetakchi mamlakatlaridagidan ortda qolmoqda. Masalan, nobank moliya tashkilotlari aktivlarining YalMga nisbati Tailandda 59,9 foizni, Qozog'istonda 12,7 foizni, Turkiyada 10,3 foizni tashkil etadi.

2023-yilning dastlabki yarmi yakuniga ko'ra, nobank moliya tashkilotlari tomonidan kiritilgan investitsiyalarning 45,3 foizi lizing xizmatlari, 38,7 foizi sug'urta bozori ishtirokchilari, 16,0 foizi fond birjasining ulushiga to'g'ri kelgan.

Lizing kompaniyalari portfelining umumiy hajmi 6,6 trln. so'mni tashkil qiladi. Uning asosiy qismi qishloq xo'jaligi texnikasi (36,0 foiz), texnologik uskunalar (26,5 foiz) va avtotransport (26,0 foiz) lizingiga to'g'ri keladi. Lizing bozorida banklar ulushi bilan birga avtotransport vositalari lizingi ham keskin kamayishi kuzatilmoqda. Bu esa banklarning faol avtokreditlash siyosati natijasi bo'lishi mumkin.

Sug'urta kompaniyalarining jami investitsiyalari hajmi 5,1 trln. so'mni tashkil etadi. Ushbu mablag' asosan depozitlar (63,4 foiz), qimmatli qog'ozlar bozori (24,4 foiz) hamda ko'chmas mulk bozoriga (8,2 foiz) yo'naltirilmoqda. Investitsiya kiritishning nisbatan xavfsiz shakli hisoblangan bank depozitlari bo'yicha foiz stavkasining o'sishi bank depozitlarida sug'urta kompaniyalari investitsiyalari hajmining ortib ketishini keltirib chiqardi.

«Toshkent» respublika fond bozorida yanvar-iyun oylarida jami 2,1 trln. so'mlik bitimlar imzolangan. Bitimlarning 93,8 foizi aksiyalar, 3,5 foizi obligatsiyalar, 2,6 foizi birlamchi ommaviy savdolarining (IPO) hissasiga to'g'ri keladi. Korporativ obligatsiyalar hajmining kamligi fond birjasiga obligatsiyalarni joylashtirish tartibini takomillashtirish zarurligidan dalolat beradi. Bu esa o'z navbatida korxonalariga bank kreditlarining muqobil manbalaridan foydalanish imkonini beradi.

O'zbekistonda nobank moliya sektorini rivojlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

Lizing tashkilotlari tomonidan biznes va aholiga taklif etilayotgan xizmatlar tarkibida energiya samaradorligi yuqori bo'lgan quyosh panellari va kichik gidroelektr stansiyalar kabi zamonaviy texnologiyalar hajmini oshirish kerak.

Hayot sug'urtasi va tibbiy sug'urta kabi xizmatlarni amaliyotga keng joriy etish orqali sug'urta bozorining faolligini oshirish lozim.

Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotda xususiy sektorning ulushini oshirish maqsadida Respublika fond birjasini xususiylashtirish imkoniyatlarini o'rganish maqsadga muvofiq.



Hisob-kitoblar iqtisodiyotda bozorning raqobat dinamikasini aniqlashda keng qo'llaniladigan HHI (Herfindal-Hirshman indeksi) konsentratsiya ko'rsatkichidan foydalangan holda amalga oshirildi.

Ma'lumot uchun: bozor HHI bo'yicha raqobat darajasiga ko'ra 3 guruhga bo'linadi: raqobat darajasi past, o'rtacha va yuqori. HHI 2500 dan 10000 gacha bo'lsa, raqobat darajasi past, HHI 1500 dan 2500 gacha bo'lsa, raqobat darajasi o'rtacha, HHI 1500 dan past bo'lsa, raqobat darajasi yuqori.

Aktivlar. 2023-yil yakunidagi holatga ko'ra, aktivlar bo'yicha hisoblangan HHI indeksi 2022-yilning mos davridagiga nisbatan 72 birlikka kamayib, 892 ni tashkil etdi. Ko'rsatkichning bunday qisqarishi tahlil qilinayotgan davr oralig'ida O'zbekiston bank tizimida raqobat darajasi yaxshilanib borayotganidan dalolat beradi.

2023-yilda tijorat banklarining jami aktivlari hajmi 17 foizga o'sib, 652 trln. so'mni tashkil qildi. 2023-yilda "Hayot bank", "Apeks bank", "Yangi bank" va "Smart bank" kabi banklar o'z faoliyatini boshladi va 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, ushbu banklarning bank tizimi jami aktivlaridagi ulushi 0,22 foizga yetdi.

Shu bilan birga, 2023-yilning iyun oyida «Ipoteka bank» aksiyalarining 75 foizi Vengriyaning OTP banki tomonidan sotib olinishi tufayli xususiy banklar va chet el kapitali ishtirokidagi banklarning bank tizimi jami aktivlaridagi ulushi 2022-yil bilan solishtirganda 10 foiz punktiga o'sib, 32 foizga yetdi.

Ma'lumot uchun: 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida 2025-yilga borib, bank tizimi aktivlarining umumiy hajmida davlat ulushi bo'lmagan banklar ulushini 60 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Kreditlar. Kredit qo'yilmalari bo'yicha hisoblangan HHI 985 birlikni tashkil etdi va 2022-yil bilan taqqoslaganda 92 birlikka yaxshilandi.

Tijorat banklarining jami kreditlar qoldig'i 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, 471,4 trln. so'm (YalMga nisbatan 44,1 foiz) ni tashkil etib, 2023-yilning boshidagiga nisbatan qariyb 1,2 barobar oshdi. Milliy valyutada ajratilgan kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan nominal foiz stavkasi 2022-yil yakunidagi 22,3 foizdan 2023-yilda 24 foizgacha ko'tarilgan. Bunda kreditning real foiz stavkasi sezilarli darajada, ya'ni 10 foiz (22,3-12,3 foiz (inflyatsiya) dan 15,2 foiz (24-8,8 foiz) gacha ko'tarilgan.

2023-yilda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar 2022-yildagiga nisbatan 47 foizga, yuridik shaxslarga berilgan kreditlar 12 foizga oshgan.

Depozitlar. Tahlil qilinayotgan davrda depozitlar bozori bo'yicha hisoblangan HHI 761 birlikdan 672 birlikka yaxshilandi. Ushbu davrda jami depozitlarning hajmi qariyb 25 trln. so'mga oshdi.

Milliy valyutadagi 1 yilgacha bo'lgan muddatli depozitlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 2023-yil yakunlariga ko'ra, 18,4 foizni tashkil qilgan (2022-yilda 17,6 foiz).


Xususiy banklar tomonidan jalb qilingan depozitlarning jami jalb qilingan depozitlardagi ulushi 2023-yilning 1-yanvardagi 37 foizdan yil yakuniga qadar 49 foizga oshgan.

Bundan tashqari, ushbu davrda davlat ulushi mavjud bo'lgan eng yirik 3 ta bank («O'zmilliybank», «O'zsanoatqurilishbank», «Asakabank») ning jami depozitlardagi ulushi 31 foizdan 25 foizgacha qisqargan.

Xulosa qilib aytganda, respublikamiz bank tizimidagi raqobat darajasining ijobiy tomonga o'zgarishini yil davomida bank bozoriga bir nechta yangi bankning kirib kelishi hamda mavjud xususiy banklarning bozordagi faolligi ortishi bilan izohlash mumkin. ■

HHI (Herfindahl – Hirschman indeksi)

2500 < HHI < 10000 past darajadagi raqobat
 1500 < HHI < 2500 o'rta darajadagi raqobat
 HHI < 1500 yuqori darajadagi raqobat





Xalqimiz azaldan uzoq-yaqin qarindoshlar va do'stlar orasida o'zaro hurmat hamda ko'makka asoslangan mustahkam rishtalarni milliy qadriyat sifatida saqlab keladi. Bu silai rahmdir.

Silai rahm iqtisodiy jihatdan ham ahamiyatli. Masalan, uning xususiyatlaridan biri – altruizmni (o'z manfaatini ko'zlamagan holda boshqalarga ko'maklashish va beg'araz yordam berish) olib ko'raylik. Altruizmning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri iqtisodchilar, psixologlar va sotsiologlar tomonidan o'rganilgan.

Iqtisodchilar altruizm, birinchi navbatda, adolat me'yorlari bilan bog'liq, deb ta'kidlasa, ijtimoiy psixologlar empatiyani altruistik xatti-harakatlarning asosiy omillaridan biri, deb biladi. Bundan tashqari, altruizm insonlar orasida bir-biriga mas'uliyat hissini oshirib, daromadlarning teng taqsimlanishi va o'zaro qo'llab-quvvatlashning yaxshilanishiga olib keladi.

Ushbu tadqiqotda silai rahmning YaIMdagi samaradorligini baholash uchun Jahon banki ma'lumotlaridan foydalanildi. Ular 2010–2019 yillarga oid bo'lib, 84 ta mamlakat, jumladan, O'zbekistonni ham o'z ichiga oladi.

Metodologiya. Tadqiqotda silai rahmning YaIMdagi samaradorligini baholash uchun proksi o'zgaruvchi sifatida xayriya indeksidan (InGivingIndex) foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot natijalari yanada aniqroq bo'lishi uchun nazorat o'zgaruvchilari sifatida aholi soni (InPOP), urbanizatsiya darajasi (Urban in %) va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning YaIMga nisbati (% hisobida) (FDI) tanlab olindi.

Natijalar. Tasodifiy effektlar (random) modeli natijalariga ko'ra, mamlakatda xayriya indeksining 1 foizga ortishi aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning 0,2 foiz oshishiga olib keladi. ■



Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning hajmi Gutmanning monetar usuli yordamida iqtisodiyotdagi naqd pul hajmi hamda iqtisodiyotning dollarlashuv darajasini inobatga olgan holda baholangan.

Ma'lumot uchun: Gutmanning monetar usuli yashirin iqtisodiyotni baholashda naqd pul talabi yondashuvi hisoblanadi. Naqd pul usullari Kagan (1958), Gutman (1977) va Tanzi (1980, 1983) tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu alohida yondashuv iqtisodchilar orasida bir nechta ko'rsatkichli bir nechta sabablar (MIMIC) usuli yoki elektr energiyasi iste'moli usuli kabi boshqa usullar bilan birgalikda qo'llanilib kelinadi.

Yashirin iqtisodiyot va naqd pul aylanish tezligi





Qanday qilib Angliya banki inflatsiyani ikki barobar kamaytirishga erishdi?

 o'qish vaqti
99 soniya

Buyuk Britaniyada inflyatsiyaning 2,3 barobar sekinlashishida 3 ta asosiy omil muhim rol o'ynadi:

1. Angliya bankining pul-kredit siyosati samaradorligi;
2. Energiya regulyatorining energiya narxлари bo'yicha siyosati hamda manzilli subsidiya tizimi;
3. Jahonda energiya va oziq-ovqat narxlarining barqarorlashishi.

2023-yilning noyabr oyida Buyuk Britaniyada yillik inflyatsiya darajasi 4,6 foizgacha pasaydi. Bu esa so'nggi ikki yil ichidagi eng past ko'rsatkich hisoblanadi. 2022-yilning mos davrida inflyatsiya darajasi 10,5 foizni tashkil qilgandi.

2023-yil davomida Angliya banki iqtisodiyotda talabni sovitish va narxlar oshishini sekinlashtirish maqsadida asosiy stavkasini ketma-ket 5 marta ko'tardi. 2023-yilning fevral oyida asosiy stavka 3,5 foizdan 4,0 foizga oshirilgan bo'lsa, mart oyida 4,25 foizga, may oyida 4,5 foizga, iyun oyida 5 foizga va avgust oyida 5,25 foizgacha ko'tarildi.

Hozirga qadar asosiy stavka 5,25 foiz darajasida saqlanib turibdi. Bu esa so'nggi 15 yil davomidagi eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Asosiy stavkaning ko'tarilishi natijasida moliya bozorlarida foiz stavkalarining ko'tarilishi moliyaviy vositalardan (masalan, depozitlar) keladigan daromadlarning oshishiga olib keldi va odamlarni sarflash o'rniga ko'proq jamg'arishga undadi. Bu esa tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabni kamaytirdi.

Iste'mol va ipoteka kreditlari bo'yicha yuqori foiz stavkasi odamlar va kompaniyalar kamroq qarz olishi va xarajatlar ehtimolini kamaytirdi va natijada iqtisodiy faoliyatning sekinlashishi talab inflyatsiyasini kamaytirdi.

Foiz stavkasining ko'tarilishi hamda talabning kamayishi importga bo'lgan bosimni kamaytirib, valyuta kursining mustahkamlanishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida import qilinadigan tovarlar va xizmatlar narxini pasaytirib, inflyatsiyaning ham pasayishiga xizmat qildi.


Gaz va elektr energiyasi bozori bo'yicha boshqarma (The Office of Gas and Electricity Markets - Ofgam) energiya yetkazib beruvchilar tomonidan har bir gaz va elektr energiyasi birligidan undiriladigan maksimal miqdorni chekladi. Bu esa energiya bozoridagi o'zgarishlarni aks ettirishi uchun chegarani har chorakda qayta ko'rib chiqishni taqazo etadi. Chegara global energiya bozoridagi o'zgarishlarga qarab ko'tarilishi yoki pasaytirilishi mumkin.

Ofgam tomonidan energiyaga qo'yilgan narx chegarasi 2022-yilning fevral oyidan boshlab keyingi davr uchun 1877 funt sterlingga (54 foizga) oshdi. 2022-yilning 4-choragida energiya narxлари keskin darajada oshganligi sababli ushbu ko'rsatkich 3371 funt sterlinggacha (80 foizga) ko'tarildi.

Shuningdek, 2022-yilning oktyabr oyidan 2023-yilning mart oyigacha bo'lgan davrda Energiya to'lovlarini qo'llab-quvvatlash tizimi (Energy Bill Support Scheme) doirasida uy-xo'jaliklariga energiya xarajatlarining ma'lum qismini qoplash uchun manzilli ravishda 400 funt sterling miqdorida mablag' ajratildi.

Inflyatsiya darajasini pasaytirish, aholining xarid qobiliyatini oshirish uchun tegishli choralarning ko'rilishi natijasida 2023-yilning oxirlariga kelib inflyatsiya darajasi ikki barobardan ko'proqqa pasaydi.

Buyuk Britaniyada iste'mol narxlarini indeksi





Birlashgan Millatlar Tashkilotining savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi - UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda ko'plab mamlakatlar investitsiya siyosati choralari ishlab chiqish bo'yicha o'z faoliyatini kuchaytirgan. Jumladan, 66 ta mamlakat xorijiy investitsiyalarga ta'sir qiluvchi jami 146 ta chora-tadbirni joriy qilgan. Bu 2021-yildagiga nisbatan 35 foiz ko'p. O'zbekistonda 2021-yilda xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq 2 ta chora-tadbir qabul qilingan bo'lsa, 2022-yilda ularning soni 4 tani tashkil etdi.

2022-yilda qabul qilingan xorijiy investitsiyalarga ta'sir etuvchi chora-tadbirlarning 70 foizi investitsiyalar uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratilgan bo'lib, ularning 3/4 qismi har doimgidek rivojlanayotgan mamlakatlar, shu jumladan O'zbekistonda qabul qilingan.

Ikki tomonlama investitsiya shartnomalari (ITISH) ni isloh qilishni faollashtirish jarayoni davom etmoqda: 2022-yilda amaldagi Ikki tomonlama investitsiya shartnomalarining umumiy soni 2584 tani tashkil etdi. Buning 2300 ga yaqini 2012-yilgacha qabul qilingan eski avlod shartnomalaridir. O'zbekistonda amaldagi Ikki tomonlama investitsiya shartnomalari 49 tani tashkil etadi. Ulardan faqat 5 tasi 2012-yildan keyin imzolangan yangi avlod shartnomalaridir.

Yangi avlod shartnomalari asosan davlatning investitsiya tizimini nazorat qilish, tartibga solish va boshqarish huquqlarini himoya qilishni kuchaytirishga, shu jumladan, milliy xavfsizlik, jamoat investitsiyalarini qo'llab-quvvatlash, uzoq muddatli majburiyatlardan voz kechish hamda shartnomalarni o'zgaruvchan iqtisodiy voqelikka moslashtirish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi.

2020-yilda UNCTAD mamlakatlarning rivojlanishini baholash bo'yicha yangi vosita - Ishlab chiqarish salohiyati indeksi (PCI) ni taklif qildi. U an'anaviy YaIM ko'rsatkichining muqobili bo'lib, islohotlar o'tkazilishi zarur bo'lgan sohalarni aniqlashda yordam beradi.

O'zbekistonning 2022-yilgi PCI bahosi 42,0 ballni tashkil etdi. Dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich esa 46,8 ballga teng bo'ldi.

O'zbekiston tabiiy kapitalning mavjudligi va undan foydalanish bo'yicha dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan katta ustunlikka ega bo'lsada, «Transport» (dunyo bo'yicha o'rtacha 34,1 ballga nisbatan 25,0 ball), «Xususiy sektor» (50,8 ballga nisbatan 34,9ball), «Institutar» (51,9 ballga nisbatan 38,4 ball) va «Inson kapitali» (44,6 ballga nisbatan 36,9 ball) subindekslari bo'yicha ortda qolmoqda.

Umuman olganda, xorijiy investitsiyalar sohasida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosat ko'p jihatdan jahondagi tendensiyalarga mos keladi. Shunga qaramay, islohotlarning maqsadga muvofiqligini kuchaytirish, ishlab chiqarish salohiyatining orqada qolayotgan sohaslariga e'tibor qaratish respublikaning yanada kompleks tarzda va mutanosib rivojlanishida yordam beradi.



AKT tovarlari eksporti:

Ko'rib chiqilayotgan davrda AKT tovarlari eksporti hajmi 7,9 barobar oshdi va 2022-yilda 84,3 million AQSh dollarini tashkil etdi (umumiy tovarlar eksportining 0,4 foizi).

AKT tovarlari eksportining diversifikatsiya darajasi* 2017-yildagi 1,42 dan 2022-yilda 2,50 gacha oshdi.

2022-yilda AKT tovarlari eksporti tarkibida maishiy elektronika tovarlari eng katta ulush (52,3 foiz) ni egalladi.

Kompyuterlar va tashqi qurilmalar 2017-2022 yillar davomida eng yuqori o'sish sur'atiga ega bo'ldi – 4716,9 barobar. Bu esa ushbu sohaga 2022-yilda IT-mahsulotlari eksportida ikkinchi (33,6 foiz) o'ringa ko'tarilish imkonini berdi.

2022-yilda aloqa uskunalari AKT tovarlari eksportining 11,6 foizini tashkil etdi va 2017-yildagiga nisbatan 59,5 barobarga oshdi.

Eng past o'sish sur'ati AKT sohasidagi boshqa tovar va komponentlar guruhida kuzatildi - 1,3 barobar. Bu guruh AKT eksportida eng kam ulushga ega – 2,6 foiz.

AKT tovarlarining asosiy eksport bozorlari: Rossiya (36,2 foiz), Ozarbayjon (4,8 foiz), Qozog'iston (3,2 foiz), Qirg'iziston (1,8 foiz), Tojikiston (0,7 foiz).

AKT tovarlari importi:

2017-2022 yillarda AKT tovarlari importi hajmi 3,6 barobarga oshib, 2022-yilda 1135 million dollarga yetdi (umumiy importning 3,8 foizi). 2017-2022 yillarda AKT tovarlari importining diversifikatsiya darajasi* 3,26 dan 3,36 gacha ko'tarildi.

2022-yilda AKT tovarlari importi hajmida eng katta ulush aloqa uskunalari (37,3 foiz) va kompyuterlar hamda tashqi qurilmalar (32,5 foiz) tovarlar guruhiga to'g'ri keldi.

AKT sohasida boshqa tovar va komponentlar guruhining ulushi 2022-yilda 21,1 foizni tashkil etdi.

2022-yilda AKT tovarlari importida eng kichik ulush maishiy elektronika (9,1 foiz) guruhiga to'g'ri keldi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda barcha mahsulot guruhlari bo'yicha o'sish sur'ati kuzatildi va u o'rtacha 3,7 barobarni tashkil etdi.


AKT tovarlari asosan Xitoy (26,8 foiz), BAA (5,8 foiz), Vyetnam (2,2 foiz), Rossiya (2,1 foiz) va Hindistondan (1,8 foiz) import qilingan.

*Diversifikatsiya indeksi 1/HHI (HHI - Xerfindal-Xirshman konsentratsiyasi indeksi) orqali hisoblangan ■

AKT tovarlari eksporti va importi

Eksport


Top 5 ta mamlakat



Eksport hajmi (mln. AQSh dollari)



Eksport diversifikatsiyasi



Diversifikatsiya indeksi

2017-yil 1,42
2022-yil 2,50

Maishiy elektronika


Aloqa uskunalari

Kompyuter va boshqa qurilmalar


AKT sohasidagi boshqa tovarlar va komponentlar

Import

Top 5 ta mamlakat



Import hajmi (mln. AQSh dollari)



Maishiy elektronika

Aloqa uskunalari

Kompyuter va tashqi qurilmalar

AKT sohasidagi boshqa tovar va komponentlar

Jami

Diversifikatsiya indeksi

2017-yil 3,26
2022-yil 3,36

Mabna: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma'lumotlari va muallif hisob-kitoblari


*Diversifikatsiya indeksi 1/HHI (HHI - Herfindal-Hirshman konsentratsiyasi indeksi) orqali hisoblangan



Raqamli asrda jonli striming raqamli marketing ixtiyoridagi samarali vositaga aylanib, biznes egalari uchun auditoriyani jalb qilish, brendni kengaytirish, bu orqali sotuv hajmini oshirishda yordam bermoqda.

Jonli striming qisqa muddatli chegirma kuponlarini taklif qilish orqali shoshilinchlik tuyg'usini yaratadi va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi. Natijada sotuvchilar 30 foizgacha bo'lgan yuqori konversiyaga erishishi mumkin. Bu oddiy elektron tijoratdan 10 baravar yuqori.

Prognozlarga ko'ra, 2025-yilga borib, global chakana elektron tijorat hajmi 2022-yildagi 5,71 trln. AQSH dollaridan 7,4 trln. dollarga yetadi. Xitoy tajribasidan kelib chiqib baholansa, 2026-yilda 8,15 trln. AQSH dollarini tashkil qiluvchi global chakana elektron tijoratning 10-20 foizini jonli striming tashkil qilishi mumkin.





2017-2023 yillar oralig'ida O'zbekistonda transport turlari bo'yicha yuk aylanmasida ro'y bergan o'zgarishlar

o'qish vaqti
61 soniya

Tahlil mazkur davr mobaynida mamlakatimizda yuk tashish aylanmasida sezilarli o'sish bo'lganligini ko'rsatdi. Barcha transport turlarida umumiy yuk aylanmasi 2017-yildagi 66,9 mlrd. t-km dan 2023-yilda 76,8 mlrd. t-km ga oshdi.

Xususan:

2017-2023 yillarda temiryo'l transportida tashilgan yuk aylanmasi 22,9 mlrd. t-km dan 27,1 mlrd. t-km ga oshdi.

Avtomobil transportining hissasiga to'g'ri keluvchi yuk aylanmasi qariyb 1,6 barobar oshdi. Agar tahlil qilinayotgan davr boshida mazkur ko'rsatkich 13,6 mlrd. t-km ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 21,5 mlrd. t-km ga yetdi.

Tahlil davri mobaynida quvur yo'li orqali tashuv aylanmasi 30,2 mlrd. t-km dan 28 mlrd. t-km ga kamaygan.

2017-2023 yillarda havo transportining yuk aylanmasi 156,9 mln. t-km dan 226,3 mln. t-km gacha oshdi.


Transport xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida «O'zbekiston - 2030» strategiyasida bir qator tadbirlar belgilangan.

Jumladan: Temiryo'l, havo yo'llari transportida yo'lovchi va yuk tashish xizmatlari tariflari shakllanishida bozor tamoyillariga o'tish hamda sohaga xususiy va xorijiy operatorlarni jalb qilish;

Respublika hududi orqali tranzit yuklarini tashish hajmini 16 million tonnaga yetkazish; shimoliy yo'nalishda temiryo'l orqali yuk tashish muddatlarini 40 foizga qisqartirish; tuman markazlaridan qishloq aholi punktlarigacha jami 5,5 ming kilometr sement-beton qoplamali yo'llar qurish.

Bir so'z bilan aytganda, yuk aylanmasining barqaror o'sishi transport infratuzilmasini rivojlantirish va tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirish natijasidir. Kelgusida yuk aylanmasini yanada oshirish zamirida raqamlashtirish, infratuzilmalarni modernizatsiya qilish va tashuvchilar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish yotadi.

2017-2023-YILLARDA O'ZBEKISTON TRANSPORT TURLARI BO'YICHA YUK AYLANMASI DINAMIKASI



Yuk aylanmasi
(mlrd. t-km)

76,8	2023
75,5	2022
74,8	2021
66,9	2020
72,6	2019
71,3	2018
66,9	2017



Tahlil 2017-2023 yillar oralig'ida mamlakatimizda yo'lovchilarni tashish va yo'lovchi aylanmasida sezilarli o'sish bo'lganligini ko'rsatdi. Xususan, 2017-yilda barcha transport vositalari orqali 5 679,0 mln. kishi o'z manziliga yetkazilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich salkam 6 452,0 mln. kishini tashkil etdi. Yo'lovchi aylanmasi esa 130,0 mlrd. yo'lovchi-km dan 152,7 mlrd. yo'lovchi-km ga oshgan.

2023-yilda yo'lovchi tashishda avtomobil transportining ulushi 97,2 foizni tashkil qilgan. Agar 2017-yilda 5 591,3 mln. kishi manzilga yetkazilgan bo'lsa, 2023-yilda ularning soni 6 270,2 mln. kishini tashkil qilgan. Avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasi mos ravishda ortib, 117,7 mlrd. yo'lovchi-km dan 133,8 mlrd. yo'lovchi-km ga yetgan.

2017-2023 yillarda metropolitendan foydalangan yo'lovchilar soni 2,6 marotaba oshgan va 61,6 mln. kishidan 162,7 mln. kishiga yetgan. Mutanosib ravishda yo'lovchi aylanmasi ham 459,1 mln. yo'lovchi-km dan 1 186,4 mln. yo'lovchi-km ga ko'paygan.

Havo transporti vositasida tashilgan yo'lovchilar ham mazkur davr mobaynida 2,4 barobar oshgan va 2,2 mln. kishidan 5,3 mln. kishiga yetgan. Yo'lovchi aylanmasi 7,5 mlrd. yo'lovchi-km dan 13,8 mlrd. yo'lovchi-km ga ortgan.

Transport xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida «O'zbekiston - 2030» strategiyasida bir qator tadbirlar belgilangan.

Jumladan:

- yo'lovchi va yuk tashish xizmatlari hajmini 3 barobar oshirish;
- aviaqatnovlar sonini 4 barobarga oshirish;
- Shahar va tumanlarni jamoat transporti bilan to'liq qamrab olish, yangi avtobuslar sonini 5 mingtaga va elektrobuslar sonini 2 mingtaga yetkazish.





2017-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sohasida amalga oshirilgan muhim islohotlar

o'qish vaqti
68 soniya

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab biznesni ro'yxatga olish osonlashtirildi. Natijada faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2017-yilda 229 666 (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yakunlari bo'yicha bu ko'rsatkich 417 080 tani tashkil etdi yoki 2017-yildagiga nisbatan 1,8 barobarga ko'paydi.

2023-yil yakuniga ko'ra, respublikamizda jami oilaviy korxonalar soni 44 935 taga yetgan yoki jami tadbirkorlik subyektlarining 10,7 foizini tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017-yildagiga nisbatan 3,84 barobarga ortgan.

Hududlar bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 2023-yilda 64 384 taga yetgan yoki mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan jami tadbirkorlik subyektlarining 15,4 foizini tashkil etgan.

So'nggi yillarda respublikada tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish borasida muhim qadamlar qo'yildi. Natijada mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishni kompleks qo'llab-quvvatlashning «uzluksiz zanjir»ini yaratish bo'yicha tizim yaratildi.

Mazkur tizim doirasida qabul qilingan dasturlar asosida so'ngi 6 yilda 1,9 mln. ga yaqin aholi va tadbirkorlik subyektlariga 44 trln. so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratildi. Xususan 2023-yilning o'zida qariyb 10 trln. so'm yoki 6 yilga nisbatan solishtirganda 22,7 foiz miqdorida imtiyozli kredit mablag'lari ajratildi.

Bunday qo'llab-quvvatlash natijasida respublikamizdagi har 100 ta oiladan 19 tasi tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga doir turli xil shakldagi imtiyozli kreditlardan foydalangan. Natijada 1 mln. 900 mingga yaqin kishining bandligi ta'minlandi.

«O'zbekiston - 2030» strategiyasida mamlakatimizda tadbirkorlikka keng imkoniyatlar yaratish maqsadida bir qator maqsadlar belgilab olingan. Jumladan:

- iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish;
- davlat ulushi mavjud bo'lgan 2,3 mingta korxonalar sonini 6 barobarga kamaytirish;
- respublikada 17 turdagi davlat monopoliyasini bekor qilish.

2017-2023 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TADBIRKORLIK SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN MUHIM ISLOHOTLAR



Manba: Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi



Tahlil natijalariga ko'ra, 2017-2023 yillar oralig'ida tijorat banklaridagi jami depozitlar qoldig'ida o'sish kuzatilgan. Xususan, tijorat banklaridagi jami depozitlar qoldig'i 2017-yilda 59,6 trln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 4,1 barobar ortib, 241,7 trln. so'mga yetdi. Bu davr mobaynida chet el valyutasidagi depozitlar qoldig'i 3,5 mlrd. AQSH dollaridan 5,8 mlrd. AQSH dollarigacha (1,6 barobar) oshdi.

O'rganilgan davrda tijorat banklari jami kreditlari qoldig'i ham sezilarli o'sdi. Ushbu ko'rsatkich 2017-yilda 110,6 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 471,4 trln. so'mga yetdi (4,3 barobarlik o'sish). Xususan, aholiga ajratilgan ipoteka kreditlari 6,5 barobar, iste'mol kreditlari 26,7 barobar va tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun ajratilgan kreditlar hajmi 3,7 barobar ko'paydi. Shuningdek, 2017-2023 yillar oralig'ida chet el valyutasida ajratilgan kreditlar qoldig'i 8,5 mlrd. AQSH dollaridan 17,2 mlrd. AQSH dollarigacha (2,0 barobar) oshdi.

Pul-kredit siyosatini olib borishda inflyatsion targetlash siyosatiga o'tilishi iqtisodiyotda pul massasini samarali boshqarish imkonini berdi. 2017-2023 yillarda keng ma'nodagi pul massasi (M2) hajmi 73,2 trln. so'mdan 212,1 trln. so'mgacha (2,9 barobar) oshgan bo'lsada, uning mamlakat yalpi ichki mahsulotiga (YAIM) nisbati 23,1 foizdan 19,9 foizgacha pasaydi.

2017-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda bank tizimi orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish hajmi ortdi. Xususan, muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni 2017-yilda 19 225,7 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 2,4 barobarga ortib, 46 205,9 mingtaga yetdi. Shuningdek, o'rnatilgan to'lov terminallari soni 235,7 mingtadan 429,3 mingtaga (1,8 barobar), o'rnatilgan bankomat va infokioskalar soni 5,6 mingtadan 26,6 mingtaga (4,8 barobar), masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 4 453,2 mingtadan 42 760,0 mingtaga yetdi (9,6 barobar). Mazkur davrda to'lov terminallari orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi esa 53,0 trln. so'mdan 254,7 trln. so'mga (4,8 barobar) oshdi.

«O'zbekiston - 2030» strategiyasida pul-kredit tizimida islohotlarni jadallashtirish maqsadida zarur chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan:

- bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 mlrd. AQSH dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish;
- banklarni xususiylashtirish va davlat ixtiyorida 3-4 ta bankni saqlab qolish, bank bozoriga kamida 4 ta yirik nufuzli chet el bankini jalb qilish. ■

2017–2023-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA PUL-KREDIT VA BANK TIZIMI

● Bank xizmatlari ommabopligi



Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari va "O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida



2017-yildan buyon O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni jadallashtirish va buning uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratilgan 23 ta yirik chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, yangi tahrirdagi «Investitsiya va Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi, «Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi hamda valyuta operatsiyalari bo'yicha yangi qoidalar amaliyotga joriy etildi.

Investorlarning faoliyatini kengaytirish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishga qaratilgan siyosat natijasida, 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, respublikada jami 21 ta maxsus iqtisodiy zona, 328 ta kichik sanoat zonasi, 23 ta texnopark faoliyat yuritmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash va islohotlarni jadal davom ettirish maqsadida «O'zbekiston - 2030» strategiyasida bir qator maqsadlar belgilab olingan. Jumladan:

- 110 mlrd. AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;
- pay va venchur jamg'armalar faoliyatini yo'lga qo'yish orqali portfel investitsiyalar hajmini 2 barobarga oshirish;
- chet ellik nominal saqlovchilar hamda kastodian banklarning mahalliy kapital bozorida qatnashishi uchun infratuzilmani yaratish;
- barcha iqtisodiy zonalarda zarur infratuzilmadan (yo'l, elektr energiyasi, suv va oqova tizimi) uzluksiz foydalanish imkoniyatlarini yaratish. ■

2017-2023 YILLARDA O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI RAG'BATLANTIRISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR NATIJASI



*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari
**Meror jamg'armasi (The Heritage Foundation) ma'lumotlari



2023-yilda O'zbekistonga kelgan xorijlik sayyohlar soni 6,6 million nafarga yetdi. Shuni ta'kidlash lozimki, oxirgi olti yilda turistlar oqimi qariyb 2,5 barobar ko'paydi, ya'ni 2017-yilda xorijlik sayyohlar soni 2,6 million nafarni tashkil qilgandi.

Ma'lumot uchun: Dunyodagi 91 ta mamlakat fuqarolari O'zbekistonga kelish uchun vizasiz tartibdan foydalanishi mumkin. Taqqoslaydigan bo'lsak, Qozog'istonga 26 ta, Turkiyaga 41 ta, Gruzziyaga esa 56 ta mamlakat fuqarolari vizasiz kela oladi.

Turizm eksportining rivojlanishi mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o'sish manbalaridan biri hisoblanadi. 2023-yilda turizm xizmatlari eksporti 2 milliard 143 million AQSh dollarini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2017-yilda 531 million dollarni tashkil qilgandi. 2023-yilda sayyohlar sonining sezilarli darajada oshishi hisobiga turizm xizmatlari eksporti 2017-yildagiga nisbatan qariyb 4,5 barobarga ortgan.

Ma'lumot uchun: Amerikaning Travel Lemming onlayn sayohat qo'llanmasi 2023-yilda O'zbekistonni dunyoning 50 ta eng yaxshi sayyohlik yo'nalishi ro'yxatiga kiritdi va mamlakatimiz 9-o'rinni egalladi. Ushbu qo'llanma har yili dunyo bo'ylab yangi yo'nalishlar va yashirin durdonalarni yoritadi va uni 6 milliondan ko'proq sayohatchi o'qiydi.

Qayd etilayotgan natijalar sohaning salohiyati katta ekanligidan dalolat beradi. Shu bois sohada infratuzilma obektlarini yanada ko'paytirish va ichki turizm imkoniyatlaridan samarali foydalanishga e'tibor qaratilmoqda.

2023-yilda O'zbekistonda sayyohlarni joylashtirish vositlari soni 5526 taga yetdi. Oxirgi olti yilda sayyohlarni joylashtirish vositlari soni 7,2 barobar ko'paydi, ya'ni 2017-yilda ularning soni 767 ta edi xolos.

2017-2023 yillar oralig'ida mamlakatimizda sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi subyekt va obyektlar soni 7 baravar ko'paydi va ularning soni 749 tadan 5276 taga yetdi.

"O'zbekiston - 2030" strategiyasida tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirishga alohida e'tibor berilgan. Shunga ko'ra, 2030-yilga qadar xorijiy sayyohlar sonini 15 million nafarga, ichki sayyohlar sonini 25 million nafarga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan sayyohlar sonini 3 million nafarga yetkazish ko'zda tutilgan. Shuningdek, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga respublikada mehmonlar uchun mo'ljallangan o'rinlar sonini kamida 2 barobar oshirish, turizm mahallalari sonini 175 taga, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish belgilangan. ■

2017-2023 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLARNING ASOSIY NATIJALARI





Xitoyda oilaviy tadbirkorlik subyektlarining rivojlanish tarixi boshqa mamlakatlardagiga nisbatan qisqaligi bilan ajralib turadi. Xitoyda 1978-yilda o'tkazilgan iqtisodiy islohotlardan so'ng tadbirkorlik subyektlarning xususiy mulkka egalik qilishiga ruxsat berilgan.

Bugungi kunda Xitoyda ro'yxatga olingan yirik kompaniyalarning 30 foizdan ortig'i va xususiy tadbirkorlik subyektlarining qariyb 90 foizi oilaviy tadbirkorlik subyektlari sifatida tasniflanadi.

Xitoy hukumati tomonidan 90-yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlardan keyin oilaviy tadbirkorlik subyektlari o'zining yuqori samaradorligi hisobiga katta o'sishni namoyish qildi.

Asosan kichik va o'rta biznes sohasida keng tarqalgan oilaviy tadbirkorlikning yirik biznes darajasigacha o'sishi bilan bog'liq holatlar kuzatilgan. Dastlab kichik ion batareyalarini ishlab chiqaruvchi BYD oilaviy tadbirkorlik korxonasi hozirga kelib, nafaqat Xitoy, balki dunyoda elektromobillarni ishlab chiqaruvchi eng yirik korporatsiyalardan biriga aylangani bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Xitoyda tadbirkorlik subyektlari, xususan oilaviy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarni iste'molchiga o'z vaqtida yetkazib berish borasida onlayn savdo platformalari va tovarlarni yetkazish xizmatlari juda yaxshi rivojlangan. So'nggi 20 yilda Xitoy hukumati yetkazib berish xizmatlari infratuzilmasini yaxshilash uchun katta miqdorda moliyaviy mablag' ajratdi.

Bugungi kunda Xitoyda ishlab chiqarilgan tovarlarni iste'molchilarga yetkazib berishda Taobao, Tmall, AliExpress, 1688.com, JD.com, Pinduoduo kabi yirik onlayn savdo platformalari faoliyat yuritmoqda. Bulardan tashqari SF Express, Cainiao Network, JD Logistics, YTO Express, ZTO Express, STO Express kabi qulay va arzon yetkazib berish xizmatlari mavjud. Natijada Xitoy tadbirkorlarining onlayn savdo platformalari orqali savdo hajmi 2019-yilda 1 trln. 801 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 3 trln. 85 mlrd. dollarga yetdi.

Xalqaro savdoni rivojlantirish bo'yicha Xitoy Kengashi (China Council for the Promotion of International Trade) xitoylik tadbirkorlarning xalqaro bozorlarga chiqishi uchun ularni chet mamlakatlardagi standartlar, bojxona tizimi, transport imkoniyatlari haqidagi zarur ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.



Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiy o'sish, aholi (ayniqsa yoshlar) bandligini ta'minlash va turmush farovonligini oshirishda katta ahamiyatga ega. 2023-yil yakunlariga ko'ra, xizmatlar sohasidagi o'sish 6,8 foizni, sohaning YaIMdagi ulushi 43,4 foizni tashkil etdi.

So'nggi yillarda respublikada xizmat ko'rsatish sohasini qo'llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish borasida muhim qadamlar qo'yildi. **Xususan:**

- "Elektron hukumat" tizimi takomillashtirildi va umumiy elektron davlat xizmatlari soni 592 taga yetdi;

- biznesni ro'yxatga olish osonlashtirildi va xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2,5 barobar ko'paydi (2017-yildagi 128 mingtadan 2023-yilda 326 mingtaga).

Zamonaviy xizmatlarni rivojlantirishda sohaga xususiyl sektorning faol jalb qilinishi o'z samarasini berdi va tahlil qilingan davrda **quyidagi o'zgarishlar qayd etildi:**

- Moliyaviy xizmatlar 7,1 marotaba oshdi, xususiyl va xorijiy banklarning sohaga jalb qilinishi ularning raqobatbardoshligini oshirdi va 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra HHI indeksi 986 gacha pasaydi (2017-yil oxirida 1520 ga teng bo'lgan);

- Axborot va aloqa sohasidagi xizmatlar 3,9 marotaba oshdi;

Ta'lim sohasidagi xizmatlar 4,6 marotaba oshdi;

- Davlat-xususiyl sheriklik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 1 328 taga (2017-yil oxirida 250 ta), oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 21 941 taga (2017-yil oxirida 579 ta), nodavlat umumta'lim muassasalari soni 194 taga (2017-yil oxirida 39 ta), nodavlat oliy ta'lim muassasalari soni 194 taga (2017-yil oxirida 1 ta), xorijiy oliy ta'lim muassasalari soni 28 taga (2017-yil oxirida 7 ta) yetdi;

- Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 5,0 marotaba oshdi va hozirgi kunda 8200 ta xususiyl tibbiyot muassasasi faoliyat yuritmoqda (2017-yil oxirida 4000 ta edi).

O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish maqsadida «O'zbekiston-2030» strategiyasida bir qator maqsadlar belgilab olingan. Jumladan:

- hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohalarni rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish;

- o'rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko'p bo'lgan tumanlarda zamonaviy bozor xizmatlari, IT, ta'lim, tibbiyot, yuridik, san'at, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirish;

- shaharsozlik loyihalari asosida zarur infratuzilmasi mavjud va aholi gavjum bo'lgan ko'chalarning 233 mingta bo'sh yer maydonlarini aukcion savdolariga chiqarish orqali savdo, maishiy, sayilgoh va ko'ngilochar xizmatlarni rivojlantirish;

- o'rta va yirik shaharlarning markazlarida xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan markaziy ko'chalarni tashkil etish orqali 36 mingta savdo va servis obyektlarini tashkil etish;

- «Yangi O'zbekiston» massivlarida va xalqaro avtomobil yo'llari bo'yida 6 mingta savdo va servis obyektlarini qurish;

- yetakchi loyiha tashkilotlarini jalb qilib, bozorlarni zamonaviy, qulay barcha xavfsizlik talablariga javob beradigan savdo komplekslariga aylantirish. ■

2017-2023 YILLARDA O'ZBEKISTONDA XIZMAT TURLARINING RIVOJLANISH SUR'ATI


• Xizmat turlarining real o'sishi (marotaba)

Moliya	7,1
Sog'liqni saqlash	5,0
Me'morchilik, muhandislik	4,9
Ta'lim	4,6
Axborot va aloqa	3,9
Savdo	3,5
Ko'chmas mulk bilan bo'g'liq	3,0
Transport	3,0
Ijara va lizing	2,9

• 2017-2023 yillarda faoliyati yo'lga qo'yilgan yangi muassasalar (birlikda)

Xususiy tibbiyot muassasalari	8 200
Oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari	21 941
Davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari	1 328
Nodavlat umumta'lim muassasalari	194
Nodavlat oliy ta'lim muassasalari	74
Xorijiy oliy ta'lim muassasalari	28

• Xizmatlar sohasidagi kichik biznes subyektlari (birlikda)



• Xizmatlar sohasining o'sish sur'ari

2023-yil	6,8%
2017-yil	6,0%

• Xizmatlar sohasining YalMdagi ulushi

2023-yil	43,4%
2017-yil	41,4%



2023-yilda mamlakatimizda asosiy kapitalga investitsiyalar 2017-yildagiga qaraganda 2,2 marotaba ortib, 352,0 trln. so'mga yetdi. Ushbu mablag'larning yalpi ichki mahsulot (YaIM) dagi ulushi esa 22,7 foizdan, 33,0 foizgacha oshdi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilishning sezilarli darajada faollashishi so'nggi 6 yil davomida investitsiya mablag'larining ortishida muhim omillardan biri bo'ldi. Bu davrda ushbu ko'rsatkich 5,7 marotaba oshdi va 2,4 mlrd. AQSh dollaridan 14,2 mlrd. AQSh dollariga yetdi. Mos ravishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarning YaIMdagi ulushi ham 4,0 foizdan 15,6 foizgacha ortdi.

Investitsiyalar uchun yaratilgan qulay sharoit natijasida respublikada faoliyat yurituvchi korxonalar soni 1,7 barobar oshdi va 285,0 mingtadan 485,0 mingtaga yetdi. Jumladan, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 2,6 marotaba ortib, 5,5 mingtadan 14,1 mingtaga yetdi.

Davlat - xususiy sheriklik (DXSh) loyihalari orqali xususiy sektor mablag'larini ijtimoiy muhim ahamiyatga ega tarmoqlarga jalb qilish investitsiya siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu sohadagi ilk qadamlar atigi 5 yil avval tashlagan bo'lsa ham, bugungi kunda O'zbekistonda umumiy qiymati 17 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lgan 1018 ta DXSh kelishuvi imzolandi.

Investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida **«O'zbekiston - 2030» strategiyasida** bir qator chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan:

- 250 milliard AQSh dollari miqdoridagi investitsiyalarni o'zlashtirish;
- davlat-xususiy sheriklik doirasida 30 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiyalarni jalb qilish;
- asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o'rtacha 7 foiz atrofida o'sishini ta'minlash;
- hududlarning investitsion reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish.

2017-2023 YILLARDA O'ZBEKISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLARNING ASOSIY NATIJALARI


Davlat byudjetidan sog'liqni saqlash tizimi uchun ajratilayotgan xarajatlar (so'mda)



Aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi (yoshda)



O'limning umumiy koeffitsienti (promilleda)



Tibbiyot turizmining rivojlanishi (ming kishi)



Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari



Mazkur tahlilda raqobat dinamikasini baholashda xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan Xerfindal–Xirshman indeksidan (HHI) foydalanildi.

Ushbu konsentratsiya ko'rsatkichining o'zgarish dinamikasini kuzatish bozorda monopoliya darajasini baholash va raqobatni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish imkonini beradi.

Aktivlar. 2024-yilning birinchi choragida aktivlar bo'yicha hisoblangan HHI indeksi 25 birlikka yaxshilanib, 867 ni tashkil etdi. Bunda, joriy yilning 1-aprel holatiga ko'ra, tijorat banklarining jami aktivlari hajmi 665,6 trln. so'mga yetib, yil boshidagiga nisbatan 13,5 trln. so'mga, 2023-yilning 1-aprel holati bilan taqqoslaganda esa 101 trln. so'mga oshdi.

Davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarning jami aktivlardagi ulushi 1 foiz bandga kamayib, 67 foizni tashkil qildi. Jumladan, «Asakabank»ning jami aktivlardagi ulushi 0,6 foiz bandga (8,90 foizdan 8,27 foizga), «O'zmilliybank»niki 0,5 foiz bandga (19,55 foizdan 19,01 foizga) va «Mikrokrediebank»niki 0,1 foiz bandga (2,92 foizdan 2,84 foizga) kamaygan.

Kreditlar. Kredit qo'yilmalari bo'yicha hisoblangan HHI 2024-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, 973 birlikni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davridagiga (1042) nisbatan 69 birlikka yaxshilandi. Davlat ulushi mavjud bo'lgan banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning jami bank tizimi kreditlaridagi ulushi 1 foiz bandga pasaygan.

2024-yilning birinchi choragida tijorat banklarining jami kreditlar qoldig'i 1,5 foizga o'sib, 478 trln. so'mni tashkil etdi. Jumladan, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar o'tgan yilning birinchi choragi bilan taqqoslaganda 40 foizga oshgan. Bunda ta'lim kreditlari hajmi 97 foizga, iste'mol kreditlari hajmi 66 foizga, mikroqarzarlar hajmi 64 foizga va ipoteka kredlari hajmi 24 foizga o'sgan.


2024-yilning mart oyida milliy valyutada ajratilgan kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari dekabr oyidagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 foiz bandga pasayib, 23,6 foizni tashkil etdi. Bu esa o'z navbatida kuchli raqobat bilan birgalikda inflyatsiya darajasi barqarorlashuvini ko'rsatadi.

Depozitlar. 2024-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, depozitlar hajmi 243 trln. so'mni tashkil etmoqda. Bu o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan qariyb 30 trln. so'mga ko'p. Tahlil qilinayotgan davrda depozitlar bo'yicha hisoblangan HHI indeksi 720 birlikdan 674 birlikka yaxshilangan.

Xususi va chet el kapitali ishtirokidagi banklar tomonidan jalb qilingan depozitlarning jami jalb qilingan depozitlardagi ulushi o'tgan yilning birinchi va to'rtinchi choraklarida mos ravishda 39 va 49 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilning birinchi choragiga kelib, 50 foizga yetdi. Jumladan, «Kapitalbank» ulushi 0,6 foiz bandga (12,45 foizdan 13,08 foizga), O'zKDB (2,6 foizdan 3 foizga) va «Anorbank» ulushi (1,5 foizdan 1,9 foizga) 0,4 foiz bandga oshgan.

2024-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, depozitlarning dollarlashuv darajasi 29,8 foizni tashkil etdi. Milliy valyutadagi muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalari 2024-yilning birinchi choragida 2023-yilning dekabr oyidagiga nisbatan 0,2 foiz bandga oshib, 19,9 foizni tashkil qildi. Depozit foiz stavkalarining oshishi banklar o'z mijozlari uchun yanada jozibador shart-sharoitlarni taklif qilishga intilayotganidan va raqobat darajasi kuchayganidan dalolat beradi. ■

HHI (Xerfindal - Xirshman indeksi)





O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bu tadbirkorlik subyektlari sonini oshirish orqali aholi bandligini ta'minlash va turmush farovonligini oshirishdir. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda mamlakatimizdagi jami korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 485,0 mingtani tashkil etgan. Bu 2017-yildagiga nisbatan 1,7 marotaba ko'p demakdir.

Tadbirkorlik subyektlari sonining eng yuqori o'sish sur'ati Navoiy (2,3 marotaba), Samarqand (2,1 marotaba), Buxoro va Xorazm viloyatlari (2,0 marotaba) da kuzatildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil savdosotiq (2,5 marotaba), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari (1,8 marotaba), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (1,9 marotaba) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (1,7 marotaba) kabi tarmoqlarda korxonalar soni oshganligini ko'rsatdi.

Sanoatning iqtisodiy o'sish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini e'tiborga olgan holda, korxonalar sonining (1,4 marotaba) ortishi va ulushi 14,3 foizga yetganligini ijobiy holat sifatida ta'kidlash lozim. Shuningdek, axborot texnologiyalari (1,6 marotaba) sohasida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar sonining o'sishi iqtisodiyotda ro'y berayotgan ijobiy tarkibiy o'zgarishlardan dalolat beradi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasining 56 - maqsadida iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish belgilangan bo'lib, nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish, davlat ulushi mavjud 2,3 mingta korxonalar sonini 6 barobarga kamaytirish ko'zda tutilgan. ■

2017-2023 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN KORXONALAR DEMOGRAFIYASI

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(birlikda, dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)



* Izoh: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari o'zaro bixillashtirilgan.

Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(birlikda, dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

Iqtisodiyot tarmoqlari	2017	2023
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari	21019	37772
Sanoat	49185	69444
Qurilish	24118	34749
Savdo	63199	158065
Tashish va saqlash	11996	17935
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	17126	28364
Axborot va aloqa	6403	10551
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	5840	10998
Boshqa turlari	86645	117146

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari



Mamlakatimizdan tovarlar va xizmatlar eksport qilinadigan davlatlar soni va mahsulotlar turi tobora ortib bormoqda. 2017-yilda jami 12,55 mlrd. AQSh dollariga teng mahsulot va xizmatlar eksport qilingan bo'lsa, 2023-yilga kelib, bu ko'rsatkich 1,95 marta ko'paydi va 24,43 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi. 2023-yilda eksportning yillik o'sish sur'ati 23,8 foizni tashkil qildi.

2017–2023 yillar mobaynida mamlakatimizning eksport geografiyasi 14 ta mamlakatga kengaydi. Hozirda mahsulotlarimiz har biri 10 ming AQSh dollaridan ortiq bo'lgan 122 ta mamlakatga eksport qilinmoqda.

Eksport qilinadigan mahsulotlar diversifikatsiyasi oshib bormoqda, jumladan, TIF TN 10 ta belgisi bo'yicha tovar nomenklaturasida 2017-yilda har biri 10 ming AQSh doll. ortiq bo'lgan 1219 xil mahsulotlar eksport qilingan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 2874 tani tashkil qildi (2,4 marta ko'p).

2017-2023 yillarda paxtadan tayyorlangan yuqori qo'shilgan qiymatli tovarlar eksporti yo'lga qo'yildi. Xususan, 2017-yilda to'qimachilik mahsulotlari umumiy eksportning 8,1 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 12,5 foizni tashkil qilib, 65 ta mamlakatga 639 turdagi to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirishga erishildi.

“O'zbekiston – 2030” strategiyasida eksportni oshirish bo'yicha bir qator ustuvor maqsadlar va chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan:

- eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish;
- qishloq xo'jaligi sohasida eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish;
- eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko'paytirish;
- xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini 10 barobarga oshirish va ular sonini 5 mingtaga yetkazish;
- IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini 5 milliard dollarga yetkazish;
- turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish;
- respublika hududlarida 2,5 million tonna quvvatga ega bo'lgan 100 ta yangi agrologistika markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish hamda ularning eksport salohiyatini 1 milliard dollarga yetkazish. ■

2017-2023 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAN TOVAR VA XIZMATLAR ENG KO'P EKSPORT QILINGAN MAMLAKATLAR (MLN. AQSH DOLLARI HISOBIDA)





Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi bilan hamkorlikda 2024-yilning iyul oyida 11300 dan ortiq tadbirkorlik subyektlari ishtirokida so'rov o'tkazildi

o'qish vaqti
8 soniya

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI), Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi bilan hamkorlikda 2024-yilning iyul oyida 11300 dan ortiq tadbirkorlar ishtirokida so'rov o'tkazdi.

IMRS
Institute for Macroeconomic
and Regional Studies

МАКРОИҚТИСОДИЙ ВА ҲУДУДИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ИНСТИТУТИ

ЎЗБЕКИСТОНДА ТАДБИРКОРЛИКНИ

Қўллаб-қувватлаш борасида
амалга оширилаётган ислохотларнинг
самарадорлигини баҳолаш

www.IMRS.uz [@ifmr_public](https://twitter.com/ifmr_public) +998 71 244-01-47



Mahsulotlarning murakkablik darajasini hisoblashda Garvard universitetining Kennedy maktabi ilmiy laboratoriyasi (Harvard Kennedy School Growth Lab) tomonidan ishlab chiqilgan Mahsulotning murakkablik indeksi (Product Complexity Index - PCI) dan foydalanildi. Ushbu indeks mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan bilimlar darajasi, qo'llaniladigan texnologiyalar va jarayonlarning murakkablik darajasini baholaydi.

Yuqori indeks qiymatiga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun zamonaviy bilim, ko'nikma va texnologiyalar talab qilinadi. Bunga elektronika qurilmalari, maxsus texnika va kimyoviy mahsulotlar misol bo'la oladi.

Oddiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xomashyo ishlab chiqish esa nisbatan pastroq indeks qiymatiga ega.

2017-yilda jami 12,55 mlrd. AQSh dollariga teng mahsulot va xizmatlar eksport qilingan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 1,95 marotaba ortdi va 24,43 mlrd. AQSh dollariga teng bo'ldi. 2023-yilda eksportning yillik o'sish sur'ati 26,5 foizni tashkil qildi.

2017-2023 yillar oralig'ida oltin (33,38 foiz), transport va pochta xizmatlari (9,15 foiz), sayyohlik xizmatlari (8,77 foiz) va paxta ipi (4,87 foiz) eksport tarkibida eng yuqori ulushga ega mahsulotlar bo'ldi.

Eksport qilinayotgan mahsulotlarning murakkablik darajasi (PCI) yildan-yilga yaxshilanib bormoqda. PCI ko'rsatkichlari 2017-2023 yillar oralig'ida 23,9 foizga o'sdi va 2017-yildagi -1,57 dan 2023-yilda -1,2 gacha ko'tarildi. Pandemiya sababli 2019-2020 yillarda eng past PCI ko'rsatkichi qayd etildi (mos ravishda -1,79 va -1,76). Mamlakatimiz eksporti tarkibida ishlab chiqarish nisbatan osonroq bo'lgan mahsulotlarning (oltin, paxta, neft gazlari, tozalangan mis va sabzavotlar kabi eng kam ishlov berishni talab etadigan mahsulotlar) ulushi yuqori darajada saqlanib turganligi sababli PCI ko'rsatkichlari pastligicha qolmoqda.

PCI ning ortishiga sabab bo'layotgan mahsulotlar qatorida avtotransport vositalari uchun korpuslar (kabinalar), ichki yonuv dvigatellari, mis quvurlar va telefon apparatlari kabi chuqur qayta ishlashni talab qiluvchi mahsulotlar eng yuqori o'rinlarni egallab turibdi.

Mineral moddalar (2017-yilda 15,4% va 2023-yilda 4,1%), kimyoviy mahsulotlar (3,9% va 4,1%), to'qimachilik tovarlari (14,1% va 13%), rangli metallar (8,2% va 6,6%), mashina va uskunalar (1,4% va 2,9%) PCning o'sishiga katta hissa qo'shayotgan kategoriyalar bo'lib turibdi.

Aksincha, PCning pasayishiga sabab bo'layotgan kategoriyalarga qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar, qimmatbaho metallar hamda plastmassa va kauchuk kiradi. 2023-yilda ushbu mahsulotlarning umumiy eksportdagi ulushi mos ravishda 34,1 foizni va 1,6 foizni tashkil etgan.

To'qimachilik mahsulotlari kategoriyasida paxta xomashyosi eksporti 2019-yilda 281,6 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 70 ming AQSh dollarigacha kamaydi. Shu bilan birga, paxta ipi eksporti 2017-2023 yillar oralig'ida 428,1 mln. AQSh dollardan 1,2 mlrd. AQSh dollargacha, ya'ni 2,8 barobar oshdi. Futbolka va sviterlar eksporti esa 2017-yilga nisbatan 4,5 barobar oshib, 2023-yilda 309,3 mln. AQSh dollarga yetdi. Bu esa to'qimachilik sohasida xomashyo eksportidan voz kechib, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ekportiga urg'u berilayotganidan dalolat beradi.

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishi bilan eksport tarkibidagi murakkab mahsulotlar ulushining oshishi mamlakatning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, bu jarayon uzluksiz texnologik rivojlanish, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi va malakali ishchi kuchining rivojlanishini talab qiladi.

Eksportning PCI ko'rsatkichi dinamikasi



Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari



Mazkur tadqiqotda Herfindal-Hirshman indeksidan foydalanildi. Herfindal-Hirshman indeksi (HHI) bozor konsentratsiyasining umumiy o'lchovi bo'lib, bozor raqobatbardoshligini aniqlash uchun qo'llaniladi.

Ma'lumot uchun: bozor HHI bo'yicha raqobat darajasiga ko'ra 3 guruhga bo'linadi, ya'ni raqobat darajasi past (HHI 2500-10000 gacha), o'rtacha (HHI 1500-2500) va yuqori (HHI 1500 dan past).


Aktivlar. Aktivlar bo'yicha hisoblangan HHI 2024-yilning ikkinchi choragi yakuni bo'yicha 863 birlikni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 53 (916) birlikka yaxshilandi. Bu davrda tijorat banklarining jami aktivlari hajmi 690,4 trln. so'mga yetdi va 2023-yilning ikkinchi choragi bilan taqqoslaganda qariyb 113,7 trln. so'mga (19,7 foizga), joriy yilning birinchi choragi bilan taqqoslaganda esa, qariyb 25 trln. so'mga (3,7 foizga) oshdi. Davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarning jami aktivlardagi ulushi o'tgan yilning 1-iyul holatiga ko'ra 69 foizni tashkil etgan bo'lsa, joriy yilda 2 foiz bandga (67 foiz) qisqardi. HHI ko'rsatkichining yaxshilanishi va aktivlar hajmining o'sishidagi uyg'unlik mamlakat bank tizimi aktivlar bozorida ijobiy raqobat dinamikasini ifodalaydi.

Kreditlar. Kreditlar bozori bo'yicha hisoblangan HHI o'tgan yildagi 971 birlikdan 963 birlikka yaxshilandi. 2024-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, tijorat banklari tomonidan ajratilgan jami kredit qo'yilmalari hajmi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 70 trln. so'mga oshdi va 493,9 trln. so'mga yetdi. Umumiy kredit

portfelida xususiy va chet el kapitali ishtirokidagi banklar tomonidan ajratilgan kreditlar ulushi o'tgan yilning mos davridagi 27 foizdan qariyb 3 foiz bandga o'sib, 30 foizgacha oshdi. Shuningdek, davlat ulushi mavjud bo'lgan top-5 ta bankning jami kreditlar portfelidagi ulushi 59,4 foizdan 57,8 foizga tushdi. 2024-yil birinchi choragida kreditlar qoldig'ining depozitlar hajmiga nisbati 1,8 barobarni tashkil etdi. Bu esa kreditlarning 50 foizdan ortig'ini moliyalashtirishda banklar depozitlardan foydalanayotganini anglatadi. Milliy valyutada ajratilgan kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan nominal foiz stavkasi 2023-yil yakunidagi 24,2 foizdan 2024-yil ikkinchi choragida 23,6 foizga tushgan.

Depozitlar. 2024-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, tijorat banklari tomonidan jalb qilingan jami depozitlar hajmi 2023-yilning mos davridagiga nisbatan 1,3 barobarga o'sib, 265,4 trln. so'mni tashkil qildi. Depozitlar hajmi o'sishiga qaramay, HHI o'tgan yilning mos davridagi 664 birlikdan 693 birlikka oshdi. Bunga sabab davlat ulushi mavjud bo'lgan ba'zi banklarning jami jalb qilingan depozitlardagi ulushi ortganligidir. Jumladan, "O'zmilliybank"niki 2023-yil ikkinchi choragidagi 13,6 foizdan 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, 14,3 foizga, "Xalq banki"niki 7,4 foizdan 8 foizga, "Turon bank"niki 1,5 foizdan 2 foizga oshgan. Umuman esa, xususiy va chet el kapitali ishtirokidagi banklar tomonidan jalb qilingan depozitlar hajmi o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 1 foizga oshib, 49 foizni tashkil qilgan.

HHI (Herfindal - Hirschman indeksi)





2019-yilning yanvar oyidan 2024-yilning iyun oyigacha bo'lgan davr uchun so'mning nominal va real samarali almashuv kurslari ko'rib chiqildi

o'qish vaqti
66 soniya

Hisob-kitoblarga ko'ra, 2019-yildan 2023-yilgacha real samarali almashuv kursi 7,6 foizga mustahkamlangan, nominal samarali almashuv kursi esa deyarli 6,6 foizga pasaygan.

2024-yil boshidan real samarali almashuv kursi biroz pasaya boshladi va o'z navbatida, nominal samarali almashuv kursi deyarli bir xil darajada saqlanib qoldi.

Nominal va real samarali valyuta kurslarining o'zgarishiga 3 ta asosiy omil ta'sir ko'rsatdi:

Nominal kurs summasining o'zgarishi.

2023-yilning boshidan 2024-yilning iyun oyigacha bo'lgan davrda ichki valyuta bozorida so'm AQSh dollariga nisbatan taxminan 12 foizga qadrsizlandi. 2023-yilning boshidan buyon Rossiya (27 foiz) va Turkiya (74 foiz) da sezilarli devalvatsiya tendensiyasi kuzatilgan bo'lsa, Xitoy (6,3 foiz) va Qirg'iziston (1,4 foiz) milliy valyutalarining qadrsizlanish sur'atlari o'rtacha darajada saqlanib qoldi. E'tiborlisi, mazkur davrda Qozog'iston tengesi taxminan 1,5 foizga mustahkamlandi.


O'zbekiston va uning savdo hamkori bo'lgan mamlakatlarda narxlar darajasining o'zgarishi.

2024-yilning iyun oyidagi holatga ko'ra, Xitoyda yillik inflyatsiya 0,2 foizni, Rossiyada 8,6 foizni, Qozog'istonda 8,4 foizni, Turkiyada 71,6 foizni, Tojikistonda 3,5 foizni tashkil etdi. O'zbekistonda yillik inflyatsiya (2023-yil iyuniga kelib) 10,6 foizgacha tezlashdi.

O'zbekistonning tashqi savdosida asosiy savdo hamkorimiz bo'lgan mamlakatlar ulushi.

Respublikaning tashqi savdo aylanmasida hamkor mamlakatning ulushi qancha ko'p bo'lsa, o'zbek so'mi almashuv kursining ushbu mamlakat valyutasiga bog'liqligi shuncha yuqori bo'ladi va bu mamlakatda narxlarning o'zgarishi so'mning samarali almashuv kurslariga kuchliroq ta'sir qiladi. Natijada, Rossiya, Qozog'iston, Xitoy va Turkiyadagi inflyatsiya jarayonlari va valyuta kurslarining o'zgarishi so'mning real samarali almashuv kursi indeksi dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek so'mining nominal (NEER) va real (REER) samarali almashuv kursi



Manba: MHTI hisob-kitoblari



Tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovda respublikaning barcha hududlaridan jami 4538 ta tadbirkorlik subyekti ishtirok etdi.

Tadqiqot quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oldi:

Ishbilarmonlik muhiti. Ma'lumki, ishbilarmonlik muhiti ko'p jihatdan yer va infratuzilmaga, elektr va gaz ta'minotiga bog'liq. Shu bois ham davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan o'tkazgan navbatdagi muloqoti chog'ida tadbirkor auksiondan yer sotib olganda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash tizimi bekor qilinishi ta'kidlandi. Shuningdek, sotilgan yer bo'yicha xarid summasini 3 yildan 10 yilgacha bo'lib to'lashga ruxsat beriladi. Elektr va gaz iste'moli limitdan 20 foizgacha oshib ketsa ham bazaviy tarif saqlanib qolishi belgilanmoqda. O'tkazilgan so'rov ham bu masalalarning juda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Unda ishtirok etganlarning 75 foizi biznes muhitini o'rtachadan (6-10 ball) yuqori baholangan. Shuningdek, respondentlarning salkam 30 foizi yer olish bilan bog'liq masalada, 27 foizi tabiiy gaz, 25 foizi elektr energiyasi ta'minotida qiyinchiliklarga duch kelayotganini ma'lum qilgan.

Moliyalashtirish. Endi tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasining filiali har bir viloyatda tashkil qilinadi. Mikrokreditlar miqdori 3 karra oshirilib, 300 million so'mga yetkaziladi. Bundan tashqari mikromoliya xizmatlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga joriy yildagi 1,6 trillion so'mga qo'shimcha 1 trillion so'm resurs ajratiladi. O'tkazilgan so'rov natijalari ham bu qarorning o'z o'rnida qabul qilinganini ko'rsatmoqda. Shunga ko'ra, 2023-yilda tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatini moliyalashtirishda asosan o'z mablag'lari (84,3 foiz) va bank kreditlari (47,6 foiz) dan foydalangan.

Eksport faoliyati. Bu yo'nalishda to'siqlarni bartaraf etish, tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish uchun endilikda tarmoqlarni rivojlantirishga ajratilgan mablag' hisobidan 200 million dollar eksportoldi

moliyalash uchun ajratiladi. Ko'rilayotgan bu chora eksport hajmini oshirishga sezilarli turtki berishi kutilayapti. Sababi so'rovda qatnashgan eksport qiluvchi tadbirkorlarning 52 foizi eksport-import qoidalari, standartlashtirish va muvofiqlik talablariga amal qilishda muammo va qiyinchiliklar mavjudligini aytib o'tgan. Shuningdek, kuchli raqobat (19 foiz), savdo cheklovlari (17 foiz), logistika, saqlash va tarqatish infratuzilmasi (14 foiz) ham eksport geografiyasini kengaytirishga to'siq bo'lmoqda.


Hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash.

Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida joriy yilning 1-oktyabridan mehmonxona va turoperatorlarga to'langan QQSning 20 foizi, 1-yanvardan esa umumiy ovqatlanish korxonalariga QQSning bir qismi "keshbek" shaklida qaytarib berilish ma'lum qilindi. Respondentlarning beshdan bir qismi norasmiy sektordagi raqobatchilarning biznes muhitiga salbiy ta'sirini ta'kidlagani e'tiborga olinsa, bu o'zgarishlar iqtisodiyotning rasmiy sektorini tadbirkorlar uchun jozibador qiladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, tadbirkorlarning 70 foizi ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlaridan xabardorligi, ammo bu imtiyozlardan foydalanmagani ma'lum bo'ldi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

Zamonaviy texnologiyalar taraqqiyotning muhim bir omili ekanligi inobatga olingan holda endilikda chetdan uskuna va butlovchi qismlarni olib kelishda shartnoma muddati buzilmasa, muddati o'tgan qarzdorlik bo'lmasligi belgilandi. Bunday chora-tadbirlarning ko'rilishi bejiz emas. MHTI tomonidan o'tkazilgan so'rovda qatnashgan respondentlarning 20 foizi zamonaviy texnologiyalarni import qilish va ro'yxatdan o'tkazish, 19 foizi esa mahalliy bozordan ular uchun ehtiyot qismlarni topish qiyinligini bildirgan.

O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLARNING BIZNES MUHITINI BAHOLASHI



Manba: MHTI tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalari



Gig iqtisodiyot tadbirkorlik faolligiga qanday ta'sir qiladi?

2024-yilning oktyabr oyida Toshkent shahridagi yirik supermarketlarda 21 nomdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi ko'rib chiqildi

2016-2023 yillarda to'qimachilik sohasida tovarlar eksportining diversifikatsiyalashuv darajasi hamda eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushining o'zgarishi baholandi

2024-yilning sentyabr oyida Toshkent shahrida uy-joylar uchun ijara narxlari tahlil qilindi

O'zbekiston iqtisodiyoti uchun fiskal multiplikator ko'rsatkichi baholandi

Ona tilini bilish darajasi umumiy ta'lim darajasi va ikkinchi chet tilini o'rganishga qanday ta'sir qiladi?

2024-yilning iyul-sentyabr oylarida avtomobil narxlari tahlil etildi

Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun ijara va mulk huquqi asosida auksion orqali 2023-2024 yillarning yanvar-sentyabr oylarida tumanlar kesimida sotilgan yer maydonlari tahlili

2024-yilning III-choragida (iyul-sentyabr) O'zbekistonda turizm sohasida qayd etilgan natijalar

Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM 7) ga erishish kontekstida aholining sof energiyadan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha erishilgan natijalar ko'rib chiqildi

Davlat-xususiy sektor muloqotlarining hududlarni rivojlantirishdagi ahamiyati qanday?

O'zbekiston mahsulotlari uchun potensial eksport bozorlari aniqlandi

"Aqli qishloqlar"ni rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasi o'rganildi.



To'qimachilik sanoati eksportining tovarlar va davlatlar bo'yicha diversifikatsiyalashuvini aniqlashda Xerfindal-Xirshman indeksi (HHI) dan foydalanildi. HHI ko'rsatkichlariga ko'ra, bozordagi raqobat darajasi quyidagi 3 guruhga bo'linadi:

- yuqori (0 - 1500);
- o'rtacha (1500 - 2500);
- past (2500 - 10000).

Ma'lumot uchun: HHI bozor konsentratsiyasining o'lchovi bo'lib, raqobat darajasini aniqlashda keng qo'llaniladi. Indeksning eng kichik qiymati 0 ga yaqin bo'lib, bozordagi raqobat darajasi yuqori ekanligini bildiradi, 10 000 ga teng maksimal qiymat bozorda eksport bo'yicha 1 ta mahsulot yoki davlat to'liq monopoliyaga ega ekanligini anglatadi.

Eksport dinamikasi. 2016-2023 yillar oralig'ida to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmi 2 barobar oshdi va 2023-yilda 3,2 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. To'qimachilik mahsulotlari eksportining umumiy eksportdagi ulushi esa 2016-yildagi 13,1 foizdan 2021-yilda 18,9 foizga yetdi. 2022-2023 yillarda sohaning eksport hajmi 2021-yildagiga nisbatan mos ravishda 4,2 foiz (2022) va 0,6 foiz (2023) o'sgan bo'lishiga qaramasdan, umumiy eksportdagi ulushi pasayib, 17 foiz (2022) va 13 foiz (2023) ni tashkil etdi.

Mahsulotlar kesimidagi diversifikatsiya. Bu yo'nalishda diversifikatsiya darajasi yildan yilga yaxshilanib bormoqda. HHI ko'rsatkichi 2016-yilda 2668 ni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib, bu ko'rsatkich sezilarli darajada yaxshilandi va 1648 ga teng bo'ldi. O'rganilgan 8 yil mobaynida mamlakat to'qimachilik sohasi eksportining diversifikatsiyalashuvi past bo'lgan eksport bozoridan diversifikatsiyalashuvi o'rtacha bo'lgan bozorga aylandi.

Xomashyo eksportidan qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportiga o'tish. Paxta tolasi eksporti hajmi 2016-yildagi 637 mln. AQSh dollaridan 2023-yilda 70 ming AQSh dollargacha pasaydi.

Paxtadan yigirilgan iplarning to'qimachilik sanoati eksportidagi ulushi esa 2021-yildagi 51,1 foizdan 2023-yilda 37,9 foizgacha qisqardi. Ushbu o'zgarishlar to'qimachilik sanoatining tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bosqichiga tez sur'atlarda o'tayotganini ko'rsatadi. Xususan, 2016-2023 yillarda mashina yoki qo'lda to'qilgan trikotaj matolari (4,1 foizdan 9,7 foizga), kiyim-kechak predmetlari, mashina yoki qo'lda to'qilgan trikotaj (12,9 foizdan 27,2 foizga) va kiyim predmetlari (mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotajdan tashqari) (0,8 foizdan 4 foizga) kabi tayyor mahsulotlarning eksportdagi ulushi oshdi.

Mamlakatlar kesimida diversifikatsiya. HHI ko'rsatkichi 2016-yildagi 1606 dan 2023-yilda 2435 ga ortdi. Bu mamlakatlar kesimida diversifikatsiya darajasi pasayib borayotganini ko'rsatadi. Bunga to'qimachilik mahsulotlari eksportida Rossiyaning ulushi 2016-yildagi 29 foizdan 2023-yilda 45 foizga ortgani sabab bo'ldi. Mamlakatlar kesimida indeks qiymati yomonlashganiga qaramay, to'qimachilik sohasi ushbu davrda diversifikatsiyalashuvning o'rtacha darajasini saqlab qoldi. 2023-yilda to'qimachilik mahsulotlarining asosiy eksport bozorida Rossiyadan keyingi o'rinlarni Xitoy (13,7 foiz), Turkiya (10,4 foiz), Qirg'iziston (7,8 foiz) va Eron (3,2 foiz) egalladi.

O'zbekiston 2021-yilda GSP+ tizimiga a'zo bo'ldi va keyingi 3 yilda Yevropa Ittifoqiga to'qimachilik mahsulotlari eksportini sezilarli darajada oshirdi. Xususan, 2020-yilda 76,4 mln. AQSh dollariga, 2022-yilda esa 178,5 mln. AQSh dollariga. Biroq, 2023-yilda eksport hajmi 14 foizga kamaydi va 152,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Demak, kelgusida Yevropa Ittifoqida talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni takomillashtirish va eksport salohiyatini yanada oshirish zarur. Bu orqali O'zbekistonning eksport diversifikatsiyasini kuchaytirish va yangi bozorlarni egallash imkoniyati kengayadi.

To'qimachilik sohasidagi tovarlar eksporti diversifikatsiyasi (HHI)





Fiskal multiplikator davlat xarajatlari va daromadlar o'zgarishi natijasida iqtisodiyotda yaratiladigan qiymat qanchaga o'zgarishini aniqlab beradi. Ushbu ko'rsatkich soliq-byudjet siyosatining samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, davlatning daromad va xarajatlar yo'nalishida olib boradigan siyosatini yuritishda yordam beradi.

Tahlilga ko'ra, 2023-yilda O'zbekiston uchun fiskal multiplikator 1,34 ni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkich davlat xarajatlarining 1 trln. so'mga oshirilishi natijasida iqtisodiyotda 1,34 trln. so'mgacha bo'lgan miqdorda qo'shilgan qiymat yaratilishi mumkinligini anglatadi.

2019-yilda Garvard universiteti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda AQSH uchun geografik hududlararo fiskal multiplikator hisoblab chiqilgan. Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, AQSh uchun fiskal multiplikator 1,8 ga teng ekanligi aniqlangan.

Rejalashtirilayotgan dasturlardan kutilayotgan natijalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi PF-143 sonli Farmoni ijrosini samarali ta'minlash maqsadida "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar rejasi doirasida davlat budjetidan 6,2 trln. so'm xarajat qilinishi belgilangan.

Natijalar: "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida loyihalarni amalga oshirish orqali (fiskal multiplikator effektini inobatga olgan holda) iqtisodiyotda 8,31 trln. so'mgacha bo'lgan qo'shilgan qiymat yaratilishi mumkin.

Izoh: Mazkur tadqiqotda davlat dasturi doirasida amalga oshiriladigan loyihalarning iqtisodiyotga ta'sirini baholashda barcha turdagi fiskal multiplikatorlarning bir xil ekanligi taxmin qilindi.

Yondashuv: Mazkur tadqiqotda fiskal multiplikator ko'rsatkichi Jon Meynard Keynsning iste'molga marjinal moyillik nazariyasiga asoslangan holda baholandi. Umumiy daromadlarning ma'lum qismi import iste'moli uchun sarflanishi xarajatlar zanjirining uzilishiga olib keladi. Bu esa xarajatlarning multiplikativ ta'sirini pasaytiradi. Shu sababli, fiskal multiplikatorni baholashda iqtisodiyotda yakuniy va oraliq iste'mol uchun import xarajatlari bo'yicha to'g'rilash kiritildi.

Izoh: *Import mahsulotlari hajmi qisqa muddatda fiskal multiplikatorning iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirsada, uzoq muddatda texnologiyalarning rivojlanishi, raqobatning kuchayishi hamda iqtisodiyotda samaradorlikning oshishi orqali mamlakatda real ishlab chiqarish hajmining ortishiga va pirovardida iste'mol tovarlari importining kamayishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, dastur va loyihalarni amalga oshirish bo'yicha samaradorlikning oshishi, aholi daromadlarining ortishi bilan mahalliy tovar va xizmatlarga talabning ko'payishi fiskal multiplikatorning iqtisodiyotga ijobiy ta'siri yaxshilanishiga olib kelishi mumkin.*

Xalqaro tajriba: Keynsning iste'molga marjinal moyillik nazariyasi bo'yicha fiskal multiplikatorni hisoblash yondashuvi daromadning o'zgarishi natijasida iste'molning o'zgarishini tahlil qilishga asoslanadi. Davlat xarajatlarining multiplikativ ta'sirini aniqlashda Yevropa mamlakatlari, AQSh va Yaponiya uchun S.Charlz, T.Dalleri va J.Mari, Yevropaning 10 ga yaqin davlati, AQSh va Yaponiya uchun Sebastian Charlz, Polsha uchun K.Laski, J.Osiatinski, J.Ziyeba, Fransiya, Germaniya, Polsha uchun A.Derkacz, Fransiya va Germaniya uchun Toralf Pusch kabi olimlar Keyns nazariyasiga asoslangan klassik usuldan foydalangan.



2024-yilning avgust oyida avtomobillar narxi iyul oyidagiga nisbatan oshgan bo'lsada, sentyabr oyida narxlarda pasayish kuzatildi.

Mahalliy ommabop avtomobillar («Lacetti», «Cobalt», «Nexia», «Spark», «Damas», «Labo»)

narxlari. Joriy yilning sentyabr oyida o'rtacha va ko'p foydalanilgan ommabop avtomobillar narxi sezilarli darajada pasaygan bo'lsa, kam foydalanilgan avtomobillar narxida sezilarli o'zgarish kuzatilmadi. Xususan, avgust oyida kam foydalanilgan "Lacetti" avtomobilining ikkilamchi bozordagi narxi 4,5 foizga, o'rtacha foydalanilgani 6,0 foizga va ko'p foydalanilgani 5,4 foizga oshdi. Sentyabr oyida esa o'rtacha va ko'p foydalanilgan "Lacetti" narxlari avgust oyidagiga nisbatan mos ravishda 2,1 va 2,8 foizga hamda kam foydalanilgan "Lacetti" narxlari 0,8 foizga pasaydi.

Mahalliy ommabop avtomobil uchun sentyabr oyida taklif qilingan o'rtacha narxlar quyidagilarni tashkil qildi:

"Lacetti": kam foydalanilgan - 15 091 AQSh dollari (avgust oyida – 15210 dollar), o'rtacha foydalanilgan - 14 341 AQSh dollari (14 649 dollar), ko'p foydalanilgan - 13 044 AQSh dollari (13 420 dollar);

"Cobalt": kam foydalanilgan - 13 040 AQSh dollari (avgust oyida – 13 189 dollar), o'rtacha foydalanilgan - 12 301 AQSh dollari (12 769 dollar), ko'p foydalanilgan - 11 488 AQSh dollari (11 904 dollar);

"Spark": o'rtacha foydalanilgan - 10 078 AQSh dollari (avgust oyida – 10 390 AQSh dollari), ko'p foydalanilgan - 8 818 AQSh dollari (9 149 dollar).

Mahalliy luks avtomobillar («Malibu», «Tracker») narxi. Avgust oyida kam foydalanilgan "Malibu" uchun taklif etilgan o'rtacha narx iyul oyidagiga nisbatan 2,8 foiz, o'rtacha foydalanilganlari uchun 3,8 foiz, ko'p foydalanilganlari uchun 2,0 foiz oshgan bo'lsa, sentyabr oyida kam foydalanilgan "Malibu" uchun taklif etilgan o'rtacha narx avgust oyidagiga nisbatan 2,8 foiz, o'rtacha foydalanilganlar uchun 1,5 foiz, ko'p foydalanilganlar uchun 0,4 foiz pasaydi.

Mahalliy luks avtomobillar uchun sentyabr oyida taklif qilingan o'rtacha narxlar

quyidagicha: "Malibu": kam foydalanilgan - 29 390 AQSh dollari (avgust oyida – 30 252 dollar), o'rtacha foydalanilgan - 28 703 AQSh dollari (29 154 dollar), ko'p foydalanilgan - 24 401 AQSh dollari (24 506 dollar);

"Tracker": kam foydalanilgan - 18 500 AQSh dollari (avgust oyida – 19 284 dollar), o'rtacha foydalanilgan - 17 738 AQSh dollari (18 723 dollar), ko'p foydalanilgan - 16 647 AQSh dollari (16 956 dollar).

«Random forest» modeli: avtomobil narxlariga ta'sir etuvchi omillar. Oq rangli "Lacetti" va "Cobalt"ning bosib o'tgan masofasi ularning narxlariga yuqori darajada ta'sir etgan bo'lsa, "Damas"ning ishlab chiqarilgan yili narxni belgilashda asosiy omil bo'ldi. Shuningdek, "Lacetti" narxiga uning qora rangli ekanligi eng ko'p ta'sir etishi aniqlandi.

Avtomobillar bosib o'tgan masofasi hamda ishlab chiqarilgan yiliga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratib olindi:


- 2023-2024 yillarda ishlab chiqarilgan hamda bosib o'tgan masofasi 20 000 km. gacha bo'lgan avtomobillar – "Kam foydalanilgan";

- 2023-2024 yillarda ishlab chiqarilgan hamda bosib o'tgan masofasi 20 000 km. dan 50 000 km. gacha bo'lgan avtomobillar, shuningdek, 2021-2022 yillarda ishlab chiqarilgan hamda bosib o'tgan masofasi 40 000 km. gacha bo'lgan avtomobillar- "O'rtacha foydalanilgan";

- 2023-2024 yillarda ishlab chiqarilgan va bosib o'tgan masofasi 50 000 km. dan ko'p bo'lgan avtomobillar, 2021-2022 yillarda ishlab chiqarilgan hamda 40 000 km. dan ortiq masofani bosib o'tgan avtomobillar hamda 2020-yilda ishlab chiqarilgan barcha avtomobillar – "Ko'p foydalanilgan".

Avtomobillar narxini tahlil qilishda ma'lumotlar olx.uz platformasidan veb skreping (web scraping) orqali to'plandi. Bunda, 2020-2024 yillarda ishlab chiqarilgan avtomobillar uchun taklif etilayotgan narxlar saralab olingandan so'ng, 30,5 mingta ma'lumot asosida taklif etilayotgan narxlar tahlil qilindi. Shuningdek, avtomobillar narxiga ta'sir etuvchi omillar «Random forest» modeli yordamida aniqlandi.

Mahalliy ommabop avtomobillar





Ushbu ko'rsatkich bo'yicha mavjud bozorlar raqobat darajasiga ko'ra 3 guruhga bo'linadi: HHI 2500 dan 10000 gacha bo'lsa, raqobat darajasi past, HHI 1500 dan 2500 gacha bo'lsa, raqobat darajasi o'rtacha, HHI 1500 dan past bo'lsa, raqobat darajasi yuqori.

HHI ko'rsatkichiga ko'ra, 2019-yilning aprel oyidan boshlab depozitlar, aktivlar va kreditlar bozorida yuqori raqobat darajasi kuzatilmoqda. Ya'ni ushbu davrdan boshlab HHI ko'rsatkichi 3 ta ko'rsatkich bo'yicha ham 1500 dan past shkalada shakllanib kelmoqda.

Aktivlar. 2024-yilning 1-oktyabr holatiga ko'ra, tijorat banklar aktivlari bo'yicha hisoblangan HHI 839 birlikni (2023-yilning mos davrida 907 birlik) tashkil etdi va o'tgan chorakka nisbatan 23 birlikka yaxshilandi. 2024-yilning III choragida aktivlar hajmi 738,7 trln. so'mga yetdi va II chorak bilan taqqoslaganda 48,3 trln. so'mga, o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 123 trln. so'mga oshdi.

Xususi va chet el kapitali ishtirokidagi banklarning jami bank tizimi aktivlaridagi ulushi o'tgan yilning III choragiga nisbatan 2 foiz bandga oshib, 33 foizni tashkil etgan bo'lsa, davlat ulushi mavjud bo'lgan ikkita eng yirik bank – "O'zmilliybank" va "O'zsanoatqurilishbank"ning ulushi 1,8 foiz bandga kamaydi. Qolaversa, Qozog'istonning "Yevrosiyo banki" sho'basi ham xususi bank sifatida faoliyatini boshladi va 1-oktyabr holatiga ko'ra, mazkur bankning jami aktivlardagi ulushi 0,03 foizni tashkil qildi.

Shuningdek, ushbu davrda "Poytaxtbank" Birlashgan Arab Amirliklarining "Bond Investments limited" LLC (MCHJ) tomonidan sotib olinishi natijasida xususi banklar qatoriga qo'shildi. Bu esa xususi banklar va chet el kapitali ishtirokidagi banklarning jami bank tizimi aktivlaridagi ulushini 0,04 foiz bandga oshishiga olib keldi.

Kreditlar. Kreditlar bozorida ham raqobat darajasi yaxshilanib, 1-oktyabr holatiga ko'ra, HHI indeksi 943 birlikni (2023-yilning mos davrida 986 birlik) tashkil qildi. Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,2 foizga oshib, 515,6 trln. so'mga yetdi. Shundan jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi mos ravishda 22 foizga va 11 foizga oshdi. Tarmoqlar kesimida sanoat 14 foizga, qishloq xo'jaligi 12 foizga, savdo va xizmatlar 10 foizga oshdi.

Davlat ulushi mavjud bo'lgan top-3 ta bankning ("O'zmilliybank", "Agrobank", "O'zsanoatqurilishbank") jami kredit portfelidagi ulushi 2024-yilning II choragiga nisbatan 0,5 foiz bandga pasaydi.

Milliy valyutada jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 1-oktyabr holatiga ko'ra, 23,8 foizni (2023-yilning mos davrida 24,4 foiz), yuridik shaxslar uchun 22,7 foizni tashkil etdi.

Depozitlar. Depozitlar bo'yicha hisoblangan HHI indeksi 2024-yilning III choragida II choragiga nisbatan 36 birlikka yaxshilanib, 657 birlikni (2023-yilning mos davrida 670 birlik) tashkil qildi. Bu esa depositlar bozorida raqobat darajasi aktivlar va kreditlar bozorlariga qaraganda yuqori ekanligidan dalolat beradi. Mazkur davrda xususi va chet el kapitali ishtirokidagi banklar o'rtasida ichki raqobat kuchayib, o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda "Ipkak yo'li banki"ning jami depozitlar hajmidagi ulushi 0,8 foiz bandga, "Anorbank" va "Ipotekabank"da 0,7 foiz bandga, "Hamkorbank" va "TBC bank"da 0,3 foiz bandga oshdi. Lekin, davlat ulushi mavjud bo'lgan 3 ta yirik bankning jami bank tizimi depozitlaridagi ulushi 0,9 foiz bandga kamaydi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning milliy valyutadagi muddatli depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari 1-oktyabr holatiga ko'ra mos ravishda (yillik hisobda) 22 foizni va 16,2 foizni tashkil qildi. ■



Iqtisodiy rivojlanishdagi muammolarni hal qilish va imkoniyatlarni aniqlashda davlat va xususiy sektor vakillari o'rtasidagi muloqotlar (PPD - Public-Private Dialogue) muhim ahamiyat kasb etadi. PPD qarashlar, ustuvorliklar, maqsadlar va g'oyalarni almashish uchun hukumat va xususiy sektor o'rtasidagi rasmiy yoki norasmiy ochiq muloqot mexanizmi hisoblanadi. Mazkur yondashuv mahalliy manfaatdor tomonlarni qarorlar qabul qilish jarayonlariga jalb qilish va hududiy rivojlanish tashabbuslarida o'z so'zlarini aytishga imkon beradi.

PPD rivojlanayotgan mamlakatlarda yaqin tarixda paydo bo'lgan amaliyot bo'lib, Nicolas Pinaudning ta'kidlashicha, bu mamlakatlarda 1990-yillargacha nodavlat manfaatdor tomonlar, ayniqsa, tadbirkorlar bilan hamkorlik o'rnatishga ahamiyat qaratilmagan. Benjamin Herzberg va Andrew Wright 40 ta davlat bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida PPD orqali ishlab chiqilgan islohotlar samaraliroq amalga oshirilishini aniqlashgan.

PPD amaliyotini joriy etish qator mamlakatlarda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilgan. Jahon banki guruhining 2009-yilgi sharhida 50 dan ortiq turli sohalarda amalga oshirilgan 30 ga yaqin PPD natijasida xususiy sektorda 400 million dollardan ko'proq mablag'lar tejalgani ta'kidlanadi.

1998-yilda Misrda Bog'dorchilik eksportini yaxshilash uyushmasi tashkil etilib, PPD o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yilishi bilan 2000-2008 yillar oralig'ida mamlakatning sitrus sektori eksporti hajmi 5 barobar, qiymati esa 14 barobar oshgan.

Ispaniyada Barselona 22@ PPD tashabbusi 10 yildan kamroq vaqt ichida 1500 dan ortiq kompaniyalarni jalb qildi va 45 mingga yaqin ish o'rinlari yaratdi. «Empresaris pel Solsonès» uyushmasi (Solsones uchun tadbirkorlar), mahalliy tadbirkorlar va hudud vakillari hamkorligida qishloq turizmiga qaratilgan turli harakatlar natijasida esa 1996-2006 yillarda Solsonesda aholi jon boshiga YaHM 2 barobar ortdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi "Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish va bo'sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-245-sonli qarorida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) va Germaniya xalqaro hamkorlik tashkiloti (GIZ) bilan hamkorlikda hududlarni kompleks iqtisodiy rivojlantirish master-rejalarini ishlab chiqish belgilangan.

Master-rejalarni ishlab chiqish jarayonida pastdan yuqoriga yondashuvi (bottom-up approach) qo'llanmoqda. An'anaviy yuqoridan pastga metodidan (top-down approach) farqli ravishda pastdan yuqoriga rivojlanish yondashuvida individual yoki mahalliy darajadan boshlab kattaroq tuzilmalarni qurishga urg'u beriladi. Ushbu uslub asosida hududlarni rivojlantirish drayverlarini aniqlashda instrument sifatida davlat-xususiy sektor muloqotlaridan (PPD - Public Private Dialogue) foydalanilmoqda.

Bugungi kunda MHTI va GIZ hamkorligida master-rejalar doirasida amalga oshiriladigan loyihalar va chora-tadbirlar bankini shakllantirish maqsadida Bulung'ur, Kattaqo'rg'on, Xiva hamda Hazorasp tumanlarida davlat-xususiy sektor muloqotlari o'tkazildi. Ta'kidlash lozimki, PPD jarayonida shakllantirilgan chora-tadbirlar amaliyotga joriy qilina boshladi. Jumladan, Bulung'ur tumanining master-rejasi doirasida tumanda «Pomidor sayli» o'tkazildi. ■



2024-yilning oktyabr oyida ikkilamchi avtomobil bozorida "Lacetti", "Damas", "Labo" narxlari pasayishda davom etdi. "Spark"ning o'rtacha narxi biroz ko'tarilgan bo'lsa, "Cobalt" va "Nexia" narxlarida deyarli o'zgarish kuzatilmadi.

Mahalliy ommabop avtomobillar narxi. Joriy yilning oktyabr oyida ikkilamchi bozorda ko'p foydalanilgan "Lacetti", "Damas", "Labo" avtomobillarining o'rtacha narxlari sentyabr oyidagiga nisbatan mos ravishda 1,5 foizga, 6,3 foizga va 2,0 foizga pasaygan bo'lsa, o'rtacha foydalanilganlarining narxlari mos ravishda 0,3 foizga, 0,6 foizga va 3,5 foizga arzonlashdi. Ko'p foydalanilgan "Spark" avtomobilining o'rtacha narxi 2,2 foizga, o'rtacha foydalanilganining narxi 2,9 foizga oshgan bo'lsa, "Cobalt" va "Nexia" narxlarida sezilarli o'zgarish kuzatilmadi.

Mahalliy ommabop avtomobillar uchun oktyabr oyida taklif qilingan o'rtacha narxlar quyidagilarni tashkil qildi:

"Lacetti": kam foydalanilgan - \$15 236 (\$15 452), ko'p foydalanilgan - \$13 300 (\$13 500);
"Damas": kam foydalanilgan - \$8 250 (\$8 300), ko'p foydalanilgan - \$7 500 (\$8 000);
"Spark": o'rtacha foydalanilgan - \$10 500 (sentyabr oyida - \$10 200), ko'p foydalanilgan - \$9 200 (\$9 000).

Mahalliy luks avtomobillar narxi. Joriy yilning oktyabr oyida mahalliy luks avtomobillardan "Equinox" narxi sezilarli o'zgargan bo'lsa, "Malibu" va "Tracker" narxlari deyarli o'zgarmadi. Jumladan, mazkur davrda kam va o'rtacha foydalanilgan "Equinox"ning o'rtacha narxlari sentyabr oyidagiga nisbatan mos ravishda 1,5 foizga va 6,3 foizga arzonlagan bo'lsa, ko'p foydalanilganining narxi 1,9 foizga oshdi.

"Equinox" uchun oktyabr oyida taklif qilingan o'rtacha narxlar quyidagicha:
kam foydalanilgan - \$33 000 (\$33 500),
o'rtacha foydalanilgan - \$30 000 (\$32 000); ko'p foydalanilgani - \$27 000 (\$26 500).

Elektromobil narxlari: Joriy yilning oktyabr oyida elektromobillar narxi sezilarli darajada arzonlashdi.

Xususan, ko'p foydalanilgan BYD "Han" avtomobilining o'rtacha narxi 10,2 foizga,

o'rtacha foydalanilganining narxi 2,6 foizga hamda yangisining narxi 2,2 foizga pasaydi. O'rtacha foydalanilgan BYD "Song Plus EV Chempion"ning narxi 7,5 foizga, yangisini 1,2 foizga arzonlashdi.

Elektromobillar uchun oktyabr oyida taklif qilingan o'rtacha narxlar quyidagicha:

BYD "Han": ko'p foydalanilgan - \$31 450 (\$35 000), o'rtacha foydalanilgan - \$37 000 (\$38 000);
BYD "Song Plus EV Chempion": o'rtacha foydalanilgan - \$27 500 (\$29 750); yangi - \$29 000 (\$29 350)

"Random Forest" modeli: avtomobillar narxiga ta'sir etuvchi omillar. "Malibu" va "Tracker"ning narxiga ularning bosib o'tgan masofasi yuqori darajada ta'sir etib, ishlab chiqarilgan yili katta ta'sir etmasligi aniqlandi.

Avtomobillar bosib o'tgan masofasi hamda ishlab chiqarilgan yiliga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratib olindi:


- 2023-2024-yillarda ishlab chiqarilgan hamda bosib o'tgan masofasi 20 000 km. gacha bo'lgan avtomobillar – **"Kam foydalanilgan"**;
- 2023-2024-yillarda ishlab chiqarilgan hamda bosib o'tgan masofasi 20 000 km. dan 50 000 km. gacha bo'lgan avtomobillar, shuningdek, 2021-2022-yillarda ishlab chiqarilgan hamda bosib o'tgan masofasi 40 000 km. gacha bo'lgan avtomobillar – **"O'rtacha foydalanilgan"**;
- 2023-2024-yillarda ishlab chiqarilgan va bosib o'tgan masofasi 50 000 km. dan ko'p bo'lgan avtomobillar, 2021-2022-yillarda ishlab chiqarilgan hamda 40 000 km. dan ortiq masofani bosib o'tgan avtomobillar hamda 2020-yilda ishlab chiqarilgan barcha avtomobillar – **"Ko'p foydalanilgan"**.

Avtomobillar narxini tahlil qilishda ma'lumotlar olx.uz platformasidan veb skreping (web scraping) orqali to'plandi. Bunda, 2020-2024-yillarda ishlab chiqarilgan avtomobillar uchun taklif etilayotgan narxlar saralab olingandan so'ng, sentyabr oyi uchun 8,4 mingta, oktyabr oyi uchun 16,0 mingta ma'lumotlar asosida taklif etilgan narxlar tahlil qilindi. Shuningdek, avtomobillar narxiga ta'sir etuvchi omillar «Random Forest» modeli yordamida aniqlandi.

Mahalliy ommabop avtomobillar



Mahalliy lyuks avtomobillar





Tahlillarga ko'ra quyidagilar aniqlandi:

2024-yilning III-choragida O'zbekiston avtomobil bozorida faollik darajasi oshgan bo'lsada, 2023-yilgi darajada emas. Xususan, joriy yilning iyul-sentyabr oylarida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan avtomobillar soni 352,8 mingtani tashkil qilib, II-chorakdagiga nisbatan 76,8 mingtaga (27,8 foizga) ko'paydi. Biroq, bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davridagiga nisbatan 19,9 foiz kam.

Tahlillar tijorat banklari tomonidan ajratilgan avtokreditlar va aholining tasarrufdagi daromadlari avtomobil bozorida faollik darajasiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Xususan, 2021-yil yanvar oyidan 2024-yil sentyabr oyigacha bo'lgan davrda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan avtomobillar soni va aholiga ajratilgan avtokreditlar hajmi o'rtasida (korrelyatsiya koeffitsiyenti = 0,72), shuningdek, aholi daromadlari va avtomobillar savdosi o'rtasida (korrelyatsiya koeffitsiyenti = 0,42) mavjudligi aniqlandi.

Joriy yilning dastlabki 9 oyida banklar tomonidan aholiga jami 12,8 trln. so'm miqdorida avtokreditlar ajratilgan bo'lib, 2023-yilning mos davridagiga nisbatan 2,4 barobarga kamaygan. Birgina III-chorakda ajratilgan avtokreditlar II-chorakdagiga nisbatan 16,9 foizga va 2023-yilning mos davridagiga nisbatan 3,0 barobarga kamaygan.

Tahlillarga ko'ra, ajratilgan kreditlarning o'sish sur'ati so'nggi 3 yildagi o'rtacha darajada saqlanib qolsa, yil oxiriga qadar har oyda o'rtacha 115,0-118,0 mingta avtomobil davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kutilmoqda.

Ma'lumot uchun: 2023-yilning IV-choragida har oyda o'rtacha 154,8 mingta avtomobillar oldi-sotdisi bo'yicha shartnoma imzolangan. Avtokreditlarning sezilarli darajada kamayishi sharoitida, avtomobil korxonalari va dilerlar tomonidan ayrim avtomobillar savdolari uchun chegirmalarning kiritilishi ("GM Uzbekistan", "BYD", "KIA"), foizsiz muddatli to'lovlarning joriy etilishi ("GM Uzbekistan", "BYD", "Cherry") bozorda o'tgan yillar darajasidagi talabni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan choralar sifatida qaralishi mumkin.

Tahlil jarayonida Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan avtomobillar soni hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining avtokreditlar bo'yicha ma'lumotlaridan foydalanildi.

Prognoz MIDAS (Mixed-data sampling) usulidan foydalangan holda EViews statistik dasturi orqali amalga oshirildi. MIDAS choraklik va oylik statistik ma'lumotlarni birlashtirish asosida baholash hamda prognoz qilish imkonini beradi.

Prognoz ko'rib chiqilayotgan modelning bir nechta regressiyalarini o'rtacha baholash asosida amalga oshirildi. ■

Avtomobil bozorida faollik darajasi





O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) hamda Link Data kompaniyasi mutaxassislari tomonidan hamkorlikda O'zbekistonda 2012-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda hududiy darajada tungi yorug'lik ma'lumotlari va yashirin iqtisodiyot hajmining o'zgarishi tahlil qilindi.

Tahlilda Suomi milliy qutb-orbitada aylanib yuruvchi hamkorlik sun'iy yo'ldoshi (Suomi NPP) va NOAA-20 sun'iy yo'ldoshi bortiga joylashtirilgan zamonaviy asbob – Ko'rinadigan va infraqizil tasvir olish radiometriya to'plami (Visible Infrared Imaging Radiometer Suite – VIIRS) tomonidan to'plangan ma'lumotlar hamda rasmiy statistika ma'lumotlaridan foydalanildi.

Hududlar bo'yicha 1 kvadrat km. maydonga to'g'ri keluvchi tungi yoritilganlik darajasi eng yuqori bo'lgan hudud Toshkent shahri bo'lib, poytaxtda ushbu ko'rsatkich 2017-yildagi 97,8 dan 137,7 ga (40,8 foizga) oshgan. Mazkur davrda Toshkent shahrida iqtisodiy faollik 8 marotaba ko'paygan bo'lsa, yashirin iqtisodiyot hajmining yalpi hududiy mahsulotga (YaHM) nisbatan ulushi 9,5 foizdan 11,7 foizga oshgan.

Xizmat ko'rsatish sohasi jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan Samarqand viloyatida 2023-yilda 1 kvadrat km. uchun tungi yoritilganlik darajasi (7,6) 2017-yildagiga (4,2) nisbatan 80 foiz oshgan bo'lsa, yashirin iqtisodiyotning YaHMga nisbati 6,3 foizdan 10,3 foizga yetgan.

Farg'ona vodiysi viloyatlarida tungi chiroqlar bilan yoritilganlik darajasi yaxshilanishi bilan birga, yashirin iqtisodiyot ko'lami ham kengayib borgan. Xususan, Namangan viloyatida 1 kvadrat km. maydonga to'g'ri keluvchi tungi yoritilganlik ko'rsatkichi 2017-yildagi 5,7 dan 2023-yilda 8,1 ga (o'sish – 40 foiz) yetgan. O'z navbatida, ushbu viloyatda yashirin iqtisodiyotning YaHMga nisbati 2023-yilda 14,2 foizni tashkil etgan va 2017-yildagiga (9,7 foiz) nisbatan 4,5 foiz bandga ko'paygan. Bu ko'rsatkich Respublika bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur davrda Farg'ona viloyatida 1 kvadrat km. maydonga to'g'ri keluvchi tungi yoritilganlik darajasi 70 foizga (7 dan 11,9 ga) yaxshilangan bo'lsa, baholangan yashirin iqtisodiyot hajmining YaHMga nisbati 10,4 foizdan 12,2 foizga yetgan.

Respublikada aholi zichligi bo'yicha 1-o'rinda turuvchi Andijon viloyatida 2017-2023 yillar oralig'ida tungi yoritilganlik darajasi 42 foizga (10,9 dan 15,5 ga) oshgan bo'lsa-da, yashirin iqtisodiyotning YaHMga nisbatan ulushi deyarli o'zgarmagan va 8 foiz atrofida saqlanib qolgan.

2017-2023 yillarda Qashqadaryo viloyatida tungi yoritilganlik darajasi 1 kvadrat km. maydon uchun 6 foizga (6,3 dan 6 ga) kamaygan bo'lsa, YaHM hajmiga nisbatan yashirin iqtisodiyot ko'lami 11 foizdan 12 foizga oshgan.


O'zgarmas effekt (fixed effect) modeli asosida amalga oshirilgan ekonometrik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tungi yoritilish darajasi yashirin iqtisodiyotning qariyb 39,4 foizini o'zida aks ettiradi.

Ushbu tadqiqot norasmiy iqtisodiyotning hajmi va taqsimoti haqida tushuncha berib, iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, urbanizatsiya, iqtisodiy faollik, iqtisodiy tengsizlikni baholash va boshqa ko'rsatkichlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. ■

Yashirin iqtisodiyot – qonun bilan man'i qilmagan, ammo soliqqa tortilmislik va qonun hujjatlari ta'abiriga rioya qilmislik maqsadida davlat organlaridan atarilib berilmislik iqtisodiy faolliyat.
Norazm iqtisodiyot – uy korxonalari yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan tartibda no'xatidan o'tmagan holda amalga oshiriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) bilan bog'liq iqtisodiy faolliyat.

Toshkent
34 176 — Hudud nomi
7 605 — Ushbu hududda norazm iqtisodiyot hajmi, mlrd. so'm
7 605 — Ushbu hududda yashirin iqtisodiyot hajmi, mlrd. so'm

Yalpi hududiy mahsulot, trln. so'm




Hududlar: eopdata.nimco.edu, statstat.us, worldbank.org | Link Data | Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti

Har 1 km² ga yoritilganlik (2017-23)
2017 7,8 2023 137,8

Hududlarda yashirin iqtisodiyot hajmi (2023)
Oq nuqtalar - hududlar
Kok nuqtalar - Toshkent shahri

Har bir dala o'zining haqiqiy qiymatini aks ettirad va ular orasidagi farqlar real ko'rsatkichlarga mos ravishda ko'rsatilgan.
Bu esa diqqatmadagi ma'lumotlarni osongina tushunish va viloyatlar o'rtasidagi farqlarni aniq solishtirish imkonini beradi.

Hududlar bo'yicha 1 km² ga to'g'ri keladigan o'rtacha yoritilganlik har bir viloyatning umumiy yoritilganlik yigindisini jami maydoniga nisbati sifatida hisoblandi. Misol uchun, Toshkent shahri umumiy yoritilganlik intensivligi 2017-yilda 97,8 tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 137,8ga yetib, 40,8% oshgan.





Izoh: ushbu indeks 10 ta asosiy savdo hamkorimizdan tashkil topgan kichik guruh (umumiy tashqi savdo aylanmasining 70 foizi) va 20 ta asosiy savdo hamkorimizdan tashkil topgan katta guruh (83 foizi) uchun alohida hisoblandi.

Tahlil natijalariga ko'ra, joriy yilning III-choragida ikki guruh bo'yicha hisoblangan real samarali almashuv kursi ham biroz pasaydi. Xususan, 2024-yilning aprel-iyun oylarida ushbu indekslar mos ravishda o'rtacha 106,4 ni va 105,2 ni tashkil etgan bo'lsa, iyul-sentyabr oylariga kelib, mazkur ko'rsatkichlar 106,1 va 104,9 gacha tushdi (2019-yil yanvar = 100,0).

Izoh: Iqtisodiyotda real samarali almashuv kursining pasayishi, boshqa omillar o'zgarmas, deb qaralganda eksport narxlarining arzonlashishi va import narxlarining qimmatlashishiga olib keladi. Bu esa eksport hajmining ortishi va import hajmining kamayishi natijasida tashqi savdo balansiga ijobiy ta'sir etishi mumkin.

2024-yilning III-choragida umumiy eksport hajmi (6,78 mlrd. AQSh dollari) va umumiy import hajmi (9,60 mlrd. AQSh dollari) o'rtasidagi tafovut (2,8 mlrd. AQSh dollari) 2023-yilning mos davridagiga (4,57 mlrd. AQSh dollari) nisbatan 38,4 foizga kamaygan bo'lsa, oltinsiz eksport hajmi (5,18 mlrd. AQSh dollari) va jami import hajmi o'rtasidagi tafovut (4,41 mlrd. AQSh dollari) o'tgan yilning mos davridagiga (5,83 mlrd. AQSh dollari) nisbatan 24,3 foizga qisqargan.

2024-yil III-chorakda REER indeksining pasayishi o'zbek so'mining eng yirik savdo hamkorlarimiz hisoblangan Rossiya va Xitoy milliy valyutalariga nisbatan qadrsizlanishi (II-chorakdagiga nisbatan mos ravishda 0,86 va 1,0 foizga) hamda Turkiyadagi yuqori inflyatsiya bilan izohlanadi.

Yil oxiriga qadar so'mning mo'tadil devalvatsiyasi fonida real samarali almashuv kursi nisbatan barqaror darajada shakllanishi prognoz qilinmoqda.

Umuman olganda, real samarali almashuv kursiga quyidagi omillar bevosita va bilvosita ta'sir qiladi:

- o'zbek so'mining xorijiy valyutalarga nisbatan nominal almashuv kursi (devalvatsiya/ revalvatsiya);
- ichki narxlar darajasi (inflyatsiya);
- xorijiy narxlar darajasi (asosiy savdo hamkori bo'lgan davlatlardagi inflyatsiya);
- tashqi savdoda asosiy savdo hamkorlarimiz va ular hissasining o'zgarishi (tashqi savdo diversifikatsiyasi);
- foiz stavkalari;
- davlat byudjeti balansi (iqtisodiyotdagi talab).



Tahlil davomida IPI (Investment Performance Index - Investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi indeksi) indeksidan foydalanildi. Ushbu indeksning me'yordagi ko'rsatkichi 1,00 ga teng bo'lib, u investitsiyalarni jalb qilish siyosati yaxshi yo'lga qo'yilganini bildiradi. Indeks qiymatining me'yordan yuqoriligi jalb qilinayotgan investitsiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlari mavjudligini, aksincha past qiymatlar hududga qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilishga e'tibor qaratish zarurligini anglatadi.

2024-yilning yanvar-sentyabr oylarida respublika bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 343,1 trln. so'mga yetgan. Bu 2023-yilning mos davridagiga nisbatan 1,3 marotaba ko'p. Xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 1,6 barobar oshgan va 233,0 trln. so'mga teng bo'lgan.

2024-yilning dastlabki to'qqiz oyi ma'lumotlari asosida hisoblangan IPI indeksiga ko'ra, quyidagilar aniqlandi:

Aksariyat hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha me'yor ko'rsatkichga qaraganda yuqori qiymatlar saqlanib qolmoqda. Bu borada Buxoro (2,15), Namangan (1,91) va Jizzax (1,70) viloyatlari boshqalarga nisbatan ajralib turibdi. Surxondaryo (1,06) va Andijon (0,93) viloyatlarida me'yordagi ko'rsatkichga yaqin qiymatlar qayd etildi.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar bo'yicha Buxoro (2,92) va Namangan (2,06) viloyatlarida me'yordagidan ancha yuqori natijalar kuzatildi. Andijon (1,08) va Navoiy (0,99) viloyatlarida me'yor ko'rsatkichiga yaqin qiymat qayd etildi. Toshkent shahrida (0,54) indeks 1 dan ancha past bo'ldi.

Shuningdek, tadqiqot davrida qayd etilgan ko'rsatkichlarni avvalgi uch chorak natijalari bilan taqqoslash asosida quyidagilar aniqlandi:

So'nggi yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarining hajmi ortib borishi IPI indeksi qiymatlarining tebranishiga kuchli ta'sir saqlanib qolmoqda.

Xususan, Buxoro va Namangan viloyatlarida xorijiy investitsiyalar hisobiga amalga oshirilgan loyihalar yuqori indeks qiymatlarining shakllanishiga sabab bo'lgan.

Kristian Lessmann 1980-2009 yillarda dunyoning 55 ta mamlakati bo'yicha olib borgan tadqiqoti davomida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning notekis taqsimlanishi hududlar miqyosida nomutanosiblikka olib kelishi mumkinligini aniqlangan.

Shuningdek, aholining hududlar orasida yuqori mobilligi va davlatlarning resurslarni samarali qayta taqsimlash siyosati kabi omillar yuqoridagi salbiy ta'sirni kamaytirishi mumkinligi qayd etilgan.

Ta'kidlash kerakki, IPI indeksi hududlar miqyosida investitsiyalarning miqdor ko'rsatkichlari asosida tahlil qilingan bo'lib, ularning sifat ko'rsatkichlarini anglatmaydi.

2024-yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi IPI indeksi

Meyorda

Normal ko'rsatkich anisbatan kaim — Normal ko'rsatkichga nisbatan ko'p

	2023 - Q4		2024 - Q1		2024 - Q2		2024 - Q3	
	AKI*	TTXIK**	AKI*	TTXIK**	AKI*	TTXIK**	AKI*	TTXIK**
Buxoro viloyati	1,78	2,20	2,36	2,90	2,35	2,92	2,15	2,76
Namangan viloyati	1,33	1,30	2,25	2,62	1,77	2,06	1,91	2,35
Jizzax viloyati	1,51	1,91	1,64	1,28	1,55	1,92	1,70	1,21
Toshkent viloyati	1,25	1,39	1,25	1,23	1,36	1,37	1,46	1,50
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1,10	1,18	1,37	1,53	1,49	1,60	1,37	1,48
Sirdaryo viloyati	2,16	3,69	1,34	0,90	1,29	1,55	1,34	1,63
Qashqadaryo viloyati	1,12	1,10	1,73	2,06	1,62	1,88	1,27	1,38
Surxondaryo viloyati	1,33	1,66	1,83	2,01	1,13	1,20	1,06	1,12
Andijon viloyati	0,81	1,00	1,06	1,10	0,88	1,00	0,93	1,08
Toshkent shahri	1,13	0,60	0,79	0,44	0,94	0,54	0,89	0,48
Samarqand viloyati	1,09	0,91	1,04	1,01	1,02	0,91	0,86	0,66
Navoiy viloyati	0,96	1,11	0,94	1,15	0,86	0,96	0,85	0,99
Farg'ona viloyati	0,93	0,88	0,89	0,73	0,77	0,75	0,77	0,74
Xorazm viloyati	0,99	0,83	0,74	0,70	0,81	0,73	0,72	0,62

* Asosiy kapitalga investitsiyalar IPI indeksi
 ** To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar IPI indeksi



Mazkur davrda o'rtacha foydalanilgan mahalliy ommabop avtomobillar hamda xorijiy luks avtomobillarning o'rtacha narxlarini pasaygan bo'lsa, mahalliy luks va elektromobillarning narxlarida sezilarli o'zgarish kuzatilmadi.

Mahalliy ommabop avtomobillarning narxlarini.

Joriy yilning noyabr oyida ikkilamchi bozorda oktyabr oyidagiga nisbatan:

- «Onix»: o'rtacha foydalanilgan - 4.8%ga (\$14 600 dan \$13 900 ga), kam foydalanilgan - 5,4%ga (\$14 900 dan \$14 100 ga);
- «Lacetti»: o'rtacha foydalanilgan - 1.4%ga (\$14 700 dan \$14 500 ga), kam foydalanilgan - 1,1%ga (\$15 200 dan \$15 031 ga);
- «Nexia»: o'rtacha foydalanilgan - 0.9%ga (\$11 500 dan \$11 400 ga);
- «Spark»: o'rtacha foydalanilgan - 0.8%ga (\$10 485 dan \$10 400 ga);
- «Labo»: o'rtacha foydalanilgan - 2.4%ga (\$8 300 dan \$8 100 ga);
- «Damas»: o'rtacha foydalanilgan - 0.9%ga (\$8 200 dan \$8 125 ga), ko'p foydalanilgan - 1%ga (\$7 600 dan \$7 527 ga) arzonlagan.

Mahalliy luks avtomobillarning narxlarini.

Mazkur davrda kam va o'rtacha foydalanilgan «Malibu» avtomobilining o'rtacha narxlarini mos ravishda 3,0% (\$30 100 dan \$31 000 ga) va 1,7%ga (\$29 000 dan \$29 500 ga) oshgan bo'lsa, ko'p foydalanilgan «Equinox» ning o'rtacha narxi 1.9%ga (\$27 000 dan \$26 500 ga) tushdi. Shuningdek, «Tracker» narxlarida o'zgarish kuzatilmadi.

Elektromobillarning narxlarini: Joriy yilning noyabr oyida o'rtacha foydalanilgan BYD «Han» va BYD «Yuan Up» elektromobillarining o'rtacha narxlarini mos ravishda 1,6% (\$36 500 dan \$35 900 ga) va 2,4%ga (\$21 000 dan \$20 500 ga) pasaygan bo'lsa, yangi BYD «E2» elektromobili 3,1%ga (\$16 700 dan \$17 216 ga) qimmatlashdi. BYD «Song Plus EV Chempion»ning narxi deyarli o'zgarmadi (yangi - \$29 000, o'rtacha foydalanilgan - \$26 600).


Xorijiy luks avtomobillarning narxlarini. Hyundai «Elantra» va Kia «Sportage» rusumli kam foydalanilgan avtomobillarning o'rtacha narxlarini mos ravishda 2,2% (\$23 000 dan \$22 500 ga) va 1,5%ga (\$32 500 dan \$32 000 ga), o'rtacha foydalanilgan esa 1,6%ga («Elantra» - \$22 000 dan \$21 650 ga va Kia «Sportage» - \$31 500 dan \$31 000 ga) pasaydi. Shuningdek, ko'p foydalanilgan Kia «K5» va Kia «Sportage» avtomobillar ham mos ravishda 1,2% (\$26 300 dan \$25 990 ga) va 3,4% ga (\$31 000 dan \$29 950 ga) arzonlashgan bo'lsa, Hyundai «Tucson» (ko'p foydalanilgan - \$25 000, kam foydalanilgan - \$33 000), Hyundai «Santa FE» (ko'p foydalanilgan - \$35 000, kam foydalanilgan - \$45 900) rusumli avtomobillar narxida sezilarli o'zgarish kuzatilmadi.

Avtomobillar bosib o'tgan masofasi hamda ishlab chiqarilgan yiliga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratib olindi:


- 2023-2024 yillarda ishlab chiqarilgan hamda bosib o'tgan masofasi 20 000 km. gacha bo'lgan avtomobillar – «Kam foydalanilgan»;
- 2023-2024 yillarda ishlab chiqarilgan hamda bosib o'tgan masofasi 20 000 km. dan 50 000 km. gacha bo'lgan avtomobillar, shuningdek, 2021-2022 yillarda ishlab chiqarilgan hamda bosib o'tgan masofasi 40 000 km. gacha bo'lgan avtomobillar – «O'rtacha foydalanilgan»;
- 2023-2024 yillarda ishlab chiqarilgan va bosib o'tgan masofasi 50 000 km. dan ko'p bo'lgan avtomobillar, 2021-2022-yillarda ishlab chiqarilgan hamda 40 000 km. dan ortiq masofani bosib o'tgan avtomobillar hamda 2020-yilda ishlab chiqarilgan barcha avtomobillar – «Ko'p foydalanilgan».

Avtomobillarning narxlarini tahlil qilishda ma'lumotlar olx.uz platformasidan veb skreping (web scraping) orqali to'plandi. Bunda, 2020-2024-yillarda ishlab chiqarilgan avtomobillar uchun taklif etilayotgan narxlar saralab olingandan so'ng, oktyabr oyi uchun 16,0 mingta, noyabr oyi uchun 17,3 mingta ma'lumot asosida taklif etilgan narxlar tahlil qilindi.

Mahalliy ommabop avtomobillar



Mahalliy lyuks avtomobillar





Mehnat bozorida axborot asimmetriyasi bu ish beruvchilar va ish izlovchilar o'rtasidagi ma'lumotlarning notekis taqsimlanishi bo'lib, mehnat bozori dinamikasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mehnat bozori ishtirokchilari, ko'nikmalarni shakllantiruvchi o'quv markazlari, ish beruvchilar, ta'lim muassasalari, yoshlar va ularning otanalari, hudud va tarmoq bo'yicha strategik qarorlarni qabul qiluvchilarning o'zaro maqbul munosabatga kirishishi bir-birining ehtiyoji va kutilmalari borasida ma'lumotga ega bo'lishiga bog'liq.

Bunda mehnat bozori, tarmoq yoki hududlar kesimida joriy va kelgusi talab haqidagi tizimli tahlil muhim ahamiyat kasb etadi. Oylik maoshlar dinamikasi, eng ko'p so'ralayotgan kasbiy malaka, hududda talab eng yuqori bo'lgan kasblar cheklangan moliyaviy resurslar va inson resurslarini yanada maqbulroq taqsimlashga imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) mehnat bozorida axborot asimmetriyasini kamaytirish maqsadida «Mehnat bozori va kadrlar tayyorlash tizimini o'zaro muvozanatlashtirishgan holda rivojlantirish masalalari» mavzusidagi sharhini tayorladi.

Sharhda hududlar kesimida eng ko'p so'ralgan kasblar, mehnat bozorida joriy talab va boshqa ma'lumotlar keltirilgan.

Batafsil sharhni yuklab olish (o'qish vaqti 7 daqiqa)

Institut mazkur yo'nalishda ishlab chiqilayotgan platformani rivojlantirishda manfaatdor taraflarni hamkorlikka chaqirib qoladi.



2023-yilning 10 oyi davomida O'zbekistonga kelgan xorijlik sayyohlar soni 4,9 million nafarga yetdi. Shuni ta'kidlash lozimki, oxirgi uch yilda turistlar oqimi qariyb 3 barobar ko'paydi, ya'ni 2021-yilda xorijlik sayyohlar soni 1,8 million nafarni tashkil qilgandi.

Ma'lumot uchun: 2023-yilda O'zbekiston Amerikaning Travel Lemming onlayn sayohat qo'llanmasida dunyodagi 50 ta eng yaxshi sayyohlik yo'nalishi ro'yxatidan joy oldi va 9-o'rinni egalladi. Ushbu qo'llanma har yili dunyo bo'ylab yangi yo'nalishlar va o'ziga xos noyob maskanlar haqida ma'lumot beradi va uni 6 milliondan ko'proq sayohatchi o'qiydi.

2023-yilning 10 oyi davomida turizm xizmatlari eksporti 1 milliard 830 million dollarni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2018-yilda 1 milliard 041,1 million dollarni tashkil etgandi. 2023-yilda sayyohlar sonining sezilarli darajada oshishi hisobiga turizm xizmatlari eksporti 2 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

Ma'lumot uchun: Dunyodagi 91 ta mamlakat fuqarolari O'zbekistonga kelish uchun vizasiz tartibdan foydalanishi mumkin. Taqqoslaydigan bo'lsak, Qozog'istonga 26 ta, Turkiyaga 41 ta, Gruziyaga esa 56 ta mamlakat fuqarolari vizasiz kela oladi.

Qayd etilayotgan natijalar sohaning salohiyati katta ekanligidan dalolat beradi. Shu bois sohada infratuzilma obyektlarini yanada ko'paytirish va ichki turizm imkoniyatlaridan samarali foydalanishga e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda ichki turizmning rivojlanishini baholash maqsadida MHTI mutaxassislari tomonidan onlayn so'rov o'tkazildi va unda mamlakatimizning barcha viloyatlaridan 1282 nafar respondent ishtirok etdi. So'rov natijalari mamlakatimiz bo'ylab amalga oshirilayotgan sayohatlarning deyarli 50 foizi 4 ta hudud, ya'ni Samarqand (15,8 foiz), Buxoro (9,4 foiz), Toshkent (10,6 foiz) viloyatlari va Toshkent shahri (11,4 foiz) ning hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.

Shuningdek, sayohatni qaysi ko'rinishda amalga oshirasiz, degan savolga respondentlarning 81,2 foizi "mustaqil ravishda", 15,5 foizi "ish joyidan uyushtirilgan holda", 2,4 foizi "turoperatorlar yordamida", deya javob bergan. So'rov hamyurtlarimiz sayohatga asosan shaxsiy avtomobili (56,8 foiz) va poyezd (17,3 foiz) da chiqishini ko'rsatdi.

MHTI mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalaridan kelib chiqib, ichki turizmni yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni bildirish mumkin:

- "Turistik mahalla", "Turistik hudud" maqomiga ega aholi punktlarining reyestrini shakllantirish va elektron platformani ishlab chiqish;
- asosiy turistik salohiyatdan kelib chiqqan holda har bir hududning o'z brendini shakllantirish.

Ma'lumot uchun: Respublikaning turistik salohiyatini targ'ib qilish va turistlar oqimini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 28 ta xorijiy davlatdagi diplomatik vakolatxonalariga mablag' ajratildi, shuningdek, joriy yilning 10 oyi davomida 16 ta xalqaro turistik yarmarkada milliy turizm stendi va tadbirkorlik subyektlari ishtiroki ta'minlandi.

2018-2023 YILLARDA O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR NATIJASI

O'zbekistonga kelgan xorijiy sayyohlar (ming nafar)




Sayyohlik xizmatlari eksporti hajmi (ming AQSh dollari hisobida)



Ichki sayyohlar (ming nafar)



Sayyohlarni joylashtirish vositalari (birlikda)



Mehmon uylari (birlikda)



Xostellar (birlikda)



Sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi subyektlar va obyektlar (birlikda)



Turagentlar (birlikda)



Gid-ekskursovodlar (nafar)





Infratuzilma va kommunikatsiya imkoniyatlarining yuqori bo'lishi, korxonalar va aholining markazga intilishi tufayli shaharlar mamlakatda ko'rsatilgan xizmatlar hajmining katta qismini ta'minlaydi. Masalan, Buyuk Britaniya xizmat ko'rsatish sektori eksportining deyarli yarmi London hissasiga to'g'ri kelib, shaharning ulushi 2016-2021 yillar oralig'ida 38 foizdan 46 foizgacha oshgan.

O'zbekistonda 2023-yilda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 470,3 trln. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 113,7 foiz bo'ldi. Bunda respublika va viloyat bo'ysunuvidagi (32 ta) shaharlar jami ko'rsatilgan xizmatlarning 62,1 foizini (292,2 trln. so'm) ta'minlagan. Bu shaharlarda ko'rsatilgan xizmatlarning 66,1 foizi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keladi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi Toshkent (64,4 mln. so'm), Urganch (33,2 mln. so'm) va Navoiy (30,6 mln. so'm) shaharlarida eng yuqori qiymatlarni tashkil etgan bo'lsa, Quvasoy (5,6 mln. so'm), Xiva (6,7 mln. so'm), Shahrisabz (6,8 mln. so'm) va Kattaqo'rg'on (6,9 mln. so'm) shaharlari bu reytingda oxirgi o'rinlardan joy oladi.

Ta'kidlash lozimki, Toshkentning xizmatlar sohasidagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Mamlakatda ko'rsatilgan xizmatlar hajmida Toshkent shahrining ulushi 2019-yilgi 33,9 foiz (65,8 trln. so'm) dan 2023-yilda 41,1 foiz (193,2 trln. so'm) ga yetdi.

So'nggi 5 yillikda Xiva (2,4 barobar), Guliston (2,3 barobar), Toshkent, Jizzax va Navoiy shaharlari (har birida 2,2 barobar) xizmatlar hajmining o'sishi bo'yicha yetakchi bo'ldi. O'sishning eng past ko'rsatkichlari Ohangaron (1,3 barobar), Yangiyo'l (1,4 barobar), Bekobod, Yangiyer va Kattaqo'rg'on (har birida 1,5 barobar) shaharlarida kuzatildi.

Shaharlarda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi oshib borayotgan bo'lsa-da, Toshkentda xizmatlarning konsentratsiya darajasi ortib bormoqda. Buni shaharlarning sohadagi ulushining qisqarib borayotganida ko'rishimiz mumkin. Xizmatlar ulushining kamayishi markaziy shaharlarda (Nukus shahri va viloyatlarning ma'muriy markazlari) boshqalariga qaraganda ko'proq sezilgan. Jumladan, so'nggi 5 yillikda mamlakat bo'yicha jami xizmatlar hajmida markaziy shaharlarning ulushi 3,1 foiz bandga (19,2 foizdan 16,1 foizga) kamaygan bo'lsa, markaziy bo'lmagan shaharlarda 0,2 foiz bandga kamaygan (5,2 foizdan 5,0 foizga).


"Millionlik shaharlar"ga aylantirish maqsad qilingan Samarqand va Namangan shaharlarining mamlakatda ko'rsatilgan jami xizmatlardagi ulushi so'nggi 5 yillikda sezilarli o'zgarimagan bo'lsa-da, 2022-yilga nisbatan kichik kamayish kuzatilgan.

Zamonaviy shaharlarda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i hisoblanadi. Shunday ekan, «O'zbekiston - 2030» strategiyasida maqsad qilingan urbanizatsiya darajasini 51 foizdan 60 foizga oshirishda shaharlarda xizmatlar sohasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, shaharlarda zamonaviy bozor xizmatlari, IT, ta'lim, tibbiyot, yuridik, san'at, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirishni talab etadi.


SHAHARLARDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISH HOLATI

Respublika bo'yicha ko'rsatilgan jami xizmatlarda shaharlaning ulushi*


Shaharlar ulushining o'zgarishi




Toshkent shahri



Nukus shahri va viloyatlar ma'muriy markazlari



Respublika va viloyat bo'ysunuvidagi boshqa shaharlar (18 ta)



*2023-yil yanvar-dekabr holatiga

Shaharlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi (mln.so'm)



Manba: hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan



Meva-sabzavotlar hamda ulardan tayyorlangan turli xil qiyom va sharbatlar. 2023-yil 4-chorakda Malayziya, Saudiya Arabistoni, Singapur, Ispaniya, Hindiston, Tailand, Germaniya kabi mamlakatlarda meva-sabzavotlar hamda ulardan tayyorlangan turli xil qiyom va sharbatlarga bo'lgan talab yuqori bo'ldi.

Ushbu mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo, Xorazm, Namangan, Qashqadaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi yaxshi imkoniyatga ega bo'lib, qayd etilgan mamlakatlarga eksportni doimiy ravishda yo'lga qo'yish mazkur hududlarning iqtisodiy ahvolini yaxshilashga xizmat qiladi. 2023-yilda jami \$1,1 mlrd. miqdorida sabzavotlar (\$563,4 mln.) va mevalar (\$547,6 mln.) eksport qilingan.

Ip-gazlama, kiyimlar, kimyoviy tola, gilam va teri mahsulotlari. Ushbu tovarlarga bo'lgan talab Hindiston, Indoneziya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Niderlandiya, Yaponiya, BAA, AQSH davlatlarida yuqori ekanligi aniqlandi.

Ushbu tovarlarni eksport qilishda nisbiy ustunlikka ega bo'lgan Namangan, Andijon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Xorazm, Buxoro viloyatlaridagi tadbirkorlar uchun mazkur bozorlarga chiqish imkoniyatlari mavjud.

2023-yilda O'zbekistonning to'qimachilik materiallari va mahsulotlari eksporti \$3,17 mlrd. ni tashkil etdi.

O'g'itlar, kimyoviy mahsulotlar. O'zbekiston ushbu mahsulotlarini ishlab chiqarishda ham nisbiy ustunlikka ega bo'lib, mazkur mahsulotlarga asosan Germaniya, Gretsiya, Gong Kong, Filippin, Singapur, AQSH, Yaponiya, BAA, Turkiya, Avstraliya, Buyuk Britaniya davlatlarida talab yuqori.


Farg'ona va Navoiy viloyatlari hamda Toshkent shahri tadbirkorlari ushbu mahsulotlarni nisbatan pastroq xarajatlar evaziga eksport qilishi mumkin. 2023-yilda o'g'itlar eksporti \$337 mln. tashkil qildi.

Qurilish materiallari, rux mahsulotlari va mis mahsulotlari. Hindiston, AQSH, Germaniya, Niderlandiya, Italiya, BAA, Koreya Respublikasi, Vetnam mamlakatlaridagi ko'pgina buyurtmachilarga qurilish materiallari, rux mahsulotlari va mis mahsulotlari zarur ekanligi aniqlandi.


Hududiy RCA indeksiga ko'ra, ushbu mahsulotlarni eksport qilish Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlari, Toshkent shahri hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat olib boruvchi tadbirkorlarga tavsiya etiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, hududlarda transport va eksport infratuzilmasining ushbu potensial bozorlarga chiqish uchun moslashtirilishi, eksportchi korxonalariga yaqindan konsultativ va moliyaviy ko'mak berilishi eksport ko'lamining oshishi, samaradorlikning yaxshilanishi, innovatsion faoliyatning jadallashishi, aholi turmush darajasining oshishiga xizmat qiladi.

O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN POTENSIAL EKSPORT BOZORLARI (1)



O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN POTENSIAL EKSPORT BOZORLARI (2)





2022-2023 yillar davomida "Yerxususiyashtirish" AAT orqali yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan jami 56 988 ta murojaat davlat xizmatlari markazi yoki yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga (my.gov.uz) o'ziga tegishli yer uchastkalarini xususiyashtirish uchun taqdim etilgan.

Xususiyashtirish borasidagi murojaatlar 2022-yilda 30 423 ta (jismoniy shaxslardan 29 339 ta (96,4 foiz), yuridik shaxslardan 1 084 ta (3,6 foiz)), 2023-yilda 26 565 ta (jismoniy shaxslardan 25 536 ta (94 foiz), yuridik shaxslardan 1 029 ta (6 foiz)) tashkil etgan.

"Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini" orqali 2022-yilda 21 888 ta, 2023-yilda 14 657 ta murojaat (jami – 36 545 ta (64,1 foiz)) yuborilgan bo'lsa, "Davlat xizmatlari markazi" orqali 2022-yilda 8 535 ta, 2023-yilda 11 908 ta murojaat (jami – 20 443 ta (35,9 foiz)) yuborilgan.

Tahlil natijasida 2022-2023 yillarda respublika bo'yicha yerlarni xususiyashtirish uchun eng ko'p murojlat qilgan hududlar aniqlandi. Bular: Xorazm (21,2 mingta), Toshkent (4,6 mingta), Qashqadaryo (4,4 mingta), Surxondaryo va Namangan viloyatlari (3,9 mingta) hamda Toshkent shahri (3,5 mingta).

2022-2023 yillarda vakolatli tashkilotlar tomonidan jami ko'rib chiqilgan 56 988 ta murojaatga qurilish bo'limlari 65,1 foiz ijobiy, 34,9 foiz salbiy, kadastr filiallari 44,7 foiz ijobiy, 55,3 foiz salbiy xulosa bergan. Natijada ijobiy xulosalar asosida yer uchastkalarini xususiyashtirishdan tegishli byudjet va jamg'armalarga jami 107,8 mlrd. so'm kelib tushgan.

Boshlang'ich hisob-kitoblarga ko'ra, respublikada shaharsozlik jihatidan xususiyashtirishga monelik qilmaydigan yerlarning xususiyashtirilishidan tegishli byudjet va jamg'armalarga qo'shimcha 6,63 trln. so'm mablag'ni yo'naltirish imkoniyati mavjud.

Yer auksion savdolarini yanada takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni bildirish mumkin:

Targ'ibot va tashviqot ishlarini keng ko'lamda olib borish hamda aholining katta qismini qamrab olish uchun bu jarayonda tuman (shahar) hokim yordamchilarining ishtirokini kuchaytirish va bunda ijtimoiy tarmoqlardagi kanallardan samarali foydalanish lozim.

Yuridik va jismoniy shaxslar o'ziga tegishli yerlarni xususiyashtirib, ularni garovga qo'yish evaziga bank muassasalaridan kredit mablag'larini olish imkoniyatini yaratishi, buning uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 420-sonli qaroriga tegishli o'zgartishlar kiritilishi zarur. ■



Mulk huquqi asosida eng ko'p auksion savdosiga chiqarilgan yer uchastkalari qo'yilgan lotlar soni Oltiariq (1 675 ta), Beshariq (652 ta), Hazorasp (609 ta), Qo'shko'pir (525 ta), Tuproqqal'a (525 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan. Ijara huquqi asosida esa Andijon, Qiziltepa, Kattaqo'rg'on, Urgut, Bulung'ur, Sayxunobod, Nurobod va Zarafshon shaharlarida eng ko'p yer maydoni auksionga chiqarilgan. Natijada yer auksionlarida 1,02 trln. so'mlik savdolar amalga oshirilib, ushbu mablag'ning ma'lum bir qismi mahalliy byudjetga yo'naltirilgan.

Ushbu tuman (shahar) larda ko'p yer uchastkalarining auksion orqali sotilishi qo'shimcha 10 mingdan ziyod yangi tadbirkorlik subyektlarining tashkil topishiga olib kelgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, quyidagi tumanlar qishloq xo'jaligi yerlarini ijara huquqi asosida dehqonchilik uchun auksionga eng ko'p chiqargani aniqlandi:

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida 2022-yilning shu davridagiga nisbatan Qarshi tumanida 2,8 barobar, Mingbuloq tumanida 1,1 barobar, Bekobod tumanida 1,7 barobar, Bo'ka tumanida 1,7 barobar, Oltiariq tumanida 3,6 barobar ortgan.

Auksionga qo'yilgan yer maydonlari tumanda aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, Shahrisabz tumanida qishloq aholisiga dehqonchilik uchun auksion orqali ijaraga yer berilishi tufayli mavjud ishsizlarning 30 foizi, Uchqo'rg'on tumanida esa 40 foizi ish bilan ta'minlangan.

Yer auksion savdolarini yanada takomillashtirish uchun quyidagilar taklif qilinmoqda:

- auksion savdolariga ijtimoiy infratuzilma hamda muhandislik kommunikatsiyalari obyektlari mavjud bo'lgan hududlarda namunaviy loyihalar asosida master rejani ishlab chiqish sharti bilan yer uchastkalarini mulk huquqi asosida auksionga chiqarish ishlarini jadallashtirish;

- tuman (shahar) kadastr filiallari hamda qurilish bo'limlari shaharsozlik infratuzilmasi mavjud bo'lgan yerlarning auksion savdolariga chiqarilishi ularning iqtisodiy jihatdan jozibadorligini oshiradi hamda hududlarda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Tahlillarga ko'ra, ayrim tumanlarda lalmi hamda cho'l-dasht yerlar auksionga chiqarilayotgani ma'lum bo'ldi. Bunday yerlarda auksion savdolarini takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya qilinadi:

- qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarning auksion-konkurs shaklidan auksion-ochiq savdo tizimiga o'tilishi (har bir lot uchun ma'lum bir minimal narx belgilanadi, keyin ishtirokchilar tomonidan bosqichma-bosqich yuqori narx taklif qilinadi) yerdan foydalanishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi;

- auksiondan olingan yerning ijara huquqini garovga qo'yib kredit olish mexanizmini joriy qilish dehqon xo'jaliklarining aylanma mablag'larini shakllantirishga xizmat qiladi.



Tahlil davomida IPI (Investment Performance Index - Investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi indeksi) indeksidan foydalanildi. Ushbu indeks hududlarga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi hududning respublika taraqqiyotiga qo'shayotgan ulushiga qanchalik mos ekanligini ko'rsatadi. IPI indeksi uchun me'yordagi ko'rsatkich 1,00 ga teng va bu hududning barqaror rivojlanishi uchun investitsiyalarni jalb qilish siyosati yaxshi yo'lga qo'yilganini anglatadi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Respublika bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 352,1 trln. so'mga yetgan. Bu 2022-yildagiga qaraganda 22,1 foiz ko'p. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 58,9 foiz oshgan va 167,7 trln. so'mga teng bo'lgan.

Shunga qaramasdan, hududlar miqyosida investitsiyalarning taqsimlanishida tafovutlar saqlanib qolmoqda. Masalan, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo'yicha respublika miqyosidagi yuqori va quyi o'rinlarni egallagan uch hudud qiymatlari orasidagi farq 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida qariyb 3,7 baravarni, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar bo'yicha esa 2,9 baravarni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylari ma'lumotlari asosida hisoblangan IPI indeksiga ko'ra, quyidagilar aniqlandi:

Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha aksariyat hududlarda me'yor ko'rsatkichga qaraganda yuqori qiymatlar qayd etildi. Bu borada Sirdaryo (2,16) va Buxoro (1,78) viloyatlari yaqqol ajralib turmoqda. Bunga investorlar uchun yangi imkoniyatlarning yaratilishi hamda strategik ahamiyatga ega mega loyihalarning vaqtinchalik ta'sirini sabab sifatida keltirish mumkin.

Xorazm (0,99) va Navoiy (0,96) viloyatlarida me'yordagi ko'rsatkichga yaqin qiymatlar qayd etildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar bo'yicha Andijon (1,00) viloyatida IPI indeksi me'yor ko'rsatkichni qayd etgan bo'lsa, Sirdaryo (3,69) va Buxoro (2,20) viloyatlarida me'yordagidan ancha yuqori natija kuzatildi. Yuqori indeks qiymati viloyatlarga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalardan yanada samarali foydalanish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Toshkent shahrida (0,60) indeks 1 dan ancha past bo'ldi. Bu esa ushbu hududga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga ko'proq e'tibor qaratish lozimligidan dalolat beradi.


Shuningdek, tadqiqot davrida qayd etilgan ko'rsatkichlarni 2023-yilning 9 oyi natijalari bilan taqqoslash asosida quyidagilar aniqlandi:

2023-yilning to'rtinchi choragida uchinchi chorakdagiga nisbatan asosiy kapitalga investitsiyalar IPI indeksi bo'yicha eng yaxshi natija Xorazm (0,14 punkt) va Samarqand (0,11 punkt) viloyatlarida kuzatildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar IPI indeksi bo'yicha Sirdaryo (0,24 punkt) va Andijon (0,20 punkt) viloyatlari boshqa hududlarga nisbatan eng yaxshi natijalarni qayd etdi.

Ta'kidlash kerakki, IPI indeksi hududlar miqyosida investitsiyalarning miqdor ko'rsatkichlari asosida tahlil qilingan bo'lib, ularning sifat ko'rsatkichlarini anglatmaydi.

2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi indeksi





Yer - cheklangan resurs. Bu bizning mavjudligimizning asosi, oziq-ovqat, suv, energiya va boshqa hayotiy resurslar manbai. Undan oqilona va adolatli foydalanish kerak.

Ushbu bebaho ne'matdan qanday foydalanishimiz kerak?

Yerni odamlar o'rtasida qanday taqsimlash hamma uchun maksimal foyda keltiradi? Qanday omillarni hisobga olish kerak? Muvaffaqiyatli yer islohotlarini muvaffaqiyatsizlikka uchraganidan qanday ajratish mumkin?

Bu murakkab savollarga javoblar har doim ham oddiy emas.

Shuning uchun ham Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti dunyo mamlakatlari tajribasini o'rganishga kirishdi.

Biz yerlarni taqsimlashning turli modellarini o'rganamiz, ularning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilamiz va to'g'ri tanlov qilishga yordam beradigan tavsiyalar ishlab chiqamiz.

Misr va Vengriya misolida yer islohotlari

Misrda yer islohotlarining asosiy maqsadi yirik yer egalari qatlamini tugatish edi.

1952-yilda mamlakatda 178-sonli qonun qabul qilindi. Unga ko'ra, yerga egalik qilish me'yori belgilandi va ijara haqi cheklandi. Shu bilan birga, yirik yer egalari ortiqcha yer uchun davlat zayomlari shaklida kompensatsiya oldi.

Hukumat 5 feddan (2,1 gektar) dan kam yeri bor fermerlar uchun kooperativlarni tashkil etdi.

Natijada, islohot Misrda qishloq aholisi orasida kambag'allik darajasining 1951-yildagi 56,1 foizdan 1965-yilda 23,8 foizgacha qisqarishiga olib keldi. Bundan tashqari, muhim boylik (inson kapitali) sifatida ko'rilayotgan ta'lim olish imkoniyati yaxshilandi.

1945-yilda Vengriyada ilgari yirik yer egalari tegishli bo'lgan yerlarni bo'lib berishga qaratilgan islohotlar o'tkazildi. Yer-mulklarning ekspropriatsiyasi 3 million gektarga yaqin yerni kichik fermerlar va yersiz ishchilarga qayta taqsimlash imkonini berdi.

1966-yilga kelganda, kooperativlar va sovxozlar qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarning katta qismini, aniqrog'i 86 foizini o'z nazorati ostiga oldi. Biroq, sotsialistik islohotlar Vengriyada qishloq xo'jaligi yerlarida xususiy mulkchilikning butunlay tugatilishiga olib kelmadi.

1991-yilda sobiq yer egalari vaucher ko'rinishida to'lovlar berilishini nazarda tutuvchi kompensatsiya to'g'risidagi qonun qabul qilindi.

Sobiq yer egalari kompensatsiya ajratilishidan tashqari, yer kooperativlarning yersiz a'zolari, kooperativlar va sovxozlarning ishchilari (xizmatchilari) kabi hozirgi foydalanuvchilar guruhiga taqsimlab berildi.

Juda tarqoq mulkchilik Vengriyadagi yer islohotlarining natijasi bo'ldi. Nisbatan kichikroq uchastkalar ham ko'pincha uzun va ingichka yer bo'laklariga ajratilgandi. Yer ijarasi keng tarqaldi va 2005-yilga kelganda qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarning 59 foizi ijaraga olindi.



Chexiya va Slovakiya da yer islohotlarining o'tkazilishi bo'yicha xorij tajribasi

o'qish vaqti
22 soniya

Chexiya va Slovakiya (o'sha paytdagi Chexoslovakiya)da yer islohotlari 1991-yilda "Yer to'g'risida"gi qonun va 1992-yilda "Jamoat xo'jaliklarining o'zgarishi to'g'risida"gi qonun qabul qilinganidan keyin boshlandi.

Yer islohotlarining maqsadi 1948-yilgacha mavjud bo'lgan yerga egalik (restitutsiya) tuzilmasini tiklash edi. Yer avvalgi egalari yoki ularning merosxo'rlariga qaytarilgan.

Har ikki mamlakatda restitutsiya o'ta tarqoq mulk tuzilmasining tiklanishiga olib keldi. Chexiya Respublikasida qishloq xo'jaligi yer uchastkasining o'rtacha maydoni 0,4 gektarni, Slovakiyada esa 0,45 gektarni tashkil etdi.

Yerlarning tarqoqligi va ko'plab mulkdorlarda qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanish istagining yo'qligi sababli yerning katta qismi (Chexiyada 86 foiz va Slovakiyada 91 foiz) yirik korporativ xo'jaliklarga ijaraga berildi.





Bolliqbo'yi mamlakatlari (Litva, Latviya, Estoniya) misolida yer islohotlarini o'tkazish bo'yicha xorij tajribasi

o'qish vaqti
32 soniya

Litva, Latviya va Estoniyada yer islohotlaridan ko'zlangan umumiy maqsad xususiy mulkchilikka asoslangan yerga egalik qilish tuzilmasini tiklash edi.

Litvada restitutsiya ilgari oilaviy yer-mulklarni qaytarish, boshqa yer yoki kompensatsiya (ya'ni pul) berish orqali amalga oshirilishi mumkin edi.

Islohot 150 gektargacha bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlarini va 25 gektar o'rmonni qaytarishni ko'zda tutardi. Buning natijasida 2008-yilga kelib, qishloq joylarda yerlarning 97 foiziga egalik huquqi tiklandi.

Latviyada sobiq yer egalari yoki ularning merosxo'rlariga dastlabki yer-mulki qaytarib berildi, boshqa yer-mulk yoki kompensatsiya mablag'i taklif qilindi. Eng yuqori chegara, ya'ni 100 gektargacha bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlari qaytarildi.

Estoniyada yer islohotlari nafaqat restitutsiyani, balki yerlarni xususiylashtirish va mahalliy hokimiyatlarga berishni ham qamrab oldi. Bu esa jarayonni murakkablashtirdi.





Bugungi kunda respublikamiz bo'yicha jami 766 ta sanoat zonasi faoliyat yuritayapti. Ularning 24 tasi erkin iqtisodiy zona, 210 tasi yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi va 532 tasi kichik sanoat zonasi. Sanoat zonalarida investitsiya loyihalari uchun jami ajratilgan 11,9 ming gektar yerning 6,4 ming gektariga ishlab chiqarish loyihalari joylashtirilgan.

Sanoat zonalarida yer uchastkalarining ijara huquqi asosidagi elektron onlayn auksion savdosi tahlili qo'yidagi natijalarni berdi:

Erkin va maxsus iqtisodiy zonalarda: 2023-yil mobaynida jami 213 lotdan iborat maydoni 778,4 gektar bo'lgan yer uchastkalari 81,5 mlrd. so'm boshlang'ich narx bilan auksion savdolariga chiqarilgan va 101,2 mlrd. so'mga (boshlang'ich narxga nisbatan 1,24 marotaba ko'p) sotilgan. Eng ko'p yer uchastkalari Toshkent - 64 ta (30 foiz), Samarqand - 58 ta (27,2 foiz) viloyatlarida sotilgan bo'lsa, Andijon viloyatida yer auksion savdolariga chiqarilmagan.

Kichik sanoat zonalarida: respublika bo'yicha mavjud 532 ta KSZ hududidan 2 821 ta lotdan iborat, maydoni 604,2 gektar bo'lgan yer uchastkalari auksion savdolariga chiqarilgan. Shundan, 1 541 ta lot (54,6 foiz) 85,8 mlrd. so'mga (boshlang'ich narxga nisbatan 1,34 marotaba ko'p) auksion savdolariga eng ko'p lotlar Farg'ona - 586 ta (20,7 foiz), Sirdaryo - 343 ta (12,1 foiz), Navoiy - 292 ta (10,3 foiz) viloyatlarida chiqarilgan bo'lsa, eng ko'p yer uchastkalari Qoraqalpog'iston Respublikasi - 169 ta (10,9 foiz) va Farg'ona - 257 ta (16,7 foiz), Navoiy - 236 ta (15,3 foiz) viloyatlarida sotilgan.

Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida:

2023-yil mobaynida jami 1 071 ta lotdan iborat, maydoni 82,6 gektar bo'lgan yer uchastkalari 23,2 mlrd. so'm boshlang'ich narx bilan auksion savdolariga chiqarilgan va 527 ta (49,2 foiz) lot 15,3 mlrd. so'mga (boshlang'ich narxga nisbatan 1,34 marotaba ko'p) sotilgan. Auksion savdolariga eng ko'p yer uchastkalari Qoraqalpog'iston Respublikasi - 165 ta (15,4 foiz), Xorazm - 226 ta (21,1 foiz), Buxoro - 177 ta (16,5 foiz) viloyatlarida chiqarilgan bo'lsa, Andijon va Namangan viloyalarida yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridan yer uchastkalari auksion savdolariga chiqarilmagan.

Sanoat zonalariga ishlab chiqarish loyihalarini joylashtirish maqsadida yer uchastkalarini auksion savdolari orqali sotishni yanada jadallashtirish maqsadida **quyidagilar taklif qilinadi:**

- yagona direksiyalarning vakolatlari, huquq va majburiyatlarini me'yoriy-huquqiy hujjat bilan tartibga solish uchun Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 134-son qaroriga o'zgartirish kiritish;
- kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi ishtirokchilar uchun ularning o'ziga biriktirilgan yer uchastkalarida qurilgan bino va inshootlarni garov ta'minoti sifatida banklarga taqdim etish va kredit olish imkoniyatini yaratish;
- kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida 3 va 5 yillik faoliyati davomida muqaddam yuklatilgan majburiyatlarni to'liq bajargan tadbirkorlik sub'ektlariga o'ziga biriktirilgan bino va inshootlar hamda yer uchastkalarini xususiyashtirish yuzasidan alohida tartibi ishlab chiqish.



2017-2023 yillarda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YalM) ishlab chiqarish hajmi 137,3 foizga (1,4 barobar) oshib, 2023-yilda 1066,6 trln. so'mni tashkil etdi. Mamlakatimizning 8 ta hududi, jumladan Toshkent shahri, Namangan, Toshkent, Andijon, Farg'ona, Navoiy, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida mahalliy tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish hisobiga yalpi hududiy mahsulotning (YaHM) jadal o'sishi (139-170 foiz) ta'minlandi.

Pandemiyadan keyingi davrda Andijon, Buxoro, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida qisqa muddatda iqtisodiy rivojlanishda barqarorlik ta'minlandi (2020-yilda o'rtacha 102 foizdan, 2022-2023 yillarda – o'rtacha 105-106 foizgacha).

2017-2023 yillarda hududlarda YaHMning o'sishiga quyidagi tarmoqlar sezilarli hissa qo'shdi:

- Andijon, Navoiy, Sirdaryo viloyatlarida YaHM o'sishini ta'minlashda sanoat sektori (hududda YaHMning o'rtacha yillik o'sishida 1,6-3,7 foiz) sezilarli ahamiyatga ega bo'ldi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Buxoro viloyatlari hamda Toshkent shahrida YaHM o'sishini ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohasi (YaHMning o'rtacha yillik o'sishida 1,8-4,9 foiz) yetakchi tarmoq sifatida qayd etildi.


YalMning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan hajmi 2023-yilda 29,3 mln. so'mni tashkil etib, iqtisodiy rivojlangan hududlarning mavqei mustahkamlandi.

Bu Navoiy (2017-yildagi 2,0 barobardan 2023-yilda 2,6 barobarga), Toshkent (1,0 barobardan 1,2 barobarga) viloyatlari va Toshkent shahri (1,6 barobardan 2,1 barobarga) va respublika ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq oshganligida nam 2017-2023 yillarda mamlakatning iqtisodiy rivojlangan hududlarini hisobga olmagan holda 6 ta hududda (Andijon, Buxoro, Jizzax, Namangan, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari) YaHMning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ulushi o'rtacha respublika ko'rsatkichiga (Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlari bundan mustasno) yaqinlashgani qayd etildi.

«**O'zbekiston – 2030**» strategiyasida «drayver» sohalarni rivojlantirish va hududlar salohiyatidan to'liq foydalanish ko'zda tutilgan bo'lib, 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish rejalashtirilgan. Bunda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kompleks rivojlantirish borasida **quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:**

- tuman va shaharlarning master rejalarini aholi va tadbirkorlar fikrini inobatga olgan holda ishlab chiqish;
- hududning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishini inobatga olgan holda joylarda qulay muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni yaratish;
- aholi farovonligini ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o'rtasidagi «tayanch ko'prik»ka aylantirish va boshqalar.

2017-2023 YILLARDA O'ZBEKISTON HUDUDLARI BO'YICHA YALPI HUDUDiy MAHSULOTNING O'SISHI





Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida elektron onlayn-auksion orqali yer uchastkalarini sotishdan tushgan mablag'lar 2022-yilda 989,3 mlrd.so'm (boshlang'ich narxiga nisbatan 1,55 barobar – 636,9 mlrd. so'm)ni 2023-yilda 1223,3 mlrd.so'm (boshlang'ich narxiga nisbatan 1,56 baravar – 782,2 mlrd.so'm)ni tashkil etdi.

Yerga bo'lgan huquq turi bo'yicha savdoga chiqarilgan yerlar taqsimoti tahlil qilinganda, 2022-yilda auksion savdolariga chiqarilgan lotlarning 65,8 foizi ijara, 34,2 foizi mulk huquqi asosida, 2023-yilda esa 57,7 foizi ijara va 42,3 foizi mulk huquqi asosida savdoga chiqarilganini ko'rish mumkin.

2022-2023 yillarda elektron onlayn auksion savdolariga mulk va ijara huquqi asosida tadbirkorlar va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun chiqarilgan **yer uchastkalarining tahlili quyidagilarni aks ettirmoqda:**

- 2023-yilda auksion savdolariga qo'yilgan bo'sh yer maydonlari 2022-yildagiga nisbatan 1,5 baravar ortgan;
- Yerlarning auksionga ko'proq chiqarilishi 1 ga yerning narxi o'rtacha 0,8 punktga yoki 50,1 mln. so'mga tushishiga olib keldi.

Yerdan foydalanish huquqi bo'yicha:

- mulk huquqi asosida sotilgan yer maydonlari 2023-yilda 2022-yildagiga nisbatan 3,7 baravar (76 gektardan 282,5 gektarga), lotlar soni 1,55 baravar, 1 ga yerning narxi esa o'rtacha 40,5 foizga ortgan;


- ijara huquqi asosida sotilgan yer maydonlari hajmi 2023-yilda 2022-yildagiga nisbatan 1,9 baravar (826,7 gektardan 1 603,7 gektarga) ortgan. Bu pozitsiya bo'yicha o'rtacha 1 ga yerning narxi 2,5 baravar yoki 500 mln.so'mga oshgan.

Ijtimoiy infratuzulma hamda muhandislik kommunikatsiya obyektlari mavjud bo'lgan hududlarda namunaviy loyihalar asosida master rejani ishlab chiqish sharti bilan yakka tartibdagi uy-joy qurilishi uchun yer uchastkalarini mulk huquqi asosida auksionga chiqarish hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan hududlarning iqtisodiy rivojlanish dasturlari, tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlari hamda urbanizatsiya jarayonini (o'sish nuqtalari) chuqur tahlil qilgan holda, infratuzilma mavjud bo'lgan yerlarni auksionga chiqarish taklif etildi.


«O'zbekiston – 2030» strategiyasi doirasida hududlarda shaharsozlik loyihalari asosida zarur infratuzilmasi mavjud va aholi gavjum bo'lgan ko'chalardagi 233 mingta bo'sh yer maydonlarini auksion savdolariga chiqarish natijasida hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravar oshirish mumkin. ■

2022-2023 YILLARDA O'ZBEKISTONDA YER UCHASTKALARI VA UNGA BO'LGAN HUQUQLARNI ELEKTRON ONLAYN-AUKSION ORQALI SOTISH DINAMIKASI


Auksionga qo'yilgan bo'sh yer uchastkalari (**ming gektar** hisobida)



Auksionga ijara va mulk huquqi bilan chiqarilgan bo'sh yer uchastkalari (**ming gektar** hisobida)



Yer uchastkalarini auktsion savdolari orqali sotishdan tushgan pul mablaglari (**mlrd.so'm**)





Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagilar ma'lum bo'ldi:

Meva-sabzavotlar hamda ulardan tayyorlangan turli xil qiyom va sharbatlar. 2024-yil 1-chorakda Kanada, Malayziya, Singapur, Yaponiya, Hindiston, Tailand, Italiya, Germaniya kabi mamlakatlarda meva-sabzavotlar hamda ulardan tayyorlangan turli xil qiyom va sharbatlarga bo'lgan talab yuqori bo'ldi.

Ushbu mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha Farg'ona, Namangan, Samarqand, Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi yaxshi imkoniyatga ega bo'lib, qayd etilgan mamlakatlarga eksportni doimiy ravishda yo'lga qo'yish mazkur hududlarning iqtisodiy ahvolini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ip-gazlama, kiyimlar, kimyoviy tola, gilam va teri mahsulotlari. Ushbu tovarlarga bo'lgan talab AQSh, BAA, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Yaponiya, Fransiya, Hindiston, Indoneziya davlatlarida yuqori ekanligi aniqlandi.

Ushbu tovarlarni eksport qilishda nisbiy ustunlikka ega bo'lgan Namangan, Andijon, Qashqadaryo, Samarqand, Xorazm, Buxoro viloyatlaridagi tadbirkorlar uchun mazkur bozorlarga chiqish imkoniyatlari mavjud.

O'g'itlar, kimyoviy mahsulotlar. O'zbekiston ushbu mahsulotlarini ishlab chiqarishda ham nisbiy ustunlikka ega bo'lib, mazkur mahsulotlarga asosan AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Avstraliya, Kanada, Koreya Respublikasi, Yaponiya, BAA davlatlarida talab yuqori.

Farg'ona va Navoiy viloyatlari hamda Toshkent shahri tadbirkorlari ushbu mahsulotlarni nisbatan pastroq xarajatlar evaziga eksport qilishi mumkin.

Ma'lumot uchun: 2023-yilda o'g'itlar eksporti 337,1 mln.AQSh dollariga teng bo'ldi.

Qurilish materiallari, rux va mis mahsulotlari. Hindiston, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya, BAA, Viyetnam, Tailand mamlakatlaridagi ko'pgina buyurtmachilarga qurilish materiallari, rux mahsulotlari va mis mahsulotlari zarur ekanligi aniqlandi.

Hududiy RCA indeksiga ko'ra, ushbu mahsulotlarni eksport qilish Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlari, Toshkent shahri hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat olib boruvchi tadbirkorlarga tavsiya etiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, hududlarda transport va eksport infratuzilmasining ushbu potensial bozorlarga chiqish uchun moslashtirilishi, eksportchi korxonalariga yaqindan konsultativ va moliyaviy ko'mak berilishi eksport ko'lamining oshishi, samaradorlikning yaxshilanishi, innovatsion faoliyatning jadallashishi, aholi turmush darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotda www.go4worldbusiness.com veb sahifasi va Statistika agentligi ma'lumotlaridan foylanildi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda olib borildi:

1) www.go4worldbusiness.com veb sahifasidan 2024-yilning 1-choragida 19180 ta buyurtmachining ma'lumotlari veb skreping orqali tortib olindi;


2) O'zbekiston eksport qilishda nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni aniqlash uchun RCA (revealed comparative advantage) indeksi hisoblanib, indeks yuqori bo'lgan va jahon bozorida yuqori talab mavjud bo'lgan 12 xil mahsulot turi tanlab olindi. Tanlangan mahsulotlar uchun hududlarning alohida RCA indeksleri hisoblandi (Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining TIF TN kodi bo'yicha eksport ma'lumotlari mavjud emasligi sababli tahlil jarayonida foydalanilmadi);

3) O'zbekiston nisbiy ustunlikka ega bo'lgan 12 turdagi mahsulotlarga talab yuqori bo'lgan mamlakatlar aniqlandi hamda ushbu mamlakatlarga eksport qilish salohiyatiga ega hududlar bilan moslashtirildi.

O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN POTENSIAL EKSPORT BOZORLARI (1)



O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN POTENSIAL EKSPORT BOZORLARI (2)





Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning barqaror o'sishi (2017-2023 yillarda 1,4 barobarga oshdi) bilan tavsiflanadi. YaIMning yiliga o'rtacha 5,4 foiz o'sishiga asosan xizmat ko'rsatish (2,4 foiz) va sanoat (1,5 foiz) tarmoqlari salmoqli hissa qo'shdi.

IFBga ko'ra, mamlakatimizning 6 ta hududi (Toshkent shahri, Sirdaryo, Jizzax, Xorazm, Andijon, Toshkent viloyatlari) izchil rivojlanayotgan hududlar guruhidan joy oldi ($85 \text{ ball} \leq \text{IFB} \leq 100 \text{ ball}$).

Ma'lumot uchun: IFBni baholashda ishlab chiqarish, tadbirkorlik faolligi hamda hududlarning jozibadorligini aks ettiruvchi 3 ta blok va 13 ta ko'rsatkichdan foydalaniladi. 100 balli baholash usuli asosida hududlarning faollik darajasi yuqori ($85 \text{ ball} \leq \text{IFB} \leq 100 \text{ ball}$), o'rtacha ($71 \leq \text{IFB} < 85 \text{ ball}$) va past ($\text{IFB} < 71 \text{ ball}$) bo'lgan guruhlariga ajratiladi.

Rivojlangan Toshkent shahri va Toshkent viloyatida iqtisodiy faollik asosan sanoat (1,6 barobar), qurilish (2,1 barobardan ortiq), xizmatlar (1,8-2,4 barobar), investitsiyalarni jalb qilish (1,9 barobar) kabi sohalardagi o'sish hamda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari (KBS) sonining (2,2 barobar) ortishi hisobiga ta'minlandi. Buning natijasida mazkur hududlarning YaIMdagi mavqei mustahkamlandi (YaHMning YaIMdagi ulushi 2017-yildagi 25 foizdan 2023-yilda 27,2 foizga oshdi).

Rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan Jizzax va Xorazm viloyatlarida esa sanoat (o'sish 1,6 barobardan ortiq), qurilish va xizmatlar (2 barobar), investitsiyalarni jalb qilish (3,5 barobardan ortiq), tovar va xizmatlar eksporti (2,4-3,3 barobar), ro'yxatga olingan (2,4 barobar) va yangi tashkil etilgan (2,6 barobardan ortiq) KBSning ortishi iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili bo'ldi.

IFBning 2 ta ko'rsatkichi (faoliyat ko'rsatmayotgan va o'z faoliyatini to'xtatgan KBS sonining ko'payishi) bo'yicha salbiy tendensiya qayd etilganiga qaramay, Jizzax va Xorazm viloyatlarining rivojlanish dinamikasi yetakchi pozitsiyalar bo'yicha jadal o'sish kuzatilgan ko'rsatkichlarning ko'pligi

(mos ravishda 8 ta va 10 ta) bilan ahamiyatlidir. Natijada ushbu hududlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaHM ko'rsatkichining YaIM ko'rsatkichiga biroz yaqinlashishi kuzatildi. Masalan, YaIM va Jizzax viloyatida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaHM o'rtasidagi farq 2017-yildagi 1,8 barobardan (12-o'rin) 2023-yilda 1,3 barobarga (6-o'rin) kamaydi.

Shu bilan birga, hududlarning iqtisodiy faolligini ta'minlashda ishbilarmonlik muhiti va tadbirkorlik faoliyatini yaxshilash masalalarini hal etish davr talabiga aylanib bormoqda.


"O'zbekiston-2030" strategiyasida "drayver" tarmoqlarni rivojlantirish va hududlar salohiyatidan to'liq foydalanish, 2030-yilga borib, iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlar" qatoriga kirish rejalashtirilgan. Hududlarning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi chora-tadbirlar ko'zda tutilgan:

- hududlarning ishlab chiqarish faolligini oshirishda – har bir hududda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish, sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'ygan korxonalarni faol rag'batlantirish tizimini joriy etish, aholi soni 300 ming nafardan ortiq bo'lgan shahar va tumanlarda IT xizmatlari, ta'lim, tibbiy xizmatlar, turizm xizmatlari, mehmonxona boshqaruvi, ovqatlanish va transport xizmatlarini rivojlantirish;

- hududlar jozibadorligini oshirishda – hududlarning investitsiya reytingini joriy etish, salohiyat va imkoniyatlardan kelib chiqib, har bir hududning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish, kichik va o'rta biznesni rag'batlantirish, xalqaro bozorlarga olib chiqish imkoniyatlarini kengaytirish;

- hududlarda tadbirkorlik faolligini oshirishda – tadbirkorlarga «tayyor biznes» shaklida bino berish mexanizmini keng joriy etish, soliq tizimini to'liq raqamlashtirish, soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish.

2017-2023 YILLARDA HUDUDLARNING IQTISODIY FAOLLIK BAROMETRI (IFB)



Izoh:
 ● Iqtisodiy faollik darajasi yuqori (85 ball ≤ IFB ≤ 100 ball)
 ● Iqtisodiy faollik darajasi o'rtacha (71 ball ≤ IFB < 85 ball)
 ● Iqtisodiy faollik darajasi past (IFB < 71 ball)



Hududlar brandingida ijodkorlik muhim o'rin kasb etadi, sababi mavjud salohiyat rivojlantirish va targ'ibotga muhtoj.

Mintaqaning mashhurligini oshirishga yordam bergan muvaffaqiyatli marketing kampaniyalariga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

Rashmor tog'i - Janubiy Dakotadagi (AQSh) eng diqqatga sazovor manzillardan bo'lib, granit tog'ning bir tomonida to'rt AQSh prezidenti qiyofasi aks ettirilgan. Yodgorlik yiliga ikki milliondan ortiq sayohatchilarni jalb qiladi. ONLYLION kampaniyasi doirasida Lion (Fransiya) shahrining ramzi qilib sher ko'rsatilib, dron vositasida shaharning yuqoridan olingan videosi Yevropaning aeroportlari va turli ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etilgan.

Shimoliy Irlandiyada mashhur «Taxtlar o'yini» filmida suratga tushgan va bo'ron natijasida qulagan daraxtlardan o'nlab naqshdor eshiklar yasilib, mamlakat bo'ylab o'rnatilgan va «Eshiklar sayohati» deb nomlangan yangi sayyohlik yo'nalishi yaratilgan.

O'zbekistonning qator hududlari ham dunyoda o'ziga xos imijga ega.

Namangan dunyoda "gullar shahri" sifatida o'zini namoyon qilgan va unda har yili gul festivallari o'tkaziladi.

Rishton Farg'ona viloyatining mohir kulol ustalari bilan mashhur bo'lgan qadimiy shahar bo'lib, jahon miqyosida noyob kulolchilik markazi sifatida e'tirof etilgan.

Konigil qishlog'i (Samarqand) o'zining – sirti silliq, mustahkam va siyohni oz singdiruvchi noyob ipak qog'ozi bilan tanilgan.

Shunga qaramay mintaqalarning ulkan sayyohlik salohiyati amalga oshmay qolmoqda.

Ko'pchilik **Qizilqum** cho'lida o'z davrining ozuqa zanjirida eng yuqori mavqega ega bo'lgan «Dinozavrlar qirol» qoldiqlari topilganidan bexabar. Ular hattoki mashhur tiranozavrlardan ham yirikroq bo'lgan.





Mazkur turning nomida «Ulughbegaursus uzbekistanensis» mavjudligi dinozavrlarning mintaqamizga aloqadorligini aks ettiradi va ulardan marketing kampaniyasi sifatida foydalanishga imkon yaratadi. Ya'ni, «Ulughbegaursus» aks etgan hudud logotipini ishlab chiqish, dinozavrlar mavzusidagi ko'ngilochar muassasalar (parklar, muzeylar va boshqalar)ni yaratish lozim. Shu bilan birgalikda, zamonaviy texnologik imkoniyatlardan foydalangan holda dinozavrlar shaklida dronlar shousini va rangli gologrammalar ko'rinishidagi vizual ko'rgazmalarni tashkil qilish mumkin.

Uchqizil suv omboridagi kabi **Surxondaryo**ning go'zal tog' manzaralari mamlakatimizga tashrif buyuruvchilarning e'tiboridan chetda qolmoqda. Bunda «Yodel Ay Hee Hoo» kampaniyasi strategiyasini qo'llash orqali Samarqand va Toshkent aeroportlaridagi infokiosk yonidan o'tayotgan chet ellik sayyohlarni Surxondaryoning qishloqlariga chaqirish mumkin. Ya'ni, qishloqdagi mahalliy aholi vakili kishilar bilan onlayn suhbatga kirishadi va real vaqt rejimida hudud manzarasini ko'rsatib ularni jalb qiladi. Bu usulni Surxondaryo qishloqlarida etnografik turizmni rivojlantirish yo'lida, sayyohlarni xonadonlarga mehmonga taklif qilish orqali madaniyat bilan tanishtirish uchun qo'llash mumkin.

Buxoro o'ziga hos me'moriy merosi tufayli o'zini «Yuz gumbazli shahar» sifatida tanitishi mumkin. Buxoroning eng diqqatga sazovor gumbazli inshootlari orasida Chor Minor madrasasi, Poi Kalon majmuasi, Mir Arab madrasasi va boshqalarni keltirish mumkin. Yaratilgan imidjni maqsadli auditoriyaga ijodiy usul bilan yetkazilish uchun «Islandiyadan ilhomlangan» kampaniyasi modelini qo'llash mumkin. Buxoro misolida aytilsa, shaharning Islom dunyosidagi yuqori ahamiyatini namoyish etuvchi bir qator videomateriallarni suratga olish va samarali kanallar orqali uzatish tufayli shaharga tashrif buyuruvchilar sonini oshirish hamda mazkur manzilni har bir musulmon hayotida kamida bir marta qilishi kerak bo'lgan ziyoratga aylantirish mumkin.



Mamlakatimizda respublika va viloyat bo'ysunuvidagi 32 ta shahar mavjud bo'lib, ularda respublika doimiy aholisining qariyb 24 foizi istiqomat qiladi. Shunga qaramay, mamlakat bo'yicha ko'rsatilgan jami xizmatlarning deyarli 64 foizi ushbu shaharlarning hissasiga to'g'ri keladi.

A.Schafran va boshqalarning fikricha, shaharlarning iqtisodiy kelajagi xizmatlar sohasiga bog'liq bo'lib, ularning shaharlarda ko'rsatilish sabablarini anglash shaharlarning zamonaviy iqtisodiyotdagi funksiyasini tushunish uchun juda muhimdir.

Tadqiqotda Guver - Balassa (Hoover-Balassa coefficient) ning joylashuv koeffitsiyenti asosida shaharlarning xizmatlar sohasiga ixtisoslashuv reytingi ishlab chiqildi. Joylashuv koeffitsiyentning 1 dan kichik yoki katta bo'lishi mos ravishda ixtisoslashuvning past yoki yuqori darajasini anglatadi. Tadqiqot natijalari ta'lim yo'nlisida xizmat ko'rsatish bo'yicha Buxoro (3.36), Shahrisabz (2.84) va Namangan (2.67), sog'liqni saqlash sohasida Yangiyer, Nurafshon va Guliston, yashash va ovqatlanish bo'yicha Nurafshon, Ohangaron va Navoiy, savdo bo'yicha Bekobod, Yangiyo'l va Quvasoy, transport bo'yicha Kogon, Yangiyer va Xonobod, kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlashda Quvasoy, Shahrisabz va Marg'ilon, aloqa va axborotlashtirish sohasida Toshkent, Guliston va G'ozg'on shaharlarining ixtisoslashuv darajasi eng yuqori ekanini ko'rsatdi.

O'zbekistonda 2024-yilning 6 oyida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 268,1 trln. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 112,9 foizni tashkil etdi. Bunda, respublika va viloyat bo'ysunuvidagi (32 ta) shahar jami ko'rsatilgan xizmatlarning 63,6 foizini (170,1 trln. so'm) ta'minlagan. Ushbu shaharlarda ko'rsatilgan xizmatlarning 67,1 foizi Toshkent shahrining hissasiga to'g'ri keladi.

2024-yilning 1-yarmida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi Toshkent (37,4 mln. so'm), Urganch (17,9 mln. so'm) va Navoiy (16,5 mln. so'm) shaharlarida eng yuqori qiymatlarni tashkil etgan bo'lsa, G'ozg'on (1,9 mln. so'm), Shirin (2,4 mln. so'm) va Quvasoy (3,3 mln. so'm) shaharlari oxirgi o'rinlardan joy oldi.

Ta'kidlash joizki, Toshkentning xizmatlar sohasidagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Mamlakatda ko'rsatilgan xizmatlar hajmida poytaxtning ulushi 2019-yildagi 33,9 foizdan 2023-yilda 41,1 foizga yetgan. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida 114,4 trln. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi. Bu respublika bo'yicha ko'rsatilgan jami xizmatlarning 42,7 foizini tashkil etadi.






Xizmat turlari kesimida tahlil qilinsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida respublika va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar ulushi transport sohasida 33,0 foizni, savdoda 57,4 foizni, aloqa va axborotlashtirishda 78,8 foizni, ta'limda 82,7 foizni, sog'liqni saqlash sohasida 72,9 foizni, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 77,4 foizni hamda kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlashda 38,0 foizni tashkil etadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, infratuzilma va kommunikatsiyadagi nisbiy afzalliklar korxonalar va aholining markazga intilishiga sabab bo'ladi va natijada, shaharlarda ta'lim, aloqa va axborotlashtirish, sog'liqni saqlash kabi xizmatlar markazlashib boradi. Shaharlarda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i ekani inobatga olinsa, ularda zamonaviy bozor xizmatlari, axborot texnologiyalari (IT), ta'lim, tibbiyot, yuridik, san'at, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirish "O'zbekiston – 2030" strategiyasida maqsad qilingan urbanizatsiya darajasini 51 foizdan 60 foizga oshirishga xizmat qiladi.

2024-YILNING YANVAR-IYUN OYLARIDA SHAHARLARDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI*

*respublika va viloyat bo'ysunuvdagi shaharlar

Shaharlarning xizmatlar hajmidagi ulushi



Shaharlarning xizmatlar turlariga ixtisoslashuvi**

**Hoover-Balassaning joylashuv koeffitsienti

Shaharlar	Aloqa va axborotlashtirish	Ta'lim	Sog'liqni saqlash	Yashash va ovqatlanish	Savdo	Transport	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash
Nukus	0,45	2,37	1,07	1,10	0,54	0,85	1,74
Andijon	0,72	1,43	0,95	0,32	1,40	0,93	1,40
Xonobod	0,40	0,37	1,45	0,72	1,33	1,19	1,43
Buxoro	0,34	3,36	1,72	1,52	0,73	0,56	0,85
Kogon	0,46	0,29	1,20	1,05	1,28	1,63	2,00
Jizzax	0,23	1,66	1,24	0,72	1,49	0,23	1,06
Qarshi	0,42	2,49	1,43	1,07	0,76	0,55	1,43
Shahrisabz	0,85	2,84	1,09	0,93	0,80	0,47	3,41
Navoiy	0,46	1,18	0,73	2,20	0,86	0,37	0,80
Zarafshon	0,24	0,19	0,20	1,55	1,23	0,68	0,95
G'ozg'on	0,94	0,26	0,09	0,15	0,59	0,78	3,10
Namangan	0,49	2,67	1,43	1,12	1,01	0,74	1,02
Samarqand	0,46	2,38	2,02	1,74	1,03	0,79	1,23
Kattaqo'rg'on	0,59	0,61	0,68	0,95	1,14	1,06	2,04
Termiz	0,41	1,70	1,65	1,00	1,11	0,42	0,99
Guliston	0,98	1,39	2,13	0,88	0,56	0,33	0,87
Shirin	0,58	0,10	1,57	1,35	1,39	0,60	1,92
Yangiyer	0,26	1,88	2,56	1,00	1,61	1,20	1,37
Nurafshon	0,56	0,31	2,14	2,70	0,88	0,87	1,16
Olmaliq	0,31	0,47	1,23	1,48	1,32	0,96	1,19
Angren	0,36	2,07	0,97	0,91	1,23	1,11	1,30
Bekobod	0,29	0,39	1,52	0,59	1,93	0,76	1,79
Ohangaron	0,35	0,34	0,52	2,42	1,65	0,86	1,97
Chirchiq	0,44	2,23	1,78	1,92	1,29	0,77	0,93
Yangiyo'l	0,15	0,46	0,66	0,66	1,92	1,18	1,33
Farg'ona	0,31	1,77	1,59	1,13	0,85	0,65	1,24
Qo'qon	0,34	1,82	0,70	0,41	1,30	0,80	1,59
Quvasoy	0,68	0,53	0,46	0,23	1,86	0,71	3,49
Marg'ilon	0,55	0,46	0,48	1,12	1,57	0,98	3,33
Urganch	0,05	0,21	0,29	0,12	0,12	0,09	0,27
Xiva	0,11	0,19	0,08	0,19	0,21	0,10	0,71
Toshkent	1,64	1,06	1,07	1,26	0,84	0,44	0,28



Tahlillarga ko'ra, tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun bo'sh yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilish maqsadida jami 50 mingga yaqin (3 673,4 gektar) taklif "Yerelektron" AATga kiritilgan.

Tizimga kiritilgan takliflarning aksariyati xizmat ko'rsatish obyektlarini joylashtirish (41 817 ta), sanoat (ishlab chiqarish) obyektlari (5 655 ta), ko'p qavatli uy-joy qurish (1 324 ta), xalqaro yo'l bo'yi obyektlari (772 ta), turistik zonalar obyektlari (371 ta) va mikromarkazlarni tashkil etish (99 ta) ga oid.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida kiritilgan jami 50 mingga yaqin (3 673,4 gektar) taklifdan 11 767 tasi bo'yicha rad javobi berilgan;

23 861 ta taklif bo'yicha yer uchastkalari 2 731,3 mlrd. so'm boshlang'ich narx bilan auksion savdolariga chiqarilgan. Shundan 9 739 ta lot 785,4 mlrd. so'mga realizatsiya qilingan.

Respublika bo'yicha "YERELEKTRON" AAT tizimiga bo'sh yer maydonlariga oid eng ko'p ma'lumot Xorazm, Buxoro, Sirdaryo, Farg'ona hamda Qashqadaryo viloyatlarida kiritilgan.

Auksion savdolarini yanada takomillashtirish orqali yer bozorining qamrovini oshirish bo'yicha quyidagilar tavsiya etiladi:

- auksionga namunaviy loyihalar asosida master rejani ishlab chiqish sharti bilan yakka tartibdagi uy-joy qurilishi uchun 1 gektardan ortiq yer uchastkalarini mulk huquqi bilan chiqarish ishlarini jadallashtirish;

- tuman (shahar) kadastr filiallari hamda qurilish bo'limlari hududlarning iqtisodiy rivojlanish dasturi, tasdiqlangan shaharsozlik hujjati hamda urbanizatsiya jarayonini (o'sish nuqtalari) chuqur tahlil qilgan holda "Yerelektron" AATga taklif kiritishi;

- muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi mavjud bo'lmagan hududlarda yerlarni auksion savdolariga chiqarish amaliyotini bekor qilish hamda ushbu kommunikatsiya tarmoqlarini joylashtirish choralari ko'rish;

- auksion savdolariga chiqarilgan, biroq uzoq vaqt sotilmagan yer uchastkalarini birlashtirish va jozibador loyihalarni ishga tushirish uchun yerdan foydalanish maqsadini belgilab, ijara huquqi bilan qayta savdoga qo'yish;

- tadbirkorlarni jozibador yer uchastkalari bilan ta'minlash, shuningdek, qulayliklardan samarali foydalanish uchun "YeRELEKTRON" AATning taklif kiritish qismida ArcGIS sun'iy yo'ldosh axborot platformasidan ma'lumotlarni integratsiyalash orqali bo'sh yer maydonlari mavjud bo'lgan hududlarni aks ettirish imkoniyatini yaratish.

“YERELEKTRON” AATGA AUKSIONDA SOTISH UCHUN BO‘SH YER UCHASTKALARI BO‘YICHA KIRITILGAN TAKLIFLAR

8 160 ta lot
136,3 ga


Respublika kesimida eng
ko‘p taklif kiritgan hududlar

Xorazm
8 160

Buxoro
6 136

Sirdaryo
4 785

Farg‘ona
3 767



Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



Tahlil davomida IPI (Investment Performance Index - Investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi indeksi) indeksidan foydalanildi. Ushbu indeks hududlarga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi hududning respublika taraqqiyotiga qo'shayotgan ulushiga qanchalik mos ekanligini ko'rsatadi. IPI indeksi uchun me'yordagi ko'rsatkich 1,00 ga teng va bu hududning barqaror rivojlanishi uchun investitsiyalarni jalb qilish siyosati yaxshi yo'lga qo'yilganini anglatadi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida respublika bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 229,3 trln. so'mga yetgan. Bu 2023-yilning mos davridagiga nisbatan 1,4 marotaba ko'p. Xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 1,7 barobar oshgan va 157,6 trln. so'mga teng bo'lgan.

Shunga qaramay, hududlar miqyosida investitsiyalarning taqsimlanishida tafovutlar saqlanib qolmoqda. Masalan, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo'yicha respublika miqyosidagi yuqori va quyi o'rinlarni egallagan uch hudud qiymatlari orasidagi farq joriy yilning yanvar-iyun oylarida qariyb 4,4 baravarni, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar bo'yicha esa 3,8 baravarni tashkil etdi.

2024-yilning dastlabki olti oyi ma'lumotlari asosida hisoblangan IPI indeksiga ko'ra, quyidagilar aniqlandi:

Aksariyat hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha me'yor ko'rsatkichga qaraganda yuqori qiymatlar saqlanib qolmoqda. Bu borada Buxoro (2,35), Namangan (1,77) va Qashqadaryo (1,62) viloyatlari boshqalarga nisbatan ajralib turibdi. Samarqand (1,04) viloyati va Toshkent (0,94) shahrida me'yordagi ko'rsatkichga yaqin qiymatlar qayd etildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar bo'yicha Andijon (1,00) viloyatida me'yordagi, Navoiy (0,96) va Samarqand (0,91) viloyatlarida me'yor ko'rsatkichiga yaqin qiymat qayd etildi. Buxoro (2,92), Namangan (2,06), Jizzax (1,92) va Qashqadaryo (1,88) viloyatlarida me'yordagidan ancha yuqori natija kuzatildi. Toshkent shahrida (0,54) indeks 1 dan ancha past bo'ldi.

Shuningdek, tadqiqot davrida qayd etilgan ko'rsatkichlarni avvalgi uch chorak natijalari bilan taqqoslash asosida quyidagilar aniqlandi:

So'nggi yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarining hajmi ortib borishi IPI indeks qiymatlarining tebranishiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda.

Xususan, Buxoro viloyatida xorijiy investitsiyalar hisobidan quyosh va shamol elektrostansiyalari, shuningdek, gaz-kimyo majmuasining qurilishi kabi yirik loyihalar yuqori indeks qiymatining shakllanishiga sabab bo'lgan.

Shuningdek, Toshkent shahrida korxonalar mablag'lari hamda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va kreditlar asosiy kapitalga investitsiyalarning muhim manbalari hisoblanadi. Bu esa IPI indeksi asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha normal ko'rsatkichga yaqin, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va kreditlar bo'yicha normal ko'rsatkichdan past ekanligini izohlaydi.

Ta'kidlash kerakki, IPI indeksi hududlar miqyosida investitsiyalarning miqdor ko'rsatkichlari asosida tahlil qilingan bo'lib, ularning sifat ko'rsatkichlarini anglatmaydi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi indeksi



	2023 - Q 3		2023 - Q 4		2024 - Q 1		2024 - Q 2	
	AKI*	TTXIK**	AKI*	TTXIK**	AKI*	TTXIK**	AKI*	TTXIK**
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1,18	0,89	1,10	1,18	1,37	1,53	1,49	1,60
Andijon viloyati	0,90	1,20	0,81	1,00	1,06	1,10	0,88	1,00
Buxoro viloyati	1,67	1,78	1,78	2,20	2,36	2,90	2,35	2,92
Jizzax viloyati	1,49	1,64	1,51	1,91	1,64	1,28	1,55	1,92
Qashqadaryo viloyati	1,00	0,96	1,12	1,10	1,73	2,06	1,62	1,88
Navoiy viloyati	0,91	1,14	0,96	1,11	0,94	1,15	0,86	0,96
Namangan viloyati	1,36	1,26	1,33	1,30	2,25	2,62	1,77	2,06
Samarqand viloyati	1,20	1,11	1,09	0,91	1,04	1,01	1,02	0,91
Surxondaryo viloyati	1,11	1,25	1,33	1,66	1,83	2,01	1,13	1,20
Sirdaryo viloyati	2,00	3,93	2,16	3,69	1,34	0,90	1,29	1,55
Toshkent viloyati	1,22	1,52	1,25	1,39	1,25	1,23	1,36	1,37
Farg'ona viloyati	1,00	1,11	0,93	0,88	0,89	0,73	0,77	0,75
Xorazm viloyati	0,86	0,68	0,99	0,83	0,74	0,70	0,81	0,73
Toshkent shahri	1,21	0,67	1,13	0,60	0,79	0,44	0,94	0,54

* Asosiy kapitalga investitsiyalar IPI indeksi
 ** To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar IPI indeksi



Davlatimiz Rahbari 2023-yilning 16-17 noyabr kunlari Surxondaryoga tashrifi doirasida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha zarur topshiriqlarni bergandi. MHTI mutaxassislari ushbu topshiriqlarning ijrosini ta'minlash maqsadida quyidagi konsepsiya va takliflarni ishlab chiqdi:

1. Uzun shaharchasini rivojlantirish

konsepsiyasi. O'tkazilgan tahlillar Uzun shaharchasi bir qator sohalarda raqobat ustunligiga ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, Sariosiyo temiryo'l stansiyasi va Sariosiyo aeroporti imkoniyatlaridan foydalanib, turizmni shaharchani rivojlantirish drayveriga aylantirish mumkin. Bundan tashqari sutni qayta ishlovchi korxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish imkoniyati mavjud. Chunki hozir Uzun tumanida yetishtiriladigan 71,4 ming tonna sutning atigi 7,6 foizi qayta ishlanadi. O'quv-ishlab chiqarish hududlarini tashkil etish orqali shaharchada ishsizlikni kamaytira bo'ladi.

2. Geliokollektor va quyosh panellarini o'rnatish.

Surxondaryo viloyatida yilning taxminan 320 kuni quyoshli bo'ladi. Viloyatda 547 mingta uy xo'jaligi va 31 mingta ulgurji iste'molchi bor. So'nggi 5 yil davomida elektr energiyasi iste'moli 22,6 foizga oshgan. MHTI tomonidan o'tkazilgan so'rov tadbirkorlik subyektlarining 30,9 foizi o'z binosiga quyosh panellari yoki kollektorlarini o'rnatganini ko'rsatdi. Respondentlardan 65,2 foizining qayd etishicha, quyosh texnologiyalaridan foydalanishdagi asosiy to'siq bu ular narxining balandligidir. Sohani rivojlantirish uchun quyosh texnologiyalari bo'yicha ta'limni kuchaytirish, kafolat xizmatini yaxshilash, standartlar va sertifikatlar tizimini joriy qilish, zarur uskunalarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish lozim.

3. Cho'l-dasht hududlaridagi bo'sh yerlardan

oqilona foydalanish. Surxondaryoda qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan 324 ming gektar qumli, cho'l-dasht, tepalik va jarlik, tuproq-to'kilma, toshloq va adir yerlar mavjud.

Degradatsiyaga uchragan yaylovlarni tiklash hamda qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlarning iqlimiga xos o'simliklarni ekish orqali o'tloqlar hamda chorva mollari sonini ko'paytirish mumkin. Shu maqsadda, Angor, Sherobod va Termiz tumanlaridagi cho'l-dasht maydonlarining qumloq tuproqlarida qora saksovul (hosildorligi 57 s/ga), cherkez, selin, qandim (18 s/ga) hamda O'zbekistonning qumloq joylari uchun mos keladigan fitomeliorant o'simliklarni ekish va 5 ming bosh qo'y-echki otarchilik fermalarini barpo qilish maqsadga muvofiq. Buning natijasida mayda shoxli chorva mollari soni qo'shimcha 100 ming boshga ortadi va 50 mingta yangi ish o'rne yaratiladi.

4. Charm sanoatini rivojlantirish. Surxondaryo viloyatida 1 millionta yirik shoxli qoramol bor. 2023-yil mazkur salohiyatdan unumli foydalanish maqsadida viloyatning Angor tumanida yillik 1,2 mln. kv.m hajmdagi terini qayta ishlash quvvatiga ega zamonaviy klaster ishga tushirildi. Galdagi muhim vazifalardan biri bu charm sanoatini rivojlantirish akseleratorini yo'lga qo'yishdir. Buning uchun ishlab chiqishga xalqaro ekspertlarni jalb qilish, xodimlar malakasini oshirish, istiqbolli loyihalarni tanlash va ekportchilarga moliyaviy yordam ko'rsatish zarur.

MHTI ekspertlari tadqiqot davomida, shuningdek, Surxondaryo viloyatining tarixiy, madaniy va turistik salohiyatini ommalashtirish, viloyatga salohiyatli kadrlarni jalb etish, dorivor o'simliklar bilan davolashni ommalashtirish, foydali qazilma konlarini samarali o'zlashtirish imkoniyatlarini ham o'rganib chiqdi. ■

[Batafsil tanishib chiqish](#)



Narx. 2024-yilning yanvar-sentyabr oylarida onlayn auksion orqali mulk va ijara huquqi asosida sotilgan o'rtacha 1 ga yerning narxi 595,1 mln. so'mga qimmatlashgan.

Hudud. Hududlar kesimida mulk va ijara huquqi asosida 2024-yilning yanvar-sentyabr oylarida 2023-yilning shu davridagiga nisbatan Toshkent shahrida 4,7 barobar, Qoraqalpog'iston Respublikasida 4,4 barobar, Andijon viloyatida 3,2 barobar, Xorazm viloyatida 2,8 barobar, Qashqadaryo viloyatida 2,7 barobar va Namangan viloyatida 2,5 barobar ko'p yer maydonlari sotilgan.

Ijara va mulk. Respublika bo'yicha onlayn-auksion orqali mulk va ijara huquqi asosida tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun: 2024-yilning yanvar-sentyabr oylarida: 24 612 ta lot (69,3 foiz) yoki 5 323,7 gektar yer maydoni ijara, 10 884 ta lot (30,7 foiz) yoki 500,3 gektar yer maydoni mulk huquqi asosida savdoga chiqarilgan.

2024-yilning yanvar-sentyabr oylarida 19 327 ta lot, 2 681,5 gektar yer uchastkalari 2 860, 1 mlrd. so'mga sotilgan bo'lib, 2023-yilning shu davridagiga nisbatan sotilgan lotlar soni 1,9 barobargacha, yerlarning hajmi 1,8 barobargacha, yerlarni sotishdan tushgan mablag'lar miqdori esa 4,0 barobargacha ortgan.

2024-yilning yanvar-sentyabr oylarida respublikadagi 67 ta tuman (shahar)da mulk huquqi asosida yer uchastkalari auksion savdolariga umuman chiqarilmagan.

Takliflar:

- auksion savdolariga ijtimoiy infratuzulma hamda muhandislik kommunikatsiyalari obyektlari mavjud bo'lgan hududlarda namunaviy loyihalar asosida master rejani ishlab chiqish sharti bilan yakka tartibdagi uy-joy qurilishi uchun 1 gektardan ortiq yer uchastkalarini mulk huquqi asosida auksionga chiqarish ishlarini jadallashtirish;
- tuman (shahar) kadastr filiallari hamda qurilish bo'limlari hududlarning iqtisodiy rivojlanish dasturlari, tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlari hamda urbanizatsiya jarayonlarini (o'sish nuqtalari) chuqur tahlil qilgan holda, infratuzilma mavjud bo'lgan yerlarni auksion savdolariga chiqarish choralari ko'rishi, natijada yerning iqtisodiy jihatdan jozibadorligining ortishi hamda hududlarning tadbirkorlik faoliyati rivojlanishiga imkoniyat yaratishi lozim.



2024-yilning III-choragida sayyohlarga turistik xizmatlari ko'rsatish maqsadida 271 ta turoperator va turagentlar (joriy yilning II-choragida 193 ta), joylashtirish vositalari bo'yicha 29 ta mehmonxona (joriy yilning II-choragida 40 ta) va 80 ta xostel (joriy yilning II-choragida 51 ta) yaratildi.

O'zbekistonning jahon miqyosida turistik jozibadorligini oshirish maqsadida quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

- 2025-yilga qadar xorijiy mamlakat fuqarolari O'zbekistonga kelishi uchun vizasiz tartibdan foydalanish imkoniyatini yanada ko'paytirish, ya'ni bunday mamlakatlar sonini 90 tadan 120 taga yetkazish, xorijiy sayyohlar sonini 20 foizgacha oshirish imkonini beradi;

- yoshlar auditoriyasini (19–30 yosh toifasi) jalb qilish maqsadida inflyuenserlardan foydalangan holda Instagram va Facebookda aksiyalarni joriy qilish (kutilayotgan qamrov soni – birinchi yilda 1 million foydalanuvchigacha);

- infratuzilmani yaxshilash, ya'ni ekomehmonxonalarga e'tibor qaratgan holda mashhur sayyohlik joylarida 100 ta yangi mehmonxona qurish (kutilayotgan turar joylar sonining ko'payishi 15000 tacha);

- ichki turizmni rivojlantirish, ya'ni 2025-yilga borganda mahalliy sayyohlar sonini 40 foizga yetkazish maqsadida yosh bolali oilalar uchun ekskursiyalar va mehmonxonalarga chegirmalar taqdim etuvchi "Oilaviy ta'til" dasturini joriy etish;

- hududlarda turizm klasterlarini (masalan, Buxoroda madaniy klaster va Toshkent viloyatida ekoklaster) yaratish, natijada 2025-yilda ushbu zonalarda mahalliy sayyohlar sonini 30 foizgacha oshirish maqsadga muvofiq.

2024-YILNING III-CHORAGIDA (IYUL-SENTYABR) O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA QAYD ETILGAN ASOSIY NATIJALAR

2024 III-chorak

2024 II-chorak





Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagilar ma'lum bo'ldi:

Meva-sabzavotlar hamda ulardan tayyorlangan turli xil qiyom va sharbatlar. 2024-yilning III-choragida Buyuk Britaniya, Hindiston, Kanada, AQSh, Tailand, Avstraliya kabi mamlakatlarda meva-sabzavotlar hamda ulardan tayyorlangan turli xil qiyom va sharbatlarga bo'lgan talab yuqori bo'ldi.

Ushbu mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha Surxondaryo, Xorazm, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Andijon viloyatlari yaxshi imkoniyatlarga ega bo'lib, qayd etilgan mamlakatlarga eksportni doimiy ravishda yo'lga qo'yish mazkur hududlarning iqtisodiy ahvolini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ip-gazlama, kiyimlar, kimyoviy tola va teri mahsulotlari. Mazkur tovarlarga bo'lgan talab AQSh, Fransiya va Indoneziya davlatlarida yuqori ekanligi aniqlandi.

Ushbu tovarlarni eksport qilishda nisbiy ustunlikka ega bo'lgan Namangan, Qashqadaryo, Toshkent, Sirdaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi tadbirkorlarida mazkur bozorlarga chiqish imkoniyatlari mavjud.

O'g'itlar, kimyoviy mahsulotlar, un va kraxmal. O'zbekiston ushbu mahsulotlarini eksport qilishda ham nisbiy ustunlikka ega bo'lib, mazkur mahsulotlarga asosan AQSh, Buyuk Britaniya, Malayziya, Hindiston, Kanada, Koreya Respublikasi davlatlarida talab yuqori.

Farg'ona, Navoiy va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahri tadbirkorlari ushbu mahsulotlarni nisbatan pastroq xarajatlar evaziga eksport qilishi mumkin.

Qimmatbaho toshlar va metallar, rux va mis mahsulotlari. Kanada, Fransiya, AQSh, Germaniya, Koreya Respublikasi, BAA va Xitoy kabi mamlakatlardagi ko'pgina buyurtmachilarga qimmatbaho toshlar va metallar, rux va mis mahsulotlari zarur ekanligi aniqlandi.

Ushbu mahsulotlarni eksport qilish Navoiy va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrida faoliyat olib boruvchi tadbirkorlarga tavsiya etiladi.

Shuningdek, buyurtmachilarning 75,5 foizi uchun mahsulotning qaysi mamlakatdan yetkazib berilishi ahamiyatga ega emasligi ma'lum bo'ldi. Mazkur guruhdagi buyurtmachilarning 78,4 foizi mahsulotni Incoterms qoidalarining CIF shartlari (mahsulotni ishlab chiqarish, sug'urtalash va yetkazib berish xarajatlari sotuvchining zimmasiga yuklatiladi) asosida yetkazib berilishini ma'qul ko'rishi aniqlandi. Mahsulotni yetkazib berish bo'yicha ma'lum bir davlat talabini qo'ymagan buyurtmachilarning 60 foizi to'lov shakli sifatida akkreditivni (LC - Letter of Credit), 28,4 foizi esa telegrafik pul o'tkazmasi (TT - Telegraphic Transfer) hamda bank orqali to'g'ridan to'g'ri o'tkazmani afzal ko'rishi ma'lum bo'ldi.

Izoh: *Akkreditiv xalqaro savdoda risk darajasi kichik bo'lgan eng ishonchli to'lov shakli hisoblanadi.*

Shuni ta'kidlash lozimki, hududlarda transport va eksport infratuzilmasining ushbu potensial bozorlarga chiqish uchun moslashtirilishi, eksportchi korxonalariga yaqindan konsultativ va moliyaviy ko'mak berilishi eksport ko'lamining oshishi, samaradorlikning yaxshilanishi, innovatsion faoliyatning jadallashishi, aholi turmush darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotda respublika va uning hududlari uchun nisbiy ustunlik indeksi (RCA - Revealed Comparative Advantage) hisoblab chiqilgach, O'zbekiston eksport qilishda nisbiy ustunlikka ega bo'lgan mahsulotlar hamda ularni eksport qilishi mumkin bo'lgan viloyatlar aniqlandi. Tahlillarda www.go4worldbusiness.com veb-sahifasidan 2024-yilning iyul-sentyabr oylari uchun veb-skreping (web-scraping) orqali tortib olingan 15320 ta buyurtmachining ma'lumotlari hamda Statistika agentligi ma'lumotlaridan foydalanildi.



“Aqlli qishloqlar” konsepsiyasi nafaqat qishloqlarning raqamli transformatsiyasi, balki ularning rivojlanishiga yangicha qarashni ham ifodalaydi.

Xitoyda “Aqlli qishloq Bayxu” loyihasi doirasida 80 dan ortiq turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini onlayn sotish yo‘lga qo‘yildi va 30 mingdan ortiq kishi kambag‘allikdan olib chiqildi.

Elektron tijorat kambag‘allikni bartaraf etishda muhim rol o‘ynadi. 20 000 dan ortiq sotuvchi “832 platformasi”ga (kambag‘al hududlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish uchun onlayn platforma) qo‘shildi. Bu 2022-yilda 13,6 milliard yuan daromad keltirdi (avvalgi yildagiga nisbatan 20 foiz ko‘p).

Ispaniyada COWOCAT Rural loyihasi doirasida yaratilgan kovorking maydonlari aholi sonining kamayishidan aziyat chekayotgan qishloq joylarida iqtisodiy o‘sishning drayveriga aylandi. Loyiha doirasida 18 dan ortiq kovorking maydoni va 130 nafardan ortiq mutaxassis tarmoqqa qo‘shildi. Bu esa qishloqlarda kuchli kovorkerlar hamjamiyatini shakllantirishga hissa qo‘shdi.

Loyiha Ispaniyadagi ikkita ta‘lim muassasasida o‘quv dasturlarini yo‘lga qo‘yish orqali yoshlar o‘rtasida kovorking madaniyatini ommalashtirishga faol hissa qo‘shdi. Tortosa shahridagi Rovira-i-Virgili universitetida talabalar va o‘qituvchilarni ushbu konsepsiyaga jalb qilish uchun qishloq kovorking maydoni tashkil etildi.

Kongo Demokratik Respublikasida «Pamoja Net» loyihasi Idjvi oroliga internetga kirish imkonini berdi. Bu mahalliy biznes muhitini yaxshiladi, bu esa xalqaro xaridorlar bilan aloqa o‘rnatishga yordam berdi. Mahalliy korxonalarining qo‘llab-quvvatlashi va «Fjord» texnologiya kompaniyasi bilan hamkorlik tufayli 3900 nafardan ortiq kishi internetga ulanish imkoniga ega bo‘ldi.

Keyinchalik, mahalliy korxonalar loyiha oylik operatsion xarajatlarining 60 foizini moliyalashtirish uchun yangi imkoniyatlardan foydalandi.

Ozarbayjonda Agali aholi punktidagi “aqlli qishloq” qayta tiklanadigan energiya manbalari va raqamli texnologiyalardan foydalanish namunasiga aylandi. Aholi punkti energetik jihatdan mustaqil: energiya resurslariga bo‘lgan ehtiyoj quyosh energiyasi, shamol energiyasi va gidroelektr stansiyalari hisobiga ta‘minlanadi. Agali qishlog‘idagi har bir bino tolali izolyatsiya, elektrodli suv isitgichi, quyosh panellari va boshqa «yashil» texnologiyalar asosida jihozlangan.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligiga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qishloqlar barqarorligi va unumdorligini oshirishga qaratilgan tashabbuslar ham faol amalga oshirilmoqda.

2023-yilda O‘zbekiston fermerlari FAOning “Kelajak avlodlar uchun aqlli qishloq xo‘jaligi” loyihasi va dunyo bo‘ylab 1000 ta raqamli qishloqni yaratishga qaratilgan FAOning “Raqamli qishloqlar” tashabbusida ishtirok etdi. Tajriba loyihalarini amalga oshirish uchun Farg‘ona vodiysining Novkent va Yuksalish qishloqlari tanlab olindi. ■



Chimboy va Amudaryo tumanlarining master-rejalari ishlab chiqilmoqda

 o'qish vaqti
23 soniya

Joriy yilning 23-26-oktyabr kunlari MHTI mutaxassislari, Germaniya xalqaro hamkorlik tashkiloti (GIZ) vakillari va xorijiy ekspertlar Qoraqalpog'iston Respublikasining Chimboy va Amudaryo tumanlarida bo'lib, bu yerda faoliyat yuritayotgan davlat tashkilotlarining xodimlari hamda mahalliy tadbirkorlar bilan davlat-xususiy sektor muloqotlari (PPD - Public Private Dialogue)ni o'tkazdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi "Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish va bo'sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-245-sonli qarorida MHTI va Germaniya xalqaro hamkorlik tashkiloti (GIZ) hamkorligida hududlarni kompleks iqtisodiy rivojlantirishning master-rejalarini ishlab chiqish belgilangan.



2024-yilning yanvar oyida Toshkent shahrida uy-joy uchun taklif etilgan ijara narxlar

o'qish vaqti
61 soniya


2024-yilning yanvar oyida 2023-yilning dekabr oyidagiga nisbatan Toshkent shahrida o'rtacha ta'mirlangan xonadonlarning ijara narxlarida o'rtacha 0,2% tushish hamda to'liq ta'mirlangan uy-joylarning ijara narxlarida 0,5% o'sish kuzatildi.

O'rtacha ta'mirlangan 1 xonali xonadonlar uchun taklif etilgan ijara narxlar 2023-yilning dekabr oyidagiga nisbatan o'rtacha 1,2% ga pasayib, 395 AQSH dollarini, 2 xonali xonadonlarning ijara narxlar 0,2% ga arzonlab (442 dollar)ni tashkil etgan, lekin shunday 3 xonali uylarning ijara narxlar 0,1%ga (516 dollar) hamda 4 xonali uylarning o'rtacha ijara narxlar 0,4% ga (597 dollar) oshgan.

Ma'lumot uchun: 2023-yilning noyabr oyidan 2024-yilning yanvar oyigacha o'rtacha ta'mirlangan 1 va 2 xonali uylar uchun o'rtacha ijara narxlar mos ravishda 1,5% (401 dollardan 395 dollarga) va 2,2%ga (452 dollardan 442 dollarga) tushib kelmoqda.

Yanvar oyida to'liq ta'mirlangan 1 xonali uylar uchun o'rtacha ijara narxlar 0.16%ga qimmatlab, 477 dollarni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2 xonali uylar uchun 0.2%ga (654 dollar), 3 xonali uylar uchun 1% (791 dollar) hamda 4 xonali uylar uchun 0.6% (915 dollar) ni tashkil etgan.

Ijara narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar olx.uz platformasidan veb skreping (web scraping) usulida to'plandi. Bunda 2023-yilning dekabr oyi uchun 41.4 ming va 2024-yilning yanvar oyi chun 52.3 mingta ma'lumotdan foydalanildi. Ikkala davr uchun ham tahlil narxlar chegarasining yuqori va pastki 5% lik kvantillari chiqarib tashlangandan keyin amalga oshirilgan.





2023-yilning dekabr oyida Toshkent shahrida taklif etilgan uy-joy ijara narxlari

o'qish vaqti
54 soniya


2023-yilning dekabr oyida Toshkent shahrida o'rtacha va to'liq ta'mirlangan uy-joylar uchun ijara narxlarida tushish kuzatildi. Lekin, 4 xonali xonadonlarning ijara narxlarida ko'tarilish qayd etildi.

2023-yilning so'nggi oyida o'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun taklif etilgan ijara narxlari noyabr oyidagiga nisbatan o'rtacha 0,3 foizga pasaydi.

Ushbu guruhda 1 xonali xonadonlar uchun taklif etilgan ijara narxlari noyabr oyidagiga nisbatan o'rtacha 0,2 foizga pasayib, 400 dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2 xonali xonadonlar uchun o'rtacha ijara narxlari (443 dollar) 1 foizga, 3 xonali uylarning ijara narxlari (515 dollar) 0,7 foizga arzonlashgan. 4 xonali uylarning o'rtacha ijara narxlari (594 dollar) esa 0,7 foizga oshgan.

To'liq ta'mirlangan guruhdagi uylar uchun taklif etilgan o'rtacha ijara narxlarida 0,4 foiz tushish kuzatildi. Xususan, shahar bo'yicha 1 xonali uylar uchun o'rtacha ijara narxlari (476 dollar) 2 foiz arzonlashgan bo'lsa, 2 xonali (653 dollar) va 3 xonali (782 dollar) uylar uchun ushbu ko'rsatkich mos ravishda 0,3 foiz va 0,4 foizni tashkil etgan. Lekin, 4 xonali uylar uchun o'rtacha ijara narxlari 0,9 foiz qimmatlashgan va 915 dollarga yetgan.

Ijara narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar olx.uz platformasidan veb skreping (web scraping) usulida to'plandi. Bunda noyabr oyi uchun 45.4 mingta va dekabr oyi uchun 41.4 mingta ma'lumotdan foydalanildi.





Toshkent shahrida ijara narxlari pasayishda davom etmoqda. 2024-yilning fevral oyida poytaxtda o'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun ijara narxlarida yanvar oyidagiga nisbatan o'rtacha 0,34 foizga, to'liq ta'mirlangan xonadonlar uchun ijara narxlarida esa o'rtacha 0.13 foizga pasayish kuzatildi.

O'rtacha ta'mirlangan xonadonlar ijarasi. 2024-yilning fevral oyida 1 xonali turar joylar uchun taklif etilgan ijara narxlari yanvar oyidagiga nisbatan o'rtacha 0.3 foizga pasayib, 394 dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2 xonali xonadonlar uchun ijara narxlari 0,2 foizga pasayib, o'rtacha 441 dollargacha tushdi. Shuningdek, o'rtacha ta'mirlangan 3 va 4 xonali uylar uchun ijara narxlari 0.4 foizga pasayib, o'rtacha narxlar mos ravishda 514 dollar va 594 dollarni tashkil etdi.

O'rtacha ta'mirlangan turar joylar uchun nisbatan arzon ijara narxlari Sergeli (1 xonali - 358 dollar, 2 xonali - 393 dollar, 3 xonali - 435 dollar, 4 xonali - 450 dollar), Olmazor (1 xonali - 357 dollar, 2 xonali - 415 dollar, 3 xonali - 455 dollar, 4 xonali - 490 dollar) tumanlarida taklif etilgan bo'lsa, ushbu turkumdagi eng qimmat ijara narxlari Yakkasaroy (1 xonali - 420 dollar, 2 xonali - 488 dollar, 3 xonali - 657 dollar, 4 xonali - 738 dollar) va Mirobod (1 xonali - 467 dollar, 2 xonali - 520 dollar, 3 xonali - 620 dollar, 4 xonali - 832 dollar) tumanlarida kuzatildi.

Ma'lumot uchun: 2023-yilning noyabr oyidan 2024-yilning fevral oyigacha bo'lgan davrda o'rtacha ta'mirlangan 1 va 2 xonali uylar uchun o'rtacha ijara narxlari mos ravishda 1,8 foiz (401 dollardan 394 dollarga) va 2,4 foizga (452 dollardan 441 dollarga) tushgan.

To'liq ta'mirlangan turar joylar uchun ijara narxlari. Fevral oyida to'liq ta'mirlangan 1 xonali uylar uchun o'rtacha ijara narxlari 475 dollarni tashkil etib, yanvar oyidagiga nisbatan 0.3 foizga pasayigan bo'lsa, 2 xonali uylar uchun ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 651 dollar va 0.6 foizni tashkil etgan. Shuningdek, 3 xonali uylar uchun taklif etilgan o'rtacha ijara narxlarida (790 dollar) ham biroz (0,1 foiz) tushish kuzatildi. Lekin, to'liq ta'mirlangan 4 xonali xonadonlar uchun o'rtacha ijara narxlari 0.4 foiz oshib, 919 dollargacha ko'tarilgan.


To'liq ta'mirlangan turkumdagi uylar uchun eng arzon ijara narxlari Sergeli (1 xonali - 393 dollar, 2 xonali - 462 dollar, 3 xonali - 560 dollar, 4 xonali - 761 dollar) va Uchtepa (1 xonali - 401 dollar, 2 xonali - 498 dollar, 3 xonali - 617 dollar, 4 xonali - 850 dollar) tumanlarida hamda ushbu turkumdagi eng qimmat ijara narxlari Shayxontohur (1 xonali - 555 dollar, 2 xonali - 848 dollar, 3 xonali - 1057 dollar, 4 xonali - 1028 dollar) va Mirobod (1 xonali - 570 dollar, 2 xonali - 861 dollar, 3 xonali - 1024 dollar, 4 xonali - 1128 dollar) tumanlarida kuzatildi.

Ijara narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar olx.uz platformasidan veb skreping (web scraping) usulida to'plandi. Bunda 2024-yilning yanvar oyi uchun 52.3 mingta, fevral oyi uchun 51.5 mingta ma'lumotdan foydalanildi. Ikkala davr uchun ham tahlil narxlar chegarasining yuqori va pastki 5 foizlik kvantillari chiqarib tashlanganidan keyin amalga oshirilgan.


Yanvar 2024



Fevral 2024




O'rta tamirlangan



To'liq tamirlangan

Ijara narxlari darajasi





Hisobot Biznesni rivojlantirish banki homiyligida tayyorlanib, uy-joy bozori dinamikasi, talab va taklif, uy-joyni sotib olish va ijaraga olish narxlari, davlat tomonidan uy-joy bozori ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rilayotgan choralar, shuningdek, aholini uy-joy bilan ta'minlashning dolzarb masalalari, yer uchastkalari va qurilish materiallarining narxlari kabi omillar tahlilini o'z ichiga oladi.

Asosiy xulosalar:

2020-2023 yillarda birlamchi va ikkilamchi bozordagi uylarning o'rtacha narxlari 70-80 foiz oshgan va bu mazkur davrda iste'mol narxlari o'zgarishidan mos ravishda 1,4 va 1,6 barobarga yuqori hisoblanadi.

Ipoteka kreditlari, ayniqsa davlat dasturlari doirasida past daromadli oilalar va birinchi marta uy sotib oluvchilar uchun mo'ljallangan imtiyozli ipoteka kreditlari uy-joyga bo'lgan talabning sezilarli darajada oshishiga olib kelgan.

Ma'lumot uchun: 2017-yilda aholiga ajratilgan ipoteka kreditlari hajmi 2,6 trln. so'mni tashkil etib, nominal YAIMga nisbatan 0,8 foiz bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 16,9 trln. so'm va 1,6 foizga yetdi. Bu esa 2023-yilda aholiga ajratilgan ipoteka kreditlari hajmi 2017-yildagiga nisbatan 6,4 barobar ko'payganligini ko'rsatadi.

Uy-joy sotib olishni moliyalashtirishda tijorat banklarining roli va ahamiyati oshib bormoqda.

Ma'lumot uchun: 2021-yilda ipoteka kreditlarini moliyalashtirishda banklarning o'z mablag'lari ulushi 8,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 26,3 foizga, 2023-yilda 33,9 foizga yetdi. Bu esa bank sektorining ko'chmas mulk bozorida ishtiroki tobora oshib borayotganligini ko'rsatadi.

2023-yilda Toshkent shahridan tashqari respublikaning barcha hududlarida birlamchi bozordan uy-joy sotib olish uchun ipoteka krediti olgan aholining eng kamida 40 foizdan ortiq qismi dastlabki badalning bir qismini qoplashda subsidiyalardan foydalangan.

Uy-joy qurilishi uchun yer uchastkalarining narxlari yildan yilga sezilarli darajada o'sib bormoqda.

Ma'lumot uchun: Toshkent shahrining bosh rejasi tasdiqlanmaguncha 2023-yildan yangi qurilishlarga moratoriy e'lon qilinishi natijasida qurilish uchun yer uchastkalari sotilishi to'xtatildi. Moratoriy e'lon qilinishidan oldin auksion savdolariga chiqarilgan va 2023-yilda sotilgan (3 lot) yerlarning 1 kv.metri uchun narxlar 6,3 mln. so'mdan 11,4 mln. so'mgacha bo'lgan qiymatlarni tashkil etdi.

Uy-joy qurilishi narxiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri bo'lgan sementning narxi pasaymoqda va mamlakatda sementga bo'lgan ehtiyojning mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan qoplanish darajasi ortib bormoqda. Shu bilan bir qatorda armatura narxi ham pasaymoqda.

Toshkent shahrining Yashnobod va Sergeli tumanlarida yerusti metrosining qurib, foydalanishga topshirilishi uy-joy ilgari poytaxtning boshqa tumanlaridagiga nisbatan arzonroq bo'lib kelgan ushbu hududlarida turar joylarning jozibadorligi va qiymati oshishiga hissa qo'shdi. Xususan, 2022-yilda uy-joylarning 1 kv.metri uchun o'rtacha narx Sirg'ali tumanida 775 AQSh dollarini, Yashnobod tumanida 875 AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda narxlar mos ravishda 979 dollar (26,3 foiz) va 1087 dollargacha (24,2 foiz) ko'tarilgan. Yashnobod tumanidagi yangi uy-joylarning narxi o'rtasidagi tafovut (standart og'ish) 2022-yilda 273, 2023-yilda 446, Sergeli tumanida esa mos ravishda 148 va 221 ni tashkil qildi. ■



Toshkent shahrida ijara narxlari pasayishda davom etmoqda. 2024-yilning mart oyida poytaxtda o'rtacha ta'mirlangan xonadonlarning ijara narxlarida fevral oyidagiga nisbatan o'rtacha 0.61 foiz, to'liq ta'mirlangan uy-joylarning ijara narxlarida esa o'rtacha 0.76 foiz tushish kuzatildi.


O'rtacha ta'mirlangan uy-joy ijarasi. 2024-yilning mart oyida o'rtacha ta'mirlangan 1 xonali xonadonlar uchun taklif etilgan ijara narxlari o'tganning fevral oyidagiga nisbatan o'rtacha 0,6 foiz pasayib, 391 AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2 xonali xonadonlar uchun ijara narxlari 1.2 foiz arzonlab, o'rtacha 436 dollargacha pasaydi. Shuningdek, o'rtacha ta'mirlangan 3 va 4 xonali uylar uchun ijara narxlari mos ravishda 0.2 foiz va 0.4 foizga pasayib, o'rtacha narxlar 513 dollar va 591 dollarni tashkil etdi.

O'rtacha ta'mirlangan uylar uchun nisbatan arzon ijara narxlari Sergeli (1 xonali - 354 dollar, 2 xonali - 386 dollar, 3 xonali - 435 dollar, 4 xonali - 441 dollar), Olmazor (1 xonali - 359 dollar, 2 xonali - 414 dollar, 3 xonali - 454 dollar, 4 xonali - 489 dollar) tumanlarida taklif etilgan bo'lsa, ushbu turkumdagi eng qimmat ijara narxlari Mirobod (1 xonali - 463 dollar, 2 xonali - 518 dollar, 3 xonali - 620 dollar, 4 xonali - 819 dollar) va Shayhontohur (1 xonali - 437 dollar, 2 xonali - 456, 3 xonali - 537 dollar, 4 xonali - 624 dollar) tumanlarida kuzatildi.

To'liq ta'mirlangan uylar uchun ijara narxlari. Mart oyida to'liq ta'mirlangan 1 xonali uylar uchun o'rtacha ijara narxlari 472 dollarni tashkil etgan. Bu o'tgan yilning fevral oyidagiga nisbatan 0,8 foiz past. Bu ko'rsatkichlar 2 xonali uylar uchun mos ravishda 644 dollar va 1,1 foizni tashkil etgan. Shuningdek, 3 xonali uylar uchun taklif etilgan o'rtacha ijara narxlarida (788 dollar) ham biroz (0,3 foiz) tushish kuzatildi. Shuningdek, ta'mirlangan 4 xonali uylar uchun o'rtacha ijara narxlari ham 0.9 foiz tushib, 909 dollargacha pasaygan.

To'liq ta'mirlangan uylar uchun eng arzon ijara narxlari Sergeli (1 xonali - 394 dollar, 2 xonali - 449 dollar, 3 xonali - 556, dollar 4 xonali - 646 dollar) va Uchtepa (1 xonali - 396 dollar, 2 xonali - 496 dollar, 3 xonali - 622 dollar, 4 xonali - 646 dollar) tumanlarida, eng qimmat ijara narxlari Mirobod (1 xonali - 567 dollar, 2 xonali - 844dollar, 3 xonali - 1024 dollar, 4 xonali - 1097 dollar) va Shayxontohur (1 xonali - 556 dollar, 2 xonali - 845 dollar, 3 xonali - 1050 dollar, 4 xonali - 1024 dollar) tumanlarida kuzatildi.

Ijara narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar olx.uz platformasidan veb skreping (web scraping) usulida to'plandi. Bunda 2024-yil fevral oyi uchun 51,5 ming va mart oyi chun 52,2 mingta ma'lumotlardan foydalanildi. Ikkala davr uchun ham tahlil narxlar chegarasining yuqori va pastki 5 foizlik kvantillari chiqarib tashlangandan keyin amalga oshirilgan.





2017-2023 yillarda O'zbekistonda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1,4 barobar oshib, 2023-yilda 655,8 trillion so'mni tashkil etdi. Mamlakatimizning 9 ta hududi, jumladan Andijon, Namangan, Xorazm, Jizzax, Toshkent, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo viloyatlari va Toshkent shahrida investitsiya faolligi va mahalliy resurslarni qayta ishlash bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarining oshishi hisobiga sanoat tarmog'ining jadal o'sishi (1,5-2,1 barobar) ta'minlandi.

Tahlil qilinayotgan davrda 11 ta hududda YaHMda sanoat ulushining ortishi hududlar iqtisodiyotidagi jiddiy o'zgarishlardan dalolat beradi. Shunday qilib, sezilarli siljishlar Navoiy (2018-yilda 54,6% dan 2023-yilda 70,4% ga), Jizzax (9,2% dan 16,9% ga), Toshkent (40,6% dan 47% ga), Andijon (22,4% dan 27,9% ga), Buxoro (12,9% dan 18,3% ga), Sirdaryo (21,3% dan 26,4% ga), Xorazm (12,8% dan 15,6% ga) va Namangan (12,6% dan 15,2% ga) viloyatlarida kuzatildi. Natijada, YaHMdagi sanoat ulushi 15% dan past bo'lgan hududlar sonini oltitadan bittagacha qisqartirishga erishildi.


Mamlakat ishlab chiqarish sanoatidagi tarkibiy o'zgarishlar o'rtacha texnologik ishlab chiqarish ulushining 49,1% dan 62,3% ga o'sishi bilan bog'liq. Aksariyat hududlarda, ayniqsa Buxoro (47,7% dan 62,2% ga), Jizzax (26,3% dan 71,4% ga), Qashqadaryo (34,3% dan 49% ga), Namangan (16,8% dan 24,3% ga), Sirdaryo (13,2% dan 24,8% ga), Xorazm (39,7% dan 49,6% ga) viloyatlarida shunga o'xshash natijaga kimyo, avtomobilsozlik va elektrotexnika sanoatining rivojlanishi hisobiga erishildi.

2023-yil yakuniga ko'ra, Toshkent shahri (41,2 mln. so'm), Navoiy (95,4 mln. so'm), Toshkent (35,0 mln. so'm) viloyatlari bilan bir qatorda Andijon viloyati (21,9 mln. so'm) ham sanoati rivojlangan hududlar guruhiga kiritildi. Bu yerda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish ko'rsatkichi respublika ko'rsatkichidan (18,0 mln. so'm) yuqori bo'ldi. 2017-2023 yillarda Buxoro (8-o'ringan 6-o'ringa), Jizzax (12-o'ringan 7-o'ringa), Xorazm (11-o'ringan 8-o'ringa) viloyatlarining reytingdagi o'rni yaxshilandi. Bu esa ularning o'rtacha rivojlangan hududlar guruhiga (aholi jon boshiga ishlab chiqarish 9-18 mln. so'mni tashkil etadi) kirishiga imkon berdi.

«O'zbekiston – 2030» strategiyasida mahalliy xom ashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, sanoatning «drayver» sohasini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish ko'zda tutilgan. Bunda hududlar imkoniyatidan kelib chiqib, elektrotexnika, farmatsevtika, mashinasozlik, kimyo, energetika, biotexnologiya kabi yo'nalishlarga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, hududlarda ilmiy-ishlab chiqarish klasterlari, «Izlanish va rivojlantirish» (R&D) markazlarini tashkil etish rejalashtirilgan.

2017-2023 YILLARDA O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA IQTISODIYOTNI SANOATLASHTIRISHNING O'ZGARISHI

O'zbekiston viloyatlarida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish darajasi



2017-2023 yillarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining o'sishi (foiz hisobida)

Izoh: ● Jadval o'sish
● Mo'tadil o'sish

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari

2023-yilda sanoatning YaHMdagi ulushi (foiz hisobida)

O'zbekiston Respublikasi	26,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	22,2 ↓
Andijon viloyati	27,9 ↑
Buxoro viloyati	18,3 ↑
Jizzax viloyati	18,3 ↑
Qashqadaryo viloyati	17,1 ↓
Navoiy viloyati	70,4 ↑
Namangan viloyati	15,2 ↑
Samarqand viloyati	15,4 ↑
Surxondaryo viloyati	7,3 ↑
Sirdaryo viloyati	26,4 ↑
Toshkent viloyati	47,0 ↑
Farg'ona viloyati	20,3 ↑
Xorazm viloyati	15,6 ↑
Toshkent shahri	30,0 ↓

↑ 2018-2023 yillarda sanoatning YaHMdagi ulushining ortishi
↓ 2018-2023 yillarda sanoatning YaHMdagi ulushining kamayishi



Toshkent shahrida ijara narxlari pasayishda davom etmoqda. 2024-yilning aprel oyida poytaxtda o'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun ijara narxlari mart oyidagiga nisbatan o'rtacha 0,9 foizga, to'liq ta'mirlangan xonadonlar uchun esa o'rtacha 1,12 foizga pasaygan.

O'rtacha ta'mirlangan uy-joy ijarasi.

2024-yilning aprel oyida o'rtacha ta'mirlangan 1 xonali turar joy uchun taklif etilgan ijara narxlari mart oyidagiga nisbatan o'rtacha 1,4 foizga pasayib, 386 AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2 xonali xonadonlar uchun ijara narxlari 0,4 foizga pasaygan va 434 dollargacha tushgan. Shuningdek, o'rtacha ta'mirlangan 3 va 4 xonali turar joylar uchun ijara narxlari mos ravishda 1,3 foiz va 0,6 foizga pasaygan va o'rtacha narxlar 507 va 587 dollarni tashkil etgan.

O'rtacha ta'mirlangan uy-joy uchun nisbatan arzon ijara narxlari Sergeli (1 xonali - 350 dollar, 2 xonali - 384 dollar, 3 xonali - 429 dollar, 4 xonali - 441 dollar), Olmazor (1 xonali - 361 dollar, 2 xonali - 408 dollar, 3 xonali - 449 dollar, 4 xonali - 477 dollar) tumanlarida taklif etilgan bo'lsa, eng qimmat ijara narxlari Shayxontohur (1 xonali - 412 dollar, 2 xonali - 449 dollar, 3 xonali - 524 dollar, 4 xonali - 627 dollar) va Mirobod (1 xonali - 457 dollar, 2 xonali - 518 dollar, 3 xonali - 612 dollar, 4 xonali - 798 dollar) tumanlarida kuzatildi.


To'liq ta'mirlangan uy-joy ijarasi. Aprel oyida to'liq ta'mirlangan 1 xonali turar joylar uchun o'rtacha ijara narxi 467 dollarni tashkil etib, o'tgan mart oyidagiga nisbatan 0,8 foiz tushgan bo'lsa, 2 xonali turar joylar uchun ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 631 dollarni va 2,1 foizni tashkil etgan. Shuningdek, 3 xonali turar joylar uchun taklif etilgan o'rtacha ijara narxlarida (784 dollar) ham biroz (0,4 foiz) pasayish kuzatildi.

Shuningdek, to'liq ta'mirlangan 4 xonali turar joylar o'rtacha ijara narxlari ham 1,1 foiz tushib, 901 dollargacha pasaygan.


To'liq ta'mirlangan turar joylar uchun eng arzon ijara narxlari Uchtepa (1 xonali - 392 dollar, 2 xonali - 484 dollar, 3 xonali - 619 dollar, 4 xonali - 736 dollar) va Chilonzor (1 xonali - 413 dollar, 2 xonali - 512 dollar, 3 xonali - 652 dollar, 4 xonali - 774 dollar) tumanlarida, eng qimmat ijara narxlari esa Shayxontohur (1 xonali - 557 dollar, 2 xonali - 846 dollar, 3 xonali - 1069 dollar, 4 xonali - 1068 dollar) va Mirobod (1 xonali - 541 dollar, 2 xonali - 839 dollar, 3 xonali - 1028 dollar, 4 xonali - 1093 dollar) tumanlarida kuzatildi.

Ijara narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar olx.uz platformasidan veb skreping (web scraping) usulida to'plandi. Bunda 2024-yilning mart oyi uchun 52.2 mingta va aprel oyi uchun 86 mingta ma'lumotdan foydalanildi. Ikkala davr uchun ham tahlil narxlar chegarasining yuqori va pastki 5 foizlik kvantillari chiqarib tashlangandan keyin amalga oshirilgan.



Mart-2024



April-2024



To'liq tamlangan





Iyul oyida Toshkent shahrida o'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun ijara narxlari pasayishda davom etgan bo'lsa, to'liq ta'mirlangan xonadonlar uchun ijara narxlarining biroz oshishi kuzatildi. Xususan, poytaxtda o'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun ijara narxlari iyun oyidagiga nisbatan o'rtacha 0,7 foizga pasaygan bo'lsa, to'liq ta'mirlangan xonadonlar uchun o'rtacha 0,3 foizga oshgan.

O'rtacha ta'mirlangan uy-joy ijarasi. 2024-yilning iyul oyida o'rtacha ta'mirlangan 1 xonali uylar uchun ijara narxlari iyun oyidagiga nisbatan (0,2 foiz) oshgan bo'lsa, 2-4 xonali uylarning ijara narxlari pasaydi. Xususan, o'rtacha ta'mirlangan 2 xonali uylar uchun 0,4 foizga, 3 xonali uylar uchun 1,1 foizga, 4 xonali uylar uchun esa 1,6 foizga.

O'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun nisbatan arzon ijara narxlari Sergeli (1 xonali - 273 AQSh dollari, 2 xonali - 335 AQSh dollari, 3 xonali - 379 AQSh dollari, 4 xonali - 420 AQSh dollari), Olmazor (1 xonali - 288 AQSh dollari, 2 xonali - 343 AQSh dollari, 3 xonali - 417 AQSh dollari, 4 xonali - 451 AQSh dollari) tumanlarida taklif etilgan bo'lsa, eng qimmat ijara narxlari Yakkasaroy (1 xonali - 348 AQSh dollari, 2 xonali - 438 AQSh dollari, 3 xonali - 574 AQSh dollari, 4 xonali - 604 AQSh dollari) va Mirobod (1 xonali - 334 AQSh dollari, 2 xonali - 433 AQSh dollari, 3 xonali - 557 AQSh dollari, 4 xonali - 713 AQSh dollari) tumanlarida kuzatildi.


To'liq ta'mirlangan uy-joylar ijarasi. 2024-yilning iyul oyida to'liq ta'mirlangan 1 xonali uy-joylar uchun taklif etilgan o'rtacha ijara narxlari iyun oyidagiga nisbatan pasaygan bo'lsa-da,

2 xonali, 3 xonali hamda 4 xonali uy-joylar uchun taklif etilgan o'rtacha ijara narxlarining oshishi kuzatildi. Mazkur davrda 1 xonali uy-joylar ijarasi 1,5 foizga arzonlashgan, biroq 2 xonali uy-joylar ijarasi o'rtacha 0,9 foizga, 3 xonali uy-joylar ijarasi 1,2 foizga, 4 xonali uy-joylar ijarasi 0,6 foizga qimmatlashgan.


To'liq ta'mirlangan uy-joylarning eng arzon ijara narxlari Sergeli (1 xonali - 341 AQSh dollari, 2 xonali - 400 AQSh dollari, 3 xonali - 506 AQSh dollari, 4 xonali - 591 AQSh dollari) va Uchtepa (1 xonali - 359 AQSh dollari, 2 xonali - 438 AQSh dollari, 3 xonali - 552 AQSh dollari, 4 xonali - 671 AQSh dollari) tumanlarida, eng qimmat ijara narxlari esa Mirobod (1 xonali - 447 AQSh dollari, 2 xonali - 736 AQSh dollari, 3 xonali - 1042 AQSh dollari, 4 xonali - 1300 AQSh dollari) va Yakkasaroy (1 xonali - 443 AQSh dollari, 2 xonali - 658 AQSh dollari, 3 xonali - 388 AQSh dollari, 4 xonali - 1170 AQSh dollari) tumanlarida kuzatildi.

Ijara narxlari olx.uz platformasidan veb skreping (web scraping) orqali olingan ochiq ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Bunda 2024-yilning iyun oyi uchun 49,4 mingta va iyul oyi uchun 52,6 mingta ma'lumotdan foydalanildi. Ikkala davr uchun ham tahlil narxlar chegarasining yuqori va pastki 6 foizlik kvantillari chiqarib tashlangandan keyin amalga oshirildi.



2024-yil Iyun



2024-yil Iyul



Orta tamirlangan



To'liq tamirlangan





Joriy yilning avgust oyida Toshkent shahrida uy-joylar uchun ijara narxining oshishi kuzatildi va bunga bir qancha omillar, jumladan, sentyabr oyidan oliy ta'lim muassasalarida yangi o'quv yilining boshlanishi bo'yicha kutilmalar ta'sir ko'rsatdi. Mazkur davrda poytaxtda o'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun ijara narxlari iyul oyidagiga nisbatan o'rtacha 1,9 foizga, to'liq ta'mirlangan xonadonlar uchun esa 0,3 foizga oshdi.

O'rtacha ta'mirlangan uy-joy ijarasiga talabning oshishi bo'yicha kutilmalar ushbu turdagi uylar ijara narxlariga ta'sir ko'rsatdi. 2024-yilning avgust oyida ijara narxlari iyul oyidagiga nisbatan o'rtacha ta'mirlangan 1 xonali uylar uchun 1,3 foizga, 2 xonali uylar uchun 2,1 foizga, 3 xonali uylar uchun 1,7 foizga, 4 xonali uylar uchun esa 2,5 foizga oshdi.

O'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun nisbatan arzon ijara narxlari Sergeli (1 xonali - 285 AQSh dollari, 2 xonali - 348 AQSh dollari, 3 xonali - 387 AQSh dollari, 4 xonali - 460 AQSh dollari), Olmazor (1 xonali - 301 AQSh dollari, 2 xonali - 359 AQSh dollari, 3 xonali - 414 AQSh dollari, 4 xonali - 471 AQSh dollari) tumanlarida taklif etilgan bo'lsa, eng qimmat ijara narxlari Mirobod (1 xonali - 350 AQSh dollari, 2 xonali - 445 AQSh dollari, 3 xonali - 550 AQSh dollari, 4 xonali - 736 AQSh dollari) va Yakkasaroy (1 xonali - 349 AQSh dollari, 2 xonali - 455 AQSh dollari, 3 xonali - 585 AQSh dollari, 4 xonali - 603 AQSh dollari) tumanlarida kuzatildi.

To'liq ta'mirlangan uy-joylar ijarasi. 2024-yilning avgust oyida to'liq ta'mirlangan 3 xonali va 4 xonali uy-joylar uchun taklif etilgan o'rtacha ijara narxlari iyul oyidagiga nisbatan pasaygan bo'lsa, 1 xonali va 2 xonali uy-joylar uchun taklif etilgan o'rtacha ijara narxlarida o'sish kuzatildi. Mazkur davrda 3 xonali uy-joylar ijarasi 0,4 foizga, 4 xonali uy-joylar ijarasi 2,0 foizga arzonlashgan bo'lsa-da, 2 xonali uy-joylar ijarasi o'rtacha 0,1 foizga, 1 xonali uy-joylar ijarasi 3,4 foizga qimmatlashdi.

To'liq ta'mirlangan uy-joylarning eng arzon ijara narxlari Sergeli (1 xonali - 335 AQSh dollari, 2 xonali - 416 AQSh dollari, 3 xonali - 501 AQSh dollari, 4 xonali - 634 AQSh dollari) va Uchtepa (1 xonali - 377 AQSh dollari, 2 xonali - 437 AQSh dollari, 3 xonali - 563 AQSh dollari, 4 xonali - 669 AQSh dollari) tumanlarida, eng qimmat ijara narxlari esa Mirobod (1 xonali - 456 AQSh dollari, 2 xonali - 688 AQSh dollari, 3 xonali - 1006 AQSh dollari, 4 xonali - 1274 AQSh dollari) va Shayxontohur (1 xonali - 421 AQSh dollari, 2 xonali - 715 AQSh dollari, 3 xonali - 1014 AQSh dollari, 4 xonali - 1279 AQSh dollari) tumanlarida kuzatildi.

Ijara narxlari olx.uz platformasidan veb skreping (web scraping) orqali olingan ochiq ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Bunda 2024-yilning iyul oyi uchun 52,6 mingta va avgust oyi uchun 51,9 mingta ma'lumotdan foydalanildi. Ikkala davr uchun ham tahlil narxlar chegarasining yuqori va pastki 5 foizlik kvantillari chiqarib tashlangandan keyin amalga oshirildi.



Joriy yilning sentyabr oyida Toshkent shahrida uy-joylar uchun ijara narxlarining oshishi davom etdi. Mazkur davrda poytaxtda o'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun o'rtacha ijara narxlarini avgust oyidagiga nisbatan 2,8 foiz, to'liq ta'mirlangan xonadonlar uchun esa 1,4 foiz oshdi.

O'rtacha ta'mirlangan uy-joylar ijarasiga talabning oshishi bo'yicha kutilmalar bunday uylarning ijara narxlariga ta'sir ko'rsatdi. Xususan, 2024-yilning sentyabr oyida o'rtacha ta'mirlangan 1 xonali uylar uchun o'rtacha ijara narxi avgust oyidagiga nisbatan 2,4 foiz, 2 xonali uylar uchun 3,4 foiz, 3 xonali uylar uchun 3,2 foiz, 4 xonali uylar uchun esa 2,1 foiz oshdi.

O'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun nisbatan arzon ijara narxlarini Sergeli (1 xonali - 291 AQSh dollari, 2 xonali - 363 AQSh dollari, 3 xonali - 403 AQSh dollari, 4 xonali - 463 AQSh dollari), Olmazor (1 xonali - 306 AQSh dollari, 2 xonali - 362 AQSh dollari, 3 xonali - 426 AQSh dollari, 4 xonali - 503 AQSh dollari) tumanlarida taklif etilgan bo'lsa, eng qimmat ijara narxlarini Mirobod (1 xonali - 358 AQSh dollari, 2 xonali - 445 AQSh dollari, 3 xonali - 548 AQSh dollari, 4 xonali - 721 AQSh dollari) va Yakkasaroy (1 xonali - 343 AQSh dollari, 2 xonali - 460 AQSh dollari, 3 xonali - 611 AQSh dollari, 4 xonali - 631 AQSh dollari) tumanlarida kuzatildi.

To'liq ta'mirlangan uy-joylar ijarasini. Mazkur davrda 3 xonali uy-joylarning ijara narxi 0,9 foiz pasaygan bo'lsada, 2 xonali uy-joylarning ijara narxi o'rtacha 1,1 foiz, 4 xonali uy-joylarning ijara narxi 2,3 foiz hamda 1 xonali uy-joylarning ijara narxi 3,1 foiz oshgan.


To'liq ta'mirlangan uy-joylarning eng arzon ijara narxlarini Sergeli (1 xonali - 331 AQSh dollari, 2 xonali - 428 AQSh dollari, 3 xonali - 506 AQSh dollari, 4 xonali - 634 AQSh dollari) va Uchtepa (1 xonali - 393 AQSh dollari, 2 xonali - 453 AQSh dollari, 3 xonali - 538 AQSh dollari, 4 xonali - 717 AQSh dollari) tumanlarida, eng qimmat ijara narxlarini esa Mirobod (1 xonali - 474 AQSh dollari, 2 xonali - 678 AQSh dollari, 3 xonali - 967 AQSh dollari, 4 xonali - 1278 AQSh dollari) va Shayxontohur (1 xonali - 442 AQSh dollari, 2 xonali - 708 AQSh dollari, 3 xonali - 1004 AQSh dollari, 4 xonali - 1272 AQSh dollari) tumanlarida kuzatildi.

Ijara narxlarini olx.uz platformasidan veb skreping (web scraping) orqali olingan ochiq ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Bunda 2024-yilning avgust oyi uchun 52,0 mingta va sentyabr oyi uchun 51,9 mingta ma'lumotdan foydalanildi. Ikkala davr uchun ham tahlil narxlar chegarasining yuqori va pastki 5 foizlik kvantillari chiqarib tashlanganidan keyin amalga oshirildi. ■



2024-yil Avgust



2024-yil Sentyabr




O'rta tamirlangan



To'liq tamirlangan

Ijara narxlari darajasi





Mazkur davrda poytaxtda o'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun o'rtacha ijara narxlari oktyabr oyidagiga nisbatan 1,3 foiz pasaygan bo'lsa, to'liq ta'mirlangan xonadonlar uchun o'rtacha narxlar deyarli o'zgarmadi.

O'rtacha ta'mirlangan uy-joylar ijarasi.

2024-yilning noyabr oyida o'rtacha ta'mirlangan 1 xonali xonadonlar uchun o'rtacha ijara narxi oktyabr oyidagiga nisbatan 0,9 foizga, 2 xonalilar uchun 1,3 foizga, 4 xonalilar uchun 3,9 foizga tushdi. 3 xonali xonadonlar uchun o'rtacha ijara narxida esa biroz (0,8 foizga) ko'tarilish kuzatildi.

O'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun nisbatan arzon ijara narxlari:

- Sergeli (1 xonali - 298 AQSh dollari, 2 xonali - 360 AQSh dollari, 3 xonali - 404 AQSh dollari, 4 xonali - 411 AQSh dollari);

- Olmazor (1 xonali - 330 AQSh dollari, 2 xonali - 364 AQSh dollari, 3 xonali - 463 AQSh dollari, 4 xonali - 479 AQSh dollari) tumanlarida taklif etilgan bo'lsa,

eng qimmat ijara narxlari:

- Mirobod (1 xonali - 378 AQSh dollari, 2 xonali - 516 AQSh dollari, 3 xonali - 680 AQSh dollari, 4 xonali - 865 AQSh dollari);

- Yakkasaroy (1 xonali - 367 AQSh dollari, 2 xonali - 488 AQSh dollari, 3 xonali - 668 AQSh dollari, 4 xonali - 743 AQSh dollari) tumanlarida kuzatildi.

To'liq ta'mirlangan uy-joylar ijarasi. Mazkur davrda to'liq ta'mirlangan 2 xonali (559 AQSh dollari) va 3 xonali (733 AQSh dollari) uy-joylarning ijara narxi deyarli o'zgarishsiz qolgan bo'lsa, 1 xonali uylar ijara narxlari 0,6 foizga oshdi. Talab darajasi nisbatan kam bo'lgan 4 xonali uylarning ijara narxi esa o'rtacha 0,9 foizga pasaydi.

To'liq ta'mirlangan uy-joylarning eng arzon ijara narxlari:

- Sergeli (1 xonali - 331 AQSh dollari, 2 xonali - 410 AQSh dollari, 3 xonali - 509 AQSh dollari, 4 xonali - 587 AQSh dollari);

- Uchtepa (1 xonali - 353 AQSh dollari, 2 xonali - 450 AQSh dollari, 3 xonali - 554 AQSh dollari, 4 xonali - 688 AQSh dollari) tumanlarida, eng qimmat ijara narxlari:

- Mirobod (1 xonali - 479 AQSh dollari, 2 xonali - 718 AQSh dollari, 3 xonali - 984 AQSh dollari, 4 xonali - 1313 AQSh dollari);

- Shayxontohur (1 xonali - 520 AQSh dollari, 2 xonali - 730 AQSh dollari, 3 xonali - 1032 AQSh dollari, 4 xonali - 1258 AQSh dollari) tumanlarida kuzatildi.

Ijara narxlari olx.uz platformasidan veb-skreping (web scraping) orqali olingan ochiq ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Bunda 2024-yilning oktyabr oyi uchun 43,1 mingta va noyabr oyi uchun 38,1 mingta ma'lumotdan foydalanildi. Ikkala davr uchun ham tahlil narxlar chegarasining yuqori va pastki 5 foizlik kvantillari chiqarib tashlanganidan keyin amalga oshirildi.

2024-yil Oktyabr



2024-yil Noyabr




O'rta ta'mirlangan



To'liq ta'mirlangan

Ijara narxlar darajasi





2024-yilning oktyabr oyida Toshkent shahrida uy-joylar uchun ijara narxlari tahlil qilindi

o'qish vaqti
107 soniya

Joriy yilning oktyabr oyida Toshkent shahrida uy-joylar uchun ijara narxlarining oshishi sekinlashdi. Mazkur davrda poytaxtda o'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun o'rtacha ijara narxlari sentyabr oyidagiga nisbatan 1,3 foiz, to'liq ta'mirlangan xonadonlar uchun esa 0,2 foiz oshdi.

O'rtacha ta'mirlangan uy-joylar ijarasi. 2024-yilning oktyabr oyida o'rtacha ta'mirlangan 1 xonali uylar uchun o'rtacha ijara narxi sentyabr oyidagiga nisbatan 0,5 foizga, 2 xonali uylar uchun 1,4 foizga, 3 xonali uylar uchun 1,0 foizga, 4 xonali uylar uchun esa 2,5 foizga oshdi.

O'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun nisbatan arzon ijara narxlari Sergeli (1 xonali - 285 AQSh dollari, 2 xonali - 359 AQSh dollari, 3 xonali - 388 AQSh dollari, 4 xonali - 432 AQSh dollari), Yashnobod (1 xonali - 300 AQSh dollari, 2 xonali - 384 AQSh dollari, 3 xonali - 418 AQSh dollari, 4 xonali - 545 AQSh dollari) tumanlarida taklif etilgan bo'lsa, eng qimmat ijara narxlari Mirobod (1 xonali - 344 AQSh dollari, 2 xonali - 529 AQSh dollari, 3 xonali - 666 AQSh dollari, 4 xonali - 863 AQSh dollari) va Yakkasaroy (1 xonali - 364 AQSh dollari, 2 xonali - 499 AQSh dollari, 3 xonali - 638 AQSh dollari, 4 xonali - 700 AQSh dollari) tumanlarida kuzatildi.

To'liq ta'mirlangan uy-joylarning eng arzon ijara narxlari Sergeli (1 xonali - 321 AQSh dollari, 2 xonali - 408 AQSh dollari, 3 xonali - 465 AQSh dollari, 4 xonali - 513 AQSh dollari) va Uchtepa (1 xonali - 354 AQSh dollari, 2 xonali - 432 AQSh dollari, 3 xonali - 486 AQSh dollari, 4 xonali - 639 AQSh dollari) tumanlarida, eng qimmat ijara narxlari esa Mirobod (1 xonali - 471 AQSh dollari, 2 xonali - 718 AQSh dollari, 3 xonali - 952 AQSh dollari, 4 xonali - 1307 AQSh dollari) va Shayxontohur (1 xonali - 460 AQSh dollari, 2 xonali - 698 AQSh dollari, 3 xonali - 1038 AQSh dollari, 4 xonali - 1328 AQSh dollari) tumanlarida kuzatildi.

Ijara narxlari olx.uz platformasidan veb skreping (web scraping) orqali olingan ochiq ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Bunda 2024-yilning sentyabr oyi uchun 46,9 mingta va oktyabr oyi uchun 43,1 mingta ma'lumotdan foydalanildi. Ikkala davr uchun ham tahlil narxlar chegarasining yuqori va pastki 5 foizlik kvantillari chiqarib tashlanganidan keyin amalga oshirildi. ■


2024-yil Sentyabr



2024-yil Oktyabr




O'rta ta'mirlangan



To'liq ta'mirlangan

Ijara narxlari darajasi





Tahlil davomida quyidagilar aniqlandi:

2024-yilning III-choragida O'zbekiston uy-joy bozorida faollik darajasi pasaydi. Xususan, joriy yilning iyul-sentyabr oylarida ko'p qavatli uylardagi kvartiralar oldi-sotdisi uchun 41861 ta shartnoma rasmiylashtirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davridagiga nisbatan 3362 taga (7,4 foizga) kam.

Tahlillar tijorat banklari tomonidan ajratilgan ipoteka kreditlari va aholi tasarrufidagi daromadlar uy-joy bozoriga ta'sir etuvchi muhim omillar ekanligini ko'rsatdi.

Xususan, 2021-yilning yanvar oyidan 2024-yilning sentyabr oyigacha bo'lgan davrda uy-joy oldi-sotdisi va aholiga ajratilgan ipoteka kreditlari hajmi o'rtasida (korrelyatsiya koeffitsiyenti = 0,81), shuningdek, uy-joy oldi-sotdisi va aholining tasarrufdagi daromadlari o'rtasida (korrelyatsiya koeffitsiyenti = 0,48) sezilarli bog'liqlik mavjudligi aniqlandi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning III-choragida aholiga ajratilgan ipoteka kreditlari hajmi 4,84 trln. so'mni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davridagiga nisbatan 7,3 foiz kam.

Tahlillarga ko'ra, ajratilgan kreditlarning o'sish sur'ati so'nggi 3 yildagi o'rtacha darajada saqlanib qolsa, yil oxiriga qadar har oyda o'rtacha 13,0-14,0 mingta uy-joy oldi-sotdi shartnomalari tuzilishini kutish mumkin.


Ma'lumot uchun: 2023-yilning IV-choragida har oyda o'rtacha 12,9 mingta shartnoma imzolangan.

Tahlil jarayonida notarius idoralari tomonidan rasmiylashtirilgan uy-joy oldi-sotdi shartnomalari soni hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking ipoteka kreditlari ma'lumotlaridan foydalanildi.

Prognoz MIDAS (Mixed-data sampling) usulidan foydalangan holda EViews statistik dasturi orqali amalga oshirildi. MIDAS choraklik va oylik statistik ma'lumotlarni birlashtirish asosida baholash hamda prognoz qilish imkonini beradi.

Prognoz ko'rib chiqilayotgan modelning bir nechta regressiyalarini o'rtacha baholash asosida amalga oshirildi.

Uy-joy va ipoteka bozorida faollik darajasi





O'zbekiston 2017-2022 yillarda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) dan biri - "Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi insonlarning farovonligiga ko'maklashish" bo'yicha qanday natijalarga erishdi?



2030-yilgacha BMTning Global kun tartibidagi Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2030-yilgacha 16ta Barqaror rivojlanish milliy maqsadlari hamda ular bilan bog'liq bo'lgan 125 ta vazifa tasdiqlandi.

"Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi insonlarning farovonligiga ko'maklashish" 16 ta milliy maqsadning uchinchisi bo'lib, u 13 ta vazifa hamda 23 ta ko'rsatkichdan iborat.

Tahlil davomida quyidagi asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori natijalarga erishilganligi aniqlandi:

- onalar o'limi koeffitsiyenti tirik tug'ilgan har 100 000 chaqaloqqa 2017-yilda 21,0 koeffitsiyentini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 13,9 koeffitsiyentini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich 5 yil davomida 51,0 foizga yaxshilandi.
- sil kasalligi bilan kasallanish holatlari har 100 000 kishiga 2017-2022 yillarda 44,9 koeffitsiyentidan 35,3 koeffitsiyentigacha kamaydi va 27,0 foizga yaxshilandi.
- gepatit "B" bilan kasallanish 2017-yilda har 100 000 kishiga 0,8 koeffitsiyentini tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 0,4 koeffitsiyentini tashkil etdi va ikki barobar kamaydi.

- o'z joniga qasd qilish bilan bog'liq o'lim koeffitsiyenti 2017-yilda har 100 000 kishiga 7,5 koeffitsiyentini tashkil etgandi. Bu ko'rsatkich 2022-yilda 4,5 koeffitsiyentigacha pasayib, 66,7 foizga yaxshilandi.

- har 10 000 kishiga to'g'ri keladigan tibbiyot xodimlari soni 2017-yilda 26,1 koeffitsiyentini tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 27,9 koeffitsiyentiga oshdi va 6,9 foizga ijobiy o'zgarish qayd etildi.

BRMning 3-maqsadini "O'zbekiston – 2030" strategiyasi bilan o'zaro bog'langan holda amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, jumladan quyidagi maqsadli parametrlarga erishish ko'zda tutilgan:

- ayollar, go'daklar va besh yoshgacha bo'lgan bolalar orasida o'lim bilan bog'liq holatlarni 2 barobar kamaytirish;
- tug'ruq o'rinlari sonini 35 foiz oshirish;
- bolalar orasida yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarni 20 foiz qisqartirish;
- onkologik kasalligi bor 120 ming nafar bemorni davolash bilan to'liq qamrab olish.





Har bir inson hayotida lafz shubhasiz muhim ahamiyatga ega. Chunki u boshqalarning sizga bo'lgan ishonchini oshiradigan, mustahkamlaydigan fazilatdir. Til bilan berilgan va'da insonning subutli yoki subutsiz ekanini belgilaydi. Agar u lafzida tursa, demak, unga tevarak atrofdagilarning ishonchi ortib boraveradi, aksincha bo'lsa, ishonchi yo'qoladi. Shu bois ham xalqimiz lafzi halollikni qadriyat sifatida ko'radi.

Dunyo tajribasiga e'tibor qiladigan bo'lsak, ko'plab taniqli firma va kompaniyalar lafzga mas'uliyat bilan yondashgani uchun ham muvaffaqiyatga erishgan, deb bimalol aytish mumkin.

Ijtimoiy omillarning iqtisodiy o'sishga ta'siri bir necha o'n yillar davomida iqtisodchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mavzusi bo'lib kelgan. Agar jamiyatda har bir fuqaro o'z so'ziga sodiq bo'lsa, bu nafaqat ular o'rtasidagi ishonchning oshishi, balki tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi va iqtisodiy o'sishning ta'minlanishiga olib keladi.

Norvegiya ijtimoiy tadqiqotlar instituti professori Vollebekning fikriga ko'ra, shaxslarning bir-biriga bo'lgan ishonch darajasi va iqtisodiy o'sish dinamikasi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud. Masalan, jamiyatda ishonch darajasi qancha yuqori bo'lsa, aholi jon boshiga daromad ko'rsatkichi shuncha yaxshi bo'ladi.

Ushbu tahlilda ishonch ta'siri va YaIM o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida 2000-2019 yillar oralig'ida Markaziy Osiyo (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston) va Kavkaz mintaqalaridagi mamlakatlar (Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya), shuningdek, Mo'g'liston uchun ma'lumotlardan foydalanildi.

Metodologiya. Ishonch darajasi ko'rsatkichining YaIMga ta'sirini baholash o'zgarmas effektli modeldan foydalanildi. Bunda qonun ustuvorligi indeksi (RoL) lafz uchun proksi o'zgaruvchi, shuningdek, yalpi kapitalni shakllantirish (Capital), savdo ochiqligi (Trade) va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) kabi omillar shartli o'zgaruvchilar sifatida qo'llanildi. Bu yerda qonun ustuvorligi, shartnomalarni bajarilishi, kelishuvlarni kuchga ega bo'lishi zahirida lafz qadriyati ustuvor bo'lganidan kelib chiqadi degan faraz yotibdi. Chunki bular hammasi o'zaro kelishuvning bir hosilalari.

Natijalar. Model natijalariga ko'ra, tahlil qilinayotgan davlatlarda qonun ustuvorligining 0,01 bandga oshishi YaIMni deyarli 0,7 foizga o'sishiga olib keladi. Modelning ishonchlilik testlari natijalariga ko'ra (6-jadvalga qarang) panellar o'zaro bog'liq, geteroskedastik va vaqt kesimida o'zaro bog'liqligi aniqlandi va shu sababdan hisob-kitoblar Driskoll-Krey standart xatoliklaridan foydalanilgan holda amalga oshirildi.

Amaliyotda qo'llash uchun:

Umuman: Qanday ishga qo'l urmang, halol bo'ling hamda so'zingizning ustidan chiqing. Agar va'da bersangiz, qanday noqulay vaziyat yuzaga kelsa ham uni bajarang. Agar va'dangizni bajarishga halaqit beradigan qandaydir kutilmagan holat yuzaga kelsa, bu haqida ochiq-oydin gaplashib oling. Ishda/universitetda/maktabda: Va'dangizni o'z vaqtida bajarishga harakat qiling, plagiatdan qoching va ilmiy izlanishlaringizda rostgo'y bo'ling. Hamkasblar yoki sinfdoshlar bilan munosabatlarda rostgo'y bo'ling va fikringizni ochiq-oydin bildiring.



BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti - FAO ma'lumotlariga asosan, 2023-yil yakunlari bo'yicha FAO oziq-ovqat narxlari indekslarining* umumiy qiymati 124,0 punktni tashkil etgan. Bu 2022-yildagi o'rtacha ko'rsatkichdan 19,7 punkt yoki 13,7 foizga past.

Don ekinlarining o'rtacha yillik narxi o'tgan yil oxirida, 2022-yildagi rekord darajadagi o'rtacha yillik ko'rsatkichdan 15,4 foiz past bo'ldi: bu pasayish xalqaro bozorlarda taklif yetarli darajada saqlanib qolgani bilan izohlanadi.

O'simlik moyi narxi 2022-yildagiga nisbatan 32,7 foiz past bo'ldi. Bu oxirgi 3 yil ichidagi eng past ko'rsatkich.

Jahon bozorida sut mahsulotlarining o'rtacha yillik narxi 2022-yildagi o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan 16,6 foiz pasaydi: bu tendensiya import qiluvchi mamlakatlarda sezilarli zaxiralar mavjudligi sharoitida import talabining sustligi bilan bog'liq.

Go'shtning jahon bozorida o'rtacha narxi 2022-yildagiga nisbatan 3,5 foiz past bo'ldi: bu tendensiya go'sht import qiluvchi asosiy mamlakatlardan global talabning sustligi sharoitida yetakchi eksport qiluvchi hududlarda eksport imkoniyatlarining oshishi bilan bog'liq.


Jahon bozorida shakarining o'rtacha yillik narxi 2022-yildagiga nisbatan 26,7 foiz oshdi va 2011-yildan buyon eng yuqori darajaga yetdi. Bu birinchi navbatda jahon shakar bozorida talab va taklif muvozanatining barqarorligiga oid xavotirlar bilan bog'liq.

Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 2023-yilda oziq-ovqat mahsulotlari narxining oshishini 9,7 foiz (besh yil davomidagi minimal ko'rsatkich) darajasida ushlab turishga muvaffaq bo'ldi. Bu ayrim oziq-ovqat mahsulotlari uchun bojxona to'lovlarini nolga tenglashtirish kabi chora-tadbirlar natijasidir.

** FAO oziq-ovqat narxlari indeksi quyidagi mahsulot guruhlari uchun 5 ta narx subindeksini o'z ichiga oladi: don, o'simlik moyi, sut mahsulotlari, go'sht, shakar. O'lchov sifatida 2014-2016 yillar uchun o'rtacha qiymatlar qo'llaniladi.*

FAO oziq-ovqat mahsulotlari narxlari indekslari

2014-2016 = 100



Manba: FAO ba; Manba: FAO ma'lumotlari



Beshinchi maqsad bo'lgan «Gender tengligini ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish» 9 ta vazifa va 10 ta ko'rsatkichni o'z ichiga oladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan qator qonunlar qabul qilindi. Ular:

- "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun;
- "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun;
- "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi qonun;
- Oila kodeksiga kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalar.

2030-yilgacha barcha sohalar va darajalarda ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglik tamoyilini joriy etishga nisbatan kompleks yondashuvni ko'zda tutuvchi O'zbekistonda gender tengligi strategiyasi va 2022-2026 yillarda mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar faolligini oshirish milliy dasturi tasdiqlandi.

Natijada turli idoralarda ayollar egallab turgan o'rinlar ulushi ortdi, xususan:

- Oliy Majlis Qonunchilik palatasida ayol deputatlar ulushi 2018-yildagi 12,6 foizdan 2022-yilda 32,0 foizga, Oliy Majlis Senatida 20,0 foizdan 25,0 foizga oshdi;
- tahlil qilinayotgan davrda rahbar lavozimidagi ayollarning ulushi 27,0 foizdan 28,2 foizga oshdi.

2018-2022 yillarda bir qator ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

- 20-24 yosh oralig'idagi ayollar o'rtasida 18 yoshga to'lmasdan qonuniy va noqonuniy turmush qurgan ayollar ulushi 2018-yilda 2,85 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 0,05 foizga kamaydi;
- 15-19 yosh oralig'idagi xotin-qizlar o'rtasida jinsiy munosabatlar, homiladorlikdan saqlovchi vositalar va reproduktiv salomatlikni saqlash xizmatlaridan foydalanish bo'yicha mustaqil qarorlarni qabul qiluvchilar (2021-2022 yillardagi MICS kuzatuv natijalari bo'yicha) 54,7 foizni tashkil qiladi;

- 25 va undan katta yoshdagi ayollarning oliy ta'lim darajasi (uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlariga asosan va tegishli guruhlarga nisbatan) 2018-yildagi 12,7 foizdan 2022-yilda 13,8 foizga oshdi;

- ko'rib chiqilayotgan davrda erkaklar va ayollarning o'rtacha oylik ish haqi o'rasidagi farq 38,6 foizdan 34,0 foizga kamaydi;
- "Ayollar, biznes va qonun" global indeksida O'zbekistonning reytingi 6,2 ballga yaxshilanib, 2022-yilda (jami 100 balldan) 70,6 ballni tashkil etdi;
- Gender Data Compass tomonidan 2022-yilda e'lon qilingan gender ma'lumotlarining mavjudligi reytingida O'zbekiston dunyoda 185 ta mamlakat orasida 56-o'rinni, Markaziy Osiyoda esa 3-o'rinni egalladi. Open Data Watch ma'lumotlarining ochiqligi reytingida mamlakat Markaziy Osiyo davlatlari orasida 1-o'rinni va dunyoning 195 ta davlati orasida 30-o'rinni egalladi.

5-maqsadning bajarilishi "O'zbekiston-2030" strategiyasi maqsadlari bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, unda mamlakatda gender tengligini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilgan va quyidagi vazifalar belgilangan:

- xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, kasb-hunarga o'qitish va o'zini o'zi band qilishida ko'maklashish; ayollarni tazyiq hamda zo'ravonlikning turli shakllaridan himoyalash;
- xorijiy mamlakatlarda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chiqib ketgan xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- joylarda xotin-qizlar tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni sotishda ko'maklashish, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish. ■



O'zbekistonda kambag'allik darajasini kamaytirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar natijasida o'tgan yilda ushbu ko'rsatkich 14,1 foizdan 11,0 foizgacha pasaydi. Bunday natijaga erishilishiga bir qator omillar ta'sir etgan.

Asosiy omillar sifatida quyidagilarni qayd etish lozim:

- 2023-yilda mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishga erishildi va u 2022-yildagiga nisbatan 6,0 foizni tashkil etdi. Bu davrda inflyatsiya darajasining oshishi nisbatan sekinlashdi (12,3 foizdan 8,8 foizgacha). Shundan kelib chiqib, aholining eng muhim oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan xarid qobiliyati oshishiga erishildi;
- aholining umumiy daromadlari 2023-yilda 2022-yildagiga nisbatan 115,0 foizga oshdi. Aholining umumiy daromadida mehnatdan olinadigan daromadlarning 61,6 foizdan 64,0 foizga o'sishi ham aholi kambag'allik darajasining pasayishiga ta'sir ko'rsatdi;
- tahlil davrida o'rtacha oylik ish haqi sezilarli darajada, ya'ni 2022-yildagiga nisbatan 117,2 foizga oshib, 4 551,4 ming so'mni tashkil etdi. Ushbu tendensiyani deyarli barcha hududlarda va sohalarda kuzatish mumkin. 2023-yilning 1-mayidan boshlab, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 920 ming so'mdan 980 ming so'mga, 1-dekabrda boshlab esa 1 050 ming so'mga oshirildi. Umuman olganda, o'tgan yil mobaynida ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarning miqdori jami 14,0 foizga oshdi.

Kambag'allikni qisqartirishga bevosita ta'sir etgan omillar quyidagilardan iborat:

- kambag'allikni qisqartirishdagi eng muhim omil bu aholi bandlik darajasini oshirish, ishsizlikni qisqartirishdir. Shu nuqtayi nazardan, 2023-yilda 4,1 mln. kishining bandligi ta'minlandi. Buning 2,3 mln. nafari doimiy va mavsumiy ishlarga, 112,8 ming nafari haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi, 1,6 mln. nafari esa o'zini o'zi band qilish hisobiga ish bilan ta'minlandi;
- "20 ming tadbirkor 500 ming malakali mutaxassis" dasturi doirasida 6 745 ta tadbirkorlik subyekti bilan 455,0 ming kishining bandligini ta'minlash bo'yicha hamkorlik shartnomalari imzolandi;
- 472 mingta oilaviy tadbirkorlik loyihasiga 10 trln. so'm imtiyozli kredit va 73 ming nafar ishsiz fuqaroga 356 mlrd. so'm subsidiya ajratildi;
- kambag'allikni qisqartirish maqsadida mahallada faoliyat olib borayotgan hokim yordamchilari tavsiyasi bilan 241,3 ming nafar fuqaroga qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanish uchun ijara asosida yer maydonlari ajratildi;
- kambag'al oilalarda yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar hamda tadbirkorlik ko'nikmalariga o'rgatishga e'tibor yanada kuchaytirildi. Jumladan, o'tgan yilda 181 ming nafar ishsiz fuqaro kasb-hunarga o'qitildi va 183,8 mingta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etildi;
- "O'zbekiston-2030" strategiyasiga muvofiq, 2024-yilda kambag'allik darajasini 10,0 foizgacha tushirish rejalashtirilgan. ■



2022-yilda BMT Taraqqiyot dasturi va Oksford kambag'allikni qisqartirish va inson taraqqiyoti tashabbuslari markazi hamkorlikda e'lon qilgan hisobotga ko'ra, dunyo bo'ylab 1,2 mlrd. kishi ko'p o'lchamli kambag'allik mezonlari bo'yicha kambag'al hayot kechirmoqda va ularning aksariyati sutkasiga 2,15 AQSh dollaridan kam daromad topayapti.

Xalqaro tajribada Conditional cash transfer (shartli naqd pul o'tkazish) deb ta'riflanuvchi ijtimoiy kelishuv dasturlari mavjud bo'lib, odatda kambag'allikni qisqartirish uchun kam ta'minlangan aholi ehtiyojlaridan kelib chiqib qo'llaniladi.

Ijtimoiy kelishuvlar ehtiyojmand aholiga ko'maklashgan holda inson kapitalini rivojlantirish orqali kelgusi avlod uchun "ijtimoiy lift" vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, ijtimoiy shartnomalar kambag'allikning gender tafovutini yaxshilashda yordam beradi.

Braziliyada 90-yillardan boshlab "Bolsa Família" dasturi yo'lga qo'yilgan. Unga ko'ra, kambag'al uy xo'jaliklarining bolalari (6 yoshdan 15 yoshgacha) muntazam maktabga qatnasa hamda 6 yoshigacha emlangan bo'lsagina nafaqa olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Turkiyada ijtimoiy kelishuv mexanizmlarida tibbiyot va ta'lim sohasiga ustuvorlik berilgan. Masalan, kam ta'minlangan onalarga muntazam tibbiy ko'rikdan o'tish sharti bilan 9 oy davomida bepul tibbiy va moddiy yordam (nafaqa) beriladi. Bundan tashqari, 5 yoshgacha bo'lgan bolalarni muntazam tibbiy ko'rikdan o'tkazish sharti bilan ota-onalarga tibbiy va pul yordami ko'rsatiladi. Shuningdek, kambag'allik tufayli bolalarning maktabga qatnovini ta'minlay olmaydigan oilalarga davomatni to'liq ta'minlaganida nafaqa beriladi.

Rossiya Federatsiyasi statistika xizmati ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil davomida mamlakatda 281,8 mingta ijtimoiy shartnoma tuzilib, 981,2 ming nafar fuqaro qamrab olingan. Yil oxirida ijtimoiy shartnoma orqali yordam olganlarning daromadlari o'rtacha 1,6 baravar oshgan.

O'zbekistonda ham ehtiyojmand oilalarga 70 dan ortiq turdagi ijtimoiy yordam va xizmatlar ko'rsatib kelinmoqda. Lekin mazkur jarayonda ijtimoiy yordam va xizmatlardan foydalanuvchilarning aniq mas'uliyati va majburiyati belgilanmagan va barcha xizmatlar to'liq elektron tarzda ko'rsatilmaydi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish imkoniyatini sohani raqamlashtirish hisobiga kengaytirish, ushbu jarayonga ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy qilish" bo'yicha maqsadlar belgilab olingan.

Xulosa sifatida ijtimoiy himoya sohasidagi barcha mexanizmlarni to'liq qamrab oladigan, tomonlarning huquq va burchlari hamda majburiyatlari belgilab olinadigan, har bir ehtiyojmand oila (yoki fuqaro) bilan individual tuziladigan ijtimoiy shartnoma tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. **Shartnomalarni quyidagi yo'nalishlarda tuzish tavsiya etiladi:**

- ehtiyojmand oila yoki fuqaro bilan bandlikni ta'minlash sohasida;
- kasb-hunar, xorijiy tilni o'rganish yoki
- tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish sohasida;
- ijtimoiy yordam va xizmatlar ko'rsatish sohasida.



Inson hayotining tabiat bilan uzviy bog'liqligi minglab yillar oldin o'z isbotini topgan haqiqat. Tabiatdagi har bir hodisa, voqea va jarayonlar inson hayotiga bevosita ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Shuning uchun bugungi kunda tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, uni asrab-avaylash va u bilan uyg'un holda yashash eng dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Eng muhimi, tabiatga muhabbat tuyg'usini yoshlar ongiga qadriyat sifatida singdirish darkor. Zotan, tabiatni asrash insoniyatni asrash, demakdir va buni bir qonun, tashkilot yoki dastur bilangina emas faqat chuqur singdirilgan kundalik qadriyat darajasida amalga oshirish mumkin.

Atrof-muhit omillarining aholi salomatligi va mehnat unumdorligiga ta'siri o'nlab yillar davomida tadqiqot mavzusi bo'lib kelgan. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, sog'lom aholi va ishchi kuchi farovonligi mehnat unumdorligini oshiradi, ishchilarning vaqtincha nafaolligi bilan bog'liq xarajatlarni kamaytiradi va oxir-oqibat aholining moliyaviy farovonligini yaxshilaydi.

Ko'pgina xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xodimlarning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilash moliyaviy holatga ijobiy ta'sir qiladi. Yaxshi kayfiyatga ega sog'lom xodimlar ko'proq ishchanlik qobiliyatiga ega bo'lib, qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ishlarni bajarishi mumkin. Aksincha, yomon ekologik muhit va tabiat bilan uyg'unlikning yo'qligi nafas yo'llari (havo sifatining pastligi sababli) va ichak kasalliklarining (suv va oziq-ovqat sifati pastligi sababli) tarqalishiga olib kelishi mumkin. Gallup tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, nosog'lom ishchilar korxonalarga yiliga dunyo bo'yicha o'rtacha 153 milliard dollar zarar keltiradi.

Metodologiya. Ushbu tahlillarni olib borishda Jahon bankining 169 ta mamlakatga oid ma'lumotlaridan foydalanildi. Bu ko'rsatkichlar aholi jon boshiga CO2 emissiyasi va RM2.5 miqdori (m³ ga to'g'ri keluvchi mikron hajmi), suv taqchilligi va tabiiy o'rmonlar (million m³) atrof-muhit sharoitlari uchun proksi o'zgaruvchilar sifatida foydalanildi.

Natijalar.

Regressiya modeli natijalariga ko'ra, nafas yo'li kasalliklari bilan bog'liq o'limning 10 kishiga (100 000 aholiga) ko'payishi aholi jon boshiga YalMni (2015-yil narxlarida) 631,2 dollarga kamaytiradi. Nafas yo'li kasalliklarining tarqalishiga tabiatdagi ifloslanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan RM2.5 ning ta'siridir. RM2.5 emissiyasining 1 mikronga kamayishi (m³ maydonga) nafas yo'li kasalliklari tufayli o'limni 2-3 kishiga (100 ming kishiga) kamaytirish imkonini beradi.

Amaliyotda qo'llash uchun:

Barcha sharoitlarda: Atrof-muhitga siz ham ta'sir qilishingiz mumkinligini yodda tuting. Kundalik iste'molingizni nazorat qiling va resurslardan qayta foydalanishga qaratilgan sa'y-harakatlarni qo'llab quvvatlang.

Shaxsiy hayot: Vaqtingizning ma'lum bir qismini tabiat qo'ynida o'tkazing, uning go'zalligini qadrlang va undagi nozik muvozanatni asrang.



BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari reytingiga muvofiq O'zbekiston 2023-yilda 166 ta mamlakat orasida 69-o'rinni egalladi va 2022-yil bilan taqqoslaganda o'z o'rnini 8 pog'onaga yaxshiladi.

Barqaror rivojlanish maqsadlarining 10 tasi bo'yicha ko'rsatkichlarning yaxshilanishi reytingdagi holatning yaxshilanishini ta'minladi. Ulardan biri "Sifatli ta'lim bilan ta'minlash" maqsadi (4-maqsad) bo'lib, u o'z ichiga 9 ta vazifa hamda 6 ta ko'rsatkichni qamrab oladi. 4-maqsadning quyidagi ko'rsatkichlari o'sishi natijasida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

Uy xo'jaliklarini o'rganish bo'yicha xalqaro dastur - Multiindikator klaster kuzatuvlari (MICS) doirasida olib borilgan tadqiqotlar sog'lig'i, ta'lim olishi va psixologik ijtimoiy farovonligi nuqtayi nazaridan yaxshi rivojlanayotgan 3-5 yosh oralig'idagi bolalar ulushi 82,6 foizni tashkil etishini ko'rsatdi. Bu ko'rsatkich BMTga a'zo mamlakatlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga mos keladi.

2018-2022 yillarda bolalarning boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlov jarayonida ishtirok etishi 2 barobar yaxshilandi va 2022-yilda 84,2 foizni, jumladan, qizlarning ishtiroki 83,4 foizni, o'g'il bolalarning ishtiroki 85,0 foizni tashkil qildi.

2018-2022 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda malakali yoshlar va katta yoshdagilarning ulushi sezilarli darajada ortdi. **Xususan:**

- elektron jadvalda asosiy arifmetik formulalardan foydalanishda 10,5 foizdan 14,7 foizga;
- taqdimot dasturi yordamida elektron taqdimotlarni (jumladan tasvirli, ovozli, video yoki diagrammali) yaratishda 6,7 foizdan 7,8 foizga.

Ta'lim tizimidagi farovonlikni o'rganadigan paritet indeksini hisoblashda eng kam daromadli uy xo'jaliklari orasida (1 kvintil bo'yicha) indeksning 0,92 dan 1,03 gacha ijobiy o'sishi qayd etildi.

2018-2022 yillarda ta'lim jarayonida zarur vositalar bilan ta'minlangan maktablar ulushi ham ortdi. **Masalan:**

- ta'lim maqsadlari uchun internetdan foydalana oluvchi maktablar ulushi 86,3 foizdan 94,6 foizga;
- kompyuterlar bilan ta'minlangan maktablar ulushi 87,3 foizdan 97,7 foizga;
- jismoniy imkoniyatlari cheklangan o'quvchilar uchun moslashtirilgan infratuzilma va materiallarga ega maktablar ulushi 26,5 foizdan 49,8 foizga ko'paydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim darajasi bo'yicha eng kam talab qilinadigan malakaga ega o'qituvchilar ulushi 95,6 foizdan 96,1 foizga yetdi.

4-maqsadning bajarilishi "O'zbekiston-2030" strategiyasi maqsadlari bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, unda mamlakatda ta'lim sifatini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilgan va quyidagi vazifalar belgilangan:

- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta'minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang'ich kompyuter savodxonligi ko'nikmalarini shakllantirish;
- yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1 000 ta multimedia dasturini yaratish;
- barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasb-hunarga o'rgatish kurslarini joriy etish;
- nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari sonini 1 000 taga yetkazish;
- 14 ta hududiy professional tayyorgarlik markazini tashkil etish, malaka toifasiga ega bo'lgan pedagog kadrlar ulushini 50 foizga, masofaviy yoki aralash shakllarda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari ulushini 30 foizga yetkazish va sifatli ta'limga erishish uchun boshqa muhim choralarni amalga oshirish.



Har bir inson hayotida lafz shubhasiz muhim ahamiyatga ega. Chunki u boshqalarning sizga bo'lgan ishonchini oshiradigan, mustahkamlaydigan fazilatdir. Til bilan berilgan va'da insonning subutli yoki subutsiz ekanini belgilaydi. Agar u lafzida tursa, demak, unga tevarak atrofdagilarning ishonchi ortib boraveradi, aksincha bo'lsa, ishonchi yo'qoladi. Shu bois ham xalqimiz lafzi halollikni qadriyat sifatida ko'radi.

Dunyo tajribasiga e'tibor qiladigan bo'lsak, ko'plab taniqli firma va kompaniyalar lafzga mas'uliyat bilan yondashgani uchun ham muvaffaqiyatga erishgan, deb bermalol aytish mumkin.

Ijtimoiy omillarning iqtisodiy o'sishga ta'siri bir necha o'n yillar davomida iqtisodchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mavzusi bo'lib kelgan. Agar jamiyatda har bir fuqaro o'z so'ziga sodiq bo'lsa, bu nafaqat ular o'rtasidagi ishonchning oshishi, balki tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi va iqtisodiy o'sishning ta'minlanishiga olib keladi.

Norvegiya ijtimoiy tadqiqotlar instituti professori Vollebekning fikriga ko'ra, shaxslarning bir-biriga bo'lgan ishonch darajasi va iqtisodiy o'sish dinamikasi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud. Masalan, jamiyatda ishonch darajasi qancha yuqori bo'lsa, aholi jon boshiga daromad ko'rsatkichi shuncha yaxshi bo'ladi.

Ushbu tahlilda ishonch ta'siri va YaIM o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida 2000-2019 yillar oralig'ida Markaziy Osiyo (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston) va Kavkaz mintaqalaridagi mamlakatlar (Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya), shuningdek, Mo'g'liston uchun ma'lumotlardan foydalanildi.

Metodologiya. Ishonch darajasi ko'rsatkichining YaIMga ta'sirini baholash o'zgarmas effektli modeldan foydalanildi. Bunda qonun ustuvorligi indeksi (RoL) lafz uchun proksi o'zgaruvchi, shuningdek, yalpi kapitalni shakllantirish (Capital), savdo ochiqligi (Trade) va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) kabi omillar shartli o'zgaruvchilar sifatida qo'llanildi. Bu yerda qonun ustuvorligi, shartnomalarni bajarilishi, kelishuvlarni kuchga ega bo'lishi zahirida lafz qadriyati ustuvor bo'lganidan kelib chiqadi degan faraz yotibdi. Chunki bular hammasi o'zaro kelishuvning bir hosilalari.

Natijalar. Model natijalariga ko'ra, tahlil qilinayotgan davlatlarda qonun ustuvorligining 0,01 bandga oshishi YaIMni deyarli 0,7 foizga o'sishiga olib keladi. Modelning ishonchlilik testlari natijalariga ko'ra (6-jadvalga qarang) panellar o'zaro bog'liq, geteroskedastik va vaqt kesimida o'zaro bog'liqligi aniqlandi va shu sababdan hisob-kitoblar Driskoll-Krey standart xatoliklaridan foydalanilgan holda amalga oshirildi (5-jadvalning o'ng ustuni).

Amaliyotda qo'llash uchun:

Umuman: Qanday ishga qo'l urmang, halol bo'ling hamda so'zingizning ustidan chiqing. Agar va'da bersangiz, qanday noqulay vaziyat yuzaga kelsa ham uni bajaring. Agar va'dangizni bajarishga halaqit beradigan qandaydir kutilmagan holat yuzaga kelsa, bu haqida ochiq-oydin gaplashib oling.

Ishda/universitetda/maktabda: Va'dangizni o'z vaqtida bajarishga harakat qiling, plagiatdan qoching va ilmiy izlanishlaringizda rostgo'y bo'ling. Hamkasblar yoki sinfdoshlar bilan munosabatlarda rostgo'y bo'ling va fikringizni ochiq-oydin bildiring.



Millatning birinchi ko'rinishi bu til. Shu bois ham dunyoda o'zini hurmat qiladigan har bir millat avvalo o'z ona tilini ulug'laydi. Chunki o'tmish, bugun va kelajak til bilan birga yashaydi, saqlanib qoladi va rivoj topadi. Biz o'z oldimizga dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishdek maqsadni qo'ygan ekanmiz, avvalo ona tili va unga bo'lgan hurmatni qadriyat deb bilishimiz darkor.

Milliy yuksalish haqida so'z ketganda uning avvalo o'zbek tili bilan bog'liq ekanligini unutmazlik darkor. Shuning uchun ham o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. "O'zbek tili va adabiyoti" fani o'qituvchilari mehnatini rag'batlantirish, o'zbek tili bo'yicha xalqaro fan olimpiadasini o'tkazish hamda oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili filologiyasi yo'nalishi bo'yicha davlat granti asosida o'qishga qabul qilish bu boradagi muhim qadamlardandir.

Ona tilini mukammal bilish iqtisodiy jihatdan ham ahamiyatli. Mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, ona tilini puxta o'rganish inson kapitaliga qilingan muhim sarmoyadir. Ona tiliga asoslangan ta'lim (Mother Tongue Based) aholining savodxonligi bilan birga muvaffaqiyatli o'qish va mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarini oshiradi. Shuningdek, mahalliy tilga ko'proq e'tibor qaratadigan mamlakatlarda ijtimoiy taraqqiyot, harakatchanlik va kapitalning yaxshilanishi aniqlangan.

YUNESKO tadqiqotiga ko'ra, o'rta muddatli istiqbolda ona tiliga asoslangan ta'lim dasturlarida ta'lim olgan bolalar nafaqat savodxonlik ko'nikmalarini, balki o'ziga bo'lgan ishonch va madaniy g'ururni ham oshiradi. Ona tilini mukammal bilish ikkinchi chet tilini o'rganishda yordam berib, o'z navbatida ish haqining (ikkinchi tilni bilgani uchun) oshishiga olib keladi. Shuningdek, ona tilini o'rganishdagi ko'nikmalardan chet tillarni o'zlashtirishda keng foydalaniladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotdagi hisob-kitoblarda O'zbekistonda 2021-yil uchun uy xo'jaliklari byudjetini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan so'rov natijalaridan foydalanildi. Tadqiqotda ona tilini bilish umumiy ta'limdagi muvaffaqiyatni (ta'lim yillarini) oshiradi va ikkinchi chet tilini o'rganishda yordam beradi, degan gipotezalar shakllantirilgan. Ushbu gipotezalarni tekshirishda regressiya modelidan foydalanildi.

Bundan tashqari, ikkinchi tilni bilish ish haqi ustamalarining oshishiga olib kelishini baholashda Minserning ish haqi modelidan, chet tilini bilishning ish haqiga ta'siri baholashda oddiy regressiya va o'zgarmas effekt (fixed effect) modellaridan foydalanildi.

Natijalar. Ekonometrik tahlillar ona tilini bilish boshqa tillarni o'zlashtirish ehtimoli va umumiy ta'lim darajasini oshirishini ko'rsatdi. Shuningdek, o'rta yoki oliy ma'lumotga ega bo'lgan yoshlar orasida chet tillarni bilish ehtimoli yuqori ekanligi aniqlandi. O'zbekistonda har bir qo'shimcha o'qilgan ta'lim yili ish haqining 8,79 foizgacha oshishiga (dastlabki tadqiqotda Jizzax viloyatida 12,5 foizgacha) olib keladi.

Amaliyotda qo'llash uchun:

O'zbek tilida asarlar, jumladan san'at asarlari, kitoblar va boshqa materiallarning yaratilishi, turli dasturlarning ishlab chiqilishiga hissa qo'shing. O'zbek tili va adabiyotini boyitish, o'zbek tilining nufuzini oshirishga harakat qiling.



Xalqimiz o'z tarixi mobaynida bag'rikenglikning eng yaxshi namunalarini ko'rsatib kelgan va ma'rifatga asoslanuvchi ushbu oliy qadriyat xalqimiz turmush tarzining ajralmas bir qismiga aylangan.

Shu o'rinda bag'rikenglikning iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini ham unutmash lozim. Dunyo olimlari olib borgan tadqiqotlar bag'rikenglik innovatsion, texnologik va iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirishini ko'rsatdi. Bundan tashqari, bag'rikenglik inson kapitali orqali iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir qiladi.

Diniy bag'rikenglik ta'minlangan davlatlar turli hududlardan kelgan muhojirlarni o'ziga jalb qiladi va bu, ma'lum bir iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida raqobatbardosh ishchi kuchining shakllanishiga olib keladi. Natijada, bag'rikenglik yangilik, ijodkorlik va ishchi kuchi bozorida xilma-xillikka imkon berib, jamiyatdagi hayot sifati va farovonligini oshiradi.

Bag'rikenglik jamiyatda hamjihatlikka yordam beradi, kelishmovchiliklarni kamaytiradi va inson huquqlarini qo'llab-quvvatlagan holda barqarorlikni ta'minlab, iqtisodiy o'sishga olib keladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda turli mamlakatlardagi etno-lingvistik xilma-xillik indeksleri hamda Jahon banki ma'lumotlar bazasidan foydalanildi. Tadqiqot 93 ta rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatning 2004-2013 yillardagi hayotiga oid ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. Tadqiqotda asosiy mustaqil o'zgaruvchi sifatida etnik fraksiyalanish indeksidan (YEF) foydalanildi. Etnik xilma-xillik indeksi 0 dan 1 gacha o'zgarib turadi. Bu yerda 0 xilma-xillik yo'qligini va 1 har bir kishi boshqa etnik guruhga tegishli ekanligini anglatadi.

Natijalar. Regressiya tahlili natijalari etnik xilma-xillik indeksi daromad sinfiga qarab turli mamlakatlar uchun turlicha ta'sir qilishini ko'rsatdi. Yuqori daromadli mamlakatlar uchun etnik xilma-xillik indeksi o'sishining ta'siri ijobiy, boshqacha aytganda, etnik xilma-xillik indeksining 1% ga o'sishi, boshqa o'zgaruvchilarni o'zgarimas holda saqlaganda, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning o'rtacha 1,17% ga o'sishiga olib keladi. Bundan kelib chiqadiki, etnik xilma-xillik va bag'rikenglik iqtisodiy farovonlikni mustahkamlaydi.

Amaliyotda qo'llash uchun:

Barcha sharoitlarda. E'tiqodi, madaniyati va kelib chiqishidan qat'i nazar barchaga hurmat bilan munosabatda bo'ling. Kamsituvchi hazil yoki gap-so'zlardan saqlaning. Biror qarorga kelishdan oldin uning mohiyatiga yeting.

Ishda/universitetda/maktabda: Xilma-xillikka hurmat bilan yondashing va inklyuzivlik, ya'ni tashqi ko'rinishi, kelib chiqishi, jinsi va salomatligidan qat'i nazar barchaga jamiyat hayotining turli jabhalarida ishtirok etish imkoniyatini beruvchi qoidaga amal qiling. Kamsituvchi xatti-harakatlarga qarshi bo'ling va hamma uchun teng imkoniyatlarni himoya qiling.



So'rovda 152 nafar xodim ishtirok etdi va ularning o'rtacha yoshi 38,5 yoshni tashkil etdi. Respondentlarning deyarli 60 foizi hafta 5 kun, ya'ni 40 soat, qolgan 40 foizi haftada 6 kun ishlashini bildirgan (48 soat).

Respondentlar ishtirok etgan majlis va yig'ilishlarning o'rtacha davomiyligi 1,5 soat ekanligi aniqlandi.

Respondentlar oxirgi bir oy davomida o'rtacha 6 ta majlisda ishtirok etgan (21 foizi kamida 10 ta majlisda ishtirok etgan), ularning o'rtacha 4,1 tasi ishtirokchilarning yo'nalishiga mos kelishi aniqlandi.

Respondentlarning 58 foizi majlislardan ishiga taalluqli, manfaatli ma'lumotlar olishini, 31,5 foizi esa qisman foyda olishini bildirgan. Qolgan 10,5 foizi ishiga mos keluvchi hech qanday ma'lumot olmasligini bildirdi.

Respondentlarning 41 foizi majlis davomida e'tibori susaymasligini bildirgan, 30,2 foizi 20-30 daqiqadan so'ng e'tibori susayishini bildirgan, qolgan 28,8 foiz respondentlarning diqqati 40 daqiqadan so'ng buzilishi aniqlandi.

47 foiz respondentlarning bildirishicha, majlislar o'z vaqtida boshlanmaydi. Ular o'rtacha 25 daqiqa kechikib boshlanadi. Bu esa o'z navbatida majlis ishtirokchilarning vaqti behuda sarflanishiga olib kelmoqda.

MHTI ekspertlari majlislarning umumiy xarajati va behuda sarflanayotgan mablag'larni hisoblashning ikkita ssenariyda kalkulyatorini ishlab chiqdi.

Misol: majlislarning umumiy xarajatini hisoblash uchun majlis ishtirokchilari sonini 50 nafar deb faraz qilsak va ularning o'rtacha oylik ish haqini, masalan, 4 000 000 so'm deb olsak, majlisning davomiyligi 90 daqiqa deb faraz qilgan holda jami ishtirokchilarning majlis uchun ketgan vaqti xarajati 1 704 000 so'mni tashkil etadi.

Majlislarda behuda yo'qotilgan vaqtni hisoblash kalkulyatorining birinchi ssenariysi yuqorida ta'kidlangan xorij tajribasi tadqiqotlari natijasiga ko'ra asosan majlis qancha vaqt davom etishidan qat'iy nazar 52 daqiqadan so'ng ishtirokchilar e'tiborini yo'qotishi aniqlangan. Bundan kelib chiqadiki 90 daqiqa davom etgan majlisda 50 kishi ishtirok etsa, behuda yo'qotilgan vaqt 38 (90-52) daqiqaga to'g'ri kelsa, bunda majlisdan yo'qotilgan vaqt xarajati 719 697 so'mni tashkil etadi.

Ikkinchi ssenariy MHTI tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga asoslangan bo'lib xuddi birinchi ssenariy kabi hisob-kitoblar amalga oshiriladi, majlis ishtirokchilarining e'tibori 40 daqiqadan so'ng susayadi deb belgilanadi. Bundan kelib chiqadiki, yo'qotilgan behuda vaqt harajati 946 970 so'mni tashkil etadi.

Mazkur kalkulyatordan majlis tashkil etishga mas'ul xodim foydalangan holda, majlislarning umumiy xarajatini hisoblashi, oy va yil yakunlari bo'yicha umumiy majlislarga sarflangan ish-soati va yo'qotilgan muqobil xarajatlarni (opportunity cost) yuritishda foydalanish mumkin. ■



Xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri bo'lgan pokizalik salomatligimizni asrashning muhim sharti hisoblanadi. Shu bilan birga, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining Makroiqtisodiyot va salomatlik bo'yicha komissiyasi (2001) sanitariya holati (tozalik) uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va farovonlikka ijobiy ta'sir qilishini asoslab bergan.

Sog'liqni saqlashdagi muammolar katta xarajatlarni talab qiladi. Misol uchun, insonlar sog'ligining yomonlashuvi ularning salomatligini tiklash uchun ketadigan xarajatlarning ortishi va oqibatda daromadlarining kamayishiga olib keladi. Shu bilan birga, kasallikni davolash uchun sarflanadigan vaqtni boshqa samaraliroq faoliyatga yo'naltirish va daromad keltiradigan biror mehnat turi bilan shug'ullanish mumkin.

Ilmiy manbalarning ko'rsatishicha Nigeriyada sifatli ichimlik suvi va sanitariya vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida o'lim xavfi sezilarli darajada yuqori. Xususan, suvning yetarli emasligi va sanitariya sharoitlari tufayli postneonatal o'lim xavfi 38 foizga, bolalar o'limi xavfi 24 foizga oshgan.

Metodologiya. Tozalikning aholi daromadlari orqali iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash uchun Statistika agentligi tomonidan mamlakatning barcha hududlarida 2021-yilda o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlaridan, ichimlik suvi va sanitariya sharoitining yaxshi ekanligini baholash uchun Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va YUNISEF ta'riflaridan foydalanildi.

Natijalar. Tahlillar davomida suv ta'minoti sifatining yaxshilanishi daromadning 22,1 foiz o'sishiga olib kelishi, sanitariya sharoitining yaxshilanishi aholi jon boshiga daromadni 13,2 foizga oshirishi aniqlandi. Yakuniy model natijalari suv va sanitariya sharoitlarini yaxshilash uy xo'jaliklarida jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 11,7 foizga oshirishini ko'rsatadi. Olingan regressiya natijalarining ishonchligini tekshirish uchun bir qator testlar va hisob-kitoblar amalga oshirildi.

MHTI tomonidan tayyorlangan «Milliy qadriyatlarga asoslangan iqtisodiyot: negizlar va farovonlik uyg'unligining empirik tahlili» deb nomlanuvchi hisobotda erkin va mustaqil fikrlash, lafz, jasorat, harakatda baraka, rozi-rizolik va boshqa milliy qadriyatlarimizning iqtisodiy taraqqiyot va jamiyat ravnaqiga ta'siri ekonometrik yondashuvlar asosida baholangan.

Amaliyotda qo'llash uchun:

Uyda: Ozodalik va saranjom-sarishtalikka rioya qiling. Shaxsiy gigiyena va tashqi ko'rinishingizga e'tiborli bo'ling.

Umuman: Jamoat joylarida tartibli bo'ling va ularni iflos qilmang.

Ishda/universitetda/maktabda: Toza va batartib muhitni ta'minlashga hissa qo'shing. Chiqindilarning yig'ishtirilishiga mas'uliyat bilan yondashing. ■



Tadqiqot davomida quyidagilar aniqlandi:

Bugungi kunda O'zbekistonda mehnatga layoqatli yoshdagi nogironligi bo'lgan 755 ming nafardan ortiq kishi istiqomat qiladi (ularning 56 foizi erkaklar). Ular orasidagi bandlik darajasi 3,7 foizni tashkil etmoqda.

Nogironligi bo'lgan shaxslar asosan sanoat (33,6 foiz), ta'lim (15,4 foiz) va sog'liqni saqlash (11,7 foiz) tarmoqlarida faoliyat yuritadi.

Tadqiqot doirasida MHTI mutaxassisleri tomonidan mehnatga layoqatli yoshdagi nogironligi bo'lgan shaxslar o'rtasida so'rov o'tkazildi. So'rovda nogironligi bo'lgan 161 kishi ishtirok etdi. Ularning 40,4 foizini erkaklar, 59,6 foizini ayollar tashkil etadi va o'rtacha yoshi 43,5 yoshga teng. Ishtirok etganlarning 14,4 foizi I guruh, 84,5 foizi II guruh va 3,1 foizi III guruh nogironligi bor fuqarolardir.

So'rovda ishtirok etganlarning 43,8 foizi mehnat daftarchasiga ega ekanligini bildirgan, lekin hozir bor-yo'g'i 8 foizi iqtisodiyotda band, 3,1 foizi esa umuman ishlamagan.

Respondentlarning 55,3 foizi nogironlik guruhi belgilanganidan so'ng ishdan ketishga yoki ish o'rnini o'zgartirishga majbur bo'lgan. 16,8 foizi nogironlik ularning ish o'rniga hech qanday ta'sir qilmaganini bildirgan (ularning orasida 14,8 foizi tug'ma nogiron).

Ish topishda qanday qiyinchiliklarga duch kelyapsiz, degan savolga respondentlarning 7 foizi sog'ligi yaxshi emasligi, 6,2 foizi nogironlik bo'yicha cheklovlar mavjudligi va 3,9 foizi bo'sh ish o'rinlari yo'qligini bildirgan. Respondentlarning faqatgina 14,8 foizi kasbga qayta tayyorlanish va malaka oshirish istagini bildirgan.

Nogironligi bo'lgan shaxslar orasida bandlik darajasini oshirish uchun hukumat tomonidan nimalar qilinishi kerak, degan savolga respondentlarning 8,7 foizi ish o'rinlari to'g'risida ma'lumot berib borish, 7,5 foizi kasbga tayyorlash kurslarida o'qitish va 6,8 foizi tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda yordam berish, deb javob bergan.

O'tkazilgan tahlil va so'rov natijalari O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar orasida bandlik darajasining pastligiga imkoniyati cheklanganlar uchun ish o'rinlarining kamligi, yaxshi sharoit yaratilmagani, ish o'rinlari, imtiyozlar, bandlikka ko'maklashish markazlari to'g'risida ma'lumotlarning yetarli emasligi va imkoniyati cheklanganlarning ish malakasi pastligi asosiy sabab bo'layotganini ko'rsatdi.



Tadqiqot natijasiga ko'ra, mamlakatimizda ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir qator omillar mavjudligi aniqlandi. Bular:

1. Umumta'lim tizimiga sarflanayotgan davlat byudjeti xarajatlari nomutanosib taqsimlangan.
2. Bitta o'quvchi o'rniga 1,2 nafar o'quvchi to'g'ri kelmoqda.
3. Ikkinchi va uchinchi smenada o'qiydigan o'quvchilar soni 2,1 million nafardan oshiq bo'lib, ular jami o'quvchilarning 33 foizini tashkil etadi.
4. Maktablarning bor-yo'g'i 30 foizi kanalizatsiya tizimiga ulangan.
5. Maktablarning 16 foizga yaqini kapital ta'mirlashga muhtoj, 4,6 foizi esa umuman yaroqsiz holatda.

6. Umumta'lim maktablarida har bir o'quvchiga 0,03 ta, qishloq joylarda esa 0,04 ta kompyuter to'g'ri keladi. Ushbu ko'rsatkich dunyo mamlakatlari bilan solishtirganda ancha past. Masalan, Qozog'istonda har bir o'quvchiga 0,72 ta, Ozarbayjonda 0,55 ta, Belarusda 0,55 ta, Turkiyada 0,25 ta, umumiy IHTT mamlakatlarida esa 0,85 ta kompyuter to'g'ri keladi.

7. Toshkent shahri va Toshkent viloyatida o'qituvchilar yuklamasi yuqori.

8. Respublika maktablarida chet tili, texnologiya va informatsion texnologiyalar fanlaridan o'qituvchilar yetishmaydi.

9. O'qituvchilar orasida attestatsiyadan o'ta olmaslik ko'rsatkichi yuqori va fanlar bo'yicha xalqaro sertifikatga ega bo'lganlar soni kam.

O'zbekistonda umumta'lim tizimini yangilash uchun tadqiqot doirasida taklif etilayotgan ikki tizim uchun foyda-xarajat nisbati

	Bir yilda bitta o'quvchi uchun ketadigan xarajat (AQSh dollari hisobida) ¹	Har bir o'quvchiga iqtisodiy foyda (AQSh dollari hisobida)	Foyda-xarajat nisbati ²
Texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarning o'rganish darajasiga qarab o'qitish	27,18	2 014,68	74,12
Texnologiyalardan foydalanmasdan o'quvchilarning o'rganish darajasiga qarab o'qitish	23,43	1 098,92	46,90
O'rtacha xarajat va foyda (har bir o'quvchiga)	19,74	1 355,33	68,65

¹Xarajatlar va ehtimoliy ish haqining o'sish foizi Kopengagen Konsensus, Garvard va Oksford universitetlari tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida belgilandi

²Foyda-xarajat nisbatini (Benefit-Cost ratio) aniqlash uchun diskontlangan iqtisodiy foydaning xarajatga nisbati topildi



O'zbekistonda ayollar orasidagi ishsizlik va uning sabablari

o'qish vaqti
24 soniya

Ayollar orasida ishsizlikning eng past ko'rsatkichlari Toshkent shahri (7,9), Namangan (11,9) va Toshkent (12,8) viloyatlarida kuzatilmoqda.

Tadqiqot natijalari bo'yicha ishsiz ayollar portreti shakllantirildi:



Ishsiz ayollarning o'rtacha yoshi - 32 yosh.

Ayollar orasidagi ishsizlikning o'rtacha davomiyligi 3 yilni tashkil etadi.

Ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, ayollarning oliy ma'lumotga ega bo'lishi ularning ishlash ehtimolini 0,99 foizga oshiradi, oilali bo'lish esa ishlash ehtimolini 1,35 foizga pasaytiradi. Ayol yoshining kattalashishi uning ishlash ehtimolini 0,08 foizga oshiradi.

Ishsiz ayollar va tug'ilishlar orasidagi korrelyatsion bog'liqlik koeffitsiyenti 0,79 ga teng bo'lsa, nikohlar bilan bog'liqlik 0,73 ga teng.

Ayollar orasidagi ishsizlik, tug'ilishlar va nikohlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik





2024-yilning mart oyida Toshkent shahridagi yirik supermarketlarda 21 nomdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi

o'qish vaqti
22 soniya


Monitoring natijalari 11 xil mahsulot bo'yicha minimal narxlar o'tgan oydagiga nisbatan pasayganligini ko'rsatdi*. Shunday qilib, karamning narxi 31,4 foiz, bodringning narxi 19,8 foiz, kungaboqar yog'ining narxi 9,7 foiz, mol go'shtining (file) narxi 8,3 foiz pasaygan.

4 nomdagi mahsulotlarning eng past narxi o'zgarishsiz qolgan. Bular: guruch, makaron, banan va shakar.

6 nomdagi mahsulotlar narxi oshgan. Narxining oshishi bo'yicha lavlagi yetakchi bo'ldi. Bu esa mavsumiy omil bilan bog'liq.

*tahlil 6-mart va 8-fevral kunlari o'tkazilgan monitoring ma'lumotlari asosida qilindi.

2024-yil mart oyida Toshkent shahridagi supermarketlarda oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi (o'tgan oydagiga nisbatan foiz hisobida)



Manba: 6-mart va 8-fevral kunlari o'tkazilgan monitoring ma'lumotlari



Dunyo mamlakatlarida ta'lim darajasi elektron tijoratning rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

o'qish vaqti
23 soniya

Tadqiqot davomida quyidagi natijalar olindi:

Ta'lim dunyo mamlakatlarida elektron tijorat rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Universitet talabalari ulushining 1 foiz punktiga (f.p.) ortishi elektron tijoratning rivojlanish indeksi o'rtacha 0,06 birlikka oshishiga olib keladi.

Ta'limning ta'siri ayniqsa, daromadi o'rtachadan past bo'lgan mamlakatlar guruhida ($2500 < \text{GNI} < 4000$) yaqqol ko'rinadi.

Ushbu guruh mamlakatlarida universitet talabalari ulushining 1 foiz punktiga oshishi, elektron tijoratning 0,24 birlikka rivojlanishiga ko'maklashadi.

Elektron tijoratning rivojlanishiga ta'lim omili bilan bir qatorda aholining real daromadlari va internetdan foydalanuvchilar ulushi (infratuzilma) ham ta'sir ko'rsatadi. ■





BMTning Jahon oziq-ovqat dasturi (WFP) ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda jahon miqyosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining taxminan 41 foizi bepul ovqatlanish dasturidan foydalanadi. Bu ko'rsatkich daromadi past mamlakatlarda 18 foizni, daromadi o'rtachadan past mamlakatlarda 39 foizni, daromadi yuqori mamlakatlarda 61 foizni tashkil qiladi.

Bugun Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida salkam 30 million bolaga shunday dasturlar tufayli bepul sut, meva hamda sabzavotlar beriladi. Rossiyada boshlang'ich sinf o'quvchilari kuniga kamida bir marotaba issiq ovqat va issiq ichimlik oladi. Xitoyda o'quvchilarga sut mahsulotlarini berishga qaratilgan dastur 2000-yildan beri amal qiladi.

O'zbekistonda 1-4 sinf o'quvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlash sinov tariqasida 2022-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida yo'lga qo'yildi va Qoraqalpog'iston Respublikasida 147,4 ming, Xorazm viloyatida 141,8 ming o'quvchi bepul nonushta bilan ta'minlanayapti.

MHTI mutaxassislarini tadqiqot davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi 40 ta maktabning 4000 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida so'rov o'tkazdi. Aniqlanishicha, 2022-2023-yillarda pilot hududlarda maktablarda bepul ovqatlanish dasturining amalga oshirilishi "qoniqarli" deb topilgan.

Bundan tashqari, Jahon banki ko'magida amalga oshirilayotgan O'zbekistonda bolalar farovonligi indeksini baholash bo'yicha MHTI loyihasi doirasida sotsiologik so'rov o'tkazildi, unda respublikaning barcha hududlaridan 2000 dan ortiq xonadon va 3000 dan ortiq bolalar ishtirok etdi.

So'rov natijalari maktabda bepul ovqatlanish dasturining o'quvchilar davomati bilan bog'liqligini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda "Propensity score matching" modelidan foydalanildi. Hisob-kitoblar Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida so'nggi bir oy davomida bepul ovqatlanayotgan o'quvchilarning 85 foizi darsni biron marotaba ham qoldirmagani, boshqa hududlarda esa bu ko'rsatkich 77 foizni tashkil etganini ko'rsatdi. Demak, dastur davomadning 8 foiz yaxshilanishiga ko'mak bergan.

Garchi 2022-2023 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida sinov tariqasida amalga oshirilgan dastur qoniqarli, deb e'tirof etilgan bo'lsada, masalaning ayrim jihatlariga e'tiborni kuchaytirish zarur. Xususan: berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari ratsioni har bir hududdagi sharoitdan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqilishi;

boshlang'ich sinf o'quvchilarini issiq ovqat bilan ta'minlash uchun respublikadagi barcha maktablarda oshxonalar tashkil etilishi;

oziq-ovqat mahsulotlari ratsioniga sut va sut mahsulotlarini, shuningdek, makro va mikronutriyentlar, vitaminlar bilan boyitilgan, yog'lar, qand va tuz miqdori cheklangan mahsulotlarni qo'shish;

jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va muntazam monitoring qilib borish uchun elektron onlayn platformani yaratish maqsadga muvofig.

Maktablarda bepul tushlikning davomatga ta'siri


PSM modelining juftlik muvozanati



■ PSM modeli juftlanishdan keyingi o'zgaruvchilar farqi

■ PSM modeli juftlanishdan avvalgi o'zgaruvchilar farqi

So'ngi bir oyda biror marta dars qoldirmaganlar ulushi



PSM modeli 2000 ta uy xo'jaliklari orasidan 12 ta xususiyatga ko'ra deyarli bir biriga o'xshash 132 ta juftliklarni ($N=264$, $N_{\text{treatment}}=132$, $N_{\text{control}}=132$) aniqlaydi. Bepul tushlik berilgan guruh bu - Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati, nazorat guruhi bu - boshqa barcha hududlar. Model ushbu ikki guruhlarning kesimida davomat ko'rsatkichining (maktabga so'nggi bir oyda biror marta dars qoldirmaganlar ulushi) o'rtachalarini t-test orqali farqini ko'rsatib beradi.



Multiple Indicators Cluster Survey (MICS) ning 2021-2022 yillarga oid hisobotiga ko'ra, 2022-yilda O'zbekistonda 5 yoshgacha bo'lgan ortiqcha vaznli bolalar umumiy bolalar sonining 5 foizdan kamrog'ini (o'g'il bolalarda 5 foiz, qiz bolalarda 4 foiz) tashkil etgan.

Ma'lumot uchun: Multiple Indicators Cluster Survey (MICS) bu BMT bolalar jamg'armasi - YUNISEF tomonidan bolalar va ayollarning holati haqida aniq ma'lumot olish maqsadida ishlab chiqilgan dastur doirasida ko'plab ko'rsatkichlar bo'yicha o'tkaziladigan klaster tekshiruvidir.

Bo'yi yoshiga nisbatan past bo'lgan bolalar 7 foizni, 5 yoshgacha bo'lgan kam vaznli bolalar umumiy bolalar sonining 2 foizini tashkil etgan.

MHTI mutaxassislari tomonidan MICS ma'lumotlari asosida o'tkazilgan ekonometrik tahlil davomida quyidagilar aniqlandi:

Maktabgacha ta'lim jarayonida ishtirok etgan bolalarning bo'yi ishtirok etmaganlarnikiga nisbatan 1,83 santimetr uzunroq, vazni esa 0,65 kilogramm og'irroq bo'ladi.


Tana massasi indeksi (Body Mass Index) asosida qilingan tahlil maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan bolalar vaznining yoshiga nisbatan kam bo'lib qolish ehtimolini 1 foizga kamaytirishini ko'rsatdi.

Maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish bolalarning aqliy va emotsional sog'ligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Xususan:

- maktabgacha ta'lim jarayonida qatnashish bolalarda 10 gacha sanay olish qobiliyati o'rtacha 19,9 foizdan 21,4 foizga;
- asosiy muloqot ko'nikmasi o'rtacha 3 foizga;
- alifbodagi harflarni tanish ehtimoli 8 foizdan 11 foizgacha oshadi;
- Ijtimoiy munosabatlar (o'ynash, do'stlashish) da qiyinchilikka duch kelish ehtimoli taxminan 4 foizdan kam bo'ladi.

Bolalarning tana salomatligidagi tafovutlari

Maktabgacha ta'limda ishtirok etish kesimida, umumiy bolalar sonidan ulush, %



Manba: MICS so'rovnoma natijalariga ko'ra muallif ishlanmasi.



O'zbekiston 2024-yilgi Jahon baxtivorlik indeksida 47-o'rinni egalladi

o'qish vaqti
44 soniya

O'zbekiston GALLUP xalqaro tashkiloti tomonidan 143 ta davlat bo'yicha hisoblangan 2024-yilgi Jahon baxtivorlik indeksida (World Happiness Report 2024) 47-o'rinni egalladi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi o'rinni egalladi. Undan keyingi o'rinlarda Qozog'iston (49-o'rin), Qirg'iziston (75-o'rin) va Tojikiston (88-o'rin) bormoqda. Turkmaniston reytingga kiritilmagan.

O'zbekiston 2006-2010 va 2021-2023 yillar oralig'ida baxtivorlik darajasining o'zgarishi bo'yicha TOP 20ta mamlakat qatoridan joy olgan (19-o'rin).

O'zbekiston 60 yoshdan oshgan fuqarolarning baxtivorlik darajasi bo'yicha Chexiya, Fransiya, Singapur, Yaponiya va boshqa mamlakatlarni ortda qoldirib, 22-o'rinni egalladi.

Eslatma: *Jahon baxtivorlik indeksi so'nggi 3 yil davomida aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar asosida hisoblanadi. Respondentlarga gipotetik jihatdan eng yaxshi (10 ball) va eng yomon (0 ball) yashash imkoniyati haqida savol beriladi, shuningdek, ushbu shkala bo'yicha hozirgi hayot darajasini baholash so'raladi. Shu bilan bir qatorda, YalM, o'rtacha umr ko'rish davomiyligi, saxiylik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, erkinlik va korrupsiya bo'yicha mamlakatlar kesimida qo'shimcha ma'lumotlar to'planadi. Ushbu qo'shimcha parametrlar indeksning o'zini hisoblash uchun ishlatilmaydi, balki uni tushuntirish uchun foydalaniladi.*



O'rta ta'limda: 2018-yilning 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror respublikamizda jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan baholash amaliyotining tatbiq etilishi uchun huquqiy asos yaratdi.

2019-yilda BMTning bolalar jamg'armasi - UNICEF bilan hamkorlikda 4-sinf o'quvchilarining o'qish, matematika, tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini aniqlash maqsadida o'tkazilgan baholash natijalari e'lon qilindi. Unga ko'ra o'quvchilar:

- tabiiy-ilmiy yo'nalishda demokratik jamiyat, fuqarolarning huquq va burchlari tushunchasiga (71,1 foiz), matematika yo'nalishida tenglama va tengsizliklarni yechish ko'nikmasiga (67,2 foiz) egaligi bo'yicha eng yuqori ball to'pladi;

- tabiiy-ilmiy (tarixiy sanalar, atrof-muhit, inson salomatligi va xavfsizligi, ekologiya), matematika (hisoblash va tenglamalar) hamda matnni o'qish (berilgan aniq ma'lumotlarni topish) yo'nalishlaridagi savollarga javoblar bo'yicha jahondagi o'rtacha ko'rsatkich (55 foiz) dan yuqori natijaga erishdi.

2022-yilda USAID bilan hamkorlikda 3-sinf va 5-sinf o'quvchilarining o'qish va matematika bo'yicha (EGRA) ko'nikmalarini baholash natijalari e'lon qilindi. Unga ko'ra, o'rta ta'limning sifati (5-sinf o'quvchilarining natijalari) boshlangich ta'lim (3-sinf o'quvchilarining natijalariga qaraganda) sifatidan ortda qolayotgani, maktabga muntazam qatnovchi o'quvchilarning natijalari vaqti-vaqti bilan dars qoldiruvchi o'quvchilarnikidan yuqoriligi aniqlandi.

2022-yilda 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha savodxonlik ko'nikmalari (PISA) Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) bilan hamkorlikda baholandi va 2023-yilda natijalar e'lon qilindi.

O'rta ta'limning 3-, 6-, 7- va 10-sinf o'quvchilari uchun darsliklar baholash natijalari asosida, baholash jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishni hisobga olgan holda qaytadan chop qilindi.


Oliy ta'lim tizimida esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni tizimni isloh qilish uchun huquqiy asos yaratdi. Natijada 2017-2023 yillar oralig'ida:

- «QS World University Rankings»da eng yaxshi mingtalikka kirgan xorijiy oliy ta'lim muassasalarining filiallari soni 3 tadan 9 taga;
- Jami xorijiy oliy ta'lim muassasalarining soni 7 tadan 30 taga;
- xususiy oliy ta'lim muassasalari soni 66 taga;
- hududlar kesimida eng kam oliy ta'lim muassasalari soni 1 tadan 3 taga yetdi.

Shuningdek, aholining barcha qatlamlarini oliy ta'lim xizmatlari bilan qamrab olish uchun alohida kvotalar ajratildi. Yoshlarni (18-22 yoshdagi aholini) oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 41 foizga oshdi.

Ta'lim tizimi va infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida «O'zbekiston - 2030» strategiyasida bir qator tadbirlar belgilangan. **Jumladan:** O'lis va chekka hududlarda joylashgan 715 ta maktabga bolalarning qatnashi uchun bepul avtobuslarni yo'lga qo'yish; Nodavlat umumta'lim tashkilotlari sonini 1000 taga yetkazish; 2024 yildan boshlab har yili davlat-xususiy sheriklik asosida 100 tadan maktab qurilishi bo'yicha shartnomalar tuzish; Dunyodagi 500 ta yetakchi universitet bilan hamkorlikda "ikki diplomli tizim"ni kengaytirish shular jumlasidan.

2017 – 2023 - YILLARDA O'ZBEKISTONDA TA'LIM SOHASIDA RO'Y BERGAN INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR



Manba: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti
ma'lumotlari asosida MHTI hisob-kitoblari

*18-22 yoshdagi aholini oliy ta'lim bilan qamrab olish
MHTI hisob kitoblari asosida baholangan



2022-yilda 167,9 mlrd. AQSh dollariga baholangan global biologik faol qo'shimchalar (BFQ) bozori 2030-yilga borib, yillik 7,9 foiz o'sish sur'ati bilan 301,4 mlrd. AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda.

BFQ iste'molining o'sishiga asosan internet va boshqa ommaviy axborot vositalaridagi reklamalar sabab bo'lib, tomoshabinlar ularda ishtirok etgan taniqli shaxslarni moddiy jihatdan mafaaddor bo'lmagan xolis maslahatchi sifatida qabul qiladi.

Hindistonlik tadqiqotchilarning multivitaminli qo'shimchalardan foydalanish borasida taniqli kishilarning tavsiyasi odamlarga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash maqsadida o'tkazgan so'rovi respondentlarning 65 foizi mazkur mahsulot brendlari haqida gapirgan mashhur kishilarga ishonishini ko'rsatdi.

Simmon universiteti tadqiqotchilari 88 ta nashrdagi 238 ta ma'lumotni o'z ichiga olgan BFQ reklamalarini o'rganib chiqqach, ularning salomatlikka ijobiy ta'siri haqida aytilgan ta'kidlarning 15 foizi aniq, 23 foizi noaniq, 3 foizi noto'g'ri, 5 foizi qisman aniq va 55 foizi asossiz ekanligi aniqladi.

Har yili AQShda tez tibbiy yordam bo'limiga qilingan murojaatlarning kamida 23000 tasi BFQ dan foydalanish bilan bog'liq. Shikoyatlarning aksariyatida yurakning tez urishi, ko'krakda og'riqning paydo bo'lishi va yutish bilan bog'liq muammo yuzaga kelgani ta'kidlangan.

Aksariyat hollarda esa aholining reklama ta'siriga moyil qatlamlari, ya'ni keksalar va voyaga yetmaganlar BFQ tijoratchilarining maqsadli auditoriyasi bo'lib qolmoqda. ■



Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)ning so'nggi hisobotiga ko'ra, bugun norasmiy iqtisodiyotda 2 milliard odam ishlamoqda. Jahonda ish bilan band aholining 60 foizdan ortig'i norasmiy mehnat bilan band.

Shimoliy va Janubiy Amerikada norasmiy bandlik darajasi 40 foiz bo'lsa, Janubiy Osiyodagi ayrim mamlakatlarda 80 foizgacha yetadi. Afrikada norasmiy bandlik ulushi 86 foizni tashkil qiladi. Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida bu ko'rsatkich 25,0 foizni, arab mamlakatlarida qariyb 70,0 foizni tashkil etadi.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda jami band aholining 39,0 foizi norasmiy sektorda faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatda 5,5 millionga yaqin kishi norasmiy sektorda mehnat qilayapti.

So'nggi yillarda O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining norasmiy sektorda bandligi ma'lum darajada pasaydi (2020-yil – 42,8 foiz, 2023-yil – 39,0 foiz), ya'ni norasmiy bandlik oxirgi 4 yilda 3,8 foizga yoki 0,2 mln. kishiga kamaygan.

2023-yil yakunlariga ko'ra, norasmiy bandlikning eng yuqori darajasi Namangan (50 foiz), Surxondaryo va Jizzax (49 foiz), Qashqadaryo (48,4 foiz) viloyatlariga to'g'ri keldi. Eng past ko'rsatkich esa Toshkent shahri (10,9 foiz) va Navoiy (21,8 foiz) viloyatida va nisbatan past ko'rsatkich Buxoro (32,3 foiz) va Toshkent (34,9 foiz) viloyatlarida kuzatildi.

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lganlar soni asosan vaqtinchalik, bir martalik va mavsumiy ishlarni bajaruvchilar (94,4 ming kishi) hamda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan dehqon xo'jaliklarida norasmiy band bo'lganlar sonining (141,2 ming kishi) keskin qisqarishi hisobiga kamaygan.

O'ZBEKISTONDA NORASMIY BANDLIKNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI

Norasmiy sektorda bandlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (foizda)
2020 - 2023 yillar yanvar-dekabr holatiga



Norasmiy sektorda bandlarning asosiy yo'nalishlari bo'yicha taqsimlanishi (ming kishi)



* 2023 yil 2020 yilga nisbatan o'zgarishi

* Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma'lumotlari asosida MHTI ekspertlarining tahlili.



Tahlil natijasida quyidagilar aniqlandi:

2022-yilda maktablardagi o'rtacha davomat 83,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 82,5 foizga tushgan.

Hududlar bo'yicha davomatning eng past ko'rsatkichlari Toshkent shahri (57,8 foiz), Jizzax (76,9 foiz), Toshkent (75,8 foiz) va Farg'ona (79,8 foiz) viloyatlarida kuzatilgan. Eng yuqori ko'rsatkichlar esa Buxoro (89,1 foiz), Surxondaryo (88,3 foiz) va Qashqadaryo (88,2 foiz) viloyatlarida kuzatilgan.

Predmetlar kesimida, boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida eng past davomat ko'rsatkichlari o'zbek tili va matematika predmetlarida kuzatilgan.

O'rta sinf o'quvchilari orasida o'zbek tili, informatika, adabiyot va ingliz tili fanlari, yuqori sinf o'quvchilari orasida ham o'zbek tili, informatika, algebra va ingliz tili fanlarida davomatning eng past ko'rsatkichlari kuzatilgan.

Ota-onalar orasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, betob bo'lib qolishi (75,4 foiz), ota-onasiga ishlarda yordam berishi (8,9 foiz), ota-onasi ishga chiqishi kerakligi, 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga qaraydigan boshqa odam yo'qligi (3,1 foiz), xususiy o'qituvchi/repetitor bilan o'qishi (1,7 foiz), maktabga borishi uchun qo'shimcha xarajatlarga mablag' yetishmasligi (1,1 foiz) o'quvchilarning dars qoldirishidagi asosiy sabablardir. So'rovda qatnashgan ota-onalarning 8,5 foizi farzandi nima sababdan dars qoldirganini bilmasligini aytgan.

PISA (o'quvchilarning ta'limdagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda darslarni ketma-ket uch oy qoldirgan o'quvchilar ulushi 18,5 foizni tashkil etgan (PISAda ishtirok etgan mamlakatlar orasidagi o'rtacha ko'rsatkich 10,3 foiz). Bu ko'rsatkich o'g'il bolalar orasida qiz bolalar orasidagi ko'rsatkichga nisbatan yuqoriroq.



2024-yilning aprel oyida Toshkent shahridagi yirik supermarketlarda 21 nomdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi

o'qish vaqti
26 soniya

Monitoring natijalari 6 xil mahsulot bo'yicha minimal narxlar o'tgan oydagiga nisbatan pasayganligini ko'rsatdi*. Shunday qilib, limonning narxi 18,8 foiz, bodringning narxi 17,6 foiz, tuxumning narxi 17,3 foiz, bananning narxi 13,5 foiz, tovuq go'shtining (file) narxi 6,8 foiz, sariq piyozning narxi 5,4 foiz pasaygan.

8 nomdagi mahsulotlarning eng past narxi o'zgarishsiz qolgan. Bular: bug'doy uni, guruch, grechka, makaron, shakar, karam, margarin, kungaboqar yog'i.

nomdagi mahsulotlar narxi oshgan. Narxining oshishi bo'yicha pomidor yetakchi bo'ldi. Bu esa mavsumiy omil bilan bog'liq.

*tahlil 6-mart va 4-aprel kunlari o'tkazilgan monitoring ma'lumotlari asosida qilindi.

2024-yil aprel oyida Toshkent shahridagi supermarketlarda oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi (o'tgan oydagiga nisbatan foiz hisobida)



↓ 18,8%
Limon



↓ 17,6%
Bodring



↓ 17,3%
Tuxum



↓ 13,5%
Banan



↓ 6,8%
Tovuq go'shti (file)



↓ 5,4%
Sariq piyoz



2017-2023 yillarda davlat byudjetidan sog'liqni saqlash tizimi uchun ajratilayotgan mablag'lar qariyb 3,9 barobar oshdi. Agar xarajatlar 2017-yilda 7330 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 28 426 milliard so'mga yetdi, davlat byudjeti xarajatlaridagi ulushi 22 foizni tashkil qildi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan davlat tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 2017-yildagiga nisbatan 1,9 barobar oshdi va 11031 taga yetdi.

Faoliyat yuritayotgan davlat ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni 2696 tani tashkil etadi. Ular bir smenada 354738 qatnov quvvatiga ega. Har 10 000 kishiga 98,5 qatnov to'g'ri keladi.

Davlat tasarrufidagi shifoxonalar soni 573 taga yetdi. Ularda 124101 ta o'rin mavjud. Har 10 000 kishiga 33,7 qatnov to'g'ri keladi. Bir bemor o'rtacha 6,3 kun ichida davolanib chiqadi.

Sohaning mutaxassislar bilan ta'minlanish darajasi yaxshilanib bormoqda. Bugun har 10 000 kishiga 22,3 nafar shifokor va 99,4 nafar o'rta tibbiyot xodimi to'g'ri keladi.

O'rtacha umr ko'rish davomiyligi 2017-yildagi 73,7 yoshdan 2022-yilda 74,7 yoshga ko'tarildi. 2017-2023 yillar oralig'ida o'limning umumiy koeffitsiyenti 5,0 promilledan 4,7 promillega, yuqumli va parazit kasalliklar tufayli o'lim darajasi 1,7 foizdan 1,3 foizga, ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari tufayli o'lim darajasi 5,7 foizdan 4,1 foizga, shuningdek, mehnatga layoqatli yoshdagilar o'limi 27,6 foizdan 24,6 foizgacha kamaydi.

O'zbekistonda tibbiyot turizmining rivojlanishi sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning sezilarli natijasi bo'ldi. Agar 2017-yilda O'zbekistonga davolanish maqsadida kelgan sayyohlar soni 28,7 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 63,3 ming nafarga yetdi.

Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish doirasida mamlakatimizda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqalarini elektron shaklda rasmiylashtirish yo'lga qo'yildi. Sirdaryo viloyati va Toshkent shahrida davlat tibbiy sug'urta tizimi joriy etildi.

Aholi salomatligini ta'minlash maqsadida «O'zbekiston - 2030» strategiyasida bir qator chora-tadbirlar belgilangan. **Jumladan:**

- tibbiy sug'urta tizimi bilan aholini 100 foiz qamrab olish;
- 2023–2025 yillarda "Elektron retsept" (reimbursatsiya) tizimini joriy etish;
- sanatoriy'larga yo'llanma olish;
- navbatni kuzatish va bo'sh o'rinlarni ko'rish imkoniyatini beradigan "Elektron sanatoriy" platformasini ishlab chiqish;
- onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarning elektron ro'yxatini yuritish uchun mo'ljallangan "Cancer-registr" axborot tizimini joriy etish;
- ona va bola salomatligi pasportining elektron tizimini yaratish rejalashtirilgan.



Ota-onalarning farzandi kelajagiga qanchalik mas'uliyat bilan yondashayotgani va ta'lim-tarbiya jarayonidagi ishtirokini o'rganish maqsadida so'rov o'tkazildi

o'qish vaqti
70 soniya

So'rovda o'rtacha yoshi 43 ga teng bo'lgan 3602 nafar ota-ona ishtirok etdi (N=3602). Ularning 75 foizini ayollar, 25 foizini erkaklar tashkil etdi. Respondentlarning 40 foizi oliy, 37 foizi o'rta-maxsus va 23 foizi o'rta ma'lumotga ega.

So'rovda ishtirok etganlarning 26 foizini uy bekasi, ishsiz, nogiron va nafaqadagi kishilar tashkil etdi. Respondentlarning 66,7 foizi qiz farzandning, 33,3 foizi esa o'g'il farzandning ota-onasi.

So'rovda qatnashganlarning 70 foizi farzandi buva-buvisi bilan istiqomat qilmasligini bildirgan. Aytib o'tish joizki, bugungi kunda respublikadagi har bir oilaga 0,33 nafar qariya to'g'ri keladi.

So'rov natijasi ota-onalarning 94,6 foizi farzandi kelajagi haqida o'zaro suhbatlashib turishini, 13,9 foizining fikrlari bir xil emasligini ko'rsatdi.

Ota-onalarning 97,8 foizi farzandi bilan uning bo'lajak kasbi va qiziqishlari to'g'risida suhbatlashib turishini, 2,2 foizi esa bu haqida umuman suhbatlashmasligini bildirgan. Ularning 64,5 foizi qiz farzandning ota-onasi va 40 foizi oliy ma'lumotga ega.

So'rov natijalariga ko'ra, yoshlarning 20,7 foizi shifokor, 18,2 foizi o'qituvchi, 15,0 foizi jurnalist, 10,5 foizi iqtisodchi, 7,8 foizi IT sohasi mutaxassisi, 5,2 foizi tadbirkor, 5,3 foizi moliyachi va 1 foizi huquqshunos bo'lish istagida.

Qizlar asosan shifokor (24,3 foiz), o'qituvchi (22,5 foizi), jurnalist (21,1 foiz) va iqtisodchi (7 foizi) bo'lishni rejalashtirmoqda.

O'g'il bolalar esa iqtisodchi (17,5 foiz), IT mutaxassisi (14,3 foiz), moliyachi (8,4 foiz), tadbirkor (8,2 foiz) va sportchi (4,4 foiz) bo'lish istagini bildirgan.

So'rov natijalariga ko'ra, ota-onalarning bor-yo'g'i 56,0 foizi farzandining ta'lim olishdagi yutuqlarini to'liq qoniqarli, 12,6 foizi esa qoniqarli emas, deb baholaydi.

Tadqiqot davomida o'quvchilarning 75 foizi qo'shimcha darslarga borishi aniqlandi.

OTA-ONALAR ORASIDA SO'ROV



So'rovda qatnashganlarning 70 foizi farzandi buva-buvisi bilan istiqomat qilmasligini bildirgan. Aytib o'tish joizki, bugungi kunda respublikadagi har bir oilaga 0,33 nafar qariya to'g'ri keladi.



Ota-onalarning 94,6 foizi farzandi kelajagi haqida o'zaro suhbatlashib turishini ma'lum qilgan.



Ota-onalarning 97,8 foizi farzandi bilan uning bo'lajak kasbi va qiziqishlari to'g'risida suhbatlashib turishini bildirgan.



Qiz bolalar asosan shifokor (24,3 foiz), o'qituvchi (22,5 foizi), jurnalist (21,1 foiz) va iqtisodchi (7 foiz) bo'lishni rejalashtirmoqda.



O'g'il bolalar esa iqtisodchi (17,5 foiz), IT-mutaxassisi (14,3 foiz), moliyachi (8,4 foiz), tadbirkor (8,2 foiz) va sportchi (4,4 foiz) bo'lish istagini bildirgan.



So'rov natijalariga ko'ra, ota-onalarning bor-yo'g'i 56,0 foizi farzandining ta'lim olishdagi yutuqlaridan to'liq qoniqishini bildirgan.





2024-yilning may oyida Toshkent shahridagi yirik supermarketlarda 21 nomdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi ko'rib chiqildi

o'qish vaqti
32 soniya

Monitoring natijalari 10 xil mahsulot bo'yicha minimal narxlar o'tgan oydagiga nisbatan pasayganligini ko'rsatdi*. Shunday qilib, bodringning narxi 49,0 foiz, sariq piyozning narxi 24,5 foiz, kartoshkaning narxi 16,9 foiz, olmaning narxi 16,7 foiz, karamning narxi 14,6 foiz, tuxumning narxi 11,7 foiz, qizil sabzining narxi 8,3 foiz, pomidorning narxi 6,3 foiz, tovuq go'shtining (file) narxi 4,9 foiz, shakarining narxi 3,6 foiz pasaygan.

6 nomdagi mahsulotlarning eng past narxi o'zgarishsiz qolgan. Bular: guruch, grechka, makaron, sut, margarin, kungaboqar yog'i.

5 nomdagi mahsulotlar narxi oshgan. Narxining oshishi bo'yicha banan yetakchi bo'ldi. Banan narxining qisqa muddatli o'sishi vaqtinchalik bozor omillari, talab va taklifning o'zgarishi bilan bog'liq.

*tahlil 4-aprel va 2-may kunlari o'tkazilgan monitoring ma'lumotlari asosida qilindi.





Mamlakatimiz miqyosida xonadonlarda bolalar uchun mo'ljallangan kitoblarning mavjudligi ularning savodxonlik-hisoblash ko'nikmasiga qanday ta'sir qiladi?

 o'qish vaqti
43soniya

Tadqiqotda asosiy e'tibor 3-5 yosh oralig'idagi farzandlari bor oilalarda bolalar adabiyotining mavjudligi va savodxonlik-hisoblash qobiliyatining rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga qaratildi.

Bunda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan savodxonlik-hisoblash indeksi (SHI) asosiy erkin o'zgaruvchi qilib olindi. Mazkur indeks so'rovnoma orqali 3-5 yosh oralig'idagi bolalarga berilgan quyidagi 3 ta savol asosida shakllantirildi:

1. alifbodan kamida beshta harfni tanishi;
2. birdan beshgacha raqamlarni bilishi;
3. o'z ismini yoza olishi.

Empirik tahlil natijasida quyidagilar aniqlandi:

O'zbekistondagi oilalarda bolalar uchun mo'ljallangan kitoblar sonining 1 birlikka oshishi ulardagi savodxonlik-hisoblash ko'nikmasining normal rivojlanganlik darajasida bo'lish ehtimolini taxminan 12,39 foizga oshiradi.

Oilasida kimdir kitob o'qib bergan bolalarning me'yordagi aqliy rivojlanish darajasiga ega bo'lish ehtimoli kitob o'qilmagan oiladagi bolanikiga nisbatan salkam 2 baravar yuqori bo'ladi.

Oila moliyaviy holatining boladagi savodxonlik-hisoblash ko'nikmasiga ta'siri statistik ahamiyatli emas.

P.S. Ma'lumotlar bazasi sifatida YUNICEF tomonidan 2021-2022 yillarda O'zbekistonning barcha viloyatlarini qamrab olgan Ko'p ko'rsatkichli klaster tadqiqoti (MICS) ma'lumotlari olingan.



2024-yilning iyun oyida Toshkent shahridagi yirik supermarketlarda 21 nomdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi ko'rib chiqildi

o'qish vaqti
23 soniya

Monitoring natijalari 16 xil mahsulot bo'yicha minimal narxlar o'tgan oydagiga nisbatan pasayganligini ko'rsatdi*. Narxlarning eng yuqori pasayishi karam (-59,4 foiz), pomidor (-51,7 foiz) va bodring (-51,7 foiz) mahsulotlarida qayd etildi.

2 nomdagi mahsulotning eng past narxi o'zgarishsiz qolgan. Bular: tovuq go'shti (file) va sut.

3 nomdagi mahsulot narxi oshgan. Narxining oshishi bo'yicha kartoshka yetakchi bo'ldi. Kartoshka narxining qisqa muddatli o'sishi vaqtinchalik bozor omillari, talab va taklifning o'zgarishi bilan bog'liq.

*tahlil 2-may va 13-iyun kunlari o'tkazilgan monitoring ma'lumotlari asosida qilindi.





O'tkazilgan bir qancha xalqaro test natijalari o'zbekistonlik o'quvchilarning bilim darajasi nisbatan past ekanligini ko'rsatgandi.

Ma'lumot uchun: 2021-yilda mamlakatimizda o'tkazilgan xalqaro PIRLS 2011 (Progress in International Reading Literacy Study - turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajasi sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimi) testida mahalliy o'quvchilar dunyodagi o'rtacha ko'rsatkich (500) dan past natija (437) olgan. 2022-yilda O'zbekiston maktablari 15 yoshli o'quvchilar bilimini baholash bo'yicha xalqaro dastur – PISA testida ilk marta ishtirok etgandi. Sinov natijalariga ko'ra, o'zbekistonlik o'quvchilar 81 ta mamlakat vakillari orasida matematika bo'yicha 72-o'rinni, tabiiy fanlar va o'qish savodxonligi yo'nalishlarida eng oxiridan bitta oldingi o'rinni (80-o'rin) egalladi.

O'quv resurslarining mavjudligi: PISA 2022 so'rovnoma tahliliga ko'ra, O'zbekistonda 15 yoshli o'quvchilarning 90 foizdan ortig'ining xonadonida kitob bor, biroq mobil telefoni bor o'quvchilar ulushi bo'yicha hududlar o'rtasidagi farq katta (qishloq joylarda 61 foiz, katta shaharlarda 88,4 foiz).

Tadqiqotda Moyillikni moslashtirish (Propensity-Score Matching), Eng yaqin qo'shni bo'yicha moslashtirish (Nearest-neighbor matching), Regressiyani tuzatib moslashtirish (Regression Adjustment) va Kengaytirilgan teskari ehtimollikni moslashtirish (Augmented inverse-probability weighting) usullaridan foydalanildi.

Natijalar uyda kitoblarning borligi 15 yoshli o'quvchilarning akademik yutuqlarini statistik jihatdan sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi:

- ballar matematika bo'yicha 21,07 dan 29,41 gacha;

- o'qish bo'yicha 23,63 dan 33,67 gacha;

- tabiiy fanlar bo'yicha 17,68 dan 29,81 gacha oshgan.

- Shu bilan birga, mobil telefon egasi bo'lish ham yuqoriroq ball olishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, lekin kitobning ta'siriga qaraganda ancha pastroq, ya'ni:

- ballar matematika bo'yicha 5,344 dan 10,46 gacha;


- o'qish bo'yicha 4,837 dan 9,516 gacha;

- tabiiy fanlar bo'yicha 3,438 dan 10,14 gacha oshadi. ■



PISA 2022 MA'LUMOTLARIGA KO'RA O'QUVCHILARDA RAQAMLI VA AN'ANAVIY O'QUV RESURSLARINING MAVJUDLIGI (FOIZ HISOBIDA)

Uyali telefoni bor o'quvchilar¹
(N = 6815)



Uyida kitob bo'lgan o'quvchilar²
(N = 7190)



¹Savol: Quyidagilardan qaysi biri sizning yashash joyingizda mavjud? - Internetga ulangan o'z mobil telefoningiz.

²Savol: Uyingizda nechta kitob mavjud?

RAQAMLI VA AN'ANAVIY O'QUV RESURSLARINING O'QUVCHILAR O'RTASIDAGI AKADEMIK NATIJALARGA TA'SIRI



Manba: PISA 2022 so'rovnomasi natijalari.



2024-yilning iyul oyida Toshkent shahridagi yirik supermarketlarda 21 nomdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi ko'rib chiqildi

o'qish vaqti
18 soniya

Monitoring natijalari 12 xil mahsulot bo'yicha minimal narxlar o'tgan oydagiga nisbatan pasayganligini ko'rsatdi*. Narxlarning eng yuqori pasayishi pomidor (-64,3 foiz), banan (-31,9 foiz) va bodring (-31,1 foiz) mahsulotlarida qayd etildi.

9 nomdagi mahsulotning eng past narxi o'zgarishsiz qolgan. Bular: guruch, bug'doy uni, shakar va boshqalar.

Tahlil qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari minimal narxining oshishi qayd etilmagan.

*tahlil 13-iyun va 11-iyul kunlari o'tkazilgan monitoring ma'lumotlari asosida qilindi.

2024-yil iyul oyida Toshkent shahridagi supermarketlarda oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi (o'tgan oydagiga nisbatan foiz hisobida)



64,3%

Pomidor



31,9%

Banan



31,1%

Bodring



28,6%

Olma



19,3%

Kartoshka



18,2%

Lavlagi



12,8%

Tovuq go'shti (file)



11,1%

Makaron



9,1%

Sariq piyoz



7,7%

Sabzi



2,4%

Kungaboqar yogi



1,4%

Grechka



Oliy ta'lim sohasi iqtisodiyot, inson kapitali va innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. **Xususan:**

- umumiy ta'lim xizmatlarida oliy ta'limning ulushi 2017 yilda 47 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda bu ko'rsatkich 56,5 foizga, xizmat ko'rsatish sohasida ta'lim xizmatlarining qo'shilgan qiymati 14 foizga yetdi;
- 2017-2023 yillarda oliy ta'lim tizimidagi professor-o'qituvchilar soni 1,64 barobar oshdi;
- 2023-2024 o'quv yilida oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan xorijlik talabalar soni 2017/2018 o'quv yiliga nisbatan 8,6 barobar oshdi va 11,2 ming kishini tashkil etdi;
- O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalariga real xarajatlari 1,3 barobar o'sdi.

Oliy ta'lim bozorining rivojlanish tendensiyasi tahlili so'nggi besh yilda oliy ta'lim muassasalari (OTM) soni 3 barobar (2017-2018 o'quv yilidagi 72 tadan 2023/2024 o'quv yilida 210 taga), talabalar soni esa 4,5 barobar (2017/2018 o'quv yilidagi 298 ming nafardan 2023/2024 o'quv yilida 1,330 million nafargacha) oshganini ko'rsatdi.

Xususiy oliy ta'lim muassasalarining O'zbekistondagi jami oliy ta'lim muassasalaridagi ulushi 2022/2023 o'quv yilidagi 25 foizdan 2023/2024 o'quv yilida 31,9 foizga oshdi. 2023/2024 o'quv yilida O'zbekistondagi xususiy oliy ta'lim maskanlarida tahsil olayotgan talabalar ulushi esa 23,95 foizga oshdi va 318.6 ming nafarga yetdi (talabalarning jami soni 1,33 mln. nafar).

Oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobat darajasini hisoblash uchun Xerfindal-Xirshman indeksi (HHI yoki Herfindahl-Hirshman Index) qo'llaniladi. Indeks oliy ta'lim muassasalari talabalari bozor ulushi kvadratlari yig'indisi yordamida oliy ta'lim muassasalari o'rtasida bozor ulushining taqsimlanishini tavsiflaydi.

2017-2023 yillarda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim bozorining konsentratsiya indeksi 191 dan 136 gacha kamaydi. Bu esa oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobatning jadallashganini ko'rsatadi.

Hududlar bo'yicha oliy ta'lim bozori taqsimlanish indeksini hisoblash oliy ta'lim xizmatlari bozori hududlar kesimida mo'tadil konsentratsiyalashganini ko'rsatdi. Bu ko'rsatkich hududlarning respublika bo'yicha talabalar sonidagi ulushi asosida hisoblanadi. Oliy ta'limning hududiy konsentratsiya darajasi 2017/2018 o'quv yilidagi 1702 dan 2022/2023 o'quv yilida 1525 ga va 2023/2024 o'quv yilida 1484 ga tushgan.

Qashqadaryo, Surxondaryo va Namangan viloyatlari har 10 000 kishiga to'g'ri keladigan talabalar zichligi eng past hududlar sirasiga kiradi. Ular HHI indeksiga ham eng kam hissa qo'shgan hududlarda hisoblanadi. Hududiy konsentratsiya darajasini kamaytirish uchun ularda yangi oliy ta'lim muassasalarini joylashtirish maqsadga muvofiq.

Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida "O'zbekiston – 2030" strategiyasida qator chora-tadbirlar va vazifalar belgilangan. Jumladan:


Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish;

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini oliy ma'lumotli pedagog kadr bilan to'liq ta'minlash;

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish. ■


OLIY TA'LIMDA KONSENTRATSIYA DARAJASI VA RIVOJLANISH SUR'ATI (2017-2023 YILLAR)

Oliy ta'lim muassasalari konsentratsiya indeksi




Oliy ta'lim muassasalari **past konsentratsiyali** hisoblanadi, ya'ni har bir OTM uchun talabalar soni nisbatan teng taqsimlangan (**HHI indeks < 1000**).

Talabalarning hududlararo taqsimlanish indeksi



Oliy ta'lim muassasalari talabalari **hududlar bo'ylab notekis taqsimlangan**, lekin holat **yaxshilanib bormoqda**.

2017-2023 yillarda OTMdagi talabalar va o'qituvchilar soni





Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi taraqqiyotida Surxondaryo viloyatining ahamiyati juda katta. O‘zbekiston Respublikasi moddiy-madaniy meros obyektlari ro‘yxatiga kiruvchi 561 ta obyekt va 8 ta muzey shu yerda joylashgan, lekin shunga qaramay viloyatga kelayotgan sayyohlar soni mavjud salohiyatga mos emas.

Surxondaryo viloyatida joylashgan muzeylarga bir yilda o‘rtacha 86,3 ming sayyoh keladi. Agar qiyoslaydigan bo‘lsak, bu ko‘rsatkich Samarqandda 1855,9 ming kishini, Buxoroda 704,5 ming kishini, Xorazmda 431,8 ming kishini tashkil etishini ko‘rish mumkin.

Annals of Tourism Research ilmiy jurnali ma‘lumotlariga ko‘ra, o‘quvchilarning muzey, san‘at galereyalari, tarixiy obidalarga sayohat qilishi ularning “o‘qish” bo‘yicha umumiy balini o‘rtacha 2,65 ga oshiradi, sport tadbirlarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi matematika bo‘yicha balini o‘rtacha 1,67 ga oshiradi.

Tadqiqotlardan kelib chiqib, “Markaziy Osiyo sivilizatsiyasini o‘rganamiz” turistik paketi konsepsiyasini yaratish orqali 6 sinf o‘quvchilarini Surxondaryo viloyatiga potensial sayyohlar sifatida jalb qilish taklif etiladi.

Konsepsiya doirasida 2024-yilning fevral-mart oylarida Surxondaryodagi turistik obyektlar va mavjud infratuzilma to‘g‘risida so‘rov o‘tkazildi va unda 1039 nafar respondent ishtirok etdi.

So‘rov natijasi quyidagicha bo‘ldi:

- respondentlarning 84 foizi Surxondaryodagi turistik obyektlar haqida tasavvurga ega;
- 66 foizi oila a‘zolari bilan sayohat qilishni ma‘qul ko‘radi;
- 54 foizi ziyorat turizmini, 47 foizi esa madaniy turizmni afzal ko‘radi;

- so‘rov qatnashchilarining 44 foizi farzandi maktab jamoasi bilan Surxondaryoga sayohat qilishiga rozi.

Shu bilan birga Surxondaryodagi turizm infratuzilmasi bo‘yicha quyidagilar aniqlandi:

- respondentlarning 39 foizi umumiy ovqatlanish joylari, transport va mehmonxona topishning osonligi, turar joylarning xavfsizligini o‘rtachadan yuqori;

- 32,2 foizi transport xarajatlari va sayohat davomida suv ta‘minotidan qoniqish darajasini o‘rtacha;

- 51,1 foizi avtomobil yo‘llarining sifati, sayohat davomida sanitariya punktlari, turistik xaritalar, axborotlar, diqqatga sazovor joylar haqida onlayn ma‘lumotlarning mavjud emasligi hamda sayohat davomida internetga ulanish sifatini qoniqarsiz, deb baholagan.

“Markaziy Osiyo sivilizatsiyasini o‘rganamiz” turistik paketining ikki va uch kunlik xarajatlari hisoblab chiqildi. Unga ko‘ra, 2 kunlik turpaket narxi 730 ming so‘mni, 3 kunlik turpaket narxi esa 934 ming so‘mni tashkil etadi.





O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) mutaxassislari meva-sabzavot mahsulotlari sohasida yo'qotishlarni kamaytirish imkoniyatlarini o'rgandi.

Bugungi kunda O'zbekistonda har yili 22 million tonnadan ortiq meva va sabzavotlar, jumladan, sabzavotlar (51,3 foiz), kartoshka (15,8 foiz), mevalar (13,8 foiz), poliz mahsulotlari (11,3 foiz), uzum (7,7 foiz) ishlab chiqarilmoqda. Ayrim turdagi mahsulotlarni qayta ishlash darajasi ishlab chiqarishning 13-14 foizidan oshmaydi. Ekspertlarning fikriga ko'ra, yo'qotishlar 20-30 foizni tashkil etadi.

Meva-sabzavotchilik bilan 5,4 millionta dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklari band. Ular birgalikda meva-sabzavotchilik mahsulotlarining 57,3 foizini ishlab chiqaradi.

Meva va sabzavot mahsulotlari yo'qotilishini kamaytirish ularga qo'shimcha 1,2-1,7 milliard AQSh dollari (2023-yil narxlarida) miqdorida foyda olib kelishi mumkin. Bu 2023-yilda aholining kambag'allik darajasi 11,0 foiz deb baholangan mamlakatda ushbu ko'rsatkichni kamaytirishda yordam bergan bo'lardi. Shunday qilib, so'nggi 5 yil ichida meva va sabzavotlarni yetishtirish sanoatidagi yillik o'sish o'rtacha 3,7 foizni tashkil etgani inobatga olinsa, meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash masalasi yildan yilga dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Ma'lumot uchun: Sovitish kameralarining asosiy maqsadi – hosilni juda muzlatmasdan vaqtincha saqlash. Bu holda yo'qotishlar minimallashtiriladi. Bu sabzavot va mevalarning tovar ko'rinishi va ta'mini saqlab qolishning juda samarali usuli.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, respublikada umumiy quvvati 1 003,2 ming tonna bo'lgan 1 907 ta sovitish ombori faoliyat yuritgan. Sovitish omborlarining umumiy quvvati eng katta bo'lgan hududlar orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: Farg'ona (161,9 ming tonna yoki umumrespublika quvvatining 16,1 foizi), Toshkent (130,5 ming tonna yoki 13,0 foizi),

Samarqand (102,6 ming tonna yoki 10,2 foizi) va Andijon (100,4 ming tonna yoki 10,0 foizi) viloyatlari.

Umuman respublika bo'yicha bitta sovitish omborining o'rtacha hajmi 526,1 tonnani tashkil etadi. Viloyatlar bo'yicha bitta sovitish omborining eng katta o'rtacha hajmi Toshkent (841,8 tonna) va Namangan (788,3 tonna) viloyatlarida kuzatilmoqda. O'rtacha hajmi eng kichik bo'lgan sovitish omborlari Qoraqalpog'iston Respublikasi (264,9 tonna) va Andijon (306,1 tonna) viloyatlarida joylashgan.

Respublika bo'yicha sovitish omborlarining quvvati yalpi yillik meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishning o'rtacha 4,5 foizini qoplaydi. Eng yuqori qamrov darajasi Toshkent (7,1 foiz), Qashqadaryo (6,8 foiz), Farg'ona (6,6 foiz), Xorazm (5,3 foiz), Namangan (5,0 foiz) va Jizzax (5,0 foiz) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Eng past qamrov ko'rsatkichlari Sirdaryo (2,0 foiz), Samarqand (2,9 foiz), Buxoro (3,0 foiz), Andijon (3,1 foiz), Navoiy (3,9 foiz), Surxondaryo (4,4 foiz) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (2,8 foiz) kuzatilmoqda. Bir qator mutaxassislarning ta'kidlashicha, saqlash quvvatlari eng yaxshi holatda mamlakat eksport salohiyatining kamida 75 foizini qoplashi kerak.

O'zbekiston 2023-yilda 1 757,7 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlari eksport qildi. Bundan kelib chiqadiki, 2023-yilda respublikada sovitish omborlarining quvvati 1 318,3 ming tonna bo'lishi kerak edi. Ya'ni, 2023-yil uchun quvvat yetishmasligi 315,1 ming tonnani tashkil etdi. Demak, quvvatni 31,4 foizga oshirish zarur. Kelajakda davlat strategiyalari doirasida rejalashtirilgan meva-sabzavot mahsulotlari eksportining sezilarli o'sishi tufayli sovitish quvvatining yetishmasligi yanada keskin bo'lishi mumkin.

[Batafsil tanishib chiqish](#)

SOVITKICHLAR QUUVATINI OSHIRISH – KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH OMILI SIFATIDA



O‘ZBEKISTONDA YILLIK MEVA-SABZAVOT ISHLAB CHIQARISH HAJMI 22 MLN TONNADAN ORTIQ



Ayrim turdagi mahsulotlarni qayta ishlash darajasi ishlab chiqarishning 13-14 % idan oshmaydi. Shu bilan birga, mutaxassislar fikriga ko‘ra, yo‘qotishlar 20-30 % ni tashkil qiladi.

Meva-sabzavot sanoati ishlab chiqarishining so‘nggi 5 yilda o‘rtacha yillik o‘sishi

3,7%




O‘rtacha yillik o‘sish 3,7% ni tashkil etishi hisobga olinsa, meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash masalasi har yili keskinlashmoqda.

2024-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublikada umumiy quvvati 1 003,2 ming tonna bo‘lgan 1 907 ta sovitish ombori faoliyat ko‘rsatgan.




Sovitish omborlarining umumiy quvvati bo‘yicha respublikada eng yuqori o‘rinlarni egallagan hududlar orasida:



Respublika bo‘yicha bitta sovitish omborining o‘rtacha hajmi **526,1 tonnani** tashkil etadi.

Hududlar kesimida bitta sovitish omborining eng katta va kichik o‘rtacha hajmi



O‘zbekiston 2023-yilda 1 757,7 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qildi.

Bundan kelib chiqadiki, 2023-yilda respublika bo‘yicha sovitish omborlarining quvvati 1 318,3 ming tonnani tashkil qilishi kerak edi.

Ya‘ni, 2023-yilda quvvat tanqisligi 315,1 ming tonnani tashkil etdi yoki quvvatning 31,4 foizga o‘sishi zarur.

Sovitish omborlarining quvvati respublikada yetishtiriladigan meva-sabzavot mahsulotlarining o‘rtacha

4,5%ini qoplaydi.

Eng yuqori qamrov

Toshkent (7,1%)
Qashqadaryo (6,8%)
Farg‘ona (6,6%)
Xorazm (5,3%)
Namangan (5,0%)
Jizzax (5,0%)

Eng past qamrov

Sirdaryo (2,0%)
Samarqand (2,9%)
Buxoro (3,0%)
Andijon (3,1%)
Navoiy (3,9%)
Surxondaryo (4,4%)
Qoraqalpog‘iston Respublikasida (2,8%)

Ayrim soha mutaxassislarining ta’kidlashicha, saqlash quvvati mamlakatning eksport salohiyatining kamida 75%ni qoplashi kerak.

Meva-sabzavotchilik bilan 5,4 million dehqon va xususiy yordamchi xo‘jaliklari band bo‘lib, ular birgalikda meva-sabzavotchilik mahsulotlarining 57,3 foizini ishlab chiqaradi. Meva va sabzavotlar yo‘qotilishini kamaytirish ularga qo‘shimcha 1.2-1.7 milliard AQSH dollari miqdorida (2023-yil narxlarida) foyda olib kelishi mumkin bo‘lib, bu 2023-yilda aholining kambag‘allik darajasi 11.0% deb baholangan mamlakatda kambag‘allikni qisqartirishda yordam bergan bo‘lar edi.



2024-yilning sentyabr oyida Toshkent shahridagi yirik supermarketlarda 21 nomdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi ko'rib chiqildi

o'qish vaqti
26soniya


Monitoring natijalari 8 nomdagi mahsulot bo'yicha minimal narxlar o'tgan oydagiga nisbatan pasayganligini ko'rsatdi*.

Shunday qilib, olmaning minimal narxi 28,2 foiz, pomidorniki 18,7 foiz, karamniki 15,9 foiz, limonniki 13,8 foiz, grechkaniki 5,9 foiz, tovuq go'shtniki (file) 3,1 foiz, sariq piyozniki 2,0 foiz, shakarniki 1,6 foiz pasaygan.

9 nomdagi mahsulotning minimal narxlari oshgan. Narxining oshishi bo'yicha kartoshka yetakchi bo'ldi. Bu esa mavsumiy omil bilan bog'liq.

4 nomdagi mahsulotning eng past narxlari o'zgarishsiz qolgan. Ularning orasida bug'doy uni, guruch, qizil sabzi va tuxum.

*tahlil 8-avgust va 12-sentyabr kunlari o'tkazilgan monitoring ma'lumotlari asosida qilindi.





2024-yilning oktyabr oyida Toshkent shahridagi yirik supermarketlarda 21 nomdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi ko'rib chiqildi

o'qish vaqti
26 soniya

Monitoring natijalari 9 nomdagi mahsulot bo'yicha minimal narxlar o'tgan oydagiga nisbatan pasayganligini ko'rsatdi*.

Shunday qilib, sabzining minimal narxi 22,0 foiz, bodringniki 12,0 foiz, bananniki 9,8 foiz, grechkaniki 7,8 foiz, pomidorniki 6,3 foiz, mol go'shtiniki (file) 5,9 foiz, shakarniki 1,6 foiz, kungaboqar yog'iniki 1,4 foiz, tuxumniki 1,1 foiz pasaygan.

5 nomdagi mahsulotning minimal narxlari oshgan. Narxining oshishi bo'yicha guruch yetakchi bo'ldi. Guruch narxining o'sishi bozor omillari, talab va taklifning o'zgarishi bilan bog'liq.

7 nomdagi mahsulotning eng past narxlari o'zgarishsiz qolgan. Bular - makaron, karam, lavlagi, sariq piyoz, olma, limon va margarin.

*tahlil 12-sentyabr va 3-oktyabr kunlari o'tkazilgan monitoring ma'lumotlari asosida qilindi.

2024-yil oktyabr oyida Toshkent shahridagi supermarketlarda oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi (o'tgan oydagiga nisbatan foiz hisobida)



22,0%

Sabzi



12,0%

Bodring



9,8%

Banan



7,8%

Grechka



6,3%

Pomidor



5,9%

Mol go'shti (file)



1,6%

Shakar



1,4%

Kungaboqar yog'i



1,1%

Tuxum



Ona tilini bilish darajasi umumiy ta'lim darajasi va ikkinchi chet tilini o'rganishga qanday ta'sir qiladi?

 o'qish vaqti
55 soniya

Ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, ona tilini bilish chet tillarini o'zlashtirish ehtimolini oshiradi. Bu esa ta'lim darajasini oshirish orqali ish haqining o'sishiga olib keladi. O'zbekistonda har bir qo'shimcha o'qilgan ta'lim yili ish haqining 8,79 foizgacha o'sishiga (dastlabki tadqiqotda Jizzax viloyatida 12,5 foizgacha) olib kelishi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, o'rta yoki oliy ma'lumotga ega bo'lgan yoshlar orasida chet tillarini bilish ehtimolligi yuqori ekanligi aniqlandi.

YUNESKO (UNESCO) tadqiqotiga ko'ra, o'rta muddatli istiqbolda ona tiliga asoslangan ta'lim dasturlarida o'qigan bolalar nafaqat savodxonlik ko'nikmalarini, balki o'ziga bo'lgan ishonch va madaniy g'ururni ham oshiradi. Ona tilini mukammal bilish chet tilini o'rganishga yordam berib, o'z navbatida ish haqining (ikkinchi tilni bilgani uchun) oshishiga olib keladi. Shuningdek, ona tilini o'rganishdagi ko'nikmalardan ikkinchi va uchinchi chet tillarini o'zlashtirishda keng foydalaniladi. Bunda ona tilidan to'g'ri foydalanish ikkinchi tilni o'rganishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi amaliyotda o'z isbotini topgan.

Mazkur tadqiqotda olib borilgan hisob-kitoblarda O'zbekistonda 2021-yil uchun uy xo'jaliklari byudjetini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan so'rov natijalaridan foydalanildi. Shuningdek, ikkinchi tilni bilish ish haqi ustamalarining oshishiga olib kelishini baholashda Minserning ish haqi modelidan foydalanildi. Bunda chet tilini bilishning ish haqiga ta'siri oddiy regressiya va o'zgarmas effekt (fixed effect) modellaridan foydalangan holda baholandi. ■



2024-yilning noyabr oyida Toshkent shahridagi yirik supermarketlarda 21 nomdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi ko'rib chiqildi

o'qish vaqti
33 soniya


Monitoring natijalari 8 nomdagi mahsulot bo'yicha minimal narxlar o'tgan oydagiga nisbatan pasayganligini ko'rsatdi*.

Shunday qilib, sariq piyozning minimal narxi 8,2 foiz, bu'gdoy uniniki 7,6 foiz, karamniki 6,3 foiz, grechkaniki 5,1 foiz, limonniki 5,1 foiz, shakarniki 1,2 foiz, olmaniki 0,8 foiz, guruchniki 0,6 foiz pasaygan.

10 nomdagi mahsulot bo'yicha minimal narxlar oshgan. Ayniqsa, pomidor va bodring narxida eng katta o'sish qayd etildi. Bu mavsumiy omil bilan bog'liq. Shu bilan birga, o'tgan yilning mos davri ko'rsatkichlari bilan qiyoslaganda bodring narxi 14,5 foiz past, pomidor narxi esa atigi 0,4 foiz yuqori.

3 nomdagi mahsulotning eng past narxlari o'zgarishsiz qolgan. Bular - makaron, tovuq go'shti (file), margarin.

*tahlil 3-oktyabr va 7-noyabr kunlari o'tkazilgan monitoring ma'lumotlari asosida qilindi.





2024-yilning dekabr oyida Toshkent shahridagi yirik supermarketlarda 21 nomdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishini ko'rib chiqdi

o'qish vaqti
37 soniya

Monitoring natijalari 10 nomdagi mahsulot bo'yicha minimal narxlar o'tgan oydagiga nisbatan pasayganligini ko'rsatdi*.


Shunday qilib, lavlagining minimal narxi 21,8 foiz, limonniki 16,7 foiz, qizil sabziniki 14,4 foiz, grechkaniki 10,7 foiz, shakarniki 2,8 foiz, guruchniki 2,8 foiz, sutniki 2,8 foiz, bananniki 2,0 foiz, mol go'shtiniki 1,7 foiz, bug'doy uniniki 0,6 foiz pasaygan.

10 nomdagi mahsulot bo'yicha minimal narxlar oshgan. Narxining oshishi bo'yicha oqboosh karam yetakchi bo'ldi. Shu bilan birga, Toshkentda oqboosh karamning narxi Markaziy Osiyo mamlakatlari poytaxtlari orasida eng past. Shunday qilib, Dushanbeda bu mahsulotning narxi 2 baravar, Ostonada 1,7 baravar, Bishkekda 1,2 baravar yuqori.

Bodring narxi ham sezilarli darajada oshdi. Ammo o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan bodring narxi 4,3 foiz arzon.

1 nomdagi (margarin) mahsulotning eng past narxi o'zgarishsiz qolgan.

*tahlil 7-noyabr va 12-dekabr kunlari o'tkazilgan monitoring ma'lumotlari asosida qilindi.





Ijobiy o'zgarishlarni baholashda indekslar (SDG) va reyting ko'rsatkichlari qo'llanildi. Ular erishilgan natijalarni dunyo miqyosidagi o'rtacha ko'rsatkichlar bilan qiyoslash imkonini beradi. Tadqiqot sof energiya bilan ta'minlash tendensiyalarini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar tahliliga asoslangan: elektr energiyasidan foydalanuvchi aholi ulushida o'zgarishlar, sof yoqilg'i va texnologiyalaridan foydalanuvchi aholi ulushida o'zgarishlar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi, energiya samaradorligi, uglerod sig'imi va boshqalar.

Ma'lumot uchun: tahlil etilayotgan mamlakatlar (180 dan ortiq) ball qiymatlariga bog'liq ravishda BRMga erishish bo'yicha 3 guruhga bo'lingi: 1-guruh (yuqori daraja) – 85 balldan 100 ballgacha, 2-guruh (o'rtacha/mo'tadil yuqori daraja) – 56 balldan 85 ballgacha, 3-guruh (past daraja) – 22 balldan 55 ballgacha.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston 68,5 ball to'plagan holda (jahon miqyosidagi o'rtacha daraja – 64,2 ball) sof energiyadan foydalanish darajasi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhidan joy oldi.

O'zbekistonning jahon reytingidagi o'rni ko'p jihatdan aholini elektr energiyasi bilan ta'minlashni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarning, energiya samaradorligi o'sishining hamda energiya ta'minoti tizimiga kiritilgan investitsiyalarning sezilarli darajada oshishining natijasi bo'ldi.

Aholi: Aholini elektr energiyasi bilan ta'minlashda sezilarli yutuqlarga erishildi. So'nggi 5 yil ichida elektr ta'minotidagi uzilishlar davomiyligi 3 barobar qisqardi. Agar 2018 yilgacha elektr ta'minotida davomiyligi 6 va undan ortiq soat bo'lgan uzilish holatlari kuzatilgan bo'lsa, bugungi kunda uzilishlar soni qisqarishi bilan birga, 10 daqiqadan 2 soatgacha davom etadigan qisqa muddatli uzilishlar kuzatilmoqda.

Energiya samaradorligi: 2018–2023-yillarda iqtisodiyotning energiya samaradorligi, ko'p jihatdan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini faol ishga tushirish hisobiga, yiliga o'rtacha 5-6 foizga yaxshilandi.

2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy quvvati 2018-yil darajasidan 49 foizga oshdi. So'nggi uch yil ichida sof energiya ishlab chiqarish 1,5 barobar oshdi, ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining umumiy tarkibida "sof" energiyaning ulushi 7,1 foizdan 9,7 foizgacha o'sdi.


Investitsiyalar: Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga oid texnologiyalarning keng spektriga va elektrlashtirish dasturlariga investitsiya oqimlari sezilarli darajada o'zgardi. Iqtisodiyotning asosiy kapitaliga investitsiyalarning umumiy hajmida energiya ta'minoti tizimiga kiritilgan investitsiyalar ulushi 5,3 foizdan (2020) 12,2 foizga (2023), mutlaq hisobda esa 2,3 baravardan ko'proqqa oshdi. Natijada 2023-yilda mamlakatning umumiy energetika quvvati 2018-yil bilantaqqoslaganda 1,3 baravar oshdi. Bu omillar ishlab chiqarishsalohiyatining oshishiga, aholining elektr energiyasiga bo'lgantalabini qondirish imkoniyatlari kengayishiga xizmat qildi.

Aholining sof energiyadan foydalanishida kuzatilayotgan yutuqlar respublika elektr energiyasi iste'moli tarkibida ijobiy o'zgarishlar bilan birga sezildi. 2018–2023-yillarda aholi tomonidan elektr energiyasi iste'moli mutlaq ifodada 31,2 foizga oshdi. Aholining umumiy iste'mol tarkibidagi ulushi esa 21,7 foizdan 23 foizga oshdi.

O'sib borayotgan aholining barqaror energiya ta'minotini ta'minlash va O'zbekistonning toza energiyadan yuqori darajada foydalanish imkoniyatiga ega davlatlar guruhiga qo'shilishi amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda ustuvor ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ushbu vazifalarni hal etish qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan unumli foydalanishni yanada rag'batlantirish va energiya salohiyatini rivojlantirish bo'yicha mutanosib siyosatni amalga oshirishni talab etadi. ■

O'ZBEKISTON BARQAROR RIVOJLANISHNING MAQSADIGA ERISHISH YO'LIDA 7 MAQSAD: EKOLOGIK TOZA ENERGIYADAN UMUMFOYDALANISH IMKONIYATINI TA'MINLASH

Aholining 100 foizi elektr energiyasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsa ham ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar singari O'zbekistonda elektr ta'minotida ham uzilishlar kuzatilmoqda




Shunga qaramay, ularning yechimida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda:


Oxirgi 5 yil ichida elektr ta'minotidagi uzilishlar davomiyligi 3 barobar kamaydi



2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy elektr energiya ishlab chiqarishdagi ulushi 9,7% ni tashkil etdi, undan 1,6 foizi quyosh va shamot energiyasi



2023 yilda uglerod sig'imi 2020 yilga nisbatan 2,4% ga kamaydi



Barqaror rivojlanish maqsadi (SDG 7) o'rtacha bahosi: 0,42 ball. O'zbekiston 0,45 ballni o'z ichiga olgan. O'zbekiston 2023 yil holatiga ko'ra.


Barqaror rivojlanishning 7-maqsadiga erishish indeksi hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekiston 68,5 ball to'plab, 180 dan ortiq mamlakatlar orasida 109-o'rinni egalladi (2023 yil holatiga ko'ra)



2030 yilga kelib energiya balansida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi 40,0% (umumiy quvvatning 25 GVtgaacha), 2026 yilga kelib esa 25,0% gacha oshirish rejalashtirilgan

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlari va aholi ehtiyojlari uchun yetkazib beriladigan elektr energiya miqdorini 2030 yilga qadar 120 mlrd kVt/soat gacha yetkazish ko'zda tutilgan

- ### KEYINGI QADAMLAR
1. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari salohiyatidan to'liq foydalanish ustuvorligini hisobga olgan holda energiya quvvatini oshirish (xususiylashtirilgan) jaliq qilish, eng yangi texnologiyalarni joriy etish va aholini iqtisodiy rag'batlantirish
 2. Energetika va raqamli texnologiyalar integratsiyasi - barqaror rivojlanish katalizatori sifatida
 3. Adolietli va inkluziv energetika sektorini barpo etish maqsadida rejalashtirish, boshqarish, ma'lumotlarni to'plash va monitoring qilishning salohiyatini oshirish




2018-2023 yillar davomida Yalning birlamchi energiya sig'imi 37,0 foizga kamaydi

2023 yilda investitsiyalar umumiy hajmida energetikaning asosiy kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi 2020 yildagi 5,3 foizga nisbatan 12,2 foizga yetdi (+6,9 f.p.):

- ### ENERGETIKANING ASOSIY KAPITALIGA INVESTITSİYALAR ULUSHI ENK KATTA BO'LGAN TOP-5 VILOYAT
1. Sirdaryo viloyati - 52,2%
 2. Buxoro viloyati - 32,6%
 3. Surxondaryo viloyati - 23,2%
 4. Qashqadaryo viloyati - 19,7%
 5. Jizzax viloyati - 18,6%
- (2023 yil uchun ulovozga yo'naltirilgan umumiy investitsiyalar hajmiga hisoblangan)

2023-yilda elektr stansiyalarining umumiy o'rnatilgan quvvati 2018-yilga nisbatan 30,2 foizga oshdi



Elektr stansiyalarining umumiy o'rnatilgan quvvati, mln MW

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi



Joriy yilning 14-noyabrda O'zbekiston Respublikasining «Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida»gi qonuni imzolandi. Xo'sh, ushbu qonun nega muhim edi?

Maktabdagi bulling o'quvchilarning ruhiy salomatligi va ta'lim natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatib, uzoq muddatda inson kapitalining rivojlanishi, demografik dividend, iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bulling holatlari yuz berganda, u nafaqat jabrlanuvchilarning ruhiy yoki jismoniy holatiga zarar yetkazadi, balki ularning o'quv ko'rsatkichlarini pasaytirib, ta'lim olish darajasining tushishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, malakasi past ishchi kuchining shakllanishiga olib keladi va natijada iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi,

Tadqiqotda O'zbekistonda olingan PISA 2022 so'rovi natijalaridan foydalanildi. So'rov mamlakatimizning turli hududlari bo'yicha 15 yoshli o'quvchilarning javoblarini mujassam etgan bo'lib, uning asosida yaratilgan ma'lumotlar bazasi 202 ta maktab va 7293 nafar o'quvchini qamrab oladi.

Mazkur so'rov natijalariga ko'ra, kamida har yetti o'quvchidan bittasi maktabda o'zini xavfsiz his qilmaydi va zo'rvonlik yoki bezorilikka guvoh bo'lgan. Ular yiliga kamida bir marotaba duch keladigan muammolar bular: o'quvchilarning yomon gaplarni tarqatishi (21%), maktab hududida boshqa o'quvchilar bilan urishishi (17%), boshqa bolalar tomonidan kamsitilishi (16%).

MHTI mutaxassislarining tadqiqoti natijalariga ko'ra:

1. Repest modeli yordamida qilingan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, maktabda xavfsizlik indeksining bir birlikka yomonlashishi o'quvchilarning bahosini matematikadan o'rtacha 5,2 ballga, o'qishdan 6,2 ballga, tabiiy fanlardan 4,7 ballga kamaytiradi.

2. Bullingga uchrash indeksining bir birlikka oshishi o'quvchilarning ballarini matematikadan o'rtacha 5,0 ballga, o'qishdan 5,4 ballga, tabiiy fanlardan 4,8 ballga kamaytiradi.

3. Bulling turlari orasida tovlamachilik (ya'ni, qo'rqitish orqali pulni tortib olish) o'quvchilarning akademik natijalariga eng kuchli ta'sir qilishi aniqlandi. Undan aziyat chekkan o'quvchilarning ballari matematikadan o'rtacha 57,6 ballga, o'qishdan 67,4 ballga, tabiiy fanlardan 67,0 ballga kamayishi aniqlandi. Shuningdek, jismoniy va og'zaki bulling kabilar ham o'quvchilarning ta'lim olishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardir.

Takliflar:

Finlyandiya tajribasidan kelib chiqib, O'zbekiston maktablarida ham bullingga qarshi KiVa dasturini amalga oshirish. KiVa dasturi o'z ichida bullingni oldini olish uchun darslar va onlayn o'yinlar, jabrlanuvchiga ma'naviy ko'mak, bulling bilan shug'ullangan bolaning ota-onasi bilan suhbat, maktab muhitini baholash uchun o'quvchilar va xodimlar uchun onlayn so'rovlar o'tkazish kabilarni jamlagan.

Italiyaning "No Trap!" nomli bulling va kiberbullingga qarshi dasturini O'zbekiston uchun joriy etish. Bu dastur quyidagi asosiy xususiyatlardan iborat:

- o'quvchilar, o'qituvchilar va psixologlar uchun resurslar va tayyorgarlikni taqdim etish;
- onlayn hamjamiyat orqali o'quvchilar o'rtasida muhokamalar tashkil etish;
- o'quvchilar tengdoshlaridan bullingga qarshi kurashish bo'yicha ta'lim olib bullingga qarshi kurashishini ta'minlash.

IMRS

Institute for Macroeconomic
and Regional Studies

MAKTABLARDA O'QUVCHILARNING BILIM OLISHIGA SALBIY TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Bulling yoki bezorilik





«Tashabbusli byudjet» loyihasining 2024- yildagi ikki mavsumida jami 63049 ta tashabbusdan 52261 tasi (82,9 foiz) saralashdan o'tib, 20,82 mln. ovoz to'planishi hisobiga 4774 ta loyiha g'olib bo'ldi.

Asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omillar (tadbirkorlik, ishsizlik, aholi zichligi) hamda "Tashabbusli byudjet" loyihasining ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik tahliliga ko'ra:

- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan tadbirkorlar sonining tashabbuslar (loyihalar) soni bilan ijobiy bog'liqligi (korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,51 ga teng);

- tadbirkorlar sonining g'olib tashabbuslar soni (0,61) va summasi (0,71) bilan ijobiy bog'liqligi (tashabbuslarning muvaffaqiyatli bo'lishi tadbirkorlar soniga bog'liq);

- ishsizlik darajasining g'olib tashabbuslar soni (-0,35) va jami tashabbuslar soni (-0,31) bilan salbiy bog'liqligi (ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan aksariyat hududlarda tashabbuslar soni kam);

- aholi sonining barcha ovozlar soni (0,77), tashabbuslar soni (0,58) va g'olib tashabbuslar summasi (0,87) bilan ijobiy bog'liqligi (aholining ko'pligi tashabbuslarga qiziqishni va ularning muvaffaqiyatini orttiradi);

- shaharlarda tashabbuslarning muvaffaqiyatiga tadbirkorlik va ishsizlik darajasining ta'siri, qishloqlarda esa aholi sonining ta'siri salmoqli ekanligi aniqlandi.

Tashabbuslarning samaradorligini baholovchi muvaffaqiyat indeksi tahliliga ko'ra:

- sog'liqni saqlash (26,0) va oliy ta'lim muassasalarini ta'mirlash (20,4) hamda umumta'lim muassasalarini ta'mirlash (17,2) yo'nalishlari eng muvaffaqiyatli tashabbuslar bo'lgan bo'lsa, ko'cha chiroqlarini o'rnatish (1,4), mahalla guzarini ta'mirlash (1,3) va bolalar maydonchalarini barpo etish (1,0) nisbatan kamroq muvaffaqiyatga erishgan;

- hududlar bo'yicha muvaffaqiyat indeksining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent viloyatida (11,6), eng minimal ko'rsatkichi esa Xorazm viloyatida (5,0) qayd qilingan;

- kichik ma'muriy birliklar bo'yicha Kattaqo'rg'on shahrida (19,1) eng yuqori, Tuproqqal'a tumanida (2,6) eng kam ko'rsatkich qayd etilgan;

- muvaffaqiyat indeksi shaharlarda tumanlarga nisbatan kattaroq bo'lib, TOP-20 talik hududlarga Bekobod, Nurafshon, Olmaliq, Namangan, Chirchiq, Xonobod, Shirin, Angren shaharlari kirgan.

Tadqiqot natijalari "O'zbekiston-2030" strategiyasining 46-maqsadini amalga oshirishda tashabbuslarning samaradorligini kuchaytirish uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

"TASHABBUSLI BYUDJET" LOYIHASI NATIJALARI KO'RSATKICHLARINING ISHSIZLIK DARAJASI BILAN BOG'LIQLIGI

harorat xaritasi

	Tashabbusli loyihalar	Barcha berilgan ovozlar	G'olib loyihalar	G'olib loyihalar summasi
<i>Ishsizlik darajasi (7%dan) yuqori bo'lgan hududlar</i>				
Surxondaryo viloyati	0,00	-0,45	-0,65	-0,51
Sirdaryo viloyati	0,16	0,29	-0,65	0,04
Qashqadaryo viloyati	0,13	0,38	-0,26	-0,25
Jizzax viloyati	-0,55	-0,62	-0,43	-0,61
Qoraqalpog'iston Respublikasi	-0,53	-0,60	-0,41	-0,70
Farg'ona viloyati	-0,48	-0,17	-0,70	-0,66
Andijon viloyati	-0,10	-0,08	-0,52	-0,41
Namangan viloyati	0,42	0,08	-0,19	0,08
<i>Ishsizlik darajasi (6,5% dan 7,0% gacha) o'rtacha bo'lgan hududlar</i>				
Toshkent viloyati	0,16	0,55	-0,30	0,00
Samarqand viloyati	-0,46	0,16	-0,53	-0,37
Xorazm viloyati	-0,58	0,36	-0,31	-0,21
Buxoro viloyati	-0,50	-0,43	-0,66	-0,59
<i>Ishsizlik darajasi (6,5% dan) past bo'lgan hududlar</i>				
Navoiy viloyati	-0,03	-0,02	-0,29	-0,29
Toshkent shahri	-0,22	-0,48	-0,25	-0,22

Izohlar:

Manba: "Tashabbusli byudjet" loyihasi natijalari "Open budget" portali ma'lumotlari asosida hisoblangan

* Hisob-kitoblar korrelyatsion va regression tahlil usullari yordamida amalga oshirilgan

IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARNING "TASHABBUSLI BYUDJET" LOYIHASI NATIJALARI BILAN BOG'LIQLIGI

harorat xaritasi

Tadbirkortik	1,00	-0,54	0,76	0,51	0,43	0,61	0,71	0,40
Ishsizlik	-0,54	1,00	-0,26	-0,31	0,08	-0,35	-0,29	0,10
Aholi zichligi	0,76	-0,26	1,00	0,58	0,77	0,66	0,87	0,74
Tashabbusli loyihalar	0,51	-0,31	0,58	1,00	0,42	0,47	0,57	0,38
Barcha berilgan ovozlar	0,43	0,08	0,77	0,42	1,00	0,51	0,69	0,99
G'olib loyihalar	0,61	-0,35	0,66	0,47	0,51	1,00	0,82	0,48
G'olib loyihalar summasi	0,71	-0,29	0,87	0,57	0,69	0,82	1,00	0,67
G'olib loyihalar to'plagan ovoz	0,40	0,10	0,74	0,38	0,99	0,48	0,67	1,00
	Tadbirkortik	Ishsizlik	Aholi zichligi	Tashabbusli loyihalar	Barcha berilgan ovozlar	G'olib loyihalar	G'olib loyihalar summasi	G'olib loyihalar to'plagan ovoz



Izohlar:

Manba: "Tashabbusli byudjet" loyihasi natijalari "Open budget" portali ma'lumotlari asosida hisoblangan

* Hisob-kitoblar korrelyatsion va regression tahlil usullari yordamida amalga oshirilgan



Tahlil jarayonida 180 ta tuman va shaharda istiqomat qiluvchi 7843 nafar ish beruvchi ishtirokida 172 ta mutaxassislik kesimida so'rov o'tkazildi.

Bugungi kunda O'zbekiston mehnat bozorida savdo sohasi, xususan onlayn savdo sohasida mutaxassislarga talab eng yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi.

Ma'lumot uchun: So'rovda qatnashgan ish beruvchilarning katta qismi (23,4 foizi) savdo sohasida faoliyat yuritadi. Respublikadagi jami korxonalar orasida savdo korxonalarining ulushi eng yuqori bo'lib, 32,5 foizni tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida aynan savdo sohasi mutaxassislarga talab yuqoriligini asoslaydi.

Qishloq xo'jaligi va sanoat sohasi mutaxassislari, xususan, qishloq xo'jaligi va sanoat uskunalari mexanigi (1,7 foiz), qishloq xo'jaligi va qurilish texnikasi mutaxassislari (1,4 foiz), traktor, buldozer, kombayn haydovchilari (1,4 foiz), agronomlar (1,3 foiz), kashtachi, tikuvchi va to'quvchilarga ham talab yuqori (1,7 foiz).

Ta'lim muassasalarida xorijiy tillar (ingliz, nemis, koreys va boshqa chet tillar), matematika va IT o'qituvchilariga (1,2 foiz) ham talab bor.

Hozirgi kunda davlat sektori va xususiy sektorga tegishli korxonalarda marketolog, IT dasturchilari, buxgalterlar, kadrlar bilan ishlash bo'yicha xodimlarga talab yuqori.


Shuningdek, malaka talab etilmaydigan farrosh, haydovchi va bog'bonlarga ham talab yuqori ekanligi aniqlandi. Buni ular orasida qo'nimsizlik darajasi yuqoriligi bilan izohlash mumkin.

Aytib o'tish joizki, respublika miqyosida 172 turdagi mutaxassislikka talab bor, lekin hududlar kesimida ayrim turdagi mutaxassislarga talab umuman yo'q.

Institut kelgusi so'rovlarda kasblar ko'lamini kengaytirish va natijalarni raqamlashgan platforma orqali keng jamoatchilikka yetkazishni rejalashtirgan. Mazkur tahlil natijalari ta'lim muassasalari, o'quv markazlari, kasb egallamoqchi bo'lgan yoshlar va ularning ota-onalari uchun mehnat bozori haqida ma'lumot berishda foydali bo'lishi mumkin.

КАСБЛАРГА БУГУНГИ КУНДАГИ ТАЛАБ

умумий талабга нисбатан фоизда





2023-yil yakunlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 6 foizga oshdi va barcha muhim tarmoqlarda o'sish sur'atiga erishildi.

Sanoat sohasidagi o'sishning intensivligi 2022-yildagiga nisbatan 0,8 foiz punktiga yuqori bo'ldi. YaIM tarkibida sanoatning ulushi 26,1 foizni tashkil etdi va qo'shilgan qiymat hajmi bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasidan so'ng ikkinchi o'rinni egalladi.

Sanoat sohasidagi o'sishning asosiy drayveri bo'lgan ishlab chiqarish sanoati tarkibiy o'zgarishlarning eng yaxshi sur'atini namoyish etdi. Mazkur tarmoqda mahsulot ishlab chiqarish 6,7 foiz oshdi va umuman, sanoat bo'yicha o'rtacha o'sish indeksidan 0,7 foiz punktiga yuqori bo'ldi. Bu esa tarmoqning sanoat tarkibidagi ulushini 84,4 foiz (1,2 foiz punkti) gacha oshirish imkonini berdi.

Ishlab chiqarish sanoatining jadal rivojlanishi asosida ishlab chiqarishning rivojlanishini ortda qoldiruvchi intilish yotadi. Buni neftni qayta ishlash (127,1 foiz), metallurgiya (106,4 foiz), qurilish materiallari sanoati (111,3 foiz) kabi tarmoqlarda ko'rish mumkin. Ularda o'sish sur'ati 2022-yildagiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi o'sishning yarmidan ortig'i (53,4 foiz) mashinasozlik mahsulotlari (107,4 foiz), to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechaklar (107,2 foiz), salqin ichimliklar va tamaki mahsulotlari (105,9 foiz) ni ishlab chiqaruvchi korxonalar hisobiga ta'minlandi.

Garchi raqobatlashuvchi import hajmining ortishi tufayli o'sish intensivligi o'tgan davrdagi bilan taqqoslaganda biroz sekinlashgan bo'lsada, iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining ortishi (107,3 foiz) bilan bog'liq ijobiy o'zgarish sanoat rivojlanishidagi asosiy omillardan biri bo'ldi.

Hududlar reytingida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmida iste'mol tovarlarining eng katta ulushi Andijon viloyati (umumiy hajmga nisbatan 27,3 foiz), Toshkent shahri (20,8 foiz), Toshkent viloyati (11,9 foiz) da qayd etildi.

Boshqa hududlarda iste'mol tovarlarini ishlab chaqirishda katta zaxiralar saqlanib qolmoqda.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatining qiyosiy tahlili sanoat ishlab chiqarishida ularning ulushi Qoraqalpog'iston Respublikasi (51,1 foiz), Samarqand viloyati (42,3 foiz), Toshkent shahri (30,2 foiz), Farg'ona viloyati (25,4 foiz) da eng katta ekanligini ko'rsatdi. Bu ko'rsatkich boshqa hududlarda 5,7 foizdan 19,7 foizgacha oraliqni, umuman olganda esa sanoat bo'yicha 21,7 foizni tashkil etdi. Bu 2022-yildagiga nisbatan 3,3 foiz punktiga past.

Elektr ta'minotida ishlab chiqarishdagi sezilarli o'sish ko'rsatkichi (109,7 foiz) ga erishildi. Bu sanoat tarmoqlari orasidagi eng yaxshi ko'rsatkichlardan biri bo'ldi. Tog'-kon sanoatida o'sish sur'ati 101 foizni tashkil etdi. Tarmoq istiqboli foydali qazilmalarni qazib olish bo'yicha ustuvor loyihalarni amalga oshirish samaradorligi bilan belgilanadi.

Zarar va qolib ketgan to'lovlarning ortib borish sur'ati sekinlashishi tahlil etilayotgan davrning o'ziga xos jihatidir. Buning natijasida kreditlar bo'yicha qarzlarning qaytarilmaslik xavfi 2022-yildagiga nisbatan kamroq bo'ldi.

Tahlil etilayotgan davrning qiyinchiliklariga qaramasdan, korxonalar yangi energetik tariflarga asta-sekin moslashayapti. Mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli shunday imkoniyat paydo bo'lmoqda.

Joriy davrdagi chora-tadbirlar quyidagi maqsadlarga qaratilgan:

YaIM tarkibida sanoatdagi qo'shilgan qiymatning sezilarli darajada o'sishi uchun shart-sharoitlarni bundan keyin ham takomillashtirish; ichki va tashqi bozordagi o'rnini saqlab qolish maqsadida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardosh narxini ushlab turish uchun tannarxni kamaytirish; ■

O'zbekiston sanoatining rivojlanish sur'ati

2023-yil yakunlari

Sanoat ishlab chiqarishi **+6,0%**



Ishlab chiqarish sanoati

553,3 trln. so'm

+6,7% ↑

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



44,2 trln. so'm

+9,7% ↑



Tog'-kon sanoati

55,2 trln. so'm

+1,0% ↑

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish



3,0 trln. so'm

+1,0% ↑

Neftni qayta ishlash sanoati



4,5%

Ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi

↑127,1%

Avtomobil benzini **106,0%**

Dizel yoqilg'isi **126,6%**

Moylash materiallari **128,3%**

Mazut **123,2%**

Neft bitumi **112,7%**

Mashinalar va transport uskunalari



22,4%

↑107,4%

Qo'rg'oshinli akkumulyatorlar **123,5%**

Radiatorlar, shovqin so'ndirgichlar va chiqarish quvurlari **158,1%**

Avtomobil dvigatellari **119,4%**

G'ildiraklar **121,8%**

Yengil avtomobillar **125,9%**

Yengil sanoat



17,4%

↑107,2%

Paxta tolasi **101,3%**

Paxta matosi **110,9%**

Trikotaj polotnolar **106,2%**

Xom ipak **2,1 marta**

Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar **156,3%**

Metallurgiya sanoati



22,8%

↑106,4%

Temir yoki legirlanmagan po'latdan yasalgan sim chivichlar va sterjenlar **113,7%**

Alyuminiydan tayyorlangan simlar, trosalar va shnurlar **2,2 marta**

Temir yoki po'lat simdan tayyorlangan panjatalar va to'rlar **159,1**

Xorijiy kapitalga ega korxonalar ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga eng katta hissa qo'shgan hududlar

Hududiy hajmdagi ulushi (%)



51,1%

Qoraqalpog'iston Respublikasi



42,3%

Samarqand viloyati



30,2%

Toshkent shahri

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmida iste'mol tovarlarining eng katta ulushiga ega hududlar



27,3%

Andijon viloyati



20,8%

Toshkent shahri



11,9%

Toshkent viloyati



Texnik tartibga solish mahsulot va xizmatlarning xavfsizligi, ishonchliligi, funksional mosligi va sifatini ta'minlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

So'nggi yillarda bu borada amalga oshirilgan islohotlar natijasida uning huquqiy asosi mustahkamlandi, jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida", "Metrologiya to'g'risida", "Standartlashtirish to'g'risida", "Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi.

"Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida "E-Standart", "E-Metrologiya" va "E-Akkreditatsiya" axborot tizimlari ishlab chiqildi.

19,6 mingga yaqin standart xalqaro talablarga muvofiqlashtirildi va standartlarning umumiy sonida ularning ulushi 10 foizdan 80,4 foizga oshdi.

Joriy qilingan xalqaro texnik reglamentlar soni 5,1 barobarga (12 tadan 61 taga) oshdi.

Eksport salohiyatini rivojlantirish maqsadida turli sohalardagi 1261 korxonada ISO 9001 xalqaro standartiga muvofiq sifat menejmenti tizimlari joriy etildi.

20,6 mingta korxonada tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilib, standartlashtirish (5,6 ming), metrologiya (13,2 ming), sertifikatlashtirish (1,8 ming turdagi mahsulot) yo'nalishlarida amaliy yordam ko'rsatildi. 640 mingdan ortiq o'lchov asboblari metrologik tekshiruvdan o'tkazildi.


O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizimidagi sinov laboratoriyalari modernizatsiya qilinib, yangi uskunalar bilan ta'minlandi, 4 ta laboratoriya xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi, 13 ta yangi laboratoriya tashkil etildi.

"O'zbekiston akkreditatsiya markazi" Laboratoriyalarni akkreditatsiya qilish bo'yicha xalqaro tashkilot (ILAC MRA) ga teng huquqli a'zosi sifatida qabul qilindi, O'zbekistonda o'tkazilgan sinovlarning natijalari dunyoning 116 ta mamlakatida tan olinadi.

Oeko Tex, GOTS, BCSI, Sedex, Global GAP, Organic, CE va boshqa xalqaro standartlar to'qimachilik sanoatida 165 ta, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatida 241 ta va elektrotexnika sanoatida 61 ta korxonada joriy etildi.

"O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirish doirasida texnik jihatdan tartibga solish tizimi ustuvor vazifa sifatida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, xalqaro standartlarni joriy etgan korxonalar sonini 5 mingtaga yetkazish hisobiga eksport salohiyatini oshirishda ko'mak beradi.

O'ZBEKISTONDA 2017-2023 YILLARDA TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH FAOLIYATI



Manba: O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan



2017-2023 yillarda kimyo sanoati xomashyoni qayta ishlashni chuqurlashtirish va yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bir sharoitda rivojlandi. Ishlab chiqarishning umumiy hajmi qiyosiy narxlarda 1,16 barobar, jumladan, kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish 10,1 foizga, rezina va plastmassa buyumlarni ishlab chiqarish 36,2 foizga oshdi.

Ichki va tashqi bozorda talab yuqori bo'lgan mineral o'g'itlar ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tarkibida eng katta ulushga ega bo'ldi. Mutlaq hisobda ularni ishlab chiqarish hajmi 23,5 foizga oshdi. Eng yuqori o'sish sur'ati azotli o'g'itlarni ishlab chiqarishda kuzatildi – 29,2 foiz. Kaliyli o'g'itlarni ishlab chiqarish 17,9 foizga oshdi.

Azotli o'g'itlar segmentida karbamid ishlab chiqarish hajmi 68 foizga, ammiakli selitra ishlab chiqarish hajmi 17,8 foizga oshdi. "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyati va "Farg'onaaazot" AJ ushbu turdagi mahsulotlarning eng yirik ishlab chiqaruvchisi mavqeini saqlab qoldi. Respublikada ishlab chiqarilayotgan karbamid va ammiakli selitranning 75 foizi ularning hissasiga to'g'ri keladi. Umuman olganda, kimyo majmuasi korxonalarini ishlab chiqarishning yangi turlari o'zlashtirilishini hisobga olgan holda 180 xildan ortiq mahsulot ishlab chiqarmoqda.

Kimyo sanoati rivojlanishidagi ilgari siljish gaz-kimyo ishlab chiqarishning rivojlanishi va shunga mos ravishda polietilen, polipropilen va yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan boshqa turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishning o'sishi bilan belgilanadi. Akiril va vinil polimerlar asosidagi bo'yoqlarni ishlab chiqarishda 1,49 barobar ko'p o'sish sur'atiga erishildi. Maishiy kimyo bozori jadal rivojlandi.


Tahlil qilinayotgan davrda **kimyo mahsulotlari eksporti** qariyb 1,5 barobar oshdi. Agar 2017-yilda eksport hajmi 883,7 million AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 1,3 milliard dollardan oshib ketdi. Bugungi kunga qadar kimyo mahsulotlari dunyoning 30 dan ortiq mamlakatiga eksport qilinmoqda.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida kimyo sanoatini yanada yuksaltirish va uning mamlakat sanoatini rivojlantirishdagi rolini oshirish maqsadida qator chora-tadbirlar belgilangan:


- Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy va Farg'ona viloyatlarida yirik kimyo va polimer klasterlarini tashkil etish, ular doirasida 9,9 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga 44 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish;
- Import o'rnini bosuvchi yuqori qo'shilgan qiymatga ega 30 dan ortiq yangi tovarlarni o'zlashtirish bilan Toshkent viloyatida Chirchiq kimyo-sanoat texnologiyalar parkini rivojlantirish;
- Kamida 2 milliard AQSh dollariga teng birlamchi xomashyo va kimyoviy mahsulotlar, shu jumladan tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 20 foizga oshirish hisobiga ishlab chiqarishning ko'p bosqichli zanjiriga ega yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish;
- Ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro aloqani mustahkamlash, kimyo majmuasida innovatsiyalarni ommalashtirish uchun ilmiy-ishlab chiqarish va o'quv klasterini yaratish.

2017-2023 YILLARDA O'ZBEKISTONDA GAZ VA GAZ-KIMYO MAHSULOTLARINING ISHLAB CHIQRILISHIGA OID ASOSIY KO'RSATKICHLAR

Kimyoviy va plastmassa buyumlar (foiz hisobida)



Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar eksporti (million AQSh dollar)



1410,2

1141,9



Mineral o'g'itlar
(ming tonna)

409,0

377,90



Polietilen
(ming tonna)

212,2

172,2



Kalsinatsiyalangan soda
(ming tonna)

94,1

95,8



Polipropilen
(ming tonna)



2017-yilda mamlakatimizning 5 ta hududida joylashgan 12 ta korxonada 8,9 million tonna sement ishlab chiqarilgandi. Sementga talabning yuqoriligi, bozorni rivojlantirishning katta salohiyati va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga qaratilgan davlat siyosati sohaga yangi investorlar e'tiborini tortdi.

2017-2023 yillarda turli hududlarda energiya tejavchi "quruq" texnologiyalar asosida 25 ta yangi sement ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etildi va ularning umumiy quvvati 26,6 million tonnaga yetdi.

2023-yilda O'zbekistonda 15,5 million tonna sement ishlab chiqarildi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sement miqdori 431 kg ga yetdi. Bu ko'rsatkich 2022-yilda dunyo miqyosida 510 kilogrammni, Xitoyda 1490 kilogrammni, Saudiya Arabistonida 1460 kilogrammni, Vyetnamda 1220 kilogrammni, Turkiyada 980 kilogrammni, Rossiyada 420 kilogrammni, AQShda 280 kilogrammni tashkil qilgan.

2023-yilda sement ishlab chiqarish hajmi 2017-yildagiga nisbatan 74,1 foizga, aholi jon boshiga ishlab chiqarish esa 55,6 foizga oshdi.

Bu esa bozordagi talab va ehtiyojlar to'liq ta'minlanmaganligini ko'rsatmoqda.


«O'zbekiston - 2030» strategiyasida 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobarga ko'paytirish, shu jumladan mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish, texnologik va infratuzilma investitsiyalarini amalga oshirish belgilangan.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun sement sanoatida **quyidagilarni ta'minlash ko'zda tutilgan:**



- mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish; "yashil", energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish;
- ichki va tashqi bozorda talab yuqori bo'lgan maxsus sement turlarini ishlab chiqarishni sezilarli darajada oshirish;
- xarajatlarni kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirish.

2017-2023 YILLARDA O'ZBEKISTONDA SEMENT SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI

Sement ishlab chiqarish (mln. tonna)



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sement miqdori (kg)



2022-yilda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sement dunyoda 510 kg ni, Xitoyda 1490 kg ni, Saudiya Arabistonida 1460 kg ni, Vyetnamda 1220 kg ni, Turkiyada 980 kg ni, Eronda 720 kg ni, Rossiyada 420 kg ni, AQShda 280 kg ni tashkil etgan.



Jahonda elektrotexnika sanoati jadal sur'atlar bilan rivojlanayapti va dunyo elektrotexnika bozorida Yaponiya, AQSh, Germaniya, Xitoy, Koreya Respublikasi, Singapur, Malayziya kabi mamlakatlarning mavqei kuchli. Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida "aqli shahar", "uglerodsiz shahar", "aqli uy" yoki "aqli issiqxona" kabi konsepsiyalar joriy etilmoqda. Bu o'z navbatida elektrotexnika sanoatining yanada rivojlanishi, uning mahsulotlariga bo'lgan talabning keskin oshishiga olib kelayotir.

Yangi O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida sanoat, xususan, elektrotexnika sanoati muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar elektrotexnika sanoatini iqtisodiyotni harakatlantiruvchi muhim omillardan biriga aylantirdi. Xususan, 2017-yilda respublikadagi elektrotexnika korxonalarini soni 48 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yil oxiriga kelib, 9,4 barobar oshdi va 451 taga yetdi.

Tahlillarga ko'ra, 2023-yilda elektrotexnika sanoati korxonalarini tomonidan 2 mingdan ortiq turdagi jami 26,4 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Bu 2022-yildagiga nisbatan 118,4 foiz ko'p. Tarmoq korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 81,9 foizini yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar tashkil etadi. Shu bilan birga jami ishlab chiqarilgan mahsulotlar tarkibida yuqori texnologik mahsulotlarning ulushi 60,1 foizni tashkil qiladi. 2017-2023 yillarda ishlab chiqarish hajmi 2,3 barobar, eksport hajmi esa 5,5 barobar oshdi.

O'zbekistonning GSP+ imtiyozlar tizimiga qo'shilishi elektrotexnika sanoati tizimida faoliyat yuritayotgan korxonalarga savdo aloqalarini kengaytirish uchun sharoit yaratdi. Natijada, 2023-yilda, 200 xildan ortiq, umumiy qiymati 1,05 mlrd. AQSh

dollariga teng (prognozga nisbatan 104,7 foiz ko'p) innovatsion elektrotexnika mahsulotlari Yevropa Ittifoqi, MDH mamlakatlari, Buyuk Britaniya, Turkiya, Xitoy, BAA kabi 68 ta mamlakatga eksport qilindi.


Ma'lumot uchun: Agar 2017-yilda tarmoq korxonalarini tomonidan 4,8 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan va uning 189,7 mln. dollarlik qismi yoki 20,2 foizi eksport qilingan bo'lsa, 2023-yilga kelib, 23,8 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi va uning 1 047 mln. dollarlik qismi yoki 47,6 foizi eksport qilindi.

Elektrotexnika sanoatining salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida "O'zbekiston – 2030" strategiyasida qator chora-tadbirlar va vazifalar belgilangan. Jumladan:


- sohada eng tez o'sib borayotgan yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish, «korxonaliy g'oh-ilmiiy tashkilot» klaster tizimlarini joriy etish;
- mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish hisobiga misni qayta ishlash hajmini 300 ming tonnaga oshirish va maishiy texnikani ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga 1,5 mlrd. dollar investitsiya jalb qilish;
- elektrotexnika sanoatida izlanish va rivojlantirish (R&D) markazlarini tashkil etish.

2017-2023 YILLARDA ELEKTROTEXNIKA SANOATIDAGI O'ZGARISH NATIJALARI

Korxonalar soni (birtlikda)



Ishlab chiqarish va eksport hajmi (mln. AQSh dollari)



Sanoatni rivojlantirish dasturi (mln. AQSh dollari)





2017-2023 yillarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1,49 barobar oshdi va barcha asosiy tarmoqlarda o'sish sur'atiga erishildi. Natijada yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi 21,1 foizdan 26,1 foizgacha oshdi va sanoat qo'shilgan qiymat bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasidan keyin ikkinchi o'rinni egalladi.

Tarkibiy o'zgarishlarning eng yaxshi dinamikasi sanoat o'sishining drayveri bo'lgan ishlab chiqarish sanoatida kuzatildi. Shu davrda sanoatning mazkur tarmog'ida 1,6 marotabadan ko'proq o'sish qayd etildi. Elektr va gaz ta'minoti tarmog'i (164,1 foiz), shuningdek, tog'-kon sanoati ham (110,7 foiz) jadal rivojlandi.

Umumiy ishlab chiqarishda sanoatning ulushi 84,4 foizni tashkil etadi. Sanoatni kompleks rivojlantirishga qaratilgan dasturlarning amalga oshirilishi sohaning jadal rivojlanishidagi muhim omil bo'ldi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida o'rta va yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarining ulushi 52,7 foizdan 61,9 foizga yetdi. Bu esa sanoatni rivojlantirishda sifat o'zgarishlariga erishilganidan dalolat beradi. Ichki va tashqi bozorda talabga ega bo'lgan ko'plab turdagi texnologik mahsulotlarning barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Masalan, avtomobil dvigatellarini ishlab chiqarish 2,9 barobar, qo'rg'oshinli akkumulyatorlarni ishlab chiqarish 1,6 barobar, yengil avtomobillarni ishlab chiqarish 2,9 barobar, sovitkich va muzlatkichlarni ishlab chiqarish 3 barobar oshdi va hokazo.


Bu davrda sanoat respublika eksport daromadlarining o'sishiga katta hissa qo'shdi. Eksportning umumiy hajmi 1,9 barobar oshib, 24,4 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Rangli metallar eksporti bilan bir qatorda mashinasozlik va to'qimachilik sanoati ham o'sishga katta hissa qo'shdi. Mashinasozlik mahsulotlari eksporti 3,7 barobar (1,3 milliard dollar), to'qimachilik mahsulotlari eksporti 2,3 barobar (3,05 milliard dollar) oshdi.

Sanoat salohiyatini yanada oshirish maqsadida **"O'zbekiston – 2030" strategiyasida** qator chora-tadbirlar va vazifalar belgilangan. Jumladan:


- **sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini** 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o'рни yaratish hisobiga yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushini 32 foizga oshirish;
- **eksport geografiyasini kengaytirish** hisobiga tayyor mahsulot va yarim tayyor mahsulotlar hajmini eksportda 3,3 barobar oshirish;
- **avtomobil sanoatida raqobat muhitini yaratish** va ishlab chiqarish hajmini 1 milliontaga yetkazish;
- **xomashyoni qayta ishlashni** chuqurlashtirish va shu asosda yuqori rentabelli mis mahsulotlarini 3,5 barobar, oltindan tayyorlangan mahsulotlarni 1,5 barobar, kumushdan yasalgan buyumlarni 3 barobar oshirish;
- **ishlab chiqarish** sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish.

2017-2023 YILLARDA O'ZBEKISTONDA SANOATNI RIVOJLANTIRISHDA ERISHILGAN ASOSIY NATIJALAR

Ishlab chiqarishning o'sish sur'ati



Tarkibiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



- Sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi
- O'rta va yuqori texnologiyali sanoatning ulushi
- Eksportda mashinasozlik mahsulotlarining ulushi
- Eksportda to'qimachilik mahsulotlarining ulushi



Metodologiya: Tadqiqot MHTI tomonidan ishlab chiqilgan so'rovnoma orqali olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslangan. So'rovnoma tizimli savollar to'plamini o'z ichiga olgan bo'lib, ularning har biri respondentlarning energiyani tejash borasidagi xabardorlik darajasini baholashga qaratilgan. So'rovda respublikaning barcha hududlaridagi 22 ta universitetning 7 ming nafardan ortiq talabasi ishtirok etdi.

Xabardorlik darajasi: Respondentlarning kattagina qismi (58%) hukumatning energiya samaradorligi sohasidagi asosiy tashabbuslari va «O'zbekiston-2030» strategiyasi, 2019-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasi kabi strategik hujjatlar va dasturlardan xabardor.

So'rovda qatnashganlarning 88,4 foizi energiya tejamlorligi qoidalaridan xabardor (talabalarning 47,8 foizi o'z xabardorligini yuqori, 40,6 foizi o'rtacha, deb baholaydi) va faqat 11,6 foizi bu haqida yaxshi ma'lumotga ega emasligini ta'kidlagan.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, talabalar yuqori kursga o'tishi bilan elektr energiyasi, suv va gaz xarajatlari haqida ko'proq xabardor bo'ladi: xarajatlar haqida biladigan va mustaqil ravishda haq to'laydiganlarning ulushi asta-sekin o'sib boradi (1- va 4-bosqichlarda mos ravishda 14,2 foiz va 33,2 foiz), ayni paytda bu masalaga qiziqmaydiganlar ulushi qisqaradi (1-bosqichda 21,2 foiz, 4-bosqichda 11,1 foiz).

Asosiy natijalar: Respondentlarning 85,2 foizi elektr energiyasini tejash choralarini ko'rmoqda. Bularning orasida chiroqlarni o'chirish, tejamlor lampochkalardan foydalanish va elektr jihozlaridan oqilona foydalanish kabi keng tarqalgan choralar ham bor. Talabalarning taxminan 42,7 foizi energiyani tejash jarayoniga o'z oila a'zolarini ham jalb etmoqda. Bu esa yoshlar orasida yuqori darajadagi ongli munosabat va umumiy mas'uliyat hissi mavjudligini anglatadi.

Shu bilan birga, talabalarning qariyb 14,8 foizi energiyani tejash choralarini ko'rmaydi. Ularning 33,8 foizi qulaylik maqsadida energiyani tejash uchun hech qanday chora ko'rmasligini, 26 foizi bu haqda o'ylamaganligini ma'lum qilgan. Ushbu tendensiyalar yosh avlodning energiyani tejash va buning ahamiyati haqidagi xabardorlik darajasini yanada oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekistonda talabalarning energiya tejamlorligi va energiya samaradorligi bo'yicha xabardorligi yetarlicha yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, energiya samaradorligini oshirish bo'yicha strategik tashabbuslarni amalga oshirishda talabalarning faolligini yanada oshirish imkoniyatlari ham mavjud. Yoshlarni energiya iste'moli bo'yicha barqaror amaliyotlarga jalb qilish ekologik mas'uliyatli jamiyatni shakllantirish yo'lidagi muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Natijalarni umumlashtirish talabalarning energiya tejamlorligi va buning ekologik va ijtimoiy afzalliklari haqidagi xabardorligini oshirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya qilish imkonini beradi. Maqsadli axborot dasturlari, xalqaro ekspertlar ishtirokidagi treninglar, ixtisoslashtirilgan kurslar va energiyani tejash sohasidagi loyihalar bo'yicha talabalar tanlovlari shular jumlasidandir. Bularning barchasi yoshlarda energiya samaradorligini oshirish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**ENERGIYA TEJAMKORLIGI VA
ENERGIYA SAMARADORLIGI
BORASIDA XABARDORLIK**



Institute for Macroeconomic
and Regional Studies





Bugun O'zbekistonda 5,5 milliondan ortiq oila o'z tomorqa xo'jaligiga ega. Ularning ixtiyorida 505 ming gektardan ortiq yer mavjud. 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, dehqon va shaxsiy tomorqa xo'jaliklarida 12,8 million boshdan ortiq yirik shoxli qoramol (jami soniga nisbatan 90,8 foiz), 18,7 million bosh qo'y va echki (77,5 foiz) mavjud.

O'zbekistonda tomorqa xo'jaliklari MDH davlatlari, xususan, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan solishtirganda muhim afzalliklarga ega. Iqlim sharoitining o'xshashligiga qaramasdan, tomorqa xo'jaliklarning rivojlanish darajasida tafovutni ko'rish mumkin.

MDH davlatlararo statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda mustaqil ravishda band bo'lish (shu jumladan tomorqa xo'jaliklari) tufayli olinadigan daromad ulushi 2022-yilda Qozog'istondagidan 4,2 barobar, Qirg'izistondagidan 2,4 barobar va Tojikistondagidan 1,7 barobar ko'p bo'lgan.

Tahlillar 2023-yilda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 63,1 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklarining hissasiga to'g'ri kelganini ko'rsatdi. Shundan dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 37,9 foizni, chorvachilik mahsulotlarining ulushi esa 88,4 foizni tashkil etgan.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida tomorqa xo'jaliklari ulushining eng yuqori darajasi Navoiy (72,0 foiz), Xorazm (68,3 foiz), Surxondaryo (67,1 foiz) va Toshkent (66,9 foiz) viloyatlarida kuzatilgan.

2023-yilda yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari tahlili sabzavotlarning 59,9 foizi, kartoshkaning 69,9 foizi, poliz ekinlarining 39,8 foizi, meva va rezavorlarning 51,4 foizi, uzumning 52,4 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yetishtirilganini ko'rsatdi.

Chorvachilik mahsulotlari bo'yicha esa yetishtirilgan go'shtning 84,9 foizi, sutning 92,8 foizi, tuxumning 57,9 foizi va junning 82,1 foizi ushbu xo'jaliklar hissasiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida dehqon va tomorqa xo'jaliklarida go'sht yetishtirish bo'yicha eng yuqori ulush Qashqadaryo viloyati (94,8 foiz), Qoraqalpog'iston Respublikasi (94,6 foiz) va Jizzax viloyatida (94,3 foiz) kuzatildi. Mazkur toifadagi xo'jaliklarda sut ishlab chiqarish bo'yicha eng yuqori ulush Jizzax (96,4 foiz), Surxondaryo (96,1 foiz) va Qashqadaryo (96,0 foiz) viloyatlarida qayd etildi.

Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda dehqon va tomorqa xo'jaliklarining o'zni katta ekani inobatga olingan holda bu yo'nalishda davlatning qo'llab-quvvatlashi kuchaytirildi. Ayniqsa, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer uchastkalari koronavirus pandemiyasi davrida inqirozga qarshi iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarga kiritildi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida bundan keyin ham dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash belgilangan. Shunga ko'ra, dehqonlarga sug'urta mukofotining 50 foizini subsidiyalash tizimini joriy etish, shuningdek, barcha subsidiyalarni "Agrosubsidiya" yagona platformasi orqali «bir qadam» tamoyili asosida berish rejalashtirilgan. Bunda aholi daromadlari va bandligini ta'minlash dehqon va shaxsiy tomorqa xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlashdagi eng muhim mezonlar bo'ladi. ■

O'ZBEKISTONDA SHAXSIY TOMORQA XO'JALIKLARINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI

(2023-yil yakunlari bo'yicha)

Markaziy Osiyo mamlakatlarida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi



Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon va shaxsiy tomorqa xo'jaliklarining ulushi (%)

Hudud nomi	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	Go'sht	Sut	Tuxum	Kartoshka	Sabzavotlar	Poliz
O'zbekiston Respublikasi	63,1	84,9	92,8	57,9	69,9	59,9	39,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	60,8	94,6	91,5	73,5	65,0	57,8	43,6
Andijon	62,8	81,8	91,8	75,8	65,6	58,4	24,0
Buxoro	63,8	85,9	91,6	48,0	77,9	61,0	53,0
Jizzax	66,4	94,3	96,4	48,1	60,5	52,7	30,4
Qashqadaryo	69,3	94,8	96,0	63,8	75,4	67,8	48,3
Navoiy	72,0	84,0	91,4	69,1	85,5	75,4	59,2
Namangan	57,1	79,3	93,1	33,2	65,9	59,4	61,1
Samarqand	57,7	77,0	90,3	47,2	57,6	55,7	55,7
Surxondaryo	67,1	91,3	96,1	42,7	89,0	67,2	59,0
Sirdaryo	50,4	88,9	88,5	67,1	82,5	51,1	25,1
Toshkent	66,9	71,6	90,9	65,4	78,5	78,2	59,3
Farg'ona	56,4	82,7	92,0	62,6	65,5	49,0	15,4
Xorazm	68,3	87,6	94,1	67,8	74,3	78,2	44,3

Chorva mollari va parrandalar bosh soni bo'yicha dehqon va shaxsiy tomorqa xo'jaliklari ulushi



Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon va shaxsiy tomorqa xo'jaliklarining ulushi





2020-2022 yillarda Markaziy Osiyoda to'yib ovqatlanmaslik bilan bog'liq holatlar 3,0 foizgacha kamaygan (jahon miqyosidagi o'rtacha ko'rsatkich - 9,2 foiz). Xususan, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 2020-2022 yillarda 2,5 foizdan past bo'lgan.

2022-yilda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq vaziyatning keskinlashuvi Markaziy Osiyo aholisining 4,6 foiziga dahl qildi (dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 11,3 foiz). Bu 2021-yil ko'rsatkichiga nisbatan 0,4 foiz punktiga past, lekin 2019-yilda COVID-19 pandemiyasi boshlanishidan oldin qayd etilgan 2,3 foizlik darajadan yuqori.

2022-yilda Markaziy Osiyoda 3,5 million kishi oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq og'ir ahvolda tushib qolgan. Bu 2021-yildagiga nisbatan 0,3 million kishiga kam.

2022-yilda Markaziy Osiyoda oziq-ovqat xavfsizligining ta'minlanishi o'rtamiyona yoki og'ir ahvolda ekanligini aks ettiruvchi* o'rtacha ko'rsatkich 17,4 foiz (dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 29,6 foizga teng) ni tashkil etdi. Bu esa 2021-yildagi o'rtacha ko'rsatkichdan 2,7 foiz punktiga past.

FAO hisob-kitoblariga ko'ra, 2022-yilda Markaziy Osiyoda oziq-ovqat xavfsizligining ta'minlanishi o'rtamiyona yoki og'ir bo'lgan sharoitga tushib qolganlar soni 13,4 million kishini tashkil etdi. Bu 2021-yildagiga nisbatan 1,9 million nafarga kam.

2022-yilda Markaziy Osiyoda 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida bo'y o'sishida ortda qolish ko'rsatkichi 7,7 foizni tashkil etdi. Bu 2020-yildagiga nisbatan 0,9 foiz punktiga, 2000-yildagi (28,0 foiz) ga nisbatan esa 20,3 foiz punktiga kam. Xususan, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 2000-yildagi 28,9 foizdan 2022-yilda 6,9 foizga kamaygan.

Umuman Markaziy Osiyoda 15 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan ayollar o'rtasida kamqonlikning tarqalishi 12,3 foiz punktiga kamaydi – 2000-yildagi 40,4 foizdan 2019-yilda 28,1 foizgacha. O'zbekistonda ham kamqonlikning tarqalishini kamaytirish borasida muayyan yutuqlarga erishildi. Shunday qilib, 2000-yildan 2019-yilgacha bo'lgan davrda bu ko'rsatkich 21,7 foiz punktiga kamaydi (46,5 foizdan 24,8 foizgacha).

** Oziq-ovqat xavfsizligining o'rtamiyona ta'minlanishi - bu odamlar zarur oziq-ovqat mahsulotlarini olishga ishonchini yo'qotadigan va pul yoki boshqa resurslar yetishmasligi sababli yil davomida iste'mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari sifati va miqdorini ba'zan kamaytirishga majbur bo'ladigan holat.*

Oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanishi og'ir ahvolda ekanligi odamlarda oziq-ovqat mahsulotlarining tugashi, ularning ocharchilikni boshdan kechirishi va eng yomon holatda o'z salomatligi va hayotini xatarga qo'yib, ketma-ket bir necha kun mobaynida ovqatlanmasligini anglatadi.

Markaziy Osiyo va O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanish bilan bog'liq holat



To'yib ovqatlanmaslik bilan bog'liq holat

Markaziy Osiyoda

Jahon miqyosidagi o'rtacha ko'rsatkich

O'zbekistonda

3,3%



9,2%



< 2,5%



2020-y. 2022-y.

2022-y.

2020 - 2022 yillar



Oziq-ovqat xavfsizli bilan bog'liq og'ir vaziyatga tushib qolganlar ulushi

Markaziy Osiyoda

Jahon miqyosidagi o'rtacha ko'rsatkich

5,0%



11,3%



2021-y. 2022-y.

2022-y.



5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida bo'y o'sishida ortda qolayotganlar ulushi

Markaziy Osiyoda Jahon miqyosidagi o'rtacha ko'rsatkich

O'zbekistonda

8,6%



22,3%



6,9%



2020-y. 2022-y.

2022-y.

2022-y.



15 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan ayollar o'rtasida kamqonlikning tarqalishi

Markaziy Osiyoda

O'zbekistonda

40,4%



46,5%



2000-y. 2019-y.

2000-y. 2019-y.



Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish samaradorligi

o'qish vaqti
55 soniya

2018-2022 yillarda respublika bo'yicha umumiy ekin maydonlari 3 396,0 ming gektardan 3 353,3 ming gektarga yoki 1,3 foizga qisqargan.

Bu davrda ko'p yillik dov-daraxtlar maydonlari 432,5 ming gektardan 488,6 ming gektarga yoki 13,0 foizga oshgan.

Bug'doy va paxta ekin maydonlarini bosqichma-bosqich qisqartirish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilab olindi. 2018-2022 yillarda umumiy ekin maydonlarida bug'doy va paxta maydonlarining ulushi 73,5 foizdan 69,5 foizga yoki 3,9 foiz punktiga qisqardi.

Shu bilan birga, paxtachilik va g'allachilik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu ekinlar hosildorligini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi.

2018-2022 yillarda respublika bo'yicha paxta hosildorligi gektariga o'rtacha 21,0 sentnerdan 34,1 sentnerga yoki 62,4 foizga, bug'doy hosildorligi 41,0 sentnerdan 47,2 sentnerga yoki 15,1 foizga oshdi.

2018-2022 yillarda butun respublika bo'yicha 1 gektar ekin maydonidan olinadigan o'rtacha daromad 42,0 million so'mdan 46,5 million so'mga ko'tarildi.

Shu davrda 1 gektar yerdan olinadigan o'rtacha daromad Farg'ona (24,5 foiz), Namangan (20,2 foiz), Qashqadaryo (17,8 foiz), Sirdaryo (17,3 foiz) va Surxondaryo (15,8 foiz) viloyatlarida eng ko'p oshdi.

«O'zbekiston-2030» strategiyasida bir gektar yerdan olinadigan o'rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish belgilangan. Bu maqsadga erishish uchun gektaridan olinadigan o'rtacha daromadni 2022-yildagiga nisbatan 18,9 foizga oshirish zarur (2022-yilda 4 205 AQSh dollari tashkil etgandi).

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish samaradorligi

Ekin maydonlari



Umumiy ekin maydonlarida paxta maydonlari va bug'doyzorlar ulushi



1 gektar yerdan olinadigan daromad (2022-yil narxlarida)



Ko'p yillik dov-daraxtlar maydoni



Hosildorlik



2022-yilda 1 gektar yerdan olingan daromad (AQSh dollari hisobida)

Respublika bo'yicha o'rtacha daromad
4 205,4
AQSh dollari

2030-yilgacha
5 000 AQSh dollariga
yetkazish maqsad qilingan



2017-2023 yillarda meva-sabzavotlar eksporti dinamikasi



Tahlil natijalari 2017-2023 yillarda meva-sabzavotlar eksporti qiymati 1,8 barobar oshganligini ko'rsatdi, ya'ni 2017-yilda eksport hajmi 645,6 million AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 1180,8 million AQSh dollarini tashkil qilgan.

Ayniqsa, dukkakli sabzavotlar (231,5 million AQSh dollariga o'sish), o'rik, gilos, olcha, shaftoli, olxo'ri (58,3 million AQSh dollariga o'sish), piyoz va sarimsoq (54,6 million AQSh dollariga o'sish), quritilgan mevalar (42,7 million AQSh dollariga o'sish), qovun va tarvuz (36,7 million AQSh dollariga o'sish) eksporti juda tez sur'atlar bilan o'sgan.

2023-yilda meva-sabzavotlar eksporti tarkibida dastlabki 3 ta o'rinni mosh (10,2 foiz), uzum (7,3 foiz) va mayiz (5,8 foiz) egalladi.

2023-yilda eksport bozorlari beshtaligiga Rossiya (437,4 million AQSh dollari),

Pokiston (197,6 million AQSh dollari), Xitoy (144,9 million AQSh dollari), Qozog'iston (121,2 million AQSh dollari) va Qirg'iziston (71,2 million AQSh dollari) kirdi.


Qishloq xo'jaligi sohasi oldiga ulkan maqsadlar qo'yilgan:

- 2024-yil oxirigacha qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini 3,5 milliard AQSh dollariga yetkazish;
- "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq – qishloq xo'jaligi sohasida eksport hajmini 10 milliard AQSh dollariga yetkazish.


Bunday maqsadlarga erishish nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish va sifatli meva-sabzavot turlarini ko'paytirish, balki xalqaro aloqalarni mustahkamlash, agrar sohaga ilg'or texnologiyalarni joriy etish, eksport uchun sharoitlarni yaxshilashni ham talab etadi.

2017 – 2023 - YILLARDA O'ZBEKISTONNING MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

● Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti, (mln. AQSh dollari)



● Eksporti tez sur'atlar bilan o'sayotgan tovarlar beshtaligi*



● Asosiy eksport bozorlari beshtaligi



● 2023 - yilda eng ko'p eksport qilinadigan tovarlar*



2017 → 2023

\$113.8 mln	Rossiya	\$437.4 mln
\$4.4 mln	Pokiston	\$197.6 mln
\$17.4 mln	Xitoy	\$144.9 mln
\$315.1 mln	Qozog'iston	\$121.2 mln
\$29.3 mln	Qirg'iziston	\$71.2 mln

Manba: Statistika agentligi va UN COMTRADE ma'lumotlari

*qiymat ifodasidan



Ko'rib chiqilayotgan davrda qishloq xo'jaligida bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi va ular soha rivojiga yangi bir turtki berdi.

2020-2030 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasining tasdiqlanishi, klaster tizimining joriy etilishi, savdoning erkinlashtirilishi va eksportning rag'batlantirilishi, qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarning ijaraga (ikkilamchi ijaraga) berilishi, suv tejavchi texnologiyalar qo'llanilganda subsidiyalarning taqdim etilishi, AKIS agroxizmatlar markazining ochilishi va boshqalar shular jumlasidandir.

Yaratilgan imkoniyatlar mamlakatda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, paxta hosildorligi 2017-yildagi 23,8 sentnerdan (gektariga), 2023-yilda 36,0 sentnerga, yoki 1,5 baravarga, bug'doy hosildorligi 42,2 sentnerdan 47,8 sentnerga yoki 13,3 foizga oshdi.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotida qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi bosqichma-bosqich oshib bormoqda. Agar 2017-yilda ularning ulushi atigi 2,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich 7,1 foizga yetdi.

Savdoni erkinlashtirish va eksportni rag'batlantirish bilan bog'liq qonunchilikdagi o'zgartirishlar 2017-2023 yillarda meva-sabzavotlar eksportini 1,8 barabarga, ya'ni 645,6 million AQSh dollaridan 1 180,8 million AQSh dollarigacha oshirish imkonini berdi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida paxta hosildorligini gektariga 45-50 sentnerga, g'alla hosildorligini 80-85 sentnerga yetkazish vazifasi qo'yilgan.

Strategiyada fermer va dehqon xo'jaliklarini yanada qo'llab-quvvatlashga ham katta ahamiyat berilgan. Xususan, dehqon va fermerlarga sug'urta mukofotining 50 foizini subsidiyalash tizimini joriy etish, barcha subsidiyalarni "bir qadam" tamoyili asosida "Agrosubsidiya" yagona platformasi orqali taqdim etish rejalashtirilgan.

2017-2023 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR



O'zbekiston Respublikasida Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash



Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga (ikkilamchi ijaraga) berish imkoniyati



2017-yilda birinchi marta klaster tizimi joriy etildi



Qishloq xo'jaligi xizmatlarini ko'rsatuvchi AKIS markazlarining ochilishi (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi)



G'alla yetishtirish va sotishga nisbatan bozor tamoyilini tatbiq etishga qaratilgan ishlar davom ettirildi



Paxta xomashyosiga xarid narxlarini belgilash amaliyotini bekor qilish



Paxta hosildorligi

2017-yil	23,8	2023-yil	36,0
s/ga		s/ga	

1,5 barobar



Bug'doy hosildorligi

2017-yil	42,2	2023-yil	47,8
s/ga		s/ga	

+13,3%



Meva va sabzavotlar eksporti

2017-yil	645,6	2023-yil	1180,8
mln. AQSh dollari		mln. AQSh dollari	

1,8 barobar



Qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning tarkibi

	2017-yil	2023-yil
Fermer xo'jaliklari	29,3%	29,8%

Dehqon va tomonqa xo'jaliklari	68,4%	63,1%
--------------------------------	-------	-------

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,3%	7,1%
--	------	------

Mehnat unumdorligi (2022-yil narxlarida)

2017-yil	49,8	2022-yil	60,9
mln. som		mln. som	

+22,3%



Tomorqa outsorsingi - bu tomorqadan foydalanishda ishlab chiqarishning bir qismini boshqa ixtisoslashgan tashkilotga berish orqali sifatga erishish bo'lib, bunday tizim rivojlangan mamlakatlarda yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Germaniyada qariyb 500 mingta kichik tomorqa (Kleingarten) mavjud bo'lib, ularga ko'rsatiladigan outsorsing xizmati hajmi 15 milliard yevroni tashkil qiladi. Outsorsing xizmati an'anaviy bog'lar va sabzavotchilik yo'nalishida ommalashib bormoqda.

National Allotment Society London Branch – **Angliyada**gi yirik tomorqa xo'jaliklari uyushmasining filiali, asosan tabiiy xilmaxillikni asrashga xizmat qiladi. Ushbu uyushma Londondagi 740 dan ortiq kichik yer egalari hamda 40 mingta alohida tomorqaga xizmat ko'rsatadi.

O'zbekistonda 4,9 millionta tomorqa xo'jaligida 741,2 ming gektar yer resursi mavjud bo'lib, buning 402,1 ming gektari bevosita hovlida joylashgan. Bu tomorqa yerlarida yalpi dehqonchilik mahsulotlarining 37,9 foizi, yalpi chorvachilik mahsulotlarining 88,4 foizi yetishtiriladi. Tomorqa xo'jaliklarining 766,8 mingtasi (15,4 foiz) shaharlarda joylashgan bo'lib, ularning tasarrufida 48 ming gektar (6,5 foiz) yer resursi bor.

MHTI ekspertlari aholi tomorqa yerlaridan samarali foydalanish uchun qay darajada ko'mak va maslahat shaklidagi xizmatlar ko'rsatilayotganini o'rganish maqsadida so'rov o'tkazdi va unda Buxoro, Jizzax, Sirdaryo viloyatlaridagi 239 nafar tomorqa egasi ishtirok etdi.

So'rov natijalari quyidagicha bo'ldi:

- 1.** Tomorqadan qancha daromad olasiz, degan savolga respondentlarning 33,4 foizi 3-4 mln. so'mgacha, 16,4 foizi 5-7 mln. so'mgacha, 16,5 foizi 8-10 mln. so'mgacha, 24,1 foizi 15-25 mln. so'mgacha, deb javob bergan.
- 2.** Tomorqa xizmatini ko'rsatish (yer haydash, ekin ekish, mevali daraxt ekish, chorva boqish) uchun pul to'lay olasizmi, degan savolga respondentlarning 63,2 foizi ha, 27,1 foizi yo'q, 9,7 foizi tomorqadan sherikchilik asosida hosil olmoqchiman, deb javob bergan.
- 3.** Tomorqa xizmatini ko'rsatish uchun qancha pul to'lay olasiz, degan savolga respondentlarning 48,1 foizi 200 ming so'mgacha, 11,8 foizi 300 ming so'mgacha, 6,8 foizi 500 ming so'mgacha, 13,9 foizi 1 mln. so'mgacha, deb javob bergan. So'rovda qatnashganlarning 11,3 foizi olingan hosilning bir qismini berish orqali outsorsing xizmatidan foydalanishi mumkinligini bildirgan. ■



Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida tijorat banklari tomonidan an'anaviy kreditlashdan tashqari bir qancha muqobil moliyalashtirish manbalari ham mavjud.

Kooperativ banklar ko'pincha qishloq aholisiga yaqinroq bo'lib, nisbatan yaxshiroq shartlarni taqdim etadi (past foiz stavkalari, garovga qo'yiladigan talablarni kamaytirish).

Shunday qilib, **Sloveniyada** dastlab kooperativ banklarning rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan Sloveniya Yer banki (Deželna Banka Slovenije) qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan eng yirik moliya instituti hisoblanadi.

Kredit uyushmalari fermerlarga tijorat banklari ma'qullashdan unchalik manfaatdor bo'lmagan kichik kreditlar beradi. Uyushmalari moslashuvchanlik va mijozlarga individual yondashuv bilan ajralib turadi.

Ruminiyada kredit uyushmalari kichik fermerlar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jami 3 millionga yaqin a'zo bo'lgan 3 mingga yaqin kredit uyushmalari mavjud.

Ruminiya va Bolgariyada mikrokredit tashkilotlari kichikroq fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatadi. Ular mikrokreditlar qisqa muddatga beradi (aylanma mablag'lar, investitsiyalar). Shu bilan birga, ular qishloq joylarda keng filiallar tarmog'iga ega bo'lib, kreditlashning soddalashtirilgan tartiblariga ega.

Ipoteka assotsiatsiyalari va pensiya jamg'armalari ham qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bunga Shvetsiya va Daniya misol bo'la oladi.





So'nggi yillarda dunyo hamjamiyatini qurg'ochilik, suv tanqisligi, tuproq degradatsiyasi va cho'llanish kabi muammolar tashvishga solmoqda. Iqlim o'zgarishi oqibatida 2050-yilga borib, Tyan-Shan va Pomir tog' tizmalaridagi jami muzliklarning 30-50 foizgacha bo'lgan qismi erib ketishi hamda Markaziy Osiyo mamlakatlarida suvga bo'lgan talab 50 foizgacha oshishi kutilmoqda. Buning oqibatida O'zbekistonda suv tanqisligi o'rtacha 15-25 foizga, cho'llanish darajasi esa 123 mln. kvadrat metrga yetishi mumkin.

Suv taqchilligining ortishi uni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy qilish zarurligini anglatadi. Germaniya, Yaponiya, Xitoy kabi mamlakatlarda o'simliklarni parvarish qilishda turli xil noan'anaviy suv tejoychi texnologiyalar joriy etilmoqda.

Misol uchun, **Yaponiyada** havo haroratiga qarab shaklini o'zgartiruvchi gidrogel yaratilgan. U egiluvchan bo'lib, suvni o'ziga shimib olganda kengayadi va namlikni o'simlik tomiriga beradi. So'ngra oldingi holatiga qaytadi va yana namlikni yig'a boshlaydi. Shu bois u cho'l-dasht hududlaridagi o'simliklarni sug'orishda juda qo'l keladi.

Xitoyda cho'l hududidan o'tuvchi 450 km magistral yo'l bo'yida gidrogel yordamida ihotalangan daraxtzor va yashil qoplam barpo etilgan.

Gidrogel qishda yomg'ir, qor suvlarida namlikni yoki yozda sug'orishdagi suvni o'ziga shimib, uzoq vaqt saqlaydi hamda o'simliklar ildiziga nam berib turadi. U o'z og'irligidan 400-500 marotaba ko'p yomg'ir suvini, 200-400 marotaba ko'p tuproq namligini yuta oladi.

Bir gektar maydonga 35-50 kg gidrogel sarflanishi hisobiga taxminan 120-140 kub metr suv tejashga erishiladi. Tuvakda o'stiriladigan o'simliklar uchun 50-80 foiz, qishloq xo'jaligi ekinlari uchun 20-40 foiz suvni tejash imkoniyati yaratiladi. Dala sharoitidagi gidrogel o'z xususiyatini 2-3 yil davomida yo'qotmaydi. Eskirgan gidrogel qoldiqlari esa tuproq tarkibini buzmaydi va o'simliklar tomonidan azotli o'g'it sifatida o'zlashtiriladi.

Gidrogel texnologiyasining iqtisodiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- gidrogel texnologiyasini ommaviylashtirish natijasida sug'orilmaydigan juda ko'p yer resurslarini iqtisodiy faoliyatga kiritishda;
- respublikamizning suv tanqis hududlari, tog' va tog'oldi, lalmikor hamda dasht yerlarida, (bodom, pista, yong'oq), Orolbo'yi va cho'l hududlarida (saksovul, yulg'in va hokoza), magistral yo'l bo'ylarida ihota daraxtzorlar barpo etishda;
- shaharsozlikni rivojlantirish, "Yashil makon", "Yangi O'zbekiston" massivlarini barpo etish va ko'kalamzorlashtirishda (gazon, gul, manzarali daraxtlar), landshaft va dizaynda, istirohat bog'larida;
- cho'l hududlarida chang-to'zonning oldini oluvchi "Yashil qoplam" va ihotazorlar barpo qilish orqali ekologik holatni yaxshilashda. ■



1992-yilda Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha Rio deklaratsiyasi qabul qilinishi bilan ishlab chiqarishni intensivlashtirish va tabiiy holatni saqlab qolish o'rtasida muvozanatni ta'minlashga e'tibor kuchaydi. Resurslarni baholashda hisobga olish zarur bo'lgan tabiiy omillar va indikatorlar doirasi kengaydi.

Yerni baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirishdagi eng faol davr o'tgan asrning 60-70 yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda AQShda yerni baholashning uchta toifaga ega yer unumdorligi tasnifi qo'llanilgan: yer unumdorligi sinflari, kichik sinflar va birliklar.

XX asrning 70-yillarida BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan tavsiya etilgan usulga ko'ra, har bir baholash ko'rsatkichi ma'lum ball (reyting) oladi va umumiy ballar sonining o'rtacha arifmetik qiymati sifatida hisoblanadi (LUI -yerdan foydalanish intensivligi indeksi).

Tuproq bonitirovkasi uchastkaning turli xil sifat ko'rsatkichlarini 100 balli shkala bo'yicha mos yozuvlar bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi yerlarini baholash - bu yerning bozor narxini yoki ma'lum yer uchastkasini ijaraga berishning bozor qiymatini hisoblashdan iborat.

Qishloq xo'jaligi yerlarini baholashda agroiqlim sharoitlarini ham hisobga olish zarur. Jumladan, mamlakatimizda vegetatsiya davrining uzoq va qisqaligiga qarab, janubiy hududlarda bir mavsumda uch marta, shimoliy hududlarda esa bir marta ekin ekiladi. Shu sababli, baholashda yillik yog'ingarchilik miqdori hamda o'rtacha yillik havo harorati (O'zgidromet ma'lumotlari) ko'rsatkichlaridan foydalanish mumkin.

Bugungi kunda qishloq yerlarining normativ qiymati Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-avgustdagi 235-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$Npsk = Nu \times Srk$, bunda:

$Npsk$ — 1 ga qishloq xo'jaligi ekinlarining normativ unumdorligi, ming so'm;

Nu — qishloq xo'jaligi ekinlarining normativ hosildorligi, ts/ga;

Srk — dehqon bozorlarida sotiladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tegishli turiga o'rtacha yillik narx, ming so'm/ts, paxta xomashyosi va boshqoqli don ekinlarining xarid narxi ming so'm/ts;

Ushbu nizomda normativ qiymatni hisoblash, aniqlashda ayrim ma'lumotlar manbasining yo'qligi va jarayonning murakkabligi bir konturda joylashgan, bir xil bonitet bali va suv ta'minotiga ega bo'lgan, bir xil turdagi mahsulot yetishtiruvchi tadbirkorlik subyektlariga tegishli yerlarning normativ qiymati har xil bo'lishiga olib kelmoqda.

Zamonaviy iqtisodiyotda yer iqtisodiy baholashning eng qiyin obyektlaridan biri bo'lib, bu quyidagi sabablarga bog'liq:

- qishloq xo'jaligi yerlarining o'ziga xos xususiyatlari;
- normativ-huquqiy bazaning rivojlanmaganligi.

O'zbekistondagi baholash amaliyoti shuni ko'rsatadiki, yer uchun obyektiv bozor bahosining shakllanmaganligi yerdan samarasiz foydalanilishiga olib kelmoqda.

Qishloq xo'jaligi yerlarini baholashda, ya'ni normativ qiymatini hisoblashda quyidagilarni e'tiborga olish va amaliyotida qo'llash tavsiya etiladi:

- tuproq unumdorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning yagona koeffitsiyentini (tuproq bonitet bali indeksi ko'rinishida 0,1 dan 1 gacha);

- hudud agroiqlim ko'rsatkichlarining jamlanma koeffitsiyentini (0,1 dan (qoniqarsiz) 1 gacha (qoniqarli));


- iste'mol bozoridan yaqin yoki uzoqligi va infratuzilma ko'rsatkichlarining jamlanma koeffitsiyentini;

- ekinni sug'orish uchun muhim bo'lgan suv bilan ta'minlanganlik darajasi ko'rsatkichini (0,1 dan 1 gacha);

- qishloq xo'jaligi yerlarini kompleks baholash tizimini yaratish uchun ma'lumotlar bazasini shakllantirishni.

O'zbekiston Respublikasining yer fondini baholash

(ming gektar)



Manba: Kadastr agentligi ma'lumotlari



2023-yilda dunyo gulkaram va brokkoli bozorining hajmi 1,8 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. So'nggi 5 yil ichida bozorning o'rtacha yillik o'sishi 7,9 foizni tashkil qildi.

Dunyoda ushbu mahsulotlarni eng ko'p import qiluvchi mamlakatlar bular: Buyuk Britaniya (2023-yilda dunyo importidagi ulushi 17,1 foiz), Kanada (14,2 foiz), Germaniya (8,6 foiz), AQSh (6,6 foiz) va Fransiya (4,8 foiz).

Gulkaram va brokkoli yangi meva va sabzavotlar segmentida O'zbekistonning eng tez o'sib borayotgan eksport mahsulotlaridan biri hisoblanadi.

Oxirgi 3 yilda O'zbekistondan gulkaram va brokkoli eksporti moddiy ko'rinishda 2,8 barobarga, qiymati bo'yicha esa 3,8 barobarga (4,6 million dollardan 17,6 million AQSh dollargacha) oshdi.

O'zbekistondan gulkaram va brokkoli asosan uchta davlat – Rossiya, Qozog'iston va Qirg'izistonga jo'natiladi. Ushbu mahsulotlarning umumiy eksporti hajmida mazkur uchta mamlakat ulushi 96 foizdan ortadi.

2023/2024-yilgi eksport mavsumi ma'lumotlarini tahlil qilish asosida shuni aytish mumkinki, BAA hozirgi eksport geografiasidagi eng daromadli bozor bo'lib, u yerda narx butun eksport o'rtacha narxidan 3 baravar yuqori, ammo yetkazib berish umumiy eksportning atigi 1,3 foizini tashkil qilgan.

Ushbu mahsulotlarni O'zbekistondan eksport qilishni ko'paytirishning istiqbolli yo'nalishlari qatorida Vyetnam, Mo'g'uliston bor. So'nggi 5 yil ichida Mo'g'uliston gulkaram va brokkoli importini qiymat jihatidan 14 barobar, Vyetnam 13,9 barobarga oshirdi.





2023-yilda qurilish ishlarining rivojlanishi qurilish ishlari faolligi indeksidan foydalanilgan holda qiyosiy tahlil qilindi

 o'qish vaqti
55 soniya

2023-yil yakunlariga ko'ra, umumiy hajmi 149,9 trln. so'mga teng bo'lgan qurilish ishlari bajarildi va 2022-yildagiga nisbatan yuqori o'sish sur'ati (106,4%) ta'minlandi.

Indeksdan foydalanilgan holda qurilish ishlarining joriy rivojlanish darajasi tahlil qilindi va hududlar reytingi ishlab chiqildi.

Ma'lumot uchun: Qurilish ishlari faolligi indeksi ma'lum bir vaqt oralig'ida ma'lum bir hududlarda qurilish ishlari bajarilishi hajmining o'zgarishini aks ettiradi.

Tahlil natijalari Farg'ona (111,6 foiz), Samarqand (108,9 foiz), Sirdaryo (107,9 foiz), Buxoro (107,5 foiz), Navoiy (107,5 foiz), Jizzax (107,2 foiz), Namangan (107,1 foiz) va Qashqadaryo (107,0 foiz) viloyatlarida qurilish ishlari faolligi indeksi yuqori ekanligini ko'rsatdi. Qurilish ishlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, mazkur hududlarga reytingda yetakchi o'rinlarni egallash imkonini berdi.

O'tgan yilda mamlakatning boshqa hududlari ham qurilish sohasida ijobiy natijalarga erishdi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida yirik tashkilotlarning ulushi 25,3 foizni, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushu 55,2 foizni, norasmiy sektorning ulushi 19,5 foizni tashkil etdi.

2023-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibiy jihatdan qurilish ishlarining 70,1 foizini bino va inshootlar qurilishi, 20,6 foizini fuqaro obyektlari qurilishi, 9,3 foizini ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tashkil etdi.

Soha salohiyatining sezilarli darajada ortishi, tegishli tashkiliy-texnik tadbirlarning tizimli tarzda bajarilishi 2024-yilda mamlakatning barcha hududlarida qurilish ishlari dinamikasining ijobiy ko'rsatkichlarini ta'minlash uchun zarur shart-sharoit yaratadi. ■

hlarilish

2023-yilda qurilish ishlari faolligi indeksi bo'yicha hududlar reytingi

Qurilish ishlari faolligi indeksi yuqori bo'lgan hududlar

Hududlar reytingidagi o'rn


Qurilish ishlari faolligi indeksi (%)



Qurilish ishlari faolligi indeksi o'rtacha bo'lgan hududlar



Bajarilgan qurilish ishlari hajmi (trln.so'm)



Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari



Aholi turar joylarini optimal tashkil etish shaharda yashash qulayligini ta'minlashning muhim omili sanaladi. Fuqarolarning ish joyiga yetib olishi va uyga qaytishi uchun qulayliklar, bo'sh vaqtlarida dam olish va hordiq chiqarish imkoniyatlari shaharlarning jozibadorligini oshiradi.

XX asrning o'rtalaridan sobiq Ittifoq shaharlarida yirik korxonalar va sanoat infratuzilmalari markazga yaqinroq, turar-joylar esa chekka hududlarga joylashtirila boshlandi. Bu tadbir orqali barcha ishchilarga dam olish va shaxsiy rivojlanish uchun teng sharoitlar yaratish maqsad qilingan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan yuzaga kelgan vaziyat o'ylanganidek bo'lib chiqmadi. Odamlar faqat uxlash uchun boradigan turar-joylar "yotoq tumanlar" deb atala boshladi. Yil sayin shaharlar yanada kengayib, aholining shahar markaziga borishdagi qiyinchiliklari ortib bordi.

Toshkent shahri hududlarida ham "yotoq tuman" unsurlari saqlanib qolgan. Buni shaharning Uchtepa tumani misolida ko'rish mumkin.

Rasmiy statistikaga ko'ra, Uchtepa tumani shahar hududlari orasida aholi soni bo'yicha 5-o'rinda bo'lsa, aholi zichligi bo'yicha 4-o'rinda turadi. Agar tumanning yirik bozorlarga yaqinligi hamda ijara narxlarining nisbatan arzonligi sababli mamlakatning boshqa hududlaridan ishlash maqsadida kelib yashovchi aholining ushbu tumanda istiqomat qilishga rag'batini inobatga olinsa, bu ko'rsatkichlar yanada yuqorilashi mumkin.

Ma'lumot uchun, 2022-yil boshida hokim yordamchilari tomonidan o'tkazilgan xatlov natijalariga ko'ra, aholi eng ko'p ijarada turuvchi xonadonlar Chilonzor (3133 ta xonadon), Mirzo Ulug'bek (2568 ta) va Uchtepa (1894 ta) tumanlarida joylashgan. Ijaraga berilgan xonadonlar tumanda joylashgan xonadonlarga nisbatan Chilonzorda 4,2%, Mirzo Ulug'bekda 2,8% va Uchtepada 3,1% ni tashkil etadi. Shahar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 2,1%.

Uchtepa tumani davlat korxonalari soni (716 ta) bo'yicha shahar tumanlari orasida so'nggi o'rinlarda, nisbatan yangi tashkil etilgan Sergeli, Bektemir va Yangihayot tumanlaridan oldingi o'rindan joy oladi. Shuningdek tumanda 8431 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, bu ko'rsatkich bo'yicha ham yuqorida sanab o'tilgan 3 ta tuman ko'rsatkichlaridan yuqori o'rinda xolos. Ayni holatni oilaviy va ko'p tarmoqli poliklinikalar, nodavlat jamoat birlashmalari misolida ham kuzatish mumkin.

2018-2023 yillardagi Toshkent shahri binolarining yoshi xaritasiga qaralsa, "yotoq tuman"lar amaliyoti qisman takrorlanayotganini ko'rish mumkin. Asosiy uy-joylar shaharni kengaytirish hisobiga Sergeli va Yangihayot tumanlarida barpo etilgan. Metropolitenning Chilonzor liniyasining uzaytirilishi bu tumanlar jozibadorligini oshirishga xizmat qildi. Biroq bu hududlarda ish o'rinlarining nisbatan kamligi aholining markazga harakatini kuchaytiradi.

Shaharlarni rejalashtirishda sayohat tezligiga emas, ommaboplikka e'tibor qaratish aholining barcha ehtiyojlarini o'zlari yashaydigan hududda qondirishini nazarda tutadi. Natijada qaysidir xizmatdan foydalanish yoki ishlash uchun uzoqroqqa borishga to'g'ri kelmaydi va vaqt o'tishi bilan transport sohasiga investitsiyalarga talab kamayib boradi. Xizmatlarning yaqin atrofda joylashishi aholini piyoda yoki velosipedda harakatlanishga rag'batlantiradi, piyodalar va velosipedchilar uchun infratuzilmani ta'minlash esa ancha arzonroq tushadi.

Shaharlarda mavjud muammolarga kompleks yondashish, islohotlarni uzoq muddatni ko'zlab, reja asosida tizimli amalga oshirish kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning ham oldini oladi. Shunday ekan, hududlarda aholi uchun teng imkoniyatlar yaratish, ish joylari va xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish hozirda Toshkent shahrida kuzatilayotgan tirbandlik, ekologiya kabi qator muammolarga yechim bo'lishi mumkin. ■



Tadqiqotda O'zbekiston shaharlari bo'yicha 2017-2023 yillarga oid panel ma'lumotlarga asoslangan ko'rsatkichlar tadbirkorlik rivojiga qanday ta'sir qilishi aniqlandi. Tadqiqot obyekti sifatida respublika va viloyat bo'ysunuvidagi o'rtacha va undan yirik shaharlar guruhiga kiruvchi 25 ta shahar tanlab olindi.

A.Smit: "Mehnat taqsimoti bozor ko'lami bilan chegaralangan".

E.Gleyzer: "Ya'ni, tadbirkorlikning ma'lum bir turlari borki, ular faqat katta jamoalar va transport imkoniyatlariga ega joylardagina ahamiyat kasb etishi mumkin".

2024-yil boshidagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda urbanizatsiya darajasi 51 foizni tashkil etadi va 18,7 mln. dan ortiq fuqaro shaharlarda yashaydi. Mavjud kichik biznes subyektlarining 44,2 foizi, 5 yildan ortiq ish tajribasiga ega tadbirkorlik subyektlarining yarmidan ortig'i (50,2 foiz) respublika va viloyat bo'ysunuvidagi 32 ta shaharda faoliyat olib bormoqda.

Asosiy natijalar.

1. Shaharlardagi aholi nufusi tadbirkorlikning rivojlanish bosqichini belgilagan holda xizmatlar va sanoat tarmog'ining o'sishiga rag'bat yaratadi. 2017-2023 yillarda mamlakatda shahar aholisining har 1000 nafarga ortishi faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining o'rta hisobda 35 taga, yillik xizmatlar hajmining 24,1 mlrd. so'mga, yillik yalpi sanoat mahsulotlari hajmining esa 74,2 mlrd. so'mgacha ortishiga olib kelgan.

2. Infratuzilma ta'minoti, xususan oliy ta'lim muassasalari (OTM) ning mavjudligi shaharlarda biznes va xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shaharlarda bitta OTM bor bo'lsa, bu yiliga o'rta hisobda 300 ta kichik biznes subyektlarining tashkil etilishiga, yillik xizmatlar hajmining 270 mlrd. so'mdan 350 mlrd. so'mgacha oshishiga zamin yaratdi.

Shuningdek, shaharlarda suv ta'minoti darajasining 1 foizga oshishi yillik xizmatlar hajmining 20 mlrd. so'mgacha, tabiiy gaz

ta'minoti darajasining 1 foizga oshishi esa faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari sonining 14 tadan 42 tagacha ortishiga olib kelgan.

3. Uy-joy maydonlari tadbirkorlik tashabbuslarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Shaharlar miqyosida uy-joy fondining 1000 kv.m. ga ko'p bo'lishi yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining o'rtacha 2,5 taga, faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari sonining 1,2 taga ortishini ta'minlaydi.

Xalqaro tajriba.

Shahar aglomeratsiyalari yirik bozorlarni yuzaga keltiradi va "Marshall-Arrow-Romer externalities"ga ko'ra, shaharlardagi bozor o'lchamining yirikligi tadbirkorlik rivojini belgilaydi.

K.Kopchevska va boshqalar Polshaning Mazoviya hududi bo'yicha olib borgan tadqiqotida aholi zichligining ikki baravar oshishi natijasida mahalliy biznes aglomeratsiyasi o'rtacha 76 foizga ortishini aniqlangan.

A.Valero va J.Van Rinen tomonidan dunyoning 78 ta mamlakati bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijasiga ko'ra, 1950-2010 yillarda universitetlar sonining 10 foizga o'sishi, uzoq muddatda natija berishi inobatga olinganda kelasi 5 yilda aholi jon boshiga YaHM hajmini 0,45 foizga oshirgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, hududlarda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay biznes ekotizimini yaratish, shahar o'lchamidan kelib chiqib, ishbilarmonlik faoliyatini samarali qo'llab-quvvatlash va vertikal o'sish tamoyillari orqali urbanizatsiya jarayoni jadalligini yanada oshirishi mumkin.

Qayd etish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi "Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish va bo'sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-245-sonli qarorida 2024-2025 yillarda aholi va tadbirkorlik subyektlarining takliflari asosida 70 ga yaqin tuman/shaharning master-rejasini ishlab chiqish vazifasi belgilangan. ■



«O'zbekiston - 2030» Strategiyasida 2030-yilga borib urbanizatsiya darajasini 51% dan 60% ga yetkazish, Samarqand va Namangan shaharlarini "millionlik shaharlar"ga aylantirish, 300 mingdan ko'p bo'lgan shahar va tumanlar sonini 28 taga yetkazish, hamda barcha aholi punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqish maqsadlari belgilangan.

Tadqiqotda foydalanilgan tasodifiy ta'sir (random effect) modeli natijalariga ko'ra, O'zbekistonda urbanizatsiya darajasining ortishiga aholi daromadlarining oshishi, oliy ma'lumotli kadrlarning ko'payishi va uy-joylar qurilishi ahamiyatli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi 10 yillikda O'zbekistonda shahar va qishloq aholisi soni 20,7% ga – teng sur'atda o'sgan. Bu davrda mamlakatda urbanizatsiya darajasi 50-51% orasida saqlanib, Toshkent shahri inobatga olinmasa, hududlar bo'yicha umumiy ko'rsatkich 46-47% orasida o'zgarib turgan.

Toshkent shahrining jozibadorligi tufayli mehnatga layoqatli aholining shaharga harakati ortib bormoqda. Jumladan, Toshkent doimiy aholisi tarkibida mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholining ulushi 64% ni tashkil etsa, hududlarda bu ko'rsatkich 54% dan oshmaydi.

Tadqiqot xulosalariga tayanib aytish mumkinki, yuqori daromadli ish o'rinlari yaratish, malakali kadrlar tayyorlash darajasini oshirish, ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish orqali yashash sharoitlarini yaxshilash urbanizatsiya darajasini oshirishga xizmat qiladi.



Aholi uchun turli investitsiya vositalari, jumladan, aksiyalar, obligatsiyalar yoki pensiya fondlari kabi imkoniyatlarning cheklanganligi sharoitida rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa uy-joy narxlari oshib borayotgan bir paytda jamg'armalarni uy-joyga investitsiyalarga yo'naltirish tendensiyasi kuzatiladi.

Toshkent shahrida uy-joyga investitsiyalar daromadlilik tushib bormoqda. Xususan, joriy yil fevralda poytaxtda ko'p qavatli uy-joyga investitsiyalarning daromadlilik o'rtacha 32,4%ni tashkil qilgan bo'lsa, oktyabrda ushbu ko'rsatkich 12,2%gacha tushdi. Ushbu ko'rsatkich uy-joy joylashgan hudud va xonalar sonidan kelib chiqib, bir biridan sezilarli darajada farqlanadi:

1 xonali: Mirzo Ulug'bek – 2,3% (fevralda – 25,7%), Shayxontohur – 17% (50%);

2 xonali: Sergeli – 7,4% (19,4%), Shayxontohur – 17,2% (59%);

3 xonali: Bektemir – 3,2% (33,7%), Yunusobod – 13,7% (48,7%);

4 xonali: Bektemir – 2% (37,9%), Yunusobod – 17% (39,8%).

Izoh: Uy-joyning investitsion daromadlilik uy-joy narxlari yillik o'zgarishidan olinadigan daromad hamda ularni ijaraga berishdan keladigan yillik daromad yig'indisi asosida hisoblandi.

Uy-joy narxlari o'zgarishidan olinadigan daromad. 2024-yil fevralda poytaxtda uy-joy va ijara narxlari nisbatan yuqori bo'lgan hudud – Shayxontohur tumanida uy-joy narxlari ko'tarilishi hisobiga ko'rilishi mumkin bo'lgan foyda o'rtacha 35,8%ni tashkil etgan bo'lsa, oktyabr oyida ushbu ko'rsatkich 5,5%gacha tushdi. Shuningdek, oktyabrda uy-joy narxlari o'zgarishidan olinadigan o'rtacha daromad Mirobod (23,2%dan 1,9%ga) va Yakkasaroy (16,1%dan 3,5%ga) tumanlarida sezilarli darajada pasaygan.

Mirzo Ulug'bek va Uchtepa tumanlarida uy-joy narxlarining o'sishdan deyarli to'xtashi yoki biroz arzonlashishi natijasida oktyabr oyida mazkur hududlarda uy-joy narxlari o'zgarishidan olinadigan o'rtacha daromadlilik mos ravishda 2,6% va 2,4%ni tashkil etgan (fevral oyida 24,6% va 15%).


Uy-joylarni ijaraga berishdan olinadigan daromad. Joriy yil oktyabrda uy-joylar ijarasidan olinadigan yillik o'rtacha daromad Shayxontohur tumanida 10% (fevralda 11,6%), Mirobod tumanida 9,8% (10,4%), Yakkasaroy tumanida 9,5%ni (10,5%) tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich ijara narxlari nisbatan arzonroq bo'lgan tumanlar – Sergelida 9,3% (8,4%), Uchtepada 9,7% (8,6%), Chilonzorda 9,3% (9,3%) va Olmazorda 9,1%ni (9,4%) tashkil etgan. Ushbu raqamlar ijaradan keladigan o'rtacha daromad o'sishi sekinlashganidan dalolat beradi. Taqqoslash uchun 2023-yil yanvardan 2024-yil sentyabrgacha bo'lgan davrda jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi 21%ni tashkil etgan.

Daromadlilik darajasi bo'yicha 1 va 2 xonali xonadonlarning investitsion jozibadorligi yuqori hisoblanadi. Joriy yil fevral oyida 1 va 2 xonali xonadonlarga yo'naltirilgan investitsiyalar daromadlilik mos ravishda 35,6% va 30,8%ni tashkil etgan bo'lsa, oktyabr oyida ushbu ko'rsatkichlar 16,7% va 12,2%ga tushdi. Mazkur davrda 3 va 4 xonali xonadonlar uchun daromadlilik ko'rsatkichi sezilarli darajada tushgan (mos ravishda 10,1% (fevralda 33%) va 9,9% (30,3%)).

Rivojlanayotgan davlatlarda aholi jamg'armalarining uy-joyga yo'naltirilishi qisqa muddatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni oshirishi mumkin. Ammo, uzoq muddatda kapital bozorini rivojlantirish va aholi uchun diversifikatsiyalangan investitsiya imkoniyatlarini taqdim etish muhimdir. Shu yo'l bilan aholi jamg'armalari nafaqat saqlanishi, balki milliy iqtisodiyotning turli sohalariga investitsiya qilib, yanada kengroq rivojlanish imkonini beradi.

Tahlilda foydalanilgan ma'lumotlar olx.uz platformasidan veb-skreyeping (web-scraping) orqali olingan bo'lib, bunda ijara narxi uchun 740 mingga va sotuv narxi uchun 1,500 mingga yaqin ma'lumotlardan foydalanildi. ■

1 xonali



Ijara daromadi | Narx o'zgarishidan olinadigan daromad

